

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

M.T. IRISQULOV

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

IKKINCHI NASHRI

*5220100 – filologiya: xorijiy tillar; 5220600 – tarjima nazariyasi va
amaliyoti bo'yicha oliy ta'lim muassasalari filologiya fakultetlari
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etiladi*

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2009

Darslikda til va uning ijtimoiy hodisa sifatidagi o'rni, tilning barcha egallagan bilimlarimizning asosi ekanligi va u orqali tariximiz, o'tmishimiz haqida tasavvurga ega bo'lishimiz, xullas, uning barcha xususiyatlari, ahamiyati hamda boshqa jihatlar haqida so'z boradi. Kitob filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir:

G. H. BOQIYEVA, professor

Muharrir:

N. I. SHARIPOVA

Taqrizchilar:

R. ALIMARDONOV, dotsent

G'. SOTIMOV, dotsent

ISBN 978-9943-08-436-0

© M.T. Irisqulov. «Tilshunoslikka kirish». «Yangi asr avlodi», 2009-yil

KIRISH

Dunyoda rivojlanmaydigan narsaning o'zi yo'q, tilshunoslik ham bundan mustasno emas. Bir tomondan til ijtimoiy hodisa va tizim sifatida kundun-kunga o'zgarib takomillashib borsa, ikkinchi tomondan bu hodisani o'rganuvchi fan ham katta odimlar bilan ilgari ketmoqda. Respublikamiz tomonidan qo'lga kiritilgan mustaqillik globallashuv jarayonini nafaqat kuzatishimizga, balki yurtimiz fan va texnikasi bu jarayonning bevosita ishtirokchisi bo'lish baxtiga muyassar qildi. Bu holat kitob, darslik yozuvchi mutaxassislariga katta vazifalar yuklaydi. Birinchidan, yaratilayotgan adabiyotlar o'z ichiga dunyoga tanilgan, qadimdan dunyo fani taraqqiyotiga, shu jumladan, tilshunoslik fanining rivojlanish istiqboliga salmoqli hissa qo'shgan olimlarimizning fikrlarini keltirish bo'lsa, ikkinchidan, hozirgi kunda yashab ijod etayotgan olimlarimizni dunyo tilshunoslik faniga qo'shayotgan hissalarini o'quvchiga yetkazish hamda, uchinchidan xorijiy tilshunoslarning tilshunoslik faniga qo'shgan va qo'shayotgan hissalarini ham qog'ozga tushirib, Vatanimiz o'quvchi-yoshlariga mazkur fan yutuqlarini obyektiv ravishda yetkazishdir.

Tilshunoslik fanining obyeksi bo'lmish til naqadar murakkab va shu bilan birga qiymati yo'q bir hodisa ekanligini tushuntirib o'tirishga hojat bo'lmasa kerak. Chunki barcha bilimlarimizning asosida til yotadi. O'tmish, tariximizni til orqali, til tomonidan berilgan imkoniyat darajasida bilishimiz mumkin. Tilda o'z aksini topgan voqea-hodisalargina barcha sohalardagi bilimimizni belgilaydi. Istiqbolni ko'rish, u to'g'risida boshqalarni xabardor etish ham til deb ataluvchi hodisa orqali amalga oshiriladi. O'zligimizni anglash, ichki hissiyotlarimizni tushunish, ularni ifoda etish ham tilimizga, uning bizga bergan imkoniyatlariga bog'liq. Jamiyatni jamiyat, uning rivojini, gullab-yashnashini, taraqqiyotini, ta'minlovchi vosita bu – tildir.

Shunday bir o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan tilni tushunish, uning hamma tomonini hisobga olib ta'riflash masalasi ham o'z yechimini kutmoqda. Qator ko'zga ko'ringan olimlar, yo'nalishlar, maktablar bir necha asrdan beri bu muammo ustida talaygina ishlar qilishdi, lekin uning uzil-kesil yechimiga hamon erishilgani yo'q. Buning o'ziga xos bir nechta sabablari bor.

Inson borki, unga til mansub. Insonlarning gapirish uslubiga, nutqini tashkil etuvchi elementlarga qarab, bu insonga baho berish odat tusiga kirgan, chunki insonni nutqiga qarab biz uning kimligini, qaysi sohaga mansubligini, jamiyatning tabaqalanishida uning o'rnini payqaymiz. Uning jamiyatdagi mavqei, intellektual darajasini, ijtimoiy maqomini, bilim darajasini, qaysi kasb egasi ekanligini ayta olamiz.

Bir tomondan, til insoniyat tomonidan yaratilgan o'ta murakkab hodisa sifatida namoyon bo'lib, bir til ikkinchi boshqa bir tilga o'zining tuzilishi bilan o'xshamasa, bir narsa (fikir)ni ular har xil yo'llar (vositalar) bilan ifoda etsa, ikkinchi tomondan dunyodagi mavjud tillarning barchasi bir narsaga xizmat qiladi, u ham bo'lsa, insonlar orasida kommunikatsiya asosi, fikr almashish quroli sifatida namoyon bo'ladi. Til jamiyat a'zolari orasidagi aloqa vositasi va shu bilan birga jamiyatning mahsulidir. Til to'g'risida fikr yuritayotganimizda turli millat va elatlar tili o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar, tafovutlar qayd etilsa, bir millatga mansub bo'lgan bir tilda gaplashuvchi jamoa tomonidan o'zaro fikr almashish uchun ishlatiladigan yagona tildan foydalanishda ham nutqning ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishidagi umumiylik va farqlar to'g'risida gapirmay ilojimiz yo'q. Demak til, ham makonda, ham zamonda o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boruvchi o'ta murakkab bir hodisaki, uning to'g'risida gapirish, yozish muallifdan katta javobgarlikni talab qiladi.

Qo'lingizdagi dasturul-amal insonlar orasidagi aloqa vositasi bo'lmish til haqidagi ma'lumotni imkon darajasida soddalashtirilgan tarzda o'quvchiga yetkazishga qaratilgan bir urinishdir. Bu masalani biz qay darajada amalga oshira olganimizni baholash Siz, hurmatli o'quvchilarga va hamkasblarimizga havola.

I BOB

TILSHUNOSLIK FANINING O'RGANILISH SOHASI VA MAVZUSI

Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi – tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fandır.

Tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Ma'lumki, tafakkurga daxldor masalalar mantiq ilmining mavzusidir. Shu tufayli mantiqchilar tafakkur qonuniyatlari bilan birga, fikrning tilda aks etishini o'rganmasliklari mumkin emas. Undan tashqari, til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri – ikkinchisiz yashay olmaydigan hodisadir, tafakkur tilda yashaydi, har qanday nutq asosida esa tafakkur yotadi. Mantiq tilni ana shu yo'nalishda o'rganadi.

Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi tufayli til sotsiologlar tomonidan ham o'rganiladi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqea va hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. Shunga ko'ra, tarixchilar til tarixiga, tilshunoslar esa o'z navbatida tarix faniga murojaat qilmay ilojlari yo'q. Demak, tilshunoslar tilga oid masalalarni hal qilishda etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika va boshqa fanlarga oid materiallar va xulosalardan foydalanadilar.

Shunday qilib, til faqat tilshunoslik emas, balki boshqa fanlar uchun ham o'rganish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu sohadan har bir fan o'z mavzusini ajratib oladi. O'rganilish sohasini ajratib olish nuqtai nazaridan tilshunoslik ikki turga: *mikrolingvistika* (kichik tilshunoslik) va *makrolingvistika* (katta tilshunoslik)ga ajratiladi.

Mikrolingvistika – tilning faqat ichki, ya'ni fonetik, leksik va grammatik tuzilishini, *makrolingvistika* esa, tilni boshqa fanlar bilan qo'shilib o'rganadi.

Makrolingvistika – tilning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyot qonunlari, tilning ijtimoiy mohiyatini: uning tafakkur bilan munosabatini, til va boshqa signal sistemalari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni, tilning tarqalishi – idialekt (shaxsiy sheva), yangi til masalalari kabi muammolarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda til nima degan savolga olimlar turlicha javob beradilar. Xususan:

- «*Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir*» (*F.de Sossyur*).

- «*Til – odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo‘lgan mexanik harakatidir*».

- «*Til fikrni ifoda qilishga mo‘ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir*» (*B.Grosse*), degan fikrlar mavjud.

Bu fikrlarning birortasi, ular garchi bir-birini to‘ldirsa ham, tilning to‘liq ta‘rifi emas, chunki ular tilning ijtimoiy mohiyatini ochib berolmaydi.

Olimlar tilning kishilik jamiyatida tutgan o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatib, «*til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir*», deb ta‘riflaydilar. Til yakkeyu yagona aloqa vositasi emas. Aloqa boshqa vositalar orqali ham o‘rnatilishi mumkin. Masalan, Morze alfaviti, imo-ishoralar, Afrikada uzoq masofaga axborot berish uchun qo‘llaniladigan nog‘ora tovushlari, Kanar orollarida ishlatiladigan «Hushtak-tili» shular jumlasidandir. Lekin bular tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajali vositalardir. Til va boshqa aloqa vositalari orasida o‘xshashlik va farqlar mavjud. Bu vositalarni bir-biri bilan birlashtiradigan xususiyatlar quyidagilar:

- *fikr va hissiyotlarni ifodalaydi;*
- *ijtimoiy, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qiladi;*
- *moddiy (tovush to‘lqinlari, grafik chizmalar va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi);*
- *obyektiv borliqni aks ettiradi.*

Ular orasidagi farq esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo‘llaydi. Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko‘lami cheklangan, masalan, ko‘cha harakati belgilari asosan haydovchilarga xizmat qiladi, boshqa yerda ishlatilmaydi.

2. Til quruq axborotning o'ziningina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish-istagi va bahosi, ruhiy holotini aks ettiradi.

3. Tildan boshqa barcha signal sistemalari sun'iydir.¹ Ular odamlar omonidan yaratiladi va sharoitga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Sun'iy vositalarning yaratilishida odamlarning hammasi emas, balki mazkur odamni yaxshi biluvchi kichik bir guruh ishtirok etadi. Til esa odamlarning istak-xohishlariga bog'liq bo'lmaydi, uni jamiyat a'zolari o'z ixtiyorlari bilan o'zgartira olmaydi. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ehtiyojlarini to'la-to'kis bajaradi, garchand til o'zgaruvchan hodisa bo'lsa-da, u faqat o'zining ichki obyektiv qonunlari asosida rivojlanadi. Shu bilan birga shuni ham qayd qilish kerakki, jamiyat bo'lmasa, til bo'lmaydi; jamiyat tilni kundalik hayotida qo'llamasa, u (til) rivojlanmaydi. Demak, til va jamiyat doimo bir-birini taqozo etadi. Boshqa signal tizimlari tilga nisbatan ikkilamchi, unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, tilni to'ldiradi.

Shunday qilib, til o'ziga xos semiologik sistema (ya'ni, ishoralar sistemasi) bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan-avlodga madaniy-tarixiy meros va an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi.

Til – ijtimoiy hodisa

Tilning paydo bo'lishi va uning taraqqiyot yo'lini o'rganish tilning qanday hodisa ekanligini tasavvur qilish imkonini beradi.

Tilshunoslik tarixida qadimdan qarama-qarshi ikki fikr o'rtasida kurash boradi. Quyida shular to'g'risida fikr yuritamiz.

Shulardan biri XIX asrda Germaniyada Avgust Shleyxer omonidan asos solingan tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi fikrdir. Shleyxer u yoki bu hodisaning tabiiy yoki ijtimoiyligini xalqning irodasi yoki bu hodisaga ta'sir ko'rsata olish-olmasligi nuqtai nazaridan baholaydi. Uning fikricha, tilning rivojlanishi xalq istagiga bog'liq bo'lmaydi, u o'z qonunlari asosida rivojlanadi, demak, til tabiiy

¹ Hayvonot dunyosi va, shu jumladan, parrandalar «tili» bundan mustasnodir.

hodisalar qatoridan o‘rin olishi kerak. Bundan til dunyodagi boshqa tabiiy hodisalar singari o‘z-o‘zicha paydo bo‘ladi, rivojlanadi, kezi kelganda, yo‘q bo‘ladi, o‘ladi degan ma’no kelib chiqadi. Til kishining tabiiy xususiyatlari (masalan, yurish, nafas olish, ovqatlanish va boshqalar)ga xos narsadir. Olma daraxti ma’lum vaqt o‘tishi bilan olma hosili berganidek, odam bolasi ma’lum yoshga yetganda gapira boshlashi kerak. Bunday fikrni ilgari surgan olimlarda ba’zi «dalillar» ham bor edi. Ular lotin, sankrit (qadimgi hind tili) kabi o‘lik tillarni misol qilib ko‘rsatishadi. Mazkur fikr tarafdorlari o‘z nazariyalarini asoslashda nemis faylasuf olimi Gegelning absolyut g‘oyasidan foydalanadilar. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishini ana shu absolyut g‘oyaning harakati deb bilishdi.

Aslida tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyati bilan uzviy bog‘langan. Til jamiyat mahsuli, jamiyat bor joyda til paydo bo‘ladi.

Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko‘rmasin, u gapirmaydi. Chunki til nasldan-naslga, avloddan-avlodga o‘tmaydi, ya’ni uning irsiyatga hech qanday aloqasi yo‘q. Irsiyat qonuniga binoan, bolaning biologik, antropologik xususiyatlari (tanasining va sochining rangi, yuz tuzilishi va boshqalar) avloddan-avlodga o‘tadi, lekin o‘zbek oilasida tug‘ilgan bola faqat o‘zbek tilida gapiradi, deyish noto‘g‘ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi, qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog‘liq: agar chaqaloq rus tilida gaplashuvchi jamoa ichida tarbiyalansa, ruscha, tojiklar ichida tarbiyalansa, tojikcha gapiradi.

XX asr boshlarida Hindistonda ro‘y bergan voqea bu mavzuga yaxshi dalil bo‘la oladi. U yerda bo‘rilar to‘dasi orasida ikki qizchaga duch kelingan. Qizchalardan biri – 2, boshqasi – 7-8 yashar bo‘lgan. Ular bo‘rilarga xos xatti-harakatlar qilishgan, lekin gapirishni bilishmagan. Hindistonlik psixolog olim bu ikki go‘dakni dastlab uyda, keyinchalik kattasini (kichigi ko‘p vaqt o‘tmay, kasallanib vafot etgan) bolalar uyida tarbiyalagan. Bu qiz yana 10 yil atrofida umr ko‘rdi, ammo til va yurish-turishda aytarlik muvaffaqiyatga erisha olmadi. Bu yillar mobaynida u 45 ga yaqin so‘zni o‘rgandi, lekin ulardan gap tuza olmadi. Bu voqeani chuqur tahlil qilgan psixologlar, sotsiologlar, tilshunoslar shunday xulosaga kelishgan:

1. Til tabiiy hodisa emas.
2. Tilning paydo bo'lishi uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart.
3. Til – nutq muhiti bolaning chaqaloqligida yaratilishi va chaqaloqqa bir tomonlama til ta'siri o'tkazish muhim, u hal qiluvchi ahamiyatga ega.
4. Til va tafakkur bir vaqtda paydo bo'ladi, birga rivojlanadi, biri ikkinchisiz yashay olmaydi.

Shunday qilib, til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liq. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek, jamiyat bilan birga o'ladi. Yuqorida lotin, sanskrit tillari esga olinib o'lik tillar deb aytilgandi, chunki bu tillarda gaplashadigan, uni o'z ona tili deb hisoblaydigan xalq yo'q, hozirgi kunda bu tillarning lug'at tarkibi, tovushlar majmui, grammatikasi bor, ular to'g'risida fikr yuritish, boshqa tillar bilan qiyoslash mumkin. Ammo bu tillarda rivojlanish yo'q, qadimdan qanday bo'lsa, hozir ham shunday va shundayligicha qolaverdi.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tilshunoslik fani qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. Tilga berilgan qaysi ta'rif sizga ma'qulroq? Nima uchun? Tilning boshqa ta'riflarini bilasizmi? Guruhingizda ularni muhokama qiling.
3. Nima uchun tilshunoslik fanining o'rganilish sohasi va mavzusi bir-biridan farqlanadi?
4. Tilni tilshunoslikdan tashqari yana qanday fanlar o'rganadi?
5. Mikrolingvistika va makrolingvistika nima va u qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
6. Til va til to'g'risidagi tushunchalarni ta'riflang.
7. Til va boshqa aloqa vositalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqni tushuntiring.
8. Til tabiiy hodisami yoki ijtimoiymi?
9. Til va jamiyat orasidagi bog'liqlikni asoslang.
10. Til to'g'risida o'z fikringiz bo'lsa, uni asoslang.

II BOB

TILNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Tilning paydo bo'lishi masalasi – til qachon va qayerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u yoki bu tillar qanday bo'lgan va shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob topilgani yo'q. Bu xususda ilmiy taxminlar mavjud, xolos. Ba'zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan.

Ma'lumki, til boshqa narsa va hodisalar singari o'zgaruvchandir. Shunday ekan, besh yuz ming yil ichida tillarda qanday o'zgarishlar sodir bo'lganini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtai nazardan o'rganish mumkin emas. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lishidan avvalgi holati biz uchun qorong'idir. Biz faqat yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrda ro'y bergan til taraqqiyoti to'g'risida yozma yodgorliklardan foydalanib fikr yuritishimiz mumkin. Lekin yozuv paydo bo'lgandan keyingi tilni o'rganish tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi muammoni yoritishga imkon bermaydi. Shunday bo'lsa ham, ba'zi olimlar bu masalaga oid o'z munosabatlarini, fikrlarini aytib o'tishgan.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilni qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg'in bahs yuritganlar.

Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni o'rtaq tashlagan. Demokrit va boshqalar (asrimizgacha bo'lgan 460-370-yillar) tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlar *anomalistlar* deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar (asrimizgacha bo'lgan 427-347-yillar) narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog'lanish bor. Bu bog'lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog'lanish ilohiy kuch tomonidan o'rnatilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim *anologistlar* deb nom olgan.

Hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning nomi orasida, umuman olganda hech qanday bog'lanish

yo‘q. Bu ko‘pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog‘liqlik bo‘lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi. Lekin shu bilan birga tillarning bugungi holati, ya‘ni sinxroniya nuqtai nazaridan zamonaviy tillarda har ikki oqimning fikrlarini tasdiqlovchi yetarli faktlar mavjud. Quyida ular to‘g‘risida qo‘shimcha ma‘lumotlar beriladi.

Tilning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi asosiy farazlar

Tilning paydo bo‘lishi to‘g‘risida asosiy farazlardan biri *tovushga taqliddir*.

Bu faraz qadimgi Yunonistonda – Demokrit va Platon davrida o‘rtaga tashlangan bo‘lib, unga ko‘ra ibtidoiy odamlar yo ongli, yo ongsiz tarzda turli-tuman tovushlar, ya‘ni hayvonlarning baqiriqlari, qushlarning sayrashi, shamol va sharsharalarning ovozlari va hokazolarga taqlid qilishga harakat qilishgan. Ibtidoiy odamlar dastlab ayrim tovushlarni, keyinchalik bu tovushlarni bir-biriga qo‘shib talaffuz qilishni o‘rganishgan: bu tovush va tovush birikmalari so‘z yasashga asos bo‘lgan, degan fikr ilgari suriladi. Har bir tilda tabiat tovushlariga taqlid qilish yo‘li bilan paydo bo‘lgan so‘zlar, masalan, rus tilida кукушка, гавкать, шипеть (шипение), o‘zbek tilida – qarg‘a, sharshara, kaklik, chumchuq, miyov (miyovlamoq)ning mavjudligi bunday farazga asos qilib olingan. Ammo bu so‘zlar tildagi so‘zlarning juda kamchiligini tashkil etadi. Tabiatda tovush chiqarmaydigan narsalarning soni tovush chiqaradiganlarga nisbatan ko‘p. Shunday bo‘lgach, tovush chiqarmaydigan narsalarga nom qayerdan olib qo‘yilgan, degan tabiiy savol tug‘iladi. Tovushga taqlid qilish farazi to‘g‘ri bo‘lsa, unda ibtidoiy jamiyatda yashagan qabilalar tilida bunday usulda yasalgan so‘zlarning soni fan va texnikasi rivojlangan xalqlar tilidagiga nisbatan ko‘proq bo‘lishi kerak. Lekin so‘nggi yillarda Avstraliya va Janubiy Amerikada topilgan, ibtidoiy tuzumni boshidan kechirayotgan qabilalar tilida o‘tkazilgan tajribalar, bu tillarda tovushga taqlid qilish yo‘li bilan yasalgan so‘zlar rivojlangan tillardagiga nisbatan birmuncha kamligini ko‘rsatdi. Undan tashqari, tabiatdagi baqiriq-chaqiriq, shovqin-suronlarga taqlid qilish uchun

nutq organlarining o'ta rivojlangan bo'lishi zarurligi ham aniqlangan. Demak, tovushga taqlid farazi tilning paydo bo'lishi masalasini uzilkesil hal qilolmaydi.

Ma'lumki, til bilan tafakkur bir vaqtda paydo bo'ladi. Shunday ekan, yuqoridagi farazni ilgari surgan faylasuflar va tilshunoslarning fikri til bilan tafakkur birligiga ziddir, chunki farazda dastlabki taqlidiy tovushlarni ibtidoiy odamlar beixtiyor «izhor qilishgan» deyiladi. Bunday holda til tafakkurdan avval paydo bo'lgan degan noto'g'ri xulosa yuzaga kelishi mumkin.

Undovlar farazi. Tilning paydo bo'lishiga doir ikkinchi keng tarqalgan fikr undovlar farazidir. Bu faraz ham qadimiy bo'lib, uning asosida ham hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari yotadi. Bu faraz asoschilarining fikricha, ibtidoiy odamlar hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o'rganib, ular orqali o'zlarining ichki kechinmalari, g'am-alamlarini ifodalashgan: *oh, uh* kabi undov so'zlar bunga misol qilib ko'rsatiladi. Tildagi boshqa so'zlar esa ana shunday so'zlarning birikuvidan kelib chiqqan, deb tushuntiriladi. Taniqli fransuz olimi Jan Jak Russo (XVIII asr) ham shu fikrni quvvatlagan.

Dunyodagi barcha tillarda bunday birliklar mavjud bo'lib, ular yordamida har xil so'z turkumlari yasalishi mumkin (o'zbek tilida *uflamoq* va rus tilida *оxать, уxать*). Lekin bu so'zlarning miqdori shu qadar kamki, tildek murakkab hodisa ana shu yo'l bilan paydo bo'lgan, deyish bu masalani juda soddalashtirib yuborgan bo'lur edi.

Ma'lumki, tilning asosiy vazifasi odamlar orasida fikr almashinuvini ta'minlashdir. Binobarin, mazkur farazni qabul qilish tilning asosiy vazifasini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini rad etishga olib keladi. Ichki kechinmalarni izhor qilish doimo ham jamiyatning bo'lishini taqozo qilmaydi. Vaholanki, tilning yashashi va rivojlanishi jamiyat bilan uzviy bog'liq: jamiyat bor joydagina til bor, til bor joyda jamiyat mavjud.

Mehnat chaqiriqlari farazi. Bu farazni ilgari surgan olimlarning fikricha, til odamlar jamoa bo'lib mehnat qilayotganlarida mehnatni tashkil qilishda foydalanilgan tovushlar asosida paydo bo'lgan.

Hozirgi zamon olimlarining ma'lumot berishicha, tilning paydo bo'lishida mehnat chaqiriqlarining hech qanday daxli yo'q, chunki u na odamlar orasida aloqa vositasi vazifasini bajaradi, na narsa va

hodisalarning nomini ataydi va na his-hayajonni ifodalaydi. Bu faraz ham tilning kelib chiqish sabablarini, tilning paydo bo'lishini jamiyatning paydo bo'lishi, so'zlash va fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan insoniyatning paydo bo'lishi bilan uzviy ravishda bog'lay olmaydi.

Ijtimoiy kelishuv farazi. Bu faraz XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, uni ilgari suruvchi olimlar ba'zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan, ularning tilning kelib chiqishi to'g'risidagi asosiy fikrlari bir xil. Qisqa qilib aytganda, bu farazga narsalarni qanday atashni odamlar o'zaro kelishib olishgan. Ko'rinib turibdiki, boshqa farazlarga qaraganda, bu eng oddiy va oson tanqid qilinishi mumkin, chunki biror narsa to'g'risida kelishib olish uchun, tabiiyki, kelishuv vositasi, ya'ni til kerak. Binobarin, bu faraz tilning paydo bo'lishini emas, balki til rivojlanishining bir yo'nalishini tushuntirishi mumkin. Hozirgi vaqtda u yoki bu fanga taalluqli so'z va atamalar o'zaro kelishib olinadi. Lekin buning tilning paydo bo'lishiga hech qanday aloqasi yo'q.

Yuqorida qayd etilgan farazlar ayrim-ayrim olinganda tilning paydo bo'lishi jarayonini to'la-to'kis tushuntirib bermasa-da, ularning har birida ma'lum darajada haqiqat bor, ya'ni bu fikrlarning har qaysisi tilning paydo bo'lishi hodisasiga o'z hissasini qo'shgan. Avval aytilganidek, til – ijtimoiy hodisa, odamlar jamiyatlarga uyushgan vaqtdan boshlab bir-birlariga nimanidir aytish ehtiyoji tug'ilgan. Tilning paydo bo'lishi tafakkur bilan bir vaqtda sodir bo'lgan. Insoniyatga xos bo'lgan bu ikki hodisa bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Tilning asosida tafakkur yotadi, tafakkur esa o'z navbatida til orqali namoyon bo'ladi, rivojlanadi. Til takomillashishining garovi esa – tafakkurdir.

Tillarning shakllanishi va rivojlanishi

Qabila va urug' tillari. Ijtimoiy formatsiyalar va til. Kishilar ibtidoiy jamiyatning dastlabki davrlarida to'da-to'da, ya'ni urug' bo'lib yashaganlar. Urug' kishilar jamiyatining eng kichik, oddiy hamda qadimiy uyushmasidir.

Bir nechta qardosh urug'lar qabilani tashkil qilgan. Bunday uyushmalarning har birining o'z tili, o'z aloqa vositasi bo'lgan.

Ma'lumki, jonli mavjudot ko'payish xususiyatiga ega. Vaqt o'tishi bilan qabila a'zolari ko'payib, kengroq hududga tarqala boshlaydi. Boshqa joylarga ko'chib ketgan qarindosh qabilalar ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda bir tilning turli shevalarida so'zlashuvchi qabilalarning uyushmasiga – qabila ittifoqlariga birlashadi. Qabila ittifoqlarining umumiy tili bo'lib, ayrim qabila tillari qabila ittifoqi tiliga nisbatan sheva holotini egallaydi.

Qardosh qabilalar ittifoqi vaqti kelib xalqni tashkil qiladi. Kishilik jamiyati bu uyushmasining asosiy belgilari: umumiy til, umumiy hudud, madaniyat va ma'naviy taxlitning umumiyligidir.

Xalqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan milliy til bir-biridan farq qiluvchi shevalarni o'zaro yaqinlashtiruvchi, yetakchi, iqtisodiy va madaniy markaz tili sifatida namoyon bo'ladi.

Shevalar, milliy tillar urug'chilik davridan boshlab son jihatdan ko'payib boradi. Avval bir qabila ittifoqiga kirgan tillarda markazdan uzoqlashgan sari, shevaga xos farq orta boradi va oxir natijada bu farq yangi til paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin; son o'zgarishi sifat o'zgarishiga olib keladi. Yangidan-yangi sheva va tillarning paydo bo'lishida ikki omil – vaqt va masofa hal qiluvchi ahamiyatga egadir: vaqt o'tgan sayin, masofa kengaya borishi, yangi sheva va tillar paydo bo'lishiga olib keladi.

Farqlanish va mujassamlashuv. Shevalarning soni ko'payishi va ular asosida yangidan-yangi tillarning vujudga kelishini tilshunoslikda farqlanish tushunchasi bilan belgilashadi. Shunday qilib, farqlanish deganda tillarning shevalarga parchalanishi tushuniladi, bir tilga mansub shevalarning miqdorining ortib borishi anglashiladi.

Tilning shevadan farqi shuki, til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhigagina taalluqlidir. Shu sababdan til ko'p funksiyali, hamma uchun umumiy aloqa vositasi, ya'ni invariant vositadir, sheva esa, vazifa nuqtai nazardan chegaralangan bo'lib, tilning bir variantini tashkil etadi.

Xalq tili yozma-adabiy til ko'rinishida ham namoyon bo'lishi mumkin, lekin uning hamma tillarni birlashtirish qobiliyati bu davrda ancha o'jiz va ta'sir kuchi kam bo'ladi.

Jamiyatning muayyan tarixiy sharoitida xalqlar taraqqiy qilib, millat bo'ladi. Millatning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun, albatta,

ko'p sonli odamlar orasidagi iqtisodiy munosabat bo'lishi zarur. Millatning asosiy belgilari: umumiy hudud, umumiy til, umumiy madaniyat va ma'naviy birlikdir. Shu belgilarni o'zida mujassamlashtirgan kishilar uyushmasini millat deyish mumkin. Bunday uyushmaning tilini biz *milliy til* deb ataymiz.

Til birligi va uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir. Milliy til o'z adabiy yozuv shakliga ega bo'ladi. Milliy tilning bu shakli mazkur millatning har bir a'zosi, har bir shevasi uchun umumiydir. Har bir millatning madaniy merosi ana shu tilda o'z aksini topadi.

Har bir til turli rivojlanish davrini boshidan kechiradi. Birorta til paydo bo'lganidan boshlab to hozirgacha faqat o'z-o'zicha rivojlanib kelayapti deyish mumkin emas. Ma'lumki, til inson bilan bog'liq. Til o'z-o'zidan rivojlanmaydi, faqat jamiyat tildan foydalangani uchungina u rivojlanadi va o'zgarib turadi. Demak, tilning rivojlanish tarixi, jamiyat tarixi bilan uzviy bog'langan.

Substrat va superstrat hodisasi. Til taraqqiyotida qo'shni xalqlar o'rtasidagi turli munosabatlar, savdo-sotiq va madaniy aloqalar, urushlar o'z ta'sirini qoldiradi. Bunday hodisalar ba'zi tillarda ko'proq, ba'zilarida esa kamroq aks etadi. Masalan, hozirgi zamon ingliz tili lug'at boyligining faqat 30 foizga yaqini sof ingliz tiliga oid, qolganlari roman va sharq tillaridan kirgan so'zlardir. Tillarning bunday munosabatlari tillar hamkorligi deyiladi. Tillar hamkorligida tillarning chatishuviga odatda katta ahamiyat beriladi. Ba'zi olimlarning fikricha, har qanday hamkorlik ham tillar chatishuviga kiravermaydi. Masalan, bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashtirilishi tillar chatishuviga kirmaydi, chunki o'zlashtirilgan so'zlar tilning grammatik ko'rinishiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi: arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan so'zlar bunga yaxshi misol bo'la oladi.

Fransiyaning XI asrda Britaniya orolini bosib olishi va fransuz tili bilan anglosakson tillari orasidagi aloqa chatishuvga eng yaxshi misoldir. Ma'lumki, bu yerda g'oliblar tili bo'lmish fransuz tili bilan, mag'lublilar tili – anglosakson tillari orasida uzoq vaqt davom etgan urushdan keyin, g'oliblar o'z tilini yo'qotib, anglosakson tilini qabul qilishlariga to'g'ri keldi. Shuni ham aytish kerakki, anglosakson tili nam fransuz tilidan ba'zi elementarni qabul qildi. Chatishuv sodir

bo'lganda substrat va superstrat (bu so'zlar lotincha bo'lib, birinchisi *tag qatlam*, ikkinchisi esa *ustki qatlam* degan ma'nolarni anglatadi) hodisalari to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Har ikkala tushuncha mag'lub tilning g'olib tildagi elementlaridir. Agar mag'lub tilning elementlari g'olib tilning fonetik, grammatik tuzilishini buzib, unga faol ta'sir qilgan bo'lsa, unda substrat superstrat hodisalari ro'y beradi. Bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashtirish substratga kirmaydi. Substrat yuz berganda kelgindilar tili mahalliy tilni siqib chiqaradi va ishlatilishdan chiqib ketayotgan til kelgindilar tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Superstrat hodisasida esa kelgindilar tili mahalliy til bilan kurashib, unga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi, lekin uni siqib chiqarmaydi. Bunga Britaniya orolining normandlar tomonidan bosib olinishi va normand tilining ingliz tiliga o'tkazgan ta'siri eng yaxshi misol bo'la oladi.

Shuni qayd qilish kerakki, tildagi o'zgarishlar keskin, to'satdan sodir bo'lmaydi: tilda inqilob bo'lmaydi, tildagi o'zgarishlar asta-sekin, evolyutsion yo'l bilan amalga oshadi. Shu bilan birga til taraqqiyotida turg'unlik ham bo'lmaydi, u doimo rivojlanishdadir.

Milliy tillar taraqqiyoti. Yuqorida aytganimizdek, milliy tillarning paydo bo'lishi millatning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'langan.

Millat va milliy tillarning paydo bo'lishi turli xalqlarda turlicha amalga oshadi. Bu ijtimoiy tuzumga ham bog'liq bo'lib, hamma yerda bir vaqtda sodir bo'lavermaydi.

Milliy tillar uch yo'l bilan paydo bo'lishi mumkin:

Birinchisi – milliy til paydo bo'lgunga qadar mavjud bo'lgan biror bir shevaga milliy til maqomini berish. Bunga hozirgi zamon fransuz tili yaxshi misol bo'la oladi.

Fransuz milliy tilining asosida Parij va uning atrofida keng tarqalgan Il-de- Frans shevasi yotadi. 1539-yilda Fransisk I ning buyrug'i bilan bu sheva Fransiyaning yagona davlat tili deb e'lon qilindi.

Ikkinchisi – chatishuv orqali bo'lib, unga ingliz tili qulay misoldir. Ingliz tili asosan uch davrni boshidan o'tkazgan. Birinchi davr qadim zamonlardan to XI asrgacha bo'lgan davr. Bu davrda angllar, sakslar va yutlar Britaniyani bosib olib, mahalliy kelt (hozirgi shotlandlar,

landlar va uelslarning qadimiy ajdodlari) qabilalarini Bretan yarim oroliga haydab, o'zlari Britaniya oroliga hukmron bo'lib olgan lavrdir. Bu davrning IX-X asrlarida anglosakslar va daniyaliklar orasida urushlar bo'lib o'tadi va bu urushda daniyaliklar yengib, anglosakslarga qo'shib, chatishib ketadilar.

Ikkinchi davr XI-XV asrlarni o'z ichiga oladi. Bu vaqt ichida normandlar Britaniyani bosib olib, hukmronlikni o'z qo'llariga o'tadilar. Ular fransuz tilida, anglosakslar – german tilida gaplashardilar. Bu ikki til orasida uzoq vaqt kurash bo'lib, oqibatda mahalliy til yengib chiqdi, lekin fransuz tiliga ma'lum darajada o'z a'sirini ko'rsatdi. Jumladan, ingliz tili tarixida sodir bo'lgan «normanlarning buyuk siljishi» fransuz tili superstrati bilan ushuntiriladi.

Uchinchi davr XVI asrning oxiri, Shekspir ijodining boshlanishi bilan bog'langan. Bu anglosakson tili orasidagi chatishuv jarayoni tugab, milliy tilning barpo bo'lish davriga to'g'ri keladi.

XVI-XVII asrda Moskva davlatining paydo bo'lishi bilan bir vaqtda Moskva dialekti asosida rus milliy tili shakllana boshlaydi. Ma'lumki, Moskva o'sha vaqtda shimol va janub dialektlarining utashadigan markazi edi.

Milliy tillarning shakllanishida badiiy so'z ustalari, yozuvchi va hoirlarning hissasi juda kattadir. Jumladan, o'zbek tilining shakllanishida Alisher Navoiy, rus milliy tilining taraqqiyotida A.S. Pushkin, yangi gruzin tili uchun – Shota Rustaveli, nemis tili uchun Martin Lyuter, ingliz tilining rivojlanishida Vilyam Shekspir va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Amaliy darslarda muhokama qilish va mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi qanday farazlarni bilasiz?
2. Qadimgi Yunonistondagi «anomalist»lar va «analogist»lar to'g'risida so'zlab bering va ular to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
3. Tovushga taqlid, undov, mehnat chaqiriqlari va ijtimoiy kelishuv farazlarining ijobiy va salbiy tomonlarini asoslang.
4. Til qanday hodisa?

5. Qabila va urug' tillarining shakllanishini tushuntirib bering.
6. Farqlanish va yaqinlashuv hodisalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Millatning asosiy belgilari nimadan iborat?
8. Milliy tillarning shakllanishi qanday yo'llar bilan amalga oshadi? Substrat va superstrat hodisalari nima?
9. Quyidagi ikki tushunchadan qaysi biri til rivojlanish yo'lini belgilaydi: revolyutsiya /evolyutsiya?
10. Bugungi kundagi globallashuv (globalizatsiya) jarayoni tillar taraqqiyotiga qanday ta'sir o'tkazmoqda? Bu to'g'risida o'z hayotiy tajribangiz asosida gapirib bering.

III BOB

TIL VA NUTQ YARUSLARI

Dunyodagi barcha tillarda asosiy va ikkinchi darajali yaruslar (qatlamlar) bor. Tilni bunday tarkibiy qatlamlarga ajratish barchaga maktab darsliklaridan ma'lum. Asosiy yaruslar: fonologiya (fonetika), leksika va grammatikani tashkil etuvchi – morfologiya va sintaksisdir. Ikkinchi darajali yaruslarga stilistika va boshqalarni kiritish mumkin.

Asosiy va ikkinchi darajali yaruslar orasida katta farq yotadi: asosiy yaruslar til va nutqda o'z birliklariga ega, ikkinchi darajali yaruslar esa o'z birliklariga ega bo'lmay, o'z maqsadlariga erishish yo'lida asosiy yarus birliklaridan foydalanadilar. Quyida til va nutqning asosiy yaruslari, ular o'rganadigan masalalar, ularning birliklarini ko'rib chiqamiz.

FONOLOGIYA VA FONETIKA

Inson nutqi zamon va makonda ketma-ket paydo bo'ladigan kichik va katta birliklardan tashkil topadi. Yuqorida qayd etilganidek, til va nutqda uch asosiy qatlam – fonetika, leksika, grammatika, (agar grammatika morfologiya va sintaksisga ajratilsa, 4 qatlam) farqlanib, ular o'z oldiga qo'yilgan vazifaga ko'ra til va nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi. Fonologiya va fonetika jihatdan til va nutq to'rt tarkibiy qism: jumla, takt, bo'g'in va tovushga ajraladi. Fonologiya va fonetika ana shu to'rt birlikning til va nutqda tutgan o'rni, turi va xususiyatlarini o'rganadi. Shu bilan birga har qanday nutqni ohangsiz va urg'usiz tasavvur qilib bo'lmagach, mazkur qatlam o'z ichiga bu masalalarni hamda nutq faoliyati bilan bog'liq organlarni o'rganishni ham oladi.

Nutqning fonetik jihatdan bo'linishi

Yuqorida aytilganidek, nutq fonetik jihatdan fraza, takt, bo'g'in va nutq tovushlariga ajratiladi. Grammatika ham nutqni tarkibiy bo'laklarga bo'ladi: gap, so'z, so'z birikmasi va morflarga. Garchi har ikki qatlam nutqni miqdor nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham,

sifat jihatdan ular bir-biriga mos kelmaydi. Bu masala til va nutq birliklari o'rganilayotganda batafsilroq tushuntiriladi.

Fraza nutqning eng katta fonetik birligi bo'lib, ikki tomonidan pauza bilan chegaralanib, o'ziga xos ohangga ega bo'ladi. Masalan: *Quyosh tik kelgan. Gulnor cholning chiqib ketishini kutib, devorga qisilgan holda turdi. Shipi past, devorlari yupqa, torgina do'konxona, har vaqtdagidek ivirsiq* (Oybek).

Birinchi gap bitta, ikkinchisi ikkita frazadan tashkil topganligi aniq ko'rinib turibdi. Uchinchi gapda nechta fraza borligini aytish qiyin. Gap shundaki, nutqda frazani ajratish ko'pincha subyektiv sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu gapiruvchi nutqning ravonligi va tezligiga, nutq jarayoni sodir bo'layotgan sharoitga bog'liq. Tez gapiruvchilar bu gapni ikkita frazaga, sekin gapiruvchilar esa to'rt frazaga ajratishlari mumkin. Qiyoslang:

*Shipi past, devorlari yupqa torgina do'konxona //har
vaqtdagidek ivirsiq.*

*Shipi past, //devorlari yupqa, //torgina do'konxona, //har
vaqtdagidek ivirsiq.*

Shunday ekan, fonetik birlik bo'lmish fraza va grammatik birlik – gap doimo bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Gap bitta va undan ortiq frazadan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Grammatik birlik bo'lmish gapning o'ziga xos xususiyatlari bor. Gap bo'lishi uchun uning ikki tomonidan pauza bilan ajratilgan bo'lishning o'zi kifoya emas. Gap bir so'zdan yoki bir necha so'zning birikuvidan tuzilgan bo'lishi mumkin. Uning asosiy belgisi – predikativlikdir. Har qanday gap ega-kesimlik munosabatiga ega bo'lishi va bu birlikda doimo grammatik zamon, shaxs va mayl ifodalanishi zarur (sintaksis qismiga qarang).

Frazalar taktlardan tashkil topgan bo'ladi. Frazaning ikki kichik pazasi orasiga joylashgan va yagona urg'u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo'g'inning yig'indisiga takt deb aytiladi. Frazada nechta urg'u bo'lsa, shuncha takt bo'ladi.

Havo bulut edi gapida ikkita urg'uli so'z bor: *havo* va *bulut*; uchinchisi – urg'usiz. Demak, bu gap ikkita taktdan iborat: birinchisi – *havo* va ikkinchisi – *bulut* edi.

Odatda urg'u olmagan so'zlar urg'u olgan so'zlarga birikib keladi. Agar urg'u olmagan so'z urg'uli so'zdan oldin turib unga bog'lansa,

tilshunoslikda *proklitik elementlar* deyiladi. Masalan, ingliz tilida *at home, a map* birikmalaridagi *at* va *a* elementlari proklitikadir. Aksincha, agar urg'usiz so'z urg'uli so'zdan keyin kelib, u bilan bog'langan bo'lsa, u *enklitik elementlar* deyiladi, yuqoridagi o'zbek tilidan keltirilgan misolda *bulut edi* birikmasidagi *edi* enklitik elementdir.

Fonetik birlik bo'lmish takt grammatikadagi so'z birikmasi bilan iyoslansa, ular hech vaqt bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Chunki rrammatik birlikda urg'uli so'z doimo birdan ortiq bo'ladi. Gap hundaki, so'z birikmasi deganda kamida ikkita mustaqil so'zlarning intaktik qo'shilmasi nazarda tutiladi. Masalan: *xushxo'r qiyom, o'rkam uy, mustahkam tinchlik* va shu kabilar.

Takt bo'g'inlardan tashkil topadi. Bo'g'in bir yoki bir necha tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir, masalan, *oilalar* so'zida 4 bo'g'in bor. Bo'g'in asosan unli tovushlar bilan bog'langan. Taktda nechta unli tovush bo'lsa, unda huncha bo'g'in bo'ladi. Bu universal hodisadir. Lekin ba'zi tillarda o'g'inni sirg'aluvchi, sonor tovushlar ham hosil qilishi mumkin.

O'zbek tilida bo'g'in bo'lishi uchun albatta unli bo'lishi kerak. Tillarda bo'g'in tuzilishi bir xil emas. Tillardagi bo'g'inlarda unli va undosh tovushlarning ketma-ketligiga qarab ham ularni guruhlarga ajratish mumkin. O'zbek tilida bo'g'in ikki yoki undan ortiq undosh tovushlarning ketma-ket kelishi bilan boshlanmaydi; aksincha, undan keyin ham har bir bo'g'in tarkibida uch yoki undan ortiq undosh uchramaydi. Slavyan tillarida bunday hol uchrashi mumkin: *Трица* (chex tilida), *текст* (internatsional so'z), *стрелка* (rus tili) va hokazo.

Bo'g'inlar unli va undosh bilan boshlanib, tugashiga qarab to'rt turga bo'ladi: *ochiq, yopiq, berkitilgan va berkitilmagan*.

Undosh tovush bilan tugagan bo'g'in *yopiq bo'g'in* deyiladi: *maktab*. Bu so'zning ikkala bo'g'ini ham yopiq. Unli tovush bilan tugagan bo'g'in *ochiq bo'g'in* deyiladi: *no-g'o-ra, va-fo* va boshqalar.

Undosh tovush bilan boshlangan bo'g'in *berkitilgan (yopilgan)* va unli bilan boshlangani esa *berkitilmagan (yopilmagan)* bo'g'in deyiladi: *ol-ma* so'zining birinchi bo'g'ini berkitilmagan, ikkinchisi esa berkitilgan. Shunday qilib, bo'g'inlar izohlanayotganda ular

qanday tovush bilan boshlanishi va qanday tovush bilan tugashi hisobga olinishi lozim. Bu jihatdan bo'g'inlar quyidagi turlarga ajralishi mumkin:

- berkitilmagan ochiq bo'g'in: *o-lim* (birinchisi);
- berkitilmagan yopiq bo'g'in: *aft*;
- berkitilgan ochiq bo'g'in: *da-la*;
- berkitilgan yopiq bo'g'in: *daf-tar*.

Bo'g'in

Tilshunoslik fanida bo'g'in ta'rifiga aloqador bir nechta nazariya mavjud. Shulardan ikkitasi: *fonologik bo'g'in nazariyasi* va *fonetik bo'g'in nazariyasi* boshqalariga qaraganda kengroq tarqalgan.

Fonologik nazariya bo'g'inida unli va undosh tovushlarning joylashish tartibini o'rganadi. Bu nazariyada asosan bir bo'g'inli so'zlarning tovush tuzilishi o'rganilib, unli dan oldin turishi mumkin bo'lgan undoshlarning soni va sifati hamda unli dan keyin kelishi mumkin bo'lgan undoshlarning soni va sifati aniqlanadi. Buning natijasida muayyan tilga xos ideal fonologik bo'g'in modeli yaratiladi. Rus tilida unli dan oldin to'rtta undosh (masalan, *всплеск, вскрыть*), unli dan keyin ham to'rttagacha undosh uchrashi mumkin (*монстр, черта*). Demak, rus tilida maksimal ideal fonologik bo'g'inning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

*undosh – undosh – undosh – undosh – unli – undosh – undosh
sirg'. – sirg'. – port. – sirg'. – unli – sirg' – port.*

Rus tilidagi boshqa bo'g'inlar ana shu model asosida o'rganiladi.

Fonologik bo'g'in nazariyasi ko'p bo'g'inli so'zlardagi bo'g'in chegarasini aniqlashda ko'p foyda bermaydi. Masalan, *зреть* bilan *зреть-уть* so'zlarini bir-biriga qiyoslab, ikkinchi so'zni birinchi so'z modeli asosida bo'g'inlarga ajratmoqchi bo'lsak, *зреть-уть* singari bo'g'inlarga ajratishga to'g'ri keladi, lekin ko'pchilik bu so'zni *зреть-уть* kabi bo'g'inlarga ajratadi. Chunki ko'p bo'g'inli so'zni bo'g'inlarga ajratish, tovushlarni bo'g'inlarga birlashtirishda boshqa qonuniyat, ya'ni fonetik o'lchov kuchga kiradi.

Bo'g'inga fonetik birlik sifatida yondoshishda ham turli fikrlar bor. Shulardan akustik va artikulyatsion nazariyalarni ko'rib chiqamiz.

Bo'g'inga *akustik birlik* deb qaralganda, uni nutq oqimining arangdorligini tartibga keltiruvchi bir vosita deb tushuniladi. Gap shundaki, har bir nutq tovushi (fon) o'ziga xos jarangdorlik xususiyatiga ega. Ularni ana shu xususiyatining kam-ko'pligiga ko'ra quyidagi tartibda joylashtirish mumkin (jarangdorlikning ortib borishiga ko'ra): jarangsiz portlovchilar: *n, m, k*; jarangsiz affrikativ, qorishiq: *ç, c*; jarangsiz sirg'aluvchilar: *φ, ç, u, x*; jarangli portlovchilar: *b, d, z*; jarangli affrikat: *ж*; jarangli sirg'aluvchilar: *ø, ç*; burun sonantlari: *m, n, nç*; sokin sonantlar: *l*; tor unlilar: *u, y*; o'rta unlilar: *e, o*; keng unlilar: *a, o*.

Bu nazariyaga binoan har bir so'z jarangdorlik nuqtai nazaridan tartibga keltirilgan birlikdir, bo'g'in esa ana shu birlikning bir to'liqlinini tashkil etadi. Unlilar jarangdorlik jihatdan undoshlardan afzal turishi uchun, ular bo'g'inning cho'qqisini tashkil etadi, undoshlar esa cho'qqining yon bag'irlariga (ikki yoniga) joylashadi. Masalan, *farmon, tiklash, turdosh*. Shunday qilib, bo'g'inlar jarangdorlik darajasi turlicha bo'lgan fonlarning birin-кетин joylashishi mahsulidir. Lekin hamma bo'g'inlar ham tovushlar jarangdorligi ortib borishi prinsipiga asosan tuzilavermaydi. Masalan, rus tilida *мстумь* so'zidagi birinchi *m* tovushi jarangdorlik jihatdan undan keyin kelayotgan *c* tovushiga nisbatan ustun turadi. Shunday ekan, akustik nazariyani mukammal deyish qiyindir.

Bo'g'inni *artikulyator* birlik deb talqin qilishda ham turli yondoshish ko'zga tashlanadi. Ba'zilar bo'g'in mazkur bo'g'indagi talaffuzi qiyin bo'lgan undoshlar talaffuzini unlilar yordamida osonlashtirish deb tushinishsa, boshqalar bu birlikni nutq nafasi bilan bog'lashadi. Bu fikrga asosan bir bo'g'in bir nafas turtkisiga to'g'ri keladi: bir nafas bilan bo'g'inni tashkil etuvchi fonlar talaffuz qilinadi.

Zamonaviy eksperimental fonetik tadqiqotlar undosh-unli birlikmasining kichik talaffuz birligi ekanini tasdiqlaydi. Bunday birliklar bir artikulyatsion harakat asosida talaffuz qilinadi. Nutq esa bundan kichik artikulyatsion birliklarga bo'linmaydi. Muayyan

turdagi bo‘g‘inlarni tashkil etuvchi tovushlar talaffuz jihatdan uzilkesil mustaqil bo‘lmay, bir-biriga bog‘liq bo‘lib, bo‘g‘in deb atalmish kattaroq birlikning tashkil etuvchilaridir.

So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish masalasida ham fikrlar uyg‘unligi yo‘q. Ba‘zilar so‘zlarni bo‘g‘inga ajratishga, uning morfologik tuzilishiga, boshqalar esa so‘zlarni ochiq bo‘g‘inlarga bo‘lishga asoslanadilar; uchinchilar fikricha, agar ikki unli orasida ikki yoki undan ortiq tovush tursa, ularning jarangdorlik xususiyati hisobga olinadi. Bo‘g‘in chegarasi bu xususiyat ko‘proq bo‘lgan tovush bilan bunday xususiyati kamroq bo‘lgan tovush orasidan o‘tadi.

Bu masalada ko‘pchilikning fikri – eksperimental-fonetik tadqiqotlar natijasiga amal qilish, bo‘g‘inlarni yagona artikulyatsion harakat asosida aniqlashdir. Masalan: *Маму позвали в школу* gapini mazkur nazariya asosida quyidagicha bo‘g‘inlarga bo‘lish kerak: *ма-му по-зва-ли вишко-лу*.¹

So‘z material tarkibi (leksik-grammatik) va artikulyatsiya-akustika (fonetik) nuqtai nazaridan qismlarga ajratiladi. So‘zni gapiruvchi tovushlab emas, balki bo‘g‘inlarga ajratib talaffuz qiladi. Shuning uchun bo‘g‘in nutqning eng kichik artikulyatsiya-akustika birligini tashkil etadi.

Bo‘g‘inning ma‘no anglatish yoki anglatmasligi fonetika uchun ahamiyatsizdir. So‘z morflarga ajratilayotganda ularning ma‘no anglatishi e‘tiborga olinadi, chunki morf eng kichik ma‘no anglatuvchi nutq birligidir. Ba‘zi hollarda leksik-grammatik birlik (morf) va artikulyatsion-akustik (bo‘g‘in) bir-biriga tasodifan mos kelib qolishi mumkin. Aslida, aytganimizdek, ular ikkita va ikki xil birliklardir. *Fay-la-suf* so‘zi bir morf, lekin uch bo‘g‘indan iborat. *Men* so‘zi bir bo‘g‘in, lekin ikkita morfdan tashkil topgan: *m-en*; *ish-chi-lar* so‘zi uch bo‘g‘in va uch morfdan tashkil topgan.

¹ Л.В. Бондарко, Л.А. Вербицкая, М.В. Гордина. Основы общей фонетики. – Л.: 1983, 73-81 betlar.

Nutq tovushlari

Fonetika nutqning eng kichik ma'no anglatmaydigan birliklari – nutq tovushlari, fonlar bilan ham shug'ullanadi. Fonlar nutqning moddiy bazasi bo'lib, so'z, so'z birikmalari, gap va matnlarni shakllantirishda bevosita ahamiyatga egadir, chunki inson tili – tovushlardan tarkib topadi.

Fonlar asosan uchta: *akustik, fiziologik va ijtimoiy* nuqtai nazardan o'rganiladi. Nutq tovushlarining akustik va fiziologik tomonlarini *fonetika*, ijtimoiy yoki sotsial sharoitlarini *fonologiya* o'rganadi.

Nutq tovushlarining akustik xususiyati deganda, ularning fizik xususiyatlari, ya'ni quloqqa chalinishi, eshitila olinish xususiyatlari tushuniladi. Ma'lumki, har qanday tovush biror jismning boshqa jism ta'sirida tebranishi natijasida paydo bo'ladi. Nutq tovushlarining paydo bo'lishi ham ana shunday tebranish natijasidir. O'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini tebratishi va nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqin natijasida nutq tovushlari vujudga keladi.

Nutq tovushlarining akustik xususiyati, ularning kuchi, balandligi, tembri va cho'ziq-qisqaligi bilan ifodalanadi.

Nutq tovushlarining kuchi o'pkadan chiqayotgan havo oqimining qarshilik ko'rsatayotgan nutq organlariga kuch bilan urilishiga bog'liq. Bu kuchlanish qanchalik shiddatli bo'lsa, tebranish darajasi shunchalik katta, tovush ham shunchalik kuchli bo'ladi. Tovushlarning bu xususiyati amplituda deyiladi. Tebranayotgan jismning dastlabki, harakatsiz holatidan tebranishning yuqori va pastki nuqtasiga bir marta borib kelishi *amplituda* atamasi bilan belgilangan. Jismning sukunat holatidagi nuqtasidan tebranishning yuqori va pastki nuqtalari qanchalik uzoq bo'lsa, tovush shuncha kuchli bo'ladi.

Akustikada tovush kuchi *desibal* bilan o'lchanadi. Nutq tovushlarining balandligi tebranish miqdoriga bog'liq: vaqt birligi (soniya, daqiqa) ichida tebranishlarning soni qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi. Akustikada tebranish miqdori gerts (gts)lar bilan o'lchanadi.

Nutq tovushlarining tembri deganda ularning sifati tushunilib, unga asosiy yordamchi tonlar va shovqin birikmasi kiradi. Gap shundaki,

tovushlar faqat kuch va balandlik bilan izohlanmay, balki, kuch, balandlik, qo‘shimcha oberton va shovqinlar qo‘shilmasidan tashkil topadi. Qo‘shimcha ton (oberton)lar og‘iz va burun bo‘shlig‘ida asosiy tovush toniga qo‘shimcha tonlarning ta’siri natijasida paydo bo‘ladi. Shunday ekan, nutq tovushlarining tembri rezonator vazifasini o‘tovchi og‘iz va burun bo‘shliqlarining hajmi va shakliga hamda og‘iz bo‘shlig‘i va bo‘g‘izdan hosil bo‘ladigan shovqinlarning qanday bo‘lishiga ham bog‘liq. Tembr bo‘lmasa, bir kishining nutqini ikkinchisidan ajratish qiyin. Chunki har bir shaxsning og‘iz va burun tuzilishida – o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lishi tabiiydir.

Nutq tovushlari akustik xususiyatining yana bir tarkibiy qismi ularning uzun-qisqa bo‘lishidir. Bu xususiyat unilarga xos bo‘lib, ma’lum vaqt ichida unilarning uzun va qisqa talaffuz qilinishidir. Masalan, ingliz tilida uzun va qisqa [i] va [i:] unilari bor.

Nutq tovushlarining fiziologik xususiyati deganda nutq tovushlari talaffuz qilinayotganda qaysi nutq organlari ishtirok etishi tushuniladi. Masalan: *b – lab-lab tovushi: v – lab-tish tovushi* va hokazo.

Nutq tovushlarining ijtimoiy xususiyati deganda, ularning morfema va so‘zlarning ma’nolarini o‘zgartira olish qobiliyatlari tushuniladi. Avval aytganimizdek, bu masalani fonetika emas, fonologiya o‘rganadi. Masalan: *ot-o‘t, qor-nor-zor.*

Fon va fonema

Yuqorida qayd etilganidek tovushlar fonetika birligi sifatida o‘rganilganda nutq tovushlari yoki fonlar deb yuritiladi. Fon hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan atama bo‘lib, nutqning eng kichik ma’no anglatmaydigan birligidir.

Tovushlar til birligi sifatida o‘rganilganda esa, til tovushlari yoki fonemalar deb yuritiladi. Fonema eng kichik ma’no anglatmaydigan til birligidir. Fon va fonemani bir-biridan ajratish XIX asrning oxiri va XX asrning boshiga to‘g‘ri keladi. Og‘zaki nutq va yozuvga diqqat bilan nazar tashlansa, yozuvdagi cheklangan til tovushlariga nutqdagi cheksiz tovushlar to‘g‘ri kelishining guvohi bo‘lamiz.

Masalan, rus tilidagi *zopa* soʻzini baʼzilar *gʻora*, boshqalar *gara*, yana boshqalar *gʻara* deb talaffuz qilishini eshitganmiz. Lekin yozuvda hamma bir xil – *zopa* yozadi. Olimlar ana shunday hodisalarni kuzatish natijasida nutq tovushlarining til tovushlaridan farq qilinishi va ularni ayrim atamalar bilan belgilashni zarur deb topdilar.

Fonema toʻgʻrisida gap borganda, uning quyidagi xususiyatlari hisobga olinishi zarur:

Yuqorida keltirilgan *zopa* soʻzining turlicha talaffuz qilinishi odamlarning bu soʻzni toʻgʻri tushunishiga xalal bermaydi. Bundan tovushlarni izohlaydigan akustik komponentlar (balandligi, kuchi, tembri, uzun-qisqaligi)dan ayrimlari muayyan tilda oʻzgaruvchan, beqaror, boshqalari esa oʻzgarmaydigan, barqaror xususiyatlarga ega, degan xulosa kelib chiqadi. Beqaror akustik xususiyatlar soʻzlarning maʼnolarini oʻzgartirmaydi va, aksincha, barqaror akustik xususiyatlar soʻzlarning maʼnosini oʻzgartiradi, demak, unday xususiyatlar nutq jarayonida saqlanib qoladi. Ularning oʻzgartirilishiga til befarq emas. Ana shunday xususiyatlarni maʼno oʻzgartiruvchi yoki differensial xususiyatlar deb atash mumkin. Har qanday tovush differensial va nodifferensial artikulyator va fizik xususiyatlardan tashkil topgan boʻladi, lekin gapiruvchi tovushlarning nodifferensial xususiyatlariga befarq boʻlsa ham, differensial xususiyatini hisobga olmay iloji yoʻq.

Tillardagi farqlanuvchi va farqlanmaydigan xususiyatlar bir xil emas. Bir tildagi farqlanuvchi xususiyat ikkinchi tilda farqlanmaydigan boʻlishi mumkin. Masalan, unilarning uzun-qisqalik xususiyati oʻzbek va rus tillari uchun farqlanmaydigan, lekin ingliz, nemis, fransuz, qirgʻiz, turkman tillari uchun esa farqlanuvchidir. Rus tili uchun yumshoq-qattqlik xususiyati farqlanuvchi, ingliz, nemis tillarida esa farqlanmaydigan va hokazo. Masalan, rus tilida *угол* soʻzidagi oxirgi undosh qattiq talaffuz qilinadi, uning maʼnosi *burchak*; lekin uni yumshoq, yaʼni *уголь* tarzida talaffuz qilsak, bu soʻz *koʻmir* maʼnosini anglatadi.

Qiyoslang:

пыл-пыль, стол-столь

Nutq jarayonida tovushlarning farqlanuvchi belgilari har qanday sharoitda ham saqlanib qoladi, farqlanmaydigan belgilari esa

tovushning soʻzdagi tutgan oʻrni gapiruvchining nutqiy xususiyatlariga koʻra oʻzgarib turishi mumkin. Har qanday oʻzgarish yangi nutq tovushini, yaʼni yangi fonni tashkil etadi.

Agar nutqdagi oʻzgarishlar sifat oʻzgarishiga olib kelmasa, soʻzning maʼnosini oʻzgartirmasa, bunday oʻzgarishlar miqdor oʻzgarishi deb atalib, bitta fonemaga birlashtiriladi. Bitta fonemaga birlashtirilgan fonlar *allofonlar* deb ataladi. Yuqorida keltirilgan *zopa* soʻzidagi dastlabki undoshning ikki xil talaffuz qilinishi soʻz maʼnosini oʻzgartirmaydi; shuning uchun bunday oʻzgarishni sifat emas, balki miqdor oʻzgarishi desa boʻladi. Demak, rus tilidagi *g* va *gʻ* bir fonemaning allofonlari yoki bir fonemaning ikki xil koʻrinishidir.

Endi nima uchun fon nutq tovushi, fonema esa til tovushi degan savolga javob berishimiz mumkin. Nutq jarayonida tovushlar har xil oʻzgarishga duch kelishi tabiiy. Bu, odatda, tovush yonida turgan boshqa tovushlar taʼsirida boʻladi. Tilning sistemasi va tarkibi nutqda namoyon boʻladi. Til yaxlit tarzda bir shaxs nutqida aks etmaydi, chunki bir shaxsning nutqi til sistemasining faqat bir koʻrinishidir, xolos. Bir tilda soʻzlashuvchilarning hammasi jamlangandagina, tilning sistemasi toʻgʻrisida tasavvur hosil qilish mumkin. Lekin bu oʻta murakkab, amalda bajarilishi qiyin ishdir. Shu sababli tilni mavhum hodisa – nutqning umumlashgan koʻrinishi deb yuritishadi. Fonema til tovushi sifatida mavhum birlik boʻlib, nutqda uchrashi mumkin boʻlgan bir yagona vazifani bajaruvchi barcha fonlarning umumiy yigʻindisidir.

Tillardagi fonemalar yigʻindisi mazkur tilning fonemalar majmuini tashkil etadi.

Bu oʻrinda AQShlik olim Fransis R. Dinniyning fon, fonema va allofonlar toʻgʻrisidagi fikrini keltirish oʻrinlidir.

Uning fikricha, tovushlarning fizik-akustik xususiyati bilan fonetika shugʻullanadi, tovushlarning nutqdagi vazifalari (funksiyalari) bilan fonologiya shugʻullanadi. Shunday ekan, fonologiyani oson taʼriflash kerak boʻlsa, «*u funksional fonetikadir*».¹

¹ Francis P. Dinneen. *General Linguistics*. Georgetown University Press. – Washington: D.C. 1995.

«Fonema» bu tovushlarning turlarini belgilovchi mavhum texnik atamadir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- *ayrim olingan bir tovush fon emas;*
- *tildagi o'ziga o'xshagan boshqa fonemalar qatorida turuvchi, lekin ulardan o'zining barcha (akustik, artikulyatsion, funksional, grafik) xususiyatlari bilan farqlanuvchi;*
- *o'z xususiyatlariga (akustik, artikulyatsion, funksional, grafik) ega bo'lgan, lekin talaffuz qilinmaydigan;*
- *boshqa tovushlar qatori nutqda o'zining turli ko'rinishi (allofonlar) bilan namoyon bo'ladigan til hodisasidir.*

«Allofon» ham texnik atama bo'lib, bir fonema ichida o'zining turli kontrast xususiyatlariga ega bo'lgan va shu xususiyatlari bilan mazkur fonemaning boshqa variantlari, allofonlaridan farq qiladigan til birligidir. Demak, allofon:

- *so'zning boshida, o'rtasida, oxirida va qaysi tovushlar bilan aloqada bo'lishiga qarab belgilanadi;*
- *«fonlar» ham allofonlarga o'xshab ajratiladi;*
- *ularning fonetik xususiyatlari bir xil;*
- *fonetik farqi esa qo'shimcha distributsiya bilan belgilanadi;*
- *cheksiz konkret tovushlar (fonlar) tildagi vazifasiga (funksiyalariga) ko'ra cheklangan mavhum fonemalarga ajratiladi.¹*

Nutq organlari va artikulyatsiya bazasi

Nutq tovushlarining fiziologik xususiyatlari to'g'risida gap borganda, tovushlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlar haqida gapirmay ilojimiz yo'q.

Nutq tovushlarining hosil bo'lishida qatnashuvchi organlar nutq organlari deyiladi. Nutq organlarining tovushlar hosil bo'lishidagi ishtirokiga ko'ra aktiv va passiv organlarga ajratiladi.

Aktiv nutq organlariga – *til, lab (yuqori va pastki), yumshoq tanglay hamda tovush paychalari* kiradi. Bu organlarning ichida til eng faolidir. Tovush hosil bo'layotganida tilning hamma qismi

¹ Bu to'g'rida yana quyidagi asarda ham yozilgan: Victor H. Yngve. Linguistics as a Science. Indiana Univ. Press. Bloomington & Indianapolis, 1986.

barobar xizmat qilmaydi. Shu sababli tilshunoslikda u til oldi, til o‘rta va til orqa qism deb atalmish uch tarkibiy bo‘laklarga bo‘linadi.

Passiv nutq *organlariga tish (tepa old tishlari), milk, (alveol) va qattiq tanglay* kiradi.

Nutq tovushlar to‘g‘risida gapirganimizda «artikulyatsiya» atamasini ishlatmay ilojimiz yo‘q. Tovushning hosil bo‘lishida nutq organlarining harakati va egallagan o‘mi artikulyatsiya deyiladi. Nutq tovushlarining *artikulyatsiyasi* talaffuz qilishga tayyorgarlik – ekskursiyani, talaffuzning o‘zini va nutq organlarining o‘z joyiga qaytishi – *rekursiyani* o‘z ichiga oladi; nutq tovushlarini hosil qilishdagi artikulyatsiya harakatlarining yig‘indisi *artikulyatsiya bazasi* deyiladi.

Nutq tovushlarining tasnifi

Nutq tovushlari shovqin va ovozdan hosil bo‘ladi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tovushlar ikki katta guruh – *unli va undoshlarga* ajratiladi.

Agar o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratib o‘tib, og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchramasa, *unli tovush* hosil bo‘ladi.

Agar o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratish yoki titratmasligidan qat’i nazar og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchrasa, unda *undosh tovush* hosil bo‘ladi.

Nutq tovushlari tillarda miqdor va sifat jihatdan bir xil emas.

Unli tovushlar va ularning tasnifi. Unli tovushlar faqat ovozdan tashkil topgan bo‘ladi, ya’ni o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratib o‘tib, og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday qarshilikka uchramaydi.

Unli tovushlar son va sifat jihatdan tillarda bir xil emas. Ba’zi tillarda unilarning soni ikkita, ba’zilarida esa 20 dan ortiq. Unli tovushlar umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tilning gorizontal holatiga ko‘ra, tilning ko‘tarilishi darajasiga ko‘ra (vertikal harakatiga ko‘ra), tovushlarning qisqa va cho‘ziqligiga ko‘ra, lablarning ishtirokiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Tilning gorizontal holatiga ko‘ra unililar uch turga ajraladi:

- a) *til oldi unililari*: o‘zbek tilida [i], [a], [e];
- b) *til o‘rta unililari*: rus tilida [ɪ] va boshqalar;
- d) *til orqa unililari*: [u], [o‘], [o] va boshqalar.

Tilning ko‘tarilishi darajasiga ko‘ra unililar uch turga ajraladi:

- a) *ochiq unililar*: o‘zbek tilida [a], [o]; rus tilida [a] va boshqalar;
- b) *yarim ochiq (yarim yopiq) unililar*:
o‘zbek tilidagi [e], [o‘], rus tilidagi [e], [o] va boshqalar;
- d) *yopiq unililar*: o‘zbek tilidagi [i], [u]; rus tilidagi [i], [i], [u] va boshqalar.

boshqalar.

Qisqa va cho‘ziqligiga ko‘ra unililar *qisqa*, *cho‘ziq* unililarga ajraladi. Unlilarning bu xususiyatlari dunyodagi barcha tillarga xos emas. Masalan, o‘zbek va rus tillarida unililar qisqa va cho‘ziq tovushlarga bo‘linmaydi, lekin nutq jarayonida unlilarning cho‘ziq yoki qisqa talaffuzi uchrashi mumkin, bunday hol so‘zlarning ma‘nosini o‘zgartirishga olib kelmaydi. Unlilarga nisbatan qo‘llaniladigan bu o‘lchov tilshunoslikda *miqdor belgisi* deb yuritilib, cho‘ziq tovushlar maxsus fonetik yozuv – transkripsiya [ː] belgisi bilan yoziladi. Ingliz, nemis tillarida bunday tovushlar mavjud, masalan: ingliz tilida qisqa [u] va cho‘ziq [uː], qisqa [i] va cho‘ziq [iː] fonemalari bor. Qiyoslang: [pit] va [piːt], [pul] va [puːl].

Lablarning ishtirokiga ko‘ra unililar *lablangan* va *lablanmagan* tovushlarga ajraladi. O‘zbek tilidagi [i], [e],[a] tovushlari talaffuz qilinganda, lablar faol ishtirok etmaydi, shuning uchun ular *lablanmagan unililar* deb yuritiladi. Lekin [u], [o‘], [o] tovushlari talaffuzida lablar faol ishtirok etadi, shu sababli ular *lablangan unililar* deyiladi.

Unlilarning tarkibiga ko‘ra turlari. Tarkibiy nuqtai nazardan unililar uch turga: *monoftonglar*, *diftonglar* va *triftonglar*, ya‘ni *bir tovushli*, *ikki tovushli* va *uch tovushli* unililarga ajratiladi. Tarkibida faqat bir tovush bo‘lsa, ular *monoftonglar* deb yuritilib (o, u, i va boshqalar), ularni talaffuz qilishda nutq organlari bir xil holatda bo‘ladi. Tarkibida ikki tovush bo‘lgan unililar *diftonglar* deyiladi: [ai], [oi], [ai] va boshqalar. Diftonglar talaffuzida nutq organlari bir holatdan boshqasiga o‘tadi. Tarkibida uchta tovush bo‘lgan unililar *triftonglar* deb ataladi. Ingliz tilidagi [aiə], [auə] tovushlari

shular jumlasidandir. Bularning talaffuzida ham nutq organlari bir holatdan boshqasiga o'tadi. Unlilarning monoftong, diftong va triftonglarga ajralishi hamma tillarga ham xos emas. O'zbek va rus tillarida bunday hodisa uchramaydi. Roman-german tillarida esa ko'plab uchraydi. Diftong va triftonglar garchi ikki va uch tovushlar yig'indisi bo'lsa ham, ular bir vazifani bajaruvchi (monofunksional) birliklardir. Bo'g'in ajratishda bu hisobga olinib, ular bir bo'g'inga kiritiladi.

Undosh tovushlarning tasnifi. Avval aytilganidek, undosh tovushlarning hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratishi yoki titratmasligidan qat'i nazar og'iz yoki burun bo'shlig'ida qarshilikka uchraydi. Agar o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratmasdan faqat og'iz bo'shlig'ida qarshilikka uchrasa, bunday tovushlar faqat shovqindan tashkil topib, ular *jarangsiz undosh* tovushlar deyiladi ([t], [s], [k], [p], [f] va boshqalar). Agar o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratsa hamda og'iz bo'shlig'ida qarshilikka uchrasa, u holda ovoz va shovqindan tashkil topgan undosh tovushlar hosil bo'ladi. Bunday undoshlarni ikkiga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Agar ovoz shovqindan ustun tursa, bunday undoshlar *sonor* yoki *sonantlar* deyiladi (masalan, [m], [n], [l], [y] va boshqalar). Ular o'z navbatida burun va og'iz sonorlariga ajratilishi mumkin. Burun sonorlariga o'zbek tilidagi [m], [n], [ng] tovushlari va boshqa tillardagi shularning ekvivalenti kiradi. Bu tovushlar talaffuzida yumshoq tanglay pastga tushgan bo'lib, havo burun bo'shlig'idan o'tadi.

Og'iz sonorlari *yon* [l], *titroq* [r], *o'rta* [y] tovushlaridan iborat bo'ladi.

Agar shovqin ovozdan ustun tursa, bunday undoshlar *jarangli undoshlar* deyiladi ([b], [v], [g], [d], [j] va boshqalar).

Ovoz va shovqinning ishtirokidan tashqari undoshlar *talaffuz o'rniga ko'ra* va *hosil bo'lish usuliga ko'ra* turlarga ajratiladi.

Talaffuz o'rniga ko'ra undoshlar *lab*, *til* va *bo'g'iz* tovushlariga ajratiladi.

Lab undoshlarini ikki labning uchrashuvi natijasida hosil bo'ladigan lab-lab tovushlari ([b], [p], [m]) va lab bilan pastki

tishlarning uchrashuvi natijasida hosil bo'ladigan lab-tish tovushlari [v], [f]ga ajratish mumkin.

Til undoshlari til oldi, til o'rta, til orqa va chuqur til orqa tovushlariga bo'linadi.

Til oldi undoshlariga [t], [d], [s], [sh], [n] kabi tovushlar kiradi. Til oldi undoshlari o'z navbatida *dorsal* (tish) [s], [z], [n], *apikal* (tanglay) [t], [d] va *kakuminal* (til orqa) – [ch], [sh], [j] tovushlariga ajratiladi.

Til o'rta undosh [y]. O'zbek tilidagi bu tovush til va tanglayning o'rta qismida hosil bo'ladi.

Til orqa undoshlari [q], [g'] tovushlari o'zbek tilida til orqa qismining tanglayni o'rta qismidan orqarog'iga tegishi natijasida hosil bo'ladi.

Chuqur til orqa tovushlari tilning ildizi bilan yumshoq tanglayning bir-biriga tegishi natijasida hosil bo'ladi, o'zbek tilidagi [q], [g'], [x] shunday tovushlar jumlasidandir.

Bo'g'iz undoshlariga o'zbek tilidagi [h] va arab tilidagi [x] va [q] tovushlari misol bo'la oladi. Bu undoshlar bo'g'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladi.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar *portlovchi*, *sirg'aluvchi*, *qorishiq* va ba'zi tillarda *nafas* turlariga ajratiladi.

Portlovchi tovushlarga [b], [p], [t], [d] kabilar kiradi. Bu tovushlar talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi artikulyatsiyada qatnashayotgan nutq organlarining qarshiligini yorib o'tadi, natijada portlash ro'y beradi.

Sirg'aluvchi tovushlarga [v], [f], [s], [sh], [j], [x] lar kiradi. Ularning talaffuzida qatnashayotgan nutq organlarida qattiq jipslashish ro'y bermay, balki bu organlar bir-biriga yaqinlashadi, havo oqimi ularning orasidan sirg'alib o'tadi.

Qorishiq tovushlarga [ch], [j] (o'zbek tilidagi jo'ja so'zidagi tovush)lar kiradi. Bu tovushlar murakkab tarkibli undoshlardir, ya'ni ular ikki undoshning yig'indisidan tashkil topadi ($ch = t + sh$; $j = d + j$ jadal, jo'ra so'zlaridagi). Bu tovushlar talaffuzida tilning oldingi qismi milkka taqaladi, lekin odatdagi portlash yuz bermay, havo asosan sirg'alib chiqadi. Natijada to'la bo'lmagan portlash va uning ketidan sirg'alish ikki xil usul qatnashgan qorishiq tovushlarni hosil qiladi.

Ba'zi tillarda *nafas undoshlari* ham uchrashi mumkin. Bunday tovushlarga aslida sirg'aluvchilarga ham kiritish mumkin bo'lgan ingliz tilidagi [h] tovushi misol bo'la oladi.

Sirg'aluvchi bilan nafas tovushlari orasidagi farq shundaki, sirg'aluvchilar talaffuzida qatnashayotgan organlarning jipslashuvi kuchli bo'ladi, nafas tovushlarida esa talaffuz organlari bir-biriga biroz yaqinlashadi, xolos. Havo oqimining shu oraliqdan o'tishi natijasida yengil tovush hosil bo'ladi. Tillarda nutq tovushlari son jihatdan ham, sifat jihatdan ham bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Masalan, o'zbek tilida 6 unli, 25 undosh, gavay tilida 5 unli 6 undosh, abxaz tilida 2 unli 68 undosh tovush bor. Tillar nutq tovushlari nuqtai nazaridan bir-birini takrorlamaydi, ularning akustik-artikulyatsion xususiyatlari ham har xildir.

SUPRASEGMENT ELEMENTLAR

Nutq tovushlari tilshunoslikda tilning *segment elementlari* deyiladi. Tilning segment elementlaridan tashqari *suprasegment yoki prosodik elementlari* ham mavjuddir. Segment va suprasegment elementlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Til o'z vazifasini to'la-to'kis bajarishi uchun bu ikki elementning o'zaro birligini ta'minlashi darkor. Ulardan biri bo'lib, ikkinchisi bo'lmasa, nutq tushunarli bo'lmaydi.

Suprasegment elementlarga *bo'g'in*, *urg'u* va *ohang* kiradi.

Ma'lumki, nutq zanjirni eslatuvchi bir hodisadir. Zanjirda ayrim xalqalar birin-ketin kelganidek, nutq jarayonida nutq tovushlari, bo'g'inlar, taktlar birin-ketin zanjirsimon namoyon bo'ladi. Suprasegment elementlar nutqqa ohang bag'ishlab, go'yoki segment elementlarning ustiga joylashib, ular bilan birgalikda yagona butunlikni tashkil etadi. Til o'zining kishilar orasidagi muhim aloqa vositasi rolini o'tashi uchun har tomonlama zamin yaratadi.

Urg'u va ohang. So'zlarda bo'g'inlarni, gaplarda so'zlarni va so'z birikmalarini ma'lum vositalar bilan boshqalaridan ajratib ko'rsatish *urg'u* deyiladi. Bu – tillarda so'z va fraza urg'ulari mavjudligidan dalolat beradi.

Soʻz urgʻusi bir mustaqil soʻzni yoki unga bogʻlanib kelgan bir yoki bir nechta yordamchi soʻzlar guruhini boshqalardan ajratib koʻrsatish demakdir. Zamonaviy tilshunoslik dunyo tillarida *dinamik, miqdor, musiqaviy urgʻuni* farqlaydi.

Dinamik urgʻuda ajratib koʻrsatilayotgan boʻgʻin kuchli talaffuz qilinadi, masalan, nemis tilida.

Miqdor urgʻusiga ega boʻlgan tillarda urgʻu olgan boʻgʻindagi unli choʻziqroq talaffuz qilinadi: masalan, rus tilida.

Musiqaviy urgʻuga ega boʻlgan tillarda urgʻu olgan boʻgʻin ovoz tonini koʻtarish va pasaytirish yoʻli bilan ajratib koʻrsatiladi. Shuning uchun bu urgʻu tonik urgʻu deb ham yuritiladi (masalan, xitoy, vyetnam tillarida).

Keyingi yillarda takomillashgan asboblari vositasida oʻtkazilayotgan fonetik tadqiqotlarga koʻra, bu uchala urgʻuning birortasi ham tilda sof holda uchramaydi. Masalan, rus tilida bir boʻgʻinni boshqalardan dinamik urgʻu bilan miqdor urgʻusi hamkorligida ajratadi. Lekin bu oʻrinda miqdor urgʻusi yetakchilik qiladi. Oʻzbek tilining urgʻusi ham shunday. Ingliz tilida dinamik urgʻu yetakchidir. Koʻpchilik xitoy-tibet tillarida yetakchi urgʻu vazifasini ton bajaradi, shuning uchun bu tillardagi urgʻuni musiqaviy deyishadi.

Urgʻuning oʻrniga koʻra – *turgʻun urgʻuli* tillar va *erkin urgʻuli* tillar farqlanadi.

Turgʻun urgʻuli tillarda urgʻu doimo soʻzning maʼlum boʻgʻiniga tushadi. Bu jihatdan *turgʻun urgʻuga* ega boʻlgan tillarni oʻrganish qulay, chunki urgʻu masalasida faqat bitta qoidani bilib olishning oʻzi kifoya. *Turgʻun urgʻuli* tillarga oʻzbek, fransuz, polyak, venger, chex, lotin tillari misoldir. Oʻzbek va fransuz tillarida urgʻu doimo oxirgi boʻgʻinga, polyak tilida oxiridan bitta oldingisiga va venger, chex, lotin tillarida urgʻu hamma vaqt soʻzning birinchi boʻgʻiniga tushadi.

Erkin urgʻuli tillarda urgʻu soʻzning qaysi boʻgʻiniga tushishini oldindan bilish mumkin emas. Bunday tillarda urgʻu soʻzning har xil boʻgʻinlariga tushishi mumkin. Rus, ingliz, nemis tillari shular jumlasidandir.

Soʻz urgʻusi soʻzdagi boʻgʻinlarning birini boshqalariga nisbatan ajratib koʻrsatishni nazarda tutsa, *fraza urgʻusi* soʻz birikmalari yoki bir necha soʻzni boshqalaridan ajratib koʻrsatishni nazarda tutadi.

Fraza (gap) urgʻusining quyidagi turlari bor:

1. Sintaktik urgʻu.
2. Sintaktik-logik (mantiq) urgʻu.
3. Kuchsiz sintaktik urgʻu.
4. Emfatik (his-hayajon) urgʻu.

Masalan: *Biz Navoiy va Boburlar oʻlkasida yashaymiz.*

Fraza urgʻusi ohangning tarkibiy qismidir. Fraza urgʻusidan tashqari ohang tarkibiga nutqning ritmik-melodik tuzilishi ham kiradi.

Nutq jarayonida urgʻu olgan va urgʻu olmagan boʻgʻinlarning birin-ketin kelishi natijasida nutqning ritmi paydo boʻladi. Almashinib keluvchi urgʻuli va urgʻusiz boʻgʻinlar bir vaqtning oʻzida nutqning ohangini taʼminlaydi, chunki urgʻuli ovoz tonini koʻtarishni, urgʻu olmagan esa tonning pasayishini taqozo etadi. Shunday qilib, nutq ohangi murakkab fonetik vositalar yigʻindisidan tashkil topgan boʻlib, unga gap urgʻusi, ohang, pauza, surʼat, ritm, tembr kiradi.

Odatda ohangni ikki turga ajratishadi: pasayuvchi va koʻtariluvchi.

Pasayuvchi ohang koʻproq darak gaplarning birinchi sintagmasida, undov-buyruq gaplarda, koʻtariluvchisi esa, soʻroq gaplarda ishlatiladi. Nutq jarayonida bu ikki ohangning birikuvi ham uchrashi mumkin, bu hol koʻtariluvchi-pasayuvchi ohang deb yuritiladi.

Nutq tovushlarining oʻzgarishi

Nutq jarayonida tovushlar turli oʻzgarishlarga yuz tutadi. Nutq jarayonida tovushlarning bir-biriga taʼsiri natijasida roʻy beradigan oʻzgarishlar *kombinator oʻzgarishlar* deyiladi. Bunday oʻzgarishlarga *akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, gaplogiya, diereza va boshqalar* kiradi.

Tovushlarning talaffuziga ularning soʻzda tutgan oʻrni, urgʻuning taʼsiri sabab boʻlsa, bunday oʻzgarishlar *pozitsion oʻzgarishlar* deyiladi. Bu fonetik hodisalarni koʻrib chiqamiz.

Tovushlarning moslashuvi

Akkomodatsiya lotincha «*accomodatio*» soʻzidan olingan boʻlib, «moslashuv» degan maʼnoni anglatadi. Moslashuv yonma-yon turgan unli va undosh tovushlar orasida sodir boʻladi. Moslashuv *progressiv* va *regressiv* boʻlishi mumkin. Moslashuv hech qachon toʻliq boʻlmaydi, unli va undoshlar bir-biriga faqat qisman moslashadi.

Progressiv moslashuvda keyingi kelayotgan tovushning ekskursiyasi oldingi tovushning rekursiyasiga moslashadi. Masalan, qafas soʻzida *q* chuqur til orqa undoshidan keyin *a* tovushi aslida til oldi tovushi boʻlishidan qatʼi nazar til orqa unlisi kabi talaffuz qilinadi.

Regressiv moslashuvda oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashadi. Masalan, rus tilidagi *dom* va *disk* soʻzlaridagi *d* tovushining talaffuziga ahamiyat bering: *o* orqa unlisidan oldin *d* qattiq talaffuz qilinayapti, *i* old unlisidan oldin esa *u* yumshoq talaffuz etilmoqda. Bu hodisa tilshunoslikda *palatalizatsiya* (*yumshalish*) deyiladi.

Assimilyatsiya lotincha «*assimilatio*» soʻzidan olingan boʻlib, «oʻxshashlik» degan maʼnoni anglatadi. Tovushlarning oʻzaro bir-biriga taʼsiri natijasida biri ikkinchisiga oʻxshab ketishi *assimilyatsiya hodisasi* deyiladi. Assimilyatsiya *progressiv* va *regressiv* boʻlishi mumkin. Oldinda kelayotgan tovush keyingisiga taʼsir oʻtkazib, uni oʻziga oʻxshatib olsa, *progressiv assimilyatsiya* roʻy beradi. Masalan, *ochdi*, *botdi* soʻzlaridagi *d* tovushi oldingi jarangsiz undoshlar taʼsirida *t* deb talaffuz qilinadi.

Keyingi kelayotgan tovush oʻzidan oldingisini oʻziga oʻxshatib olsa, *regressiv assimilyatsiya* deyiladi. Oʻzbek tilidagi *bir* soʻziga *t* qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida, keyingi *t* taʼsirida *r* tovushi ham *t* ga aylanadi, yaʼni *bir + ta = bitta*. Qiyoslang: *yuz – yuzsiz, yigit – yigitcha*.

Tilshunoslikda *distant* (*bilvosita*), *kontakt* (*bevosita*) *assimilyatsiya* ham ajratiladi. Yonma-yon turgan tovushlarning bir-biriga taʼsiri *aloqadagi assimilyatsiya* deyiladi. Yuqorida keltirilgan misollar ana shu turdagi *assimilyatsiyaga* xosdir. *Distant assimilyatsiya deganda* bevosita aloqada boʻlmagan (yaʼni yonma-yon turmagan) tovushlarning bir-biriga taʼsiri tushuniladi. Masalan,

o‘zbek tilidagi *men* olmoshining boshida turgan *m* tovushi qadimda *b* bo‘lgan, so‘zning oxiridagi *n* ta‘sirida *b* burun sonantiga aylangan, ko‘plik *biz* shaklida *n* bo‘lmagani uchun *b* saqlanib qolgan. Hozirgi zamon turk tilida birinchi shaxs kishilik olmoshi *ben* deb talaffuz qilinadi. Bu tilda *b* assimilyatsiyaga uchramagan. Toshkent shevasida *buni* olmoshi ham ko‘pincha *muni* deb talaffuz qilinadi. Bu holda ham *n* tovushining ta‘sirida *b* tovushi assimilyatsiyaga uchraydi.

Dissimilyatsiya termini lotincha «*dissimilation*» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «*o‘xshamaslik*» ma‘nosini anglatadi. Talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan tovushlardan biri o‘zining fiziologik yoki akustik xususiyatlarini o‘zgartirib yuborsa, bunday hodisa dissimilyatsiya deyiladi: *zarur* – *zaril*, *damba* – *danba* va hokazo.

Diereza so‘zdagi tovushlardan birini talaffuz qilmay tushirib qoldirishdir: *dastlab* – *daslab*, *past* – *pas*, *dashtga* – *dashga* va hokazo.

Metateza yonma-yon turgan tovushlarning o‘rin almashishi hodisasidir. Masalan: *ahvol* – *avhol*. O‘zbek og‘zaki tilida *yurgan dayro o‘tirgan bo‘yro* maqolida analogiya prinsipiga asosan *daryo* so‘zi *bo‘yro* so‘zi ta‘sirida *dayro* deb talaffuz qilinishi ham metatezaga misoldir.

Gaplogiya ikki yonma-yon turgan tovush yoki o‘xshash bo‘g‘inlardan birining tushib qolish hodisasidir. Masalan, ingliz tilidagi *itself* olmoshida gaplogiya hodisasi bor, bu olmosh ikki so‘zdan *its* + *self* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan: ikkita *s* dan biri tushib, bittasi yoziladi, ya‘ni: *its* + *self* = *itself*.

Epenteza so‘zlarga ularning tarkibida yo‘q bo‘lgan tovushlarning qo‘shilib aytilishi hodisasidir. O‘zbek tilida *u* olmoshiga o‘rin-payt, chiqish va jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilganda unga *n* tovushi qo‘shiladi: *unda*, *undan*.

Tovushlarning pozitsion o‘zgarishlari. Ba‘zi tillarda nutq tovushlari so‘zda tutgan o‘rinlariga qarab talaffuzda va rasmiy yozuvda orfografiyada o‘zgarib ketishi yoki tushib qolishi mumkin. Bunday hodisalar o‘zbek tilida ham uchraydi. Masalan, so‘zning oxiridagi jarangli tovushlar jarangsizlanib qolishi mumkin: *zavod*, *bod*, *bob*, *adib* so‘zlaridagi oxirgi *d* va *b* tovushlari *t* va *p* bo‘lib talaffuz qilinadi, ba‘zi so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida, so‘zning urg‘usi qo‘shimchaga o‘tadi, avval urg‘u olgan unli tushib qolishi mumkin:

singil – singlim, burun – burnim, og‘iz – og‘zim kabi. Bu masala boshqa tillarda ham ko‘p tarqalgan reduksiya hodisasiga misoldir.

Reduksiya «*qisqarish*» ma‘nosini anglatib, unli tovushlarning urg‘uli yoki urg‘usiz holatiga taalluqli hodisadir. Bu hodisa dinamik urg‘u bilan uzviy bog‘liq. Ba‘zi tillarda unililar urg‘u olganda bir xil, urg‘u olmagan boshqacha talaffuz qilinish xususiyatiga ega. Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan uch xil: *miqdor, sifat va to‘liq* reduksiyani ko‘rsatish mumkin.

Miqdor reduksiyasi hamma tillarga xos bo‘lsa ham, cho‘ziq va qisqa unilarga ega bo‘lgan tillarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Urg‘u olmagan bo‘g‘inda cho‘ziq unilarning qisqa talaffuz qilinishi miqdor reduksiyasidir. Ingliz tilidagi kishilik olmoshlari bunday reduksiyaga yaxshi misol bo‘la oladi: *he, she, we* olmoshlari urg‘u olganda cho‘ziq [i:] fonemasi bilan, ya‘ni [hi:] [Si:] [wi:] tarzida o‘qiladi. Lekin urg‘u olmagan holda cho‘ziqlik qisqarib [hi’], [Si’], [wi’] kabi o‘qiladi.

Sifat reduksiyasida urg‘usiz pozitsiyadagi unli faqat qisqaribgina qoimay, balki boshqa tovushga o‘tib ketadi. Masalan, rus tilidagi *вязать* so‘zida urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga tushadi, birinchi bo‘g‘indagi *ya* tovushi *i* deb talaffuz qilinadi. Ingliz tilida urg‘usiz holatda bu hodisa ko‘plab uchraydi: *to* so‘zida urg‘u olmagan *o* unlisi neytral [ə] tarzida talaffuz qilinadi; *private* so‘zidagi urg‘u olmagan *a* unlisi [ɪ] deb talaffuz qilinadi, ya‘ni [praɪvɪt].

To‘liq reduksiyada urg‘u olmagan holatdagi ba‘zi unililar umuman tushib qoladi. Yuqorida o‘zbek tilida keltirilgan misollar reduksiyaning ana shu turini aks ettiradi: *qorin – qorni, burun – burni*; urg‘uning oxirgi bo‘g‘inga ko‘chishi bilan *i* unlisi talaffuzdan tushib qoladi. Bunday reduksiya ingliz tilida ham uchraydi: *lesson* [lesn], *final* [finl]. Urg‘u olmagan bo‘g‘inlardagi *o* va *a* unililari talaffuzdan tushib qolmoqda. Bunday misollarda bo‘g‘in yasovchi [n] va [l] tovushlarining ahamiyati ham katta.

Tovush va harf

Tovush va harf to‘g‘risida gap borganda o‘qish va yozish nazarda tutiladi. Hamma gap shundaki, dunyodagi tillarning alfavitidagi harflar soni bilan tillardagi tovushlar soni hamma vaqt bir-biriga

mos kelavermaydi. Tilshunoslikda tovush bilan harf orasidagi munosabatni orfografiya o'rganadi. Orfografiya grekcha «*orthos*» – to'g'ri va «*grapho*» yozaman degan so'zlardan tashkil topgan bo'lib, imlo qoidalari bilan shug'ullanadi (bu haqda yozuv bobiga qarang).

O'qish bilan yozish orasidagi eng yaqin munosabat o'zbek tilida ta'minlangan. Imkoni boricha harflar tovushlarga mos keltirilgan. Ma'lum tartib asosida joylashtirilgan harf va belgilar *alfavit* deyiladi.

Hozirgi zamon ingliz tilida o'zbek tilidagi kodisanning aksini ko'ramiz. Bu tilda alfavitdagi harflar soni tovushlar sonidan deyarli ikki marta kam, ya'ni 44 tovushga 26 harf to'g'ri keladi. Bunday hol tabiiy ravishda o'qish bilan yozishni qiyinlashtiradi, chunki bir harf bir necha xil tovushni ifodalashi mumkin. Undan tashqari bunday tillarda yakka tovushni ifodalovchi harflar birikmasining ham ko'p bo'lishi tabiiy. Ko'pchilik roman-german tillari shular jumlasidandir. Tovush va harf orasida nomutanosiblik bor tillarda *transkripsiya* deb atalmish maxsus yozuv muhim ahamiyat kasb etib, undan o'qish-o'qitish ishlarida keng foydalaniladi. Bu haqda keyinroq fikr yuritamiz.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Fonetika qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. Fonetika jihatdan nutq qanday birliklarga bo'linadi?
3. Fraza, takt, bo'g'in va nutq tovushini ta'riflang. Fraza va gap, takt va so'z birikmasi, bo'g'in va morf orasidagi farqlarni qayd eting. Enklitik va proklitik elementlar deganda nimani tushunamiz? Bo'g'inning turlarini misollarda ko'rsating. Bo'g'in bilan bog'liq qanday nazariyalarni bilasiz?
4. Fonologiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi? Ularni fonetika o'rganadigan masalalar bilan qiyoslang. Fon va fonema orasidagi farqni tushuntiring.
5. Nutq tovushlarining akustik xususiyati deganda nima tushuniladi?
6. Nutq tovushlarining fiziologik xususiyati deganda nima tushuniladi?
7. Nutq organlari qanday vazifani bajaradi? Aktiv va passiv nutq organlari orasidagi farq nimadan iborat?

8. Nutq tovushlari qaysi nuqtai nazardan tasniflanadi? Nutq tovushlari nimadan tashkil topadi?
9. Qanday tovushlar unli tovushlar deyiladi? Ular qanday turlarga bo'linadi?
10. Undosh tovushlar unlilardan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi? Undosh tovushlarni turlarga ajrating.
11. Sonor (sonant) tovushlari deb nimaga aytiladi?
12. Monoftong, diftong, triftong, digraf atamalarining ma'nolarini tushuntiring, misollar keltiring.
13. Tilning segment va suprasegment elementlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
14. Urg'u deb nimaga aytiladi? Uning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
15. Qanday tillar turg'un urg'uli tillar deyiladi? Turg'un urg'uli tillar qanday boshqa tillarga qarama-qarshi qilib qo'yiladi?
16. So'z urg'usi fraza urg'usidan farq qiladimi?
17. Nutq tovushlarning kombinator o'zgarishida qanday hodisalarga duch kelamiz?
18. Nutq tovushlarining pozitsion o'zgarishida qanday hodisalar ro'y beradi?
19. Tovush va harf o'rtasida farq bormi? O'zbek, rus va chet tillar misolida ular orasidagi munosabatni tushuntirib bering.
20. Ona tilingiz va o'qiyotgan xorijiy tilingiz orasidagi asosiy fonetik tafovutlar to'g'risida gapirib bering.

IV BOB

MORFOLOGIYA

Yuqorida aytilganidek, til va nutq asosan to‘rt yarus: fonetika – fonologiya, morfologiya, leksikologiya va sintaksisdan tashkil topadi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda morfologiya va sintaksis yaruslari bir atama bilan – *grammatika* deb ataladi. Quyida morfologiya yarusi shug‘ullanadigan masalalar ustida to‘xtalamiz.

Nutqni eng kichik ma’no anglatuvchi birliklarga ajratish

Tilni yaruslarga ajratishning asosiy shartlaridan biri, har bir yarusning o‘z o‘rganish obyektiga ega bo‘lishidir.

Ma’lumki, fonetik – fonologik yarusning birliklari *fon* va *fonema* deb ataladi. Fon nutqdagi eng kichik ma’no anglatmaydigan, lekin ma’no anglatuvchi birliklarning ma’nosini o‘zgartirishga xizmat qiladigan birliklardir.

Morfologiyaning birligi esa – nutq faoliyatidagi eng kichik ma’no anglatuvchi elementdir. Bu elementning nutqdagi ko‘rinishi morf va tildagi ko‘rinishi morfema ekanligi yuqorida qayd etilgan edi. O‘zbek tilidagi *ishchi* so‘zi ikkita morfdan tashkil topgan, chunki bu so‘zning tarkibida ikkita eng kichik ma’no anglatuvchi birlik: *ish* va *chi* bor. *Ish* va *chi* elementlari boshqa kichikroq ma’nodor bo‘laklarga bo‘linmaydi. *Ish* so‘zini *i*, *sh* singari bo‘laklarga bo‘lish mumkin, lekin ular hech qanday ma’no anglatmaydi. *Ishchilarimizdan* degan so‘zda esa oltita eng kichik ma’no anglatuvchi bo‘laklar bor: *ish-chi-lar-im-iz-dan*. *Ish* – so‘zning o‘zagi, *chi* – kasbni ko‘rsatuvchi, *lar* – ko‘plik ma’nosini anglatuvchi, *im* – shaxs ma’nosini, *iz* – ko‘plik ma’nosini va *dan* – chiqish ma’nosini anglatuvchi elementlardir. Shunga o‘xshash misollarni boshqa tillardan ham keltirish mumkin.

Ingliz tilidan: *fishers* so‘zi uchta ma’no anglatuvchi birlik, ya’ni *fish* -er va -s dan tashkil topib, o‘zbek tiliga «*baliqchilar*» deb tarjima qilinadi.

Shunday qilib, morfologiyaning birligi fonetika, fonologiya birligidan tubdan farq qiladi. Morfologiya birligi ma’nodor,

onetikaniki esa ma'no anglatmaydigan birliklardir. Morf va morfemalar *ikki tomonlama birliklar* deb yuritiladi, fon va fonemalar sa *bir tomonlama birliklardir*. Chunki morf va morfemalarning fodalovchi va ifodalanuvchi tomonlari bor (ba'zi adabiyotlarda fodalovchi plan va ifodalanuvchi plan deb ham yuritiladi). Ifodalovchi deganda morf va morfemalarning og'zaki nutqda eshitaladigan tovush va tovushlar birikmasini, yozma nutqda esa harflarni yoki harflar birikmasini tushunamiz. Ifodalanuvchi deganda eshutilgan tovush yoki o'rilyotgan harf, harf birikmalarining anglatadigan ma'nosi ushuniyladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, morfemalarni bo'g'inlar bilan ralashtirmaslik lozim. Birinchidan, morf va morfemalarni morfologik aruz, bo'g'inlarni esa fonetika o'rganadi. Ikkinchidan, morf va morfemalar hamma vaqt bo'g'inlarga to'g'ri kelavermaydi va hamma bo'g'inlar ham morf va morfemalarga mos bo'lavermaydi. Masalan, o'zbek tilidagi *ko'cha* so'zi ikki bo'g'indan, lekin bir morf dan tashkil topgan, *otam* so'zi esa ikki bo'g'in va ikkita morf dan tashkil topgan bo'lsa ham, ularning chegarasi bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Fonetik jihatdan bo'g'inlarga bo'ladigan bo'lsak, unda bu so'z: *o-tam*, morfologik jihatdan eng kichik ma'no anglatuvchi bo'laklarga bo'lsak *ta-m* tarzida ajratiladi. Ba'zi hollarda morflar chegarasi tasodifan bo'g'in chegarasiga mos kelib qolishi mumkin. Masalan: *darслиklar*, *shchilar* va hokazo.

MORF VA MORFEMA

Avval ta'kidlanganidek, morf nutqning morfologik yarusidagi eng kichik ma'no anglatuvchi birligi, morfema esa tilning morfologik yarusidagi eng kichik ma'no anglatuvchi birligidir.

Morf va morfema hamma vaqt bir-biriga teng kelavermaydi. Til birligi bo'lmish morfema nutqda bitta morf orqali va ba'zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkin. O'zbek tilida otlarda to'prik bitta *-lar* morfemasi bilan ifodalanadi. Bunday hollarda morf va morfema bir-biriga mos keladi. Yoki chiqish ma'nosi kelishik to'shimchasi orqali, ya'ni *-da* ham xuddi shunday misol bo'la oladi.

Lekin jo'nalish ma'nosi o'zbek tilida turli qo'shimchalar bilan amalga oshiriladi: (-ga, -ka, qa). Bunday hollarda bir morfema uchta morf orqali namoyon bo'ladi. Odatda bir morfemaga kiruvchi morflar shu morfemaning variantlari yoki allomorflari deyiladi. Demak, *allomorf deb*, turli shaklga ega bo'lgan lekin bir xil ma'no anglatadigan va bir morfemani tashkil etadigan morflarga aytiladi. Allomorflarga misollar hind-ovrupo tillarida ko'plab uchraydi: [ɨ], [ɪ], [a], [ɤ] kabi rus tilidagi ko'plikni ko'rsatuvchi allomorflar shular jumlasidandir.

Morflarning turlari .

Morflar nutqda mustaqil ishtirok eta olishi va eta olmasligi, anglatgan ma'nosi, ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlarining nutqda qay tarzda namoyon bo'lishi hamda ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlarining son jihatdan bir-biriga munosabatiga ko'ra turlarga ajratiladi.

Nutqda mustaqil ishtirok eta olishi yoki eta olmasligi jihatdan morflar ikki turkumga ajraladi:

1. *Mustaqil ishtirok eta oladigan morflar*. Masalan: *ot, dars, tez, va, ham, bilan*.

2. *Mustaqil ishlatilmaydigan morflar*. Masalan: *-lar, -ni, -dek, -chi, -zor* va hokazo. Bu turkumga kiruvchi morflar doimo mustaqil so'z turkumlariga qo'shib keladi.

Morflarning bu turlari o'z navbatida anglatgan ma'nolariga ko'ra *leksik ma'no anglatuvchi mustaqil morflar va grammatik ma'no anglatuvchi mustaqil morflarga* ajraladi.

Mustaqil leksik morflar narsa-hodisalarni anglatadi, masalan: *ot, dars, tez* va hokazo.

Grammatik morflar mustaqil ishlatilsa ham, mustaqil leksik ma'no anglatmaydi, ular so'zlarning grammatik shakllarini hosil qilish, gaplar ichidagi so'zlar orasida grammatik munosabatlar o'rnatishga xizmat qiladi. Bunday morflarga ko'makchi, bog'lovchi, predloglar, artikllar, yordamchi fe'llar va hokazolar kiradi.

Mustaqil ishlatila olmaydigan morflarni affiksial morflar deb atash ham mumkin. Bu turkum morflar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

yangi soʻz yasovchi leksik morflar va shakl (forma) yasovchi grammatik morflar.

Soʻz yasovchi affiksial morflar (oʻzbek tilida /-chi/, /-dor/, /-zor/, /-siz/, /-lab/, /-la/; rus tilida /-тель/ (учитель, писатель), /-чик (пе-ченищик, счётчик) yangi soʻz yasash uchun ishlatiladi. Demak, soʻz yasovchi affiksial morflar oʻzakka qoʻshilib, shu oʻzakning maʼnosi bilan bogʻlangan va yangi maʼnodagi soʻz hosil qilishda ishtirok etadigan morflardir.

Soʻz yasovchi affiksial morflarni tobe leksik morflar ham deyish mumkin. Chunki ular soʻzlarga qoʻshilib, yangi soʻzlar yasashda bevosita ishtirok etadilar. Affiksial morflarning ikkinchi turi, yaʼni grammatik affiksial morflar soʻzlarga qoʻshilganda, ularning leksik maʼnolarini oʻzgartirmaydi, balki soʻzlarning grammatik shakllarini oʻzgartirishga yoki soʻzlar orasida maʼlum grammatik munosabatlar oʻrnatishga xizmat qiladi. Ana shu ikki vazifadan qaysi birini bajarishiga qarab, grammatik affiksial morflar oʻz navbatida yana ikki turga boʻlinadi: *soʻz oʻzgartuvchi affiksial grammatik morflar (fleksiyalar)* va *shakl (forma) yasovchi grammatik affiksial morflar*.

Soʻzning asosiy leksik maʼnosini oʻzgartirmay, u anglatgan hodisa va narsalarning borliqqa munosabatini ifodalaydigan morflarga *shakl (forma) yasovchi grammatik affiksial morflar* deyiladi. Bunday morflarga oʻzbek, rus, ingliz, fransuz, nemis tillaridagi koʻplikni anglatuvchi morflar, sifat va ravish darajalarini yasaydigan morflar kiratilishi mumkin.

Soʻzning soʻz birikmalari va gaplardagi boshqa soʻzlarga aloqasini, munosabatini koʻrsatishga xizmat qiladigan morflar *soʻz oʻzgartiruvchi affiksial grammatik morflar* deyiladi. Bunday morflarga illardagi kelishik kategoriyalarining qoʻshimchalari kiradi. Oʻzbek tili misolida bu ikki xil grammatik morf orasidagi farqni koʻrishimiz mumkin.

Sen uni chaqirding. Sen ularni chaqirding.

Bu ikki gapdagi tushum kelishigining koʻrsatkichi *-ni* ning ishlatilishi majburiy, aks holda soʻzlar bir-biri bilan bogʻlanmaydi. Lekin koʻplik qoʻshimchasi *-lar* ning ishlatilishi majburiy emas: uning bor boʻlishi yoki boʻlmasligi mazkur gaplarda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishiga aloqasi yoʻq.

Soʻz oʻzgartuvchi grammatik affiksial morflar bilan shakl (forma) yasovchi grammatik affiksial morflar soʻzning leksik maʼnosiga hech qanday taʼsir oʻtkazmaydi, faqat soʻzning grammatik maʼnosini oʻzgartirishga xizmat qiladi.

Affiksial morflar oʻzakka nisbatan joylashishi nuqtai nazaridan uch turga boʻlinadi: *prefiksial, infiksial va postfiksial morflar*.

Prefiksial morflar oʻzakning oldida joylashadi: *befarq, badavlat, uz-natʼ, pochinitʼ, nauluchiiy, nepечитатʼ, rewrite, disclose, unusual*.

Infiksial morflar oʻzakning ichiga joylashgan boʻladi. Infiksial morfga eng yaxshi misol lotin tilidan keltirilishi mumkin: *findo* soʻzidagi *n* infiksial morf boʻlib, feʼlning hozirgi zamon qoʻshimchasidir. Bu soʻz *fid* (sanchmoq) degan infinitivdan yasalgan.

Baʼzi olimlar ingliz tilidagi baʼzi soʻzlarning koʻplik shaklining yasalishini infiksial morfga misol qilib koʻrsatishadi:

<i>foot (oyoq)</i>	<i>feet (oyoqlar)</i>
<i>man (kishi)</i>	<i>men (kishilar)</i>

Soʻzlarning grammatik shaklining bunday yoʻl bilan yasalishi, ayniqsa, arab tiliga xosdir, masalan:

Ktaab - kitob
Kutub -kitoblar

Postfiksial morflar koʻpchilik tillarga xosdir. Postfiksial morf oʻzakdan keyin joylashgan boʻladi. Masalan: *sinfdosh, paxtadan, oypadek, спутник, белый*.

painting, worker, freedom (ingliz tilidan)
herzlich, Arbeiter, Freiheit (nemis tilidan)

SOʻZ MODDIY TARKIBINING OʻZGARISHI

Maʼlumki, dunyoda oʻzgarayotgan narsa yoʻq – hamma narsa vaqt oʻtishi bilan maʼlum darajada oʻzgarib turadi. Til ham bundan mustasno emas. U doimo evolyutsiyada. Bu oʻzgarish tilning hamma bosqichlariga xos narsa. Tilda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar soʻzning tarkibiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi, natijada u ham asta-sekin oʻzgarib boradi. Soʻz tarkibining oʻzgarishi turli tillarda turli yoʻl bilan boradi. Tilshunoslik fanining tarixida asosan uchta yoʻl

a'kidlanadi: soddalashuv, qayta tuzilish va murakkablashuv. Bu yo'llarning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Soddalashuv

Qo'shma yo'l bilan yasalgan negizlarning yasama negizlarga o'tish yoki qo'shma negiz bilan yasama negizning tub negizga o'tish hodisalari *soddalashuv* deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, ko'p morfli so'zning bir morfli so'zga o'tib qolish hodisasi tilshunoslikda soddalashuv deb nom olgan. Odatda, bu hodisa so'zning ichki shaklini o'zgartirishi, ya'ni morflar orasidagi chegaraning buzilishi natijasida bo'lay beradi.

Soddalashuv ikki sababga ko'ra sodir bo'lishi mumkin:

1) *u yoki bu morf ma'nosini kuchsizlanishi va asta-sekin yo'q bo'lib ketishi;*

2) *bir so'zdagi o'zakni o'ziga qardosh bo'lgan boshqa o'zaklar bilan aloqasining uzilishi natijasida.*

Bu ikki sababning birinchisiga quyidagi so'zlar misol bo'la oladi: rus tilidagi *петельный* so'zi hozirgi vaqtda so'z yasovchi affiksi bo'lmagan sodda (tub) so'z sanaladi, chunki qadimgi rus tilidagi *пет* bahs ma'nosida) so'zi ishlatilishdan chiqib ketgan. Aslida esa *петельный* so'zi *ret* ot va – *iv* sifat yasovchi morflardan tashkil topgan. Hozirgi zamon rus tilidagi *нужный, хижина, кольцо* so'zlarini ham qayta tuzilish usulida tushuntirish mumkin. Bir vaqtlar rus tilida *нужа, сужа* va *коло* so'zlari bo'lgan, ana shu so'zlarga –*n*, –*in*, –*u* so'z yasovchi va shakl yasovchi –*ый*, –*a*, –*o* larning qo'shilishi natijasida hosil qilingan. Lekin hozirgi paytda bu so'zlar tub so'zlar qatoridan chiqib ketgan va ularning tarkibi to'g'risida gap borganda, ularni quyidagi morflarga ajratishadi: *нужн-ый, хижин-а, кольцо-о*.

Ikkinchi usuliga esa quyidagilar misol bo'la oladi.

Hozirgi zamon rus tilida *жизь* degan so'z bor. Bu so'z tub so'z hisoblanadi. Rus tilida bu so'zga o'zakdosh so'zlar ham mavjud, nasalan: *жизнь, живой*. Bu so'zlarning asosida yotgan o'zak ham na'lum – *жить*. Lekin hozirgi paytda *жизь* so'zi bilan qolgan uch o'z orasida hech qanday bog'lanish sezilmaydi. Aslida esa *жизь* so'zi *жи* o'zagidan va – *p* so'z yasovchi qo'shimchadan tashkil topgan

bo'lib, «*hayotda orttirilgan*» degan ma'noni anglatgan. Shunday qilib, qadimgi rus tilidagi – *r* so'z yasovchi morfema hozirgi vaqtda o'zakning ajralmas qismi hisoblanadi va bu o'zak asosida yangidan yangi so'zlar yasaladi: *жирный, жиреть, обезжиренный* va hokazo.

Ba'zan soddalashuv so'z tarkibida sodir bo'ladigan qator fonetik o'zgarishlar natijasida amalga oshadi. Masalan, rus tilidagi *закоулок* so'zining soddalashuvida ikki omil o'z ta'sirini o'tkazdi:

1. Bu so'zning tarkibidagi bir bo'g'in tushib qoldi, aslida bu so'z quyidagicha ko'rinishga ega edi: *заколулок*.

2. Bu so'zning asosida yotgan *коло* o'zagi ishlatilishdan chiqib ketdi.

Adler nemis so'zining soddalashuvida so'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hozir bu so'zning ma'nosi *burgutdir*. Aslida bu so'z qo'shma so'z, ya'ni *adal* va *ar* bo'lib, «*asl qush*» degan ma'noni anglatgan. Bu so'zdagi fonetik o'zgarishdan tashqari *ar* so'zi ishlatilishdan chiqib ketgan. Rus tilidagi *защипа* so'zining dastlabki fonetik tarkibi *защипа* bo'lib, *за* va *щипа* dan tashkil topgan.

So'zning morfologik tarkibining soddalashuvi, ayniqsa bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashtirilganda ko'p ro'y beradi: yasama va qo'shma so'zlar sodda so'z sifatida o'zlashtiruvchi tilga kirib keladi. Masalan, ingliz tilidan o'zlashtirilgan *futbol* so'zi o'zbek tilida tub so'z hisoblansa, ingliz tilida qo'shma so'zdir: *foot* – *oyoq* va *ball* – *to'p*. Nemis tilidan kirib kelgan *kurort* so'zi ham bu tilda qo'shmadir, ya'ni *kur* – *dam*, *ort* – *joy*. O'zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan *astoydil* so'zi garchi o'zbek tilida tub so'z hisoblansa ham, fors tilida uch so'zdan tashkil topgan – *az tagi dil*.

Qayta tuzilish

So'z moddiy tarkibi o'zgarishining *qayta tuzilish yo'li* deganda so'zdagi morflar chegarasining o'zgarishi va buning natijasida yangi affiksalar morflarning paydo bo'lishi tushuniladi.

Qayta tuzilishda so'zning negizi yasamaligicha qolaveradi, lekin u morflarga ajratilayotganda ularning chegarasi o'zgarib, bu so'zni tuzilishda ishtirok etgan dastlabki morflar asl ko'rinishini yo'qotadi

a soʻz yangicha tarkibiy qismlarga ajratiladi. Qayta tuzilish jarayonida *analogi* va hodisasi va eskirgan morflarning tildan chiqib etishi ayniqsa katta ahamiyatga ega boʻladi. Masalan, hozirgi zamon rus tilida *смелость* va *готовность* yasama soʻzlari bor. Birinchisi *мел* oʻzagi va *-ость* soʻz yasovchi morfidan, ikkinchisi esa, *готов* oʻzagi va *-ность* soʻz yasovchi morfidan tashkil topgan. Shunday qilib, hozirgi zamon rus tilida bir funksiyani bajaruvchi ikki soʻz yasovchi affiks *-ость* va *-ность* bor. Baʼzi olimlarning fikricha, *-ность* morfi yanada yanqroq paydo boʻlgan, dastlabkisi – *ost* dir. Ular buni quyidagicha tushirib berishadi. Bir vaqtlar rus tilida *готовый* va *готовный* sifatlari mavjud boʻlgan. Bu sifatlardan mavhum ot yasalganda *готовный* soʻziga *-ность* affiksi qoʻshilgan. Yasalgan otning avvallari quyidagicha tarkibiy qismlarga ajratilgan: *готовн* *-ость*; *-н* – va *-ость* negiz yasovchi morf. Ular yonma-yon turganligi uchun vaqt oʻtishi bilan ular bir-biriga oʻshilib ketgan va hozirgi kunda bu soʻz yangicha tarkibiy qismlarga ajratiladi: *готов* oʻzak va *-ность* negiz yasovchi morf. Bu hodisa oʻz avbatida, tildan *готовный* degan sifatning tushib qolishiga sababchi boʻlgan. Mavhum ot *готовность* bevosita *готовный* sifatiga *-ость* affiksini qoʻshish orqali yasaladi, deb qabul qilingan.

Shunday qilib, bu misolda koʻrsatilgan qayta tuzilish jarayonini quyidagicha tasvirlash mumkin:

готов-н-ый < *готов-н-ость* < *готов-ность*

Baʼzi hollarda soʻzlar ham qayta tuziladi. Bunga rus tilidan yana bir misol keltirish mumkin. Bu tilda unli bilan boshlanadigan olmoshlar bilan boshlanadigan variantlari ham bor.

Я дал ему книгу

Я дал им книгу

Я пришел к нему

Я пришел к ним

Bir vaqtlar rus tilidagi *с* va *к* bir tovushdan emas, balki uchta tovushdan tashkil topgan: *сьн, кьн*.

Maʼlumki, predloglar yordamchi soʻzlarga mansub boʻlib, nutqda zarur boʻlmaydi. Ular olmoshlar oldida ishlatilganda, ritmning taʼsiri natijasida, olmoshlar bilan qoʻshilib talaffuz qilingan: *кьнему, сьним*. II va XIII asrga kelib (unsiz) jarangsiz tovushining til sistemasidan chiqib ketishi natijasida yuqorida keltirilgan soʻzlar orasidagi chegara yoʻqoldi: dastlabki uch tovushli predloglar uning birinchi tovushi mustaqil soʻz – predlogga aylandi, oxirgi tovush esa olmoshlar bilan

boshlang'ich tovushlari qatoriga o'tdi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

сън ум < съним < съ ним < с ним

Murakkablashuv

So'z moddiy tarkibi o'zgarishining uchinchi yo'li *murakkablashuv* nomini olgan.

Murakkablashuv deganda, avval tub so'z hisoblangan so'zlarni yasama yoki murakkab so'zlar qatoriga o'tib qolishi yoki bir morfli so'zlarning ikki va undan ortiq morfli so'zlarga o'tib qolishi tushuniladi.

Masalan, golland tilidan rus tiliga o'tgan *зонедек* so'zi *зонтик* tarzida o'zlashtirilib, analogiya qoidasiga binoan bu so'zning tarkibi *столук*, *домик* so'zlari tarkibi singari *зонт* va *-ук* morfemalariga ajratiladi.

Murakkablashuv hodisasi avvalgi hodisaga qaraganda tillarda kamroq uchraydi.

Shunday qilib, so'z moddiy tarkibining o'zgarishi deganda mazkur so'zning dastlabki ko'rinishi bilan uning hozirgi morfologik tarkibi orasidagi o'zgarish tushuniladi. Bu hodisalarni aniqlashda qiyoslash katta ahamiyatga egadir.

So'z moddiy tarkibining o'zgarishi til taraqqiyotini ko'rsatuvchi omillardan biridir.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Morfologiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. Morf va morfema deganda nimani tushunasiz?
3. Morf va fon hamda morfema va fonema orasidagi umumiylik va farqlarni tushuntiring.
4. Bo'g'in va morf bir-biriga tengmi? Farq qilsa, misollar yordamida tushuntiring.
5. Allomorflar qanday til hodisasini ifodalaydi?
6. Mustaqil ishlatilish nuqtai nazaridan morfning qanday turlarini bilasiz?

7. Morflar qaysi xususiyatlariga ko‘ra turlarga ajratiladi? Anglatgan ma’nolariga ko‘ra morflar qanday turlarga bo‘linadi?
8. Mustaqil leksik morflar mustaqil bo‘lmagan, affiksial leksik morflardan nimasi bilan farq qiladi? Mustaqil leksik va mustaqil grammatik morflarning farqlarini tushuntiring.
9. Affiksial morflar qanday turlarga ajraladi? Ularni o‘zbek, rus va chet tillar misollarida tushuntirib bering.
10. Affiksial leksik va affiksial grammatik morflarning o‘xshash tomonlari va farqlarini gapirib bering.
11. So‘zning moddiy tarkibi deganda nimani tushunasiz?
12. So‘zning moddiy tarkibini o‘zgarmaydigan barqaror narsa deb bo‘ladimi?
13. Soddalashuv deganda qanday til hodisasi tushuniladi? Boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirishda soddalashuvning rolini tushuntiring.
14. Qayta tuzilish va murakkablashuv hodisalarini tushuntirib bering.

GRAMMATIK MA'NO

Yuqorida nutqning eng kichik ma'no anglatuvchi birliklari anglatgan ma'nolariga ko'ra leksik va grammatik morflarga ajratilishi aytib o'tilgandi. Demak, tilda asosan ikki xil: leksik va grammatik ma'no bor.

Leksik ma'no tashqi dunyodagi birorta voqea, hodisa, ish - harakat, belgi, rang, son kabi ma'nolar bilan bog'langandir. Qiyoslang: *uy, shodlik, yugur, sariq, besh* va *hokazo*. Grammatik ma'no leksik ma'nodan farq qilib, leksik ma'no singari dunyodagi narsa va voqealarni aks ettirmaydi. Grammatik ma'no bir yoki bir necha so'z turkumiga xos bo'ladi. Leksik ma'no leksik vositalar bilan bog'liq bo'lganidek, grammatik ma'no tillarning grammatik vositalari bilan bog'liq bo'ladi.

Leksik va grammatik ma'nolar xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qilsa ham, ishlatishda, ya'ni nutqda bir-biriga uzviy bog'langan. Biri ikkinchisiz uchramaydi: faqat leksik vositalar bo'lib grammatik vositalar bo'lmasa, yo, aksincha, faqat grammatik vositalar bo'lib, leksik vositalar bo'lmasa, kishilar bir-biri bilan muloqot qila olmaydi, til o'zining asosiy kommunikativ vazifasini o'tay olmaydi. Grammatik ma'no leksik ma'noga qo'shimcha ravishda namoyon bo'ladi va turli grammatik munosabatlarni ifodalaydi: bir so'zning ikkinchi so'zga bo'lgan munosabatini, so'zni shaxsga, songa, zamonga va hokazolarga bo'lgan aloqasini ko'rsatadi.

Masalan, *uy, nok, kitob, tulki, neytron, bo'g'in* so'zlarining leksik ma'nolari har xil: oltita so'z olti xil leksik ma'no anglatadi, lekin ularning grammatik ma'nolari bir xil: ular hammasi birlik va bosh kelishik shaklida.

Agar bu so'zlarga biz *-dan* qo'shimchasini qo'shsak (*uydan, nokdan, kitobdan, tulkidan, neytrondan, bo'g'indan*) ular birlik va chiqish kelishigi ma'nolarini anglatadi. Demak, so'zning grammatik o'zgarishi uning leksik ma'nosiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Shu so'zlarni rus tiliga tarjima qilsak, grammatik ma'noda tabiiy o'zgarishlar sodir bo'ladi – *дом, груша, книга, лиса, нейтрон, слог*.

ʒulardan, *дом, нейтрон* va *слог* soʻzlarining har biri uchtdan grammatik maʼnoga ega: birlik, bosh kelishik va mujskoy rod; qolgan ichtasida ham uchtdan grammatik maʼno mavjud, lekin ulardan biri avvalgi uchta soʻzlardagidan farq qiladi: birlik, bosh kelishik va enskiy rod. Bu misollardan kelib chiqadigan xulosa shuki, grammatik naʼnolarning turi va soni hamma tillarda ham bir xil emas.

Grammatik maʼno grammatik kategoriyalar bilan uzviy bogʻliqdir. ʒu haqda quyiroqda, grammatik kategoriyalarga bagʻishlangan joylarda fikr yuritamiz.

Odatda, leksik maʼno muayyan, grammatik maʼno esa mavhum naʼno deyiladi.

Grammatik maʼnoning hammasini mavhum deyish maqsadga nuvofiq emas. Chunki koʻpincha grammatik maʼno borliqdagi munosabatlarni aks ettiradi. Agar leksik maʼno atrof-tevarakdagi naʼlum narsa, hodisalarni anglatasa, grammatik maʼno ana shu narsa va hodisalar oʻrtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, umumlashtiradi, guruhlarga, turkumlarga ajratadi. Tashqi dunyodagi narsa va hodisalarning boshqa narsa va hodisalar bilan aloqaga kirishishi tilda eksik va grammatik vositalar orqali ifodalanadi.

Masalan, birlik va koʻplik, odatda grammatik maʼnoga kiritiladi: birlik tashqi dunyoda bitta narsa yoki hodisani anglatadi, koʻplik esa koʻp narsa va hodisalarni aks ettiradi.

Kelishik qoʻshimchalari grammatik maʼnoni anglatadi. Bu qoʻshimchalar faqat matn soʻzlari oʻrtasidagi munosabat emas, balki borliqdagi kishilar, narsalar va hodisalar oʻrtasidagi muayyan munosabatlarni ham aks ettiradi. Agar biz, *Anvar uydan chiqdi*, lesak, -dan anglatgan grammatik qoʻshimcha Anvar degan shaxsni yirorta uydan chiqqanini ifodalaydi.

Feʼl zamonlari ham grammatik maʼnoga kiradi, lekin bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi soʻzlarni qaysi zamonga oid ekanini koʻrsatmay, balki tashqi dunyoda sodir boʻladigan voqea va hodisalarning qachon boʻlib oʻtganini, yaʼni aynan gapirilayotgan vaqtdami yoki gapirilayotgan vaqtdan oldin va yo keyin sodir boʻlganini ifodalashga xizmat qiladi:

Anvar keldi

Анвар пришёл

oʻtgan zamon

Anvar keladi

Анвар придём kelasi zamon

Anvar kelayotir

Анвар идёт hozirgi zamon

Sifat darajalari ham grammatik ma'noga kiradi. Lekin ular narsa va hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi:

yorug' – yorug'roq – eng yorug'

светлый – светлее – светлейший (самый светлый)

Barcha grammatik ma'nolar ham tashqi dunyodagi aniq munosabatlarni aks ettirmay, ba'zi mavhum ma'nolarni ham anglatishi mumkin. Bunga grammatik jins ma'nosi eng yaxshi misol bo'la oladi.

Ma'lumki, ba'zi tillardagi otlar grammatik jins kategoriyasiga ega. Grammatik jins ma'nosini mavhum grammatik ma'no deyishimizga sabab, uning biologik jinsga hech qanday aloqasi yo'q. Agar biologik jins bilan grammatik jins bir-biriga mos kelganda, biz uni mavhum deya olmas edik. Bu ikki xil jins ba'zi hollardagina, u ham bo'lsa tasodifan to'g'ri kelib qoladi.

Masalan, rus tilidagi

стол – maskulin jins (mujskoy rod)

ручка – feminin jins (jenskiy rod)

окно – neytral jins (sredniy rod)

Qizig'i shundaki, bu so'zlarning birortasini biologik jinsga hech qanday aloqasi yo'q.

Bu kategoriyaga biz quyiroqda batafsil to'xtalamiz.

Grammatik ma'no doimo bir xil vositalar bilan ifodalanmaydi. Bu vositalarga affikslar, intonatsiya, takror, suppletiv shakllar kabi vositalar kiradi. Ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Tilning grammatik tarkibi (strukturasi)

Tilning grammatik tarkibi (strukturasi) deganda mazkur tildagi grammatik ma'nolarni ifoda etish uchun ishlatiladigan barcha grammatik vositalar tushuniladi.

Tillarning grammatik tarkibi (strukturasi) bir-biridan farq qiladi. Bu farqlar o'rganilayotgan tilning qaysi tillar oilasiga kirishiga va morfologik

tipologiya nuqtai nazaridan qaysi turga mansubligiga bog'liq. Tillarning qarindoshlik jihatidan va morfologik turlarga bo'linishlari masalalari quyiroqda ko'rib chiqiladi. Bu bo'limda biz asosan dunyo tillarida uchraydigan grammatik vositalarga to'xtalib o'tamiz. Bunday vositalarga *affiksatsiya*, *ohang* (*melodika* va *urg'u*), *takror*, *ichki fleksiya*, *suppletivizm*, *yordamchi so'zlar*, *so'z tartibi* kiradi.

Affiksatsiya

Affiksatsiya, olimlar fikricha, tillarda eng ko'p tarqalgan vositadir. Yuqorida morflarning turi to'g'risida gapirilganda grammatik ma'no anglatuvchi affikslar ikkiga bo'linib o'rganilgan edi, ya'ni shakl (forma) yasovchilar hamda so'z o'zgartiruvchilar (*Affiksatsiya* to'g'risida «Morflarning turlari» bobiga qarang).

Ohang

Ohang o'z ichiga tilda grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan melodika bilan *urg'uni* qamrab oladi. Lekin melodika va *urg'uning* roli hamma tillarda bir xil emas: ba'zi tillarda melodika boshqa tillarda *urg'u* grammatik ma'noni ifodalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Melodika. Melodika deganda ton balandligining o'zgarishi tushuniladi. U asosan xitoy-tibet tillarida katta ahamiyatga egadir, chunki bu tillar uchun affiksatsiya umuman olganda yot narsadir. Xitoy-tibet oilasiga kiruvchi xitoy tilida to'rtta ton mavjud bo'lib, so'zning ma'nosi shu tonlardan qaysi biri ishlatilayotganligiga ko'ra o'zgaradi. Masalan, *da* so'zi nutqda talaffuz qilinishiga ko'ra ot, sifat, fe'l va ravish bo'lib kelishi mumkin, *ma* so'zi melodikasi o'zgartib talaffuz qilinganda quyidagi ma'nolarni anglatishi mumkin:

- *birinchi ton* – *ona*;
- *ikkinchi ton* – *kanop*;
- *uchinchi ton* – *chumoli*;
- *to'rtinchi ton* – *so'kinmoq*

Xitoyliklar so'zning talaffuz qilinish usuliga qarab, uni asosiy yoki yordamchi so'z turkumiga kirishini ajratishadi. So'zning qaysi ton

bilan talaffuz qilinishi, qaysi ma'noda ishlatilishini uning gapda tutgan o'rnidan farqlab olish mumkin.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, melodika orqali faqat grammatik ma'noni emas, balki leksik ma'noni ham o'zgartirish mumkin.

Bu vosita yordamida ba'zi tillarda:

1. Gapning turi farqlanadi:

Он пришёл. Он пришёл? Он пришёл!

2. Gap bo'laklari ajratiladi:

Ходить долго – не мог.

Ходить – долго не мог.¹

Rus tilida so'roq gaplarni intonatsiya orqali ifodalash mumkin bo'lsa, o'zbek, ingliz, nemis tillarida faqat ohangning o'zi kifoya qilmaydi. Bu tillarda ohangdan tashqari so'roq yuklamalarining ishlatilishi (o'zbek tilida), so'z tartibining o'zgarishi, yordamchi so'zlarning ishlatilishi (ingliz, nemis tillarida) shart hisoblanadi.

U keldimi?

Anvar-chi?

Ba'zi hollarda o'zbek tilida ham so'roqni maxsus so'roq yuklamasiz faqat ohang yordamida ifoda etish mumkin. Masalan: *U keldi?* Odatda bunday savol: *U keldimi?* (ya'ni maxsus yuklamali) savolidan ko'p jihatdan farq qiladi. Gap shundaki, *U keldi?* so'roq gapi ko'tariluvchi ohang bilan talaffuz qilinganda «*U kelishi kerak emas edi, kelibdi-da*» degan ma'no anglashiladi. *U keldimi?* degan so'roq gap ishlatilib, urg'uni oxirgi bo'g'inga qo'yib, ko'tariluvchi ohang bilan talaffuz etilsa, kelishi kerak bo'lgan odamning kelgan-kelmaganligi aniqlanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, *U keldimi?* degan gapni pasayuvchi ohang bilan talaffuz qilib, urg'uni *keldimi* so'zining birinchi bo'g'iniga qo'yilsa, bu holatda, *U keldi?* savolidan kutilgan ma'no kelib chiqadi. Bunday masalalar to'g'risida mazkur darslikdagi «Gapning aktual bo'linishi» bobida batafsil so'z yuritiladi.

Urg'u. Urg'u deganda, nutqning birorta bo'lagi (bo'g'in, so'z)ni ma'lum vositalar yordamida (kuchliroq, cho'ziqroq) talaffuz qilish yo'li bilan ajratish tushuniladi.

¹ А.А. Реформатский. Введение в языковедение. –М.: 1967

Urg'uning grammatik ma'no anglatish vazifasi uning tillarda erkin yoki turg'unligi bilan uzviy bog'langan. Urg'u erkin bo'lgan tillarda uning bu xususiyatidan ko'p foydalaniladi. Urg'usi turg'un bo'lgan tillarda urg'u orqali grammatik ma'noni o'zgartirish kamdan-kam uchraydi. Urg'usi turg'un bo'lgan tillarda urg'uning so'zdagi o'rni belgilangan bo'lib, u yo birinchi, yo oxirgi bo'g'inga tushishi mumkin. O'zbek tili shunday tillardan bo'lib, unda urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi.

Urg'usi erkin tillarga rus va nemis tillari misol bo'lishi mumkin. Rus tilida so'zlarning kelishik va son grammatik shakli ba'zan urg'u orqali ko'rsatiladi.

Masalan:

воды (urg' ikkinchi bo'g'inda) – birlik, qaratqich kelishik

'воды (urg'u birinchi bo'g'inda) – ko'plik, bosh kelishik

ру'ки (urg'u ikkinchi bo'g'inda) – birlik, qaratqich kelishik

'руки (urg'u birinchi bo'g'inda) – ko'plik, bosh kelishik

Bu vosita yordamida tugallanganlik ma'nosi ham anglashilishi mumkin: *насыпать* (urg'u uchinchi bo'g'inda) – *насыпать* (urg'u ikkinchi bo'g'inda), *разрезать* (urg'u ikkinchi bo'g'inda), *разрезать* (urg'u uchinchi bo'g'inda) va boshqalar.

Ingliz tilida urg'u so'zlarning leksik ma'nolarini farqlashda ishlatilishi mumkin: present (ot), pre'sent (fe'l).¹

Shuni ham esda tutish kerakki, rus tilidagi so'zlarning hammasi yuqorida keltirilgan grammatik ma'nolarni doimo urg'u orqali ifodalamaydi. Urg'u o'zining bu ma'nosida boshqa vositalar qatori ishlatiladi, ya'ni:

'дома – birlik, qaratqich kelishik

до'ма – ko'plik, bosh kelishik

Bu ikki so'zdagi grammatik ma'nolar urg'u orqali ifodalangan bo'lsa, *стола* – *столы* so'zlarida xuddi shu grammatik ma'nolar affikslar orqali amalga oshirilgan, ya'ni *стола* qaratqich, *столы* bosh kelishik.

¹ Bunday hodisa o'zbek tilida ham ba'zan uchraydi, masalan: yan'gi – sifat, 'yangi – ravish.

Takror (reduplikatsiya)

Takror deganda grammatik ma'noni ifodalash maqsadlarida so'z yoki uning biror qismini ikki marta qaytarish tushuniladi. Takrorlar ko'p tillarda uchraydi, lekin u bir xil maqsadga xizmat qilmaydi. Masalan, u malay tilida grammatik vosita sifatida ishlatiladi. Takrordan bu tilda ko'plik ma'nosini ifodalashda foydalaniladi. Masalan:

sudara – fuqaro, sudara-sudara – fuqarolar, orang – odam, lekin orang-orang – odamlar.

Takrorlash boshqa tillarda so'z ma'nosini kuchaytirish, bo'rttirish vositasi sifatida ishlatiladi.

Takrorda so'z to'liq yoki qisman takrorlanishi mumkin.

Rus tilida *күрүш-күрүш, стучум-стучум* kabi takrorlar davomiylikni, o'zbek tilida taqlidni ifodalaydi: *lim-lim, tog'-tog', taqir-tuqir*. Bunday so'zlar grammatik ma'no emas, balki tabiatdagi turli tovushlarga taqlid qilish yo'li bilan yangi so'z yasash bo'lib, undan stilistik vosita sifatida ko'p foydalaniladi.

O'zbek tilida sifatlarda belgilarning qiyos qilinishini yoki yangi ma'no hosil qilishni nazarda tutmaydigan maxsus modal shakl yasash mavjud. Bunda sifat negizidan anglashilgan belgining kuchliligi, ortiqligi, kamligi kabi ma'nolar ifodalanadi.

Modal shakl morfologik va sintaktik usul bilan (takrorlash orqali) yasaladi. Oddiy darajadagi sifatning birinchi bo'g'inini o'sha so'zning to'la shaklidan avval keltirib, unga *p, m, ba'zan esa s, b* tovushlaridan birini qo'shish bilan: *qip-qizil, qop-qora, yam-yashil, bab-baravar* kabi kuchaytiruv shakli yasaladi.

Bir bo'g'inli sifatlarda so'z oxiridagi undosh *p, m* tovushlaridan biriga almashtiriladi va o'sha so'zning to'la shaklidan avval keltiriladi: *ko'm-ko'k* kabi. Oq so'zining kuchaytirma shaklida oxirgi tovush cho'ziq *p* (yozuvda *pp*) bilan almashtiriladi: *oppoq*. Ayrim vaqtda sifatning bosh qismi hech qanday o'zgarishsiz keltiriladi: *but-butun, dum-dumaloq* kabi.¹ Shunday qilib, o'zbek tilida keltirilgan uslub orqali qo'shimcha grammatik ma'no ifodalanadi.

¹ M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov. O'zbek tili. –Toshkent: 1970, 120-bet.

Ichki fleksiya

Ichki fleksiya deganda turli grammatik ma'nolarni ifodalash uchun so'z tarkibidagi tovushlarni o'zgartish tushunilib, bu vosita hind-ovrupo va semit tillarida keng qo'llaniladi.

Ingliz va nemis tillaridagi fe'llar zamoni shu vosita orqali ifodalanadi:

Hozirgi zamon:
ingliz tili: *spring*
get

O'tgan zamon:
sprang
got

Nemis tili: Ich schlafe (men uxlayapman), Ich schlief (men uxladim), Ich halte (men ushlayapman), Ich hielt (men ushladim).

Shu vosita bilan ba'zi otlarda birlik va ko'plik, fe'llarda zamon ma'nolari ham ifodalanadi:

ingliz tilida:

I sing – men kuylayman
We write – biz yozamiz
Woman – ayol

I sang – men kuyladim
We wrote – biz yozdik
Women – ayollar

nemis tilida:

Gehen– bormoq

Ich gehe – men boryapman;

Ich ging – men bordim

Bringen – olib kelmoq

Wir bringen – biz olib kelyapmiz

Wir brachten – biz olib keldik

der Saft – sharbat

die Süfte – sharbatlar

Ichki fleksiya semit-xamit tillar oilasida alohida o'rin tutadi. Agar hind-ovrupo tillarida bu vosita unumsiz bo'lsa, semit tillarida u o'ta unumlidir. Semit tillariga kiruvchi arab tillarida leksik ma'noni asosan so'z tarkibidagi undosh tovushlar anglatrsa, grammatik ma'noni unililar ifodalaydi. Masalan, qadimgi yahudiy (ivrit) tilida *sh – m – r* undoshlari shu keltirilgan tartibda «bermoq» g'oyasi bilan bog'langan, ya'ni «berish» ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning hammasida bu undoshlar shu tartibda uchraydi, lekin grammatik ma'noning o'zgarishi bilan bu undoshlar orasidagi unililar o'zgarib boradi:

shmor – bermoq

shamar – berayotgan edi

shomer – berayotgan

shamur – berilayotgan

Arab tilidagi *k-t-b* undoshlari avval qayd etilganidek, «o'qish», «yozish» tushunchalari bilan bog'liq. Bu tilda mazkur undoshlarga unilarning qo'shilishi bilan qator so'zlar, so'zlarning grammatik shakllari yasaladi. Qiyoslang:

maktab – maktab, yozuv stoli, idora

maktaba – kutubxona

maktub – xat

kattaba – yozdirmoq

kitaba – yozish, yozuv

kataba – yozishmoq (ikki kishi o'rtasida)

takataba – yozishmoq (ko'pchilik tomonidan)

kitab – kitob

kutub – kitoblar va hokazo

Suppletivizm

Suppletivizm deganda biz bir so'zning grammatik shakllarini har xil so'z o'zaklaridan yasalishini tushunamiz. So'zlarning suppletiv shakli hind-ovrupo tillarida ko'plab uchraydi. Grammatik ma'noni bu yo'l bilan ifodalash asosan kishilik olmoshlari va ayrim fe'llar hamda sifatlarga xosdir. Qiyoslang:

я – меня; мен – meni -- menga;

мы – нас; биз – bizni – bizga;

O'zbek tilida bosh kelishikdagi *men* olmoshiga boshqa kelishik qo'shimchalari qo'shilaveradi, ya'ni *men, meni, mening, menga, menda* va *hokazo*, lekin ingliz, nemis va rus tillarida bosh kelishikdagi *I, ich* va *я* olmoshlar bilan boshqa kelishikdagi olmoshlar orasida hech qanday umumiylik yo'q: boshqa kelishikdagi olmoshlar bosh kelishikdagi olmoshni asos qilib olmay, balki, boshqa o'zak yordamida yangi grammatik shakl hosil qiladi: ingliz tilida *I – men, me – meni, menga* va *hokazo*.

Ingliz tilidagi *be* fe'li ham suppletivizmga yaxshi misoldir. *Be* – infinitiv shakl, uning ma'nosi *bo'lmoq*, hozirgi zamon, birlik, birinchi shaxsda *am*, ko'plikda *are*, ikkinchi shaxsda *are*, uchinchi shaxsda *is*, o'tgan zamon birlikda *was*, ko'plikda *were* ko'rinishiga ega.

Nemis tilidagi *sein* fe'li ham (shu ma'noda) birinchi shaxs, birlik, hozirgi zamonda *bin*, ikkinchi shaxsda *bist*, uchinchi esa *ist* shakliga ega; *sein* va keltirilgan shakllar orasida hech qanday umumiylik yo'q, chunki ular boshqa-boshqa fe'l o'zaklaridan yasalgan.

Rus tilidagi *udmu* fe'lining o'tgan zamon shakli *uёл, umu*. Bu ham suppletiv yo'l bilan grammatik shakl yasashga misoldir.

Ingliz, rus, nemis va fransuz tillaridagi ba'zi sifatlarning daraja hakllari ham ana shu yo'l bilan yasaladi:

good – better (ingliz tilida)

bad – worse

хороший – лучше (rus tilida)

плохой хуже

gut – besser (nemis tilida)

bon – meilleur (fransuz tilida)

Mazkur tillarda suppletiv yo'l bilan o'z shaklini yasaydigan ana bir qancha so'zlar bor. Shunday qilib, suppletiv yo'l bilan grammatik ma'noni ifodalash deganda, biz o'zaro bog'langan, na'lum bir sistemani tashkil qilgan grammatik ma'nolarni ifodalash uchun alohida mustaqil so'zdan foydalanish usulini ushunamiz. Hozirgi zamon o'zbek tilida suppletivizm hodisasi ichramaydi.

Yordamchi so'zlar

Yordamchi yoki funksional so'zlar ham grammatik ma'noni aks ettirishga xizmat qiladi. Yuqorida morflar to'g'risida gap borganda, biz bunday so'zlarni mustaqil ishlatiladigan grammatik morflar deb atagan edik.

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tillarda yordamchi so'zlar urli-tumandir. Ularga ko'makchi, bog'lovchi, artikllar, predloglar, yordamchi va bog'lovchi fe'llar, yuklamalar kiradi. Bunday so'zlarning gapda tutgan o'rni, vazifasi, boshqa so'zlar bilan birikish tartibi turlichadir. Shuning uchun ularni guruhlarga ajratish turli nuqtai nazardan amalga oshirilishi mumkin. Biz bu so'zlarni grammatik kategoriyalarni ifodalashda qatnashishi yoki qatnashmasligi nuqtai nazaridan turkumlarga ajratamiz. Bunga ko'ra

soʻzlarning analitik shaklini yasashda ishtirok etuvchi va bu vazifani bajaraydigan yordamchi soʻzlar farqlanadi.

Birinchi guruhga artikllar, yordamchi feʼllar, baʼzi yordamchi soʻzlar; ikkinchisiga bogʻlovchi, koʻmakchi, predlog va yuklamalar kiradi.

Soʻzlarning analitik shaklini yasovchi yordamchi soʻzlar. Maʼlumki, grammatik kategoriyalar faqat affixsal morflar orqali emas, balki grammatik oʻzak morflar, yaʼni yordamchi soʻzlar vositasida ham yasalishi mumkin. Birinchi turkumga kirgan yordamchi soʻzlar ana shular jumlasidandir.

Artikllar tillarda turli vazifalarni bajaradi. Lekin hamma tillardagi artikllarni bir-biri bilan birlashtirib turgan narsa bu – ularning aniqlik va noaniqlik maʼnolarini belgilab berishidir. Boshqacha qilib aytganda, aniqlik va noaniqlik kategoriyasini yasashga xizmat qilishidir. Artikllar hamma tillarga xos emas. Ular hind-ovrupo tillar oilasiga mansub boʻlgan ingliz, nemis, fransuz tillarida, slavyan (guruhiga) kiruvchi bolgar tilida va boshqa baʼzi tillarda uchraydi. Ingliz tilida *a (n)* va *the* artikllari, nemis tilida *ein, eine, der, das, die* shular jumlasidandir.

Yordamchi feʼllar koʻpchilik tillarda uchraydi. Lekin ularning tillardagi ahamiyati ularning soniga, bajaradigan vazifalariga bogʻliq. Baʼzi tillarda bunday feʼllar bitta, masalan, hozirgi zamon rus tilida; fransuz tilida – ikkita, nemis tilida – uchta va hokazo. Rus tilidagi yordamchi feʼl kelasi zamoni yasashga, oʻtgan va kelasi zamon passiv konstruksiyasini ifodalashga xizmat qiladi:

Я буду изучать русский язык.

Книга была переведена на узбекский язык в прошлом году.

Книга будет переведена на узбекский язык.

Ingliz tilidagi *be, have, shall, will, should, would* yordamchi feʼllari ishtirokida aspekt, zamon kabi kategoriyalar yasaladi:

He is coming – U kelyapti (davomiylik).

He was asked 3 questions – Undan uchta savol soʻrashdi (majhul nisbat).

He has come – U keldi (tugallanganlik maʼnosi).

John will come – Jon keladi (kelasi zamon).

I shall read this article – Men bu maqolani oʻqiyman (kelasi zamon).

So‘zlarning analitik shaklini yasashda ishtirok etmaydigan yordamchi so‘zlar. Bu guruh yordamchi so‘zlarga bog‘lovchi, ko‘makchi, predlog kabi funksional so‘zlar kiradi. Bu so‘zlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularning miqdori chegaralangan. Ularning bu xususiyati barcha tillar uchun universaldir. Qayd etilgan so‘zlarning nutqdagi asosiy vazifasi – so‘z birikmalari va gaplarda so‘zlarning o‘zaro sintaktik aloqasini ta‘minlashdir. Ular son jihatdan kam bo‘lsa ham, nutqda qo‘llanilish darajasi yuqoridir. Misollar:

1. *Ahvol bilish uchun bo‘lsa kerak, Homid ham otiga qiyshiq minib ketib ketdi (A.Qodiriy).*

2. *The proposed sales will be allowed for Bayer but highlight its willingness to complete the acquisition of high-margin agro-chemicals at a time of sluggish growth in its core pharmaceuticals business (Financial Times).*

3. *На английском и русском языках они рассматриваются на уровне словосочетания и предложения (Л.Зилберман).*

O‘zbek, ingliz va rus tillaridan keltirilgan misollarda nutq arayonida yordamchi so‘zlarning ahamiyati naqadar muhimligi taqqol ko‘rinib turibdi. Bu so‘zlar to‘g‘risida quyiroqda «So‘z urkumlari» bobida batafsilroq so‘z yuritamiz.

So‘z tartibi

Grammatik ma‘no anglatishning yana bir vositasi so‘z tartibidir. So‘zlarning gapda ma‘lum tartibda joylashtirilishi ham grammatik ma‘no ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita ayniqsa, sintaksis uchun muhimyatlidir. So‘z tartibi xitoy-tibet oilasiga kiruvchi tillar va tarkibi bu tillarga o‘xshash bo‘lgan boshqa tillarda juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamon ingliz va fransuz tili uchun ham bu vosita muhim hisoblanadi. Bu tillarda so‘z tartibi so‘zlarning gapdagi vazifasi, ularning qaysi so‘z turkumiga taalluqli ekanini ko‘rsatadi:

1. *The ball hit the boy.*

Koptok bolaga tegdi.

2. *The boy hit the ball.*

Bola koptokni tepdi.

3. *A clown called a clown a clown.*

Masxaraboz masxarabozni masxaraboz deb atadi.

1 va 2-gaplarda soʻz tartibi oʻzgarishi bilan gap boʻlaklari ham oʻzgardi. 1-gapda ega *The ball*, chunki u kesimdan oldin, yaʼni birinchi oʻrinda turibdi; 2-gapda esa bu soʻz toʻldiruvchi, chunki u kesimdan keyingi oʻrinda oʻtimli feʼldan keyingi uchinchi oʻrinni egallab turibdi, bu oʻrin – toʻldiruvchining oʻrnidir. Shu munosabat bilan uchinchi gap, ayniqsa diqqatga sazovor: bu gapda uchta *clown* soʻzi bor, ular bir-biridan grammatik shakli jihatidan hech qanday farq qilmaydi, lekin shunga qaramay, ular uch xil vazifani bajarayotir: birinchisi – ega, ikkinchisi – vositasiz toʻldiruvchi, uchinchisi – vositali toʻldiruvchi. Bu soʻzning bunday sintaktik vazifalarini biz ularning shakllari orqali emas (chunki ularning shaklida farq yoʻq), balki gapda tutgan oʻrniga qarab aniqlaymiz.

Soʻz tartibining bunday xususiyati gapda soʻz tartibi qatʼiy boʻlgan tillarga xosdir.

Baʼzi soʻz tartibi qatʼiy boʻlmagan tillarda bu vosita orqali soʻzning qaysi kelishikda ekanligini aniqlash ham mumkin, masalan, rus tilida:

Смех (им.падеж) побеждает грусть (винит. падеж).

Грусть (им.падеж) побеждает смех (винит. падеж).

Shunga oʻxshash misollar oʻzbek tilida ham uchrab turadi:

Ota (bosh kelishik) bola izladi.

Bola (bosh kelishik) ota (tushum kelishigi) izladi.

SINETIK VA ANALITIK VOSITALAR. SINETIK VA ANALITIK TILLAR

Yuqorida bayon qilinganidek, grammatik maʼnolarni ifodalovchi til vositalari xilma-xildir. Tilshunoslik fanida bu vositalar ikki katta turkum – sintetik va analitik vositalarga ajratiladi.

Sintetik vositalarga affiksatsiya (prefikslar, suffikslar), ichki fleksiya, suppletiv usul kirsam, *analitik vositalarga* yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi, takror, ohang kiradi.

Maʼlum boʻlishicha, sintetik va analitik vositalar dunyo tillarida bir xil tarqalmagan. Koʻpchilik tillarda bir vaqtning oʻzida ham analitik, ham sintetik vositalar uchraydi, lekin ular nisbat nuqtai nazaridan bir xil emas; baʼzi tillar soʻzning grammatik shaklini

‘zgartirishda, ya’ni gapda so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lashda ko‘proq intetik vositalardan, ba’zi tillar esa, analitik vositalardan ko‘proq oydalanadi. Asosan sintetik vositalardan foydalanadigan tillar *intetik tillar*, analitik vositalardan foydalanadigan tillar *analitik tillar* deb yuritiladi.

Sintetik tillarga hind-ovrupo tillar oilasiga mansub tillar (rus, nemis a boshqalar) kiradi. Bu tillarda grammatik kategoriyalarning o‘pchiligi sintetikdir: analitik vositalar nisbatan kam qo‘llaniladi.

Analitik tillarga hind-ovrupo tillar oilasiga mansub bo‘lgan ingliz, ransuz tillari kiradi.

Sintetik tillarda grammatik affikslar bajaradigan vazifalarni analitik tillarda so‘z tartibi, yordamchi so‘zlar kabi vositalar bajaradi. Quyoslang:

Bill saw a black dog.

Бил увидел чёрную собаку.

Ingliz va rus tillaridan keltirilgan misolda sintetik va analitik vositalarning hissasi yaqqol ko‘rinib turibdi. Ingliz tilidagi *saw* so‘zi bilan undan keyin kelayotgan so‘zlar o‘zaro so‘z tartibi bilan bog‘langan. Rus tilida esa sintetik bog‘lanish kelishik qo‘shimchasi orqali amalga oshirilgan.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Leksik ma’no nima va u grammatik ma’nodan qanday farq qiladi?
2. Grammatik ma’no qanday til vositalari orqali ifodalanadi?
3. Grammatik vositalar hamma tillarda bir xilmi? Agar har xil bo‘lsa, buning sababini tushuntiring.
4. Affikslarning qanday turlarini bilasiz? O‘zbek va rus tillarida affikslar qanday ahamiyatga ega?
5. Qanday fonetik vositalar grammatik vazifalarni o‘tay olishini misollar yordamida atroflicha tushuntiring.
6. Qanday grammatik vositalar takror deb ataladi? Takror tillarda qanday vazifani bajarishi mumkin? O‘zbek tilida ham takror bormi? U boshqa tillardagidan nimasi bilan farq qiladi?
7. Suppletivizm nima? Qanday tillarda bu hodisa keng tarqalgan? Misollar keltiring.

8. Yordamchi soʻzlarga nimalar kiradi? Ular nutqda qanday vazifalarni bajaradi? Ingliz, nemis, fransuz tillaridagi artikllar bajaradigan vazifani oʻzbek va rus tillarida qanday vositalar oʻtaydi?

9. Gaplardagi soʻz tartibi qanday grammatik vazifalarni oʻtashi mumkin? Qanday tillarda bu vosita keng tarqalgan? Oʻzbek, rus va ingliz (nemis, fransuz, ispan) tillarini qiyoslang va ularda soʻz tartibining oʻrnini belgilang.

10. Analitik va sintetik grammatik vositalar orasidagi farqni tushuntirib bering.

11. Quyidagi ilokano tilidan (Filippin orollari) keltirilgan soʻzlarni diqqat bilan oʻrganing. Koʻplik maʼnosi qanday vositalar bilan ifoda qilinishini aniqlang.

1. pingan	ovqat	pinpingan	ovqatlar
2. talon	dala	taltalon	dalalar
3. dalan	yoʻl	daldalan	yoʻllar
4. biag	hayot	bibiag	hayotlar
5. ulo	bosh	ululo	boshlar

Quyidagi birlikdagi soʻzning koʻplik shaklini yozing: *mula* – oʻsimlik.

Tawtawa – derazalar soʻzining birlik shaklini aniqlang.

12. Sudandagi dinka tilidan keltirilgan soʻzlarni diqqat bilan oʻrganing. Bu tilda koʻplik qanday ifodalanishini tushuntirib bering.

1. <i>pal</i>	pichoq	paal	pichoqlar
2. bit	nayza	biit	nayzalar
3. vot	uy	voot	uylar
4. cin	qoʻl	ciin	qoʻllar
5. agok	maymun	agook	maymunlar
6. mac	gulxan	mec	gulxanlar
7. ben	dohiy	ban	dohiyalar
8. dom	dala	dum	dalalar
9. dok	bola	dak	bolalar
10. tuon	tuxum	ton	tuxumlar
11. jon	it	jok	itlar
12. yie	quloq	yit	quloqlar

¹ Bu va keyingi mashqlar С.И.Колабинанинг «Практикум по курсу «Введение языкознание»» qoʻllanmasidan olindi. –М.: 1977. 49-50 betlar.

13. Filippin orollaridagi bontok tilidan keltirilgan soʻzlarni oʻrganing. Feʼllarning yasash usulini gapirib bering.

1. fikas – kuchli fumikas – kuchli boʻlib qolmoq

2. kilad – qizil kumilad – qizarmoq

3. bato – tosh bumato – toshga aylanmoq

4. fusul – dushman fumusul – dushman boʻlib qolmoq

Agar *pusi* soʻzi «*kambagʻal*» maʼnosini anglatsa, *pumusi* soʻzi qanday maʼno beradi? *Pukaw* va *nitad* sifatlarini feʼlga aylantiring.

VI BOB

GRAMMATIK KATEGORIYA TUSHUNCHASI

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tillarda turli grammatik ma'nolar uchraydi. Lekin bu grammatik ma'nolar va ularning ifoda uslublari hamma tillar uchun umumiy, bir xil emas. Har bir tilda o'ziga xos grammatik ma'nolar va ularni ifodalash usullari mavjud. Ular ayrim-ayrim holda emas, balki ma'no turlarining yaqinligiga ko'ra guruh-guruh holda uchraydi. Bunday guruhlarda ular son jihatdan kamida ikkita va undan ortiq bo'lishi mumkin. Ana shunday birikmalar tilshunoslikka oid adabiyotlarda *grammatik kategoriya* deb yuritiladi. Grammatik kategoriya umumlashgan grammatik ma'no bo'lib, u tilning qaysi morfologik turga kirishini ko'rsatadi va o'z ifodasini so'zlarning o'zgarishida yoki gapda so'zning bog'lanishida topadi. Umumiy grammatik ma'noni tashkil etuvchi xususiy ma'nolar bir-biriga zid bo'ladi, bir-birini inkor qiladi va shu bilan birga bir-birini doimo taqozo qiladi: Masalan, grammatik son kategoriyasi deb nom olgan til hodisasini ko'raylik.

uy – uylar

kitob – kitoblar


chiroq – chiroqlar

Chap tomondagi so'zlarni biz son nuqtai nazaridan birlik deymiz. Bunday deyishimizga sabab – ular ikkinchi ustundagi so'zlardan farq qiladi: o'ng tomondagi so'zlardagi *-lar* elementi ularda yo'q. O'ng tomondagi so'zlarni biz ko'plikda deymiz, chunki ular chap tomondagi so'zlardan o'zlaridagi *-lar* qo'shimchasining borligi bilan farq qiladilar. Shunday qilib, grammatik ma'no qiyoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Chap va o'ng tomondagi so'zlarning keltirilgan grammatik ma'nolari bir-biriga zid: birlik va ko'plik. Lekin ana shu bir-biriga zid ikki grammatik ma'no birgalikda son kategoriyasini tashkil etadi. Shu bilan birga bu kategoriyaga kiruvchi birlik va ko'plik ma'nolari doimo biri ikkinchisi bor bo'lishini taqozo qiladi: tillarda birlik ma'nosi borligi uchun biz ko'plikni ajrata olamiz, va, aksincha, tillarda ko'plik ma'nosi borligi uchun biz birlikni ajratamiz. Agar tillarda otlar faqat

irlikda ishlatilganda, biz ko'plik to'g'risida hech qachon gapirmagan o'lardik, birlik tushunchaga ham hojat qolmagan bo'lur edi. Bu fikr ishunarli bo'lishi uchun antonim so'zlarni misol qilib ko'rsatish mumkin: *yaxshi* degan tushuncha borligi sababli, biz *yomonlikni* ajratamiz; *torlik* tushunchasi borligi uchun *kenglikni*, *oq* rang borligi sababli boshqa rangni ajratamiz va hokazo.

Grammatik kategoriyalar grammatik ma'no va grammatik hakdan tashkil topadi. Masalan, yuqorida ko'rib chiqilgan son kategoriyasini shu nuqtai nazardan quyidagicha izohlash mumkin:



a'ni grammatik son kategoriyasi ikki ma'nodan: birlik va ko'plikdan, irlik ∅ morfi orqali, ko'plik esa *-lar* morfi orqali ifodalanadi.

∅ shakl tilshunoslikda nol morfi deb qabul qilingan. O'zbek tilida tlarning birlik shaklida moddiy ifodalangan ko'rsatkichi, vositasi o'q; ko'plik shaklida esa *-lar* qo'shimchasi bor. Kitob – kitoblar o'zlarini qiyoslasak, kitob so'zida garchi qo'shimcha bo'lmasa ham iz uni nol birlik shaklda ∅ deb atadik; qo'shimcha yo'qligini ∅ (nol) ilan belgiladik va uni nol morfi deb atadik, chunki qo'shimchaning o'qligi birlik ma'nosini anglatmoqda.

Grammatik kategoriya turlari

Grammatik kategoriyalar ifodalanish usuliga ko'ra uch turga o'linadi:

- 1) *sintetik grammatik kategoriyalar;*
- 2) *analitik grammatik kategoriyalar;*
- 3) *aralash grammatik kategoriya yoki sintetik-analitik grammatik kategoriyalar.*

Sintetik grammatik kategoriyalar affiksial morflar orqali ifoda ilinadi. Masalan, o'zbek tilidagi son, kelishik, egalik, shaxs-son kategoriyalari, rus tilidagi kelishik, son, rod kabi kategoriyalar, ingliz lidagi son va kelishik kategoriyalari shular jumlasidandir.

Analitik grammatik kategoriyalar faqat yordamchi soʻzlar orqali ifoda qilinadi.

Agar ingliz tilidagi koʻp boʻgʻinli sifatning darajalarini yasashda ishtirok etadigan «*more*» va «*most*» soʻzlarini baʼzi olimlar aytganidek, yordamchi soʻzlar deb qabul qilsak, unda ana shunday sifatlarning (koʻp boʻgʻinli) daraja kategoriyasi sof analitik vositalar bilan yasalgan boʻladi:

interesting – more interesting – the most interesting
attractive – more attractive – the most attractive

Aralash yoki sintetik-analitik grammatik kategoriyalar bir vaqtning oʻzida ham analitik, ham sintetik vositalar bilan yoki boshqacha qilib aytganda, ham grammatik affiksial, ham mustaqil grammatik morflar yordamida ifodalanadi. Bunday grammatik kategoriyalar ingliz, nemis va fransuz tillarida koʻplab uchraydi. Ingliz tilidagi feʼllarda daraja kategoriyasi quyidagicha yasaladi:



They asked Martin some questions.

Ular Martindan bir nechta savol soʻrashdi.

Martin was asked some questions.

Martindan bir nechta savol soʻraldi.

Shunday qilib, majhul daraja ingliz tilida *be* yordamchi feʼli bilan *-ed* affiksi orqali ifoda qilinadi.

Nemis tilidagi zamon nisbati kategoriyasi (категория временного отношения) ham koʻrilayotgan kategoriyaga misol boʻla oladi, yaʼni

Ich schreibe – Men yozaman/yozyapman

Ich habe geschrieben – Men yozib boʻldim.

Nemis tilidagi ish-harakatning tugallanganligi yordamchi *haben* feʼli hamda oʻtgan zamon ravishdoshini yasovchi *ge ... en* affikslari yordamida ifoda etiladi.

Avval aytganimizdek, grammatik kategoriyalarning soni turli tillarda turlichadir. Masalan, rus tilidagi otlarda uchta grammatik

kategoriya, o'zbek va ingliz tilida ham uchta, nemis tilida esa to'rtta grammatik kategoriya bor. Grammatik kategoriyalar uch tilda niqdor jihatdan bir xil bo'lsa ham, turi jihatdan har xildir:

kategoriya tillar	Son	Kelishik	Jins	Egalik	Aniqlik va noaniqlik
rus	+	+	+	-	-
o'zbek	+	+	-	+	-
ingliz	+	+	-	-	+

(+) *belgisi keltirilgan grammatik kategoriyaning borligini bildiradi.* Bu uchta tilda son va kelishik grammatik kategoriyasi umumiy, lekin jins faqat rus tilida, aniqlik (noaniqlik) faqat ingliz tilida o'z aksini topgan. Shuni ham ta'kidlash zarurki, agar o'zbek tilida aniqlik va noaniqlik kategoriyasi bo'lmasa, bu ma'nolar o'zbek tilida ifodalalanmaydi degan fikrga olib kelmasligi kerak. Chunki har qanday tilda har qanday ma'no ifodalinishi mumkin, ammo vositalar bir xil bo'lmaydi. Ma'lum bir ma'no bir tilda grammatik vositalar bilan ifodalansa, boshqa tilda leksik, uchinchi bir tilda sintaktik vosita bilan ifodalinishi mumkin.

Roman-german tillariga xos bo'lgan aniqlik va noaniqlik kategoriyasi o'zbek va rus tillarida leksik va sintaktik vositalar yordamida ifodalalanadi. Masalan:

She swerved the beam around to the hatchway. A man was standing here – a massive, brutish young man, dressed in dirty jeans and a heavy pullover

The man ignored her questions and flashed the torch around the cabin (N.Buckingham).

U (Kerol) chiroq nurini lyuk tomon burdi. U yerda qandaydir odam turardi – u baquvvat, iflos jinsi va qalin puluver kiygan yoshigit edi.

Bu kishi Kerolning savollariga ahamiyat bermay, fonar nurida to'nani tekshirar edi.

Bu gapda ingliz tilida *a* noaniq artikli o'zbek tiliga *qandaydir bir* o'zlari bilan tarjima qilinib, the aniq artikli «*bu*» ko'rsatish olmoshi bilan berilgan.

Egalik kategoriyasi yuqorida keltirilgan tillardan faqat o‘zbek tiliga xosdir. Egalik kategoriyasi o‘zbek tilida grammatik vosita – grammatik-affiksial morfemalar orqali ifodalanadi. Egalik ma’nosi rus va ingliz tillarida ham o‘z aksini topadi, ammo bu tillarda o‘zbek tilidagiga o‘xshash egalik ma’nosini ifodalovchi grammatik vosita yo‘q. Bu tillarda leksik vosita, ya’ni olmoshlar o‘zbek tilidagi affikslar vazifasini o‘taydi. Masalan:

<i>kitobim</i>	<i>моя книга</i>	<i>my book</i>
<i>kitobing</i>	<i>твоя книга</i>	<i>your book</i>
<i>kitobi</i>	<i>его, её книга</i>	<i>his, her, its book</i>
<i>kitobimiz</i>	<i>наша книга</i>	<i>our book</i>
<i>kitobingiz</i>	<i>ваша книга</i>	<i>your book</i>
<i>kitoblari</i>	<i>их книга</i>	<i>their book</i>

Grammatik kategoriyalar to‘g‘risidagi umumiy tushunchaning yakunida shuni aytish kerakki, dunyodagi har bir til inson tafakkuri yaratgan hamma kategoriyalarni ifodalashga qodir, lekin ularni grammatik kategoriya deya olishimiz uchun, ular yuqorida qayd etilgan grammatik vositalarning birortasi bilan ifoda qilinishi lozim.¹

ASOSIY GRAMMATIK KATEGORIYALAR

Grammatik jins kategoriyasi

Bu kategoriya tillarda uchraydigan boshqa grammatik kategoriyalardan farq qiladi. Jins kategoriyasi tildagi so‘zlarni uchta, ya’ni feminin, maskulin va neytral jinslarga ajratadi. Mazkur grammatik kategoriyaning boshqa kategoriyalardan farqi shuki, u hozirgi zamon inson tafakkuri mantig‘iga hech to‘g‘ri kelmaydi, chunki grammatik jins tabiiy biologik jinsga mos kelmaydi. Ma’lumki tabiiy, biologik jins ikkita, grammatik jins esa ko‘pchilik tillarda uchta. Grammatikadagi neytral jinsga tabiatda mos keladigan jins yo‘q. Undan tashqari, tabiatda jins tirik organizmlarga xos narsa, ammo grammatikada jins kategoriyasi o‘z ichiga jonsiz predmet va hodisalarni

¹ Л.С. Бархударов. Структура простого предложения современного английского языка. –Москва: 1996.

am oladi. Grammatik jins kategoriyasi ko'pchilik hind-ovrupo tillariga, u jumladan, nemis, fransuz, rus tillariga xosdir. Misollar:

Maskulin	Feminin	Nejtral
rus. t. <i>Дом, стол, человек,</i>	<i>ручка, девочка,</i>	<i>окно, время</i>
nem. t. <i>Tisch, Knabe, Mann</i>	<i>Lampe, Wand</i>	<i>Fenster, Radio</i>
fr. t. <i>Un homme, un stylo</i>	<i>une maison, une filette</i>	<i>Fransuz tilida bu jins yo'q</i>

Har bir tilning o'ziga xos grammatik jins ko'rsatkichi bor: rus lida feminin jins – *a* affiksial morfaga, maskulin \emptyset affiksial morfaga va eytral jins *-o, -ya* va *-e* ga tugaydi. Boshqa tillarda ham shunga 'xshash ko'rsatkichlar bor. Shuni ham aytish lozimki, bu o'rsatkichlar mutlaq emas, ya'ni bunday qoidalar istisnosiz emas. istisnolar hamma tillarda ham uchraydi. Masalan, rus tilidagi *мужина, пана* so'zlari *-a*, qo'shimchasi bilan tugasa ham, maskulin nsiga kiradi (bu albatta, biologik jinsning ta'siridir). Shu tildagi umshoq undosh bilan tugaydigan otlarning jinsi ham feminin, ham maskulin bo'lishi mumkin, bu ularning turlanishi turiga bog'liq: *лошадь* – feminin jinsiga kirsas, *дождь* – maskulin jinsiga kiradi, *ячень* maskulin, *плесень* – femininiga kiradi va hokazo.

Grammatik jins kategoriyasining yana bir xususiyati shuki, bir rdagi otlar turli jinsga kirishi mumkin. Masalan: *море* – nejtral, *ека* – feminin, *пруд* – maskulin jinsga mansub; *дуб, берёза, ива, осна, клён* kabi so'zlar daraxt turini anglatsa-da, grammatik jinsi ar xildir.

Bir so'zning o'zi turli tillarda turli grammatik jinsga kirishi umkin, masalan, rus tilidagi *лошадь* so'zi feminin jinsiga kirsas, emis tilida shu ma'nodagi *das Pferd* nejtral jinsga, fransuz tilidagi *cheval* so'zi – maskulin jinsiga kiradi. Rus tilida *девочка* va *женщина* so'zlarining feminin jinsga kirishi tabiiy holdir, lekin shu ma'nodagi nemischa *das Weib, das Madchen* so'zlarining nejtral nsiga kirishi tushunib bo'lmaydigan holdir. Ushbu kategoriyaning na shu xususiyatlarini nazarda tutib, ba'zi olimlar grammatik jinsni irli kategoriya deb atashsa, boshqalari uni tilning o'tmishdan izgacha yetib kelgan qoldig'i deb tushuntirishadi.

Grammatik jinsning yana bir ajablanarli joyi shundaki, u tarixan o'zgaruvchan kategoriyadir. Bir vaqtlar rus tilidagi *atom* so'zi feminin jinsiga kirib, *atoma* deb yuritilgan, *molekula* so'zi esa, avvallari maskulin jinsiga mansub bo'lib, *molekul* deb yuritilar edi.

Grammatik jins kategoriyasining kelib chiqishi to'g'risida tilshunoslik tarixida har xil fikrlar, ilmiy taxminlar aytib o'tilgan. Ma'lumki, qadimgi ingliz tilida ham mazkur kategoriya bo'lgan. Uning paydo bo'lishi to'g'risida Amerika olimlari o'z mulohazalarini aytib o'tishgan. Masalan, qadimgi ingliz tilida *qayiq* so'zi feminin jinsiga mansub bo'lgan, olimlarning aytishicha, bir vaqtlar qayiqning old tomoni ayol byusti bilan bezatilgan. Ana shu holat bu so'zni qaysi jinsga kiritilishi masalasini hal qilgan. Boshqa hollarda ham shunday sabablar bo'lgan bo'lishi mumkin, deb taxmin qilishadi.

Nemis olimlarining fikricha, odamlar hamma kuchli, qudratli narsa va hodisalarni maskulin jinsiga, go'zal, nozik, nafis narsalarni feminin jinsiga kiritishgan. Qo'lda yasalgan narsalarni esa neytral deb bilishgan, misol tariqasida *tog'* va *gul* so'zlarini ko'rsatishgan: *der Berg* – maskulin, *die Blume* – feminin jins.

Bu hozirgi vaqtda eng keng tarqalgan fikr bo'lsa-da, u ayrim sabablarga ko'ra qabul qilinmadi. Chunki, birinchidan, nemis tilidagi ko'p otlarni bunday tushuntirib bo'lmaydi, masalan, yuqorida keltirilgan *qiz* va *ayol* so'zlari nemis tilida neytral jinsga emas, balki feminin jinsiga kirishi kerak edi, holbuki, bunday emas, ikkinchidan, rus tilidagi *zopa* so'zi nemis tilidagidek maskulin jinsiga kirmaydi, aksincha, u femininga mansub. *Цвета* so'zi esa, maskulin jinsiga to'g'ri keladi. Demak, umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan u ham noto'g'ridir.

O'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yo'q. Lozim bo'lganda bu ma'no leksik-semantik, morfologik va sintaktik usullar bilan ifoda etilishi mumkin. Lekin bu vositalarning grammatik kategoriyasi bor tillardan yana farqi shuki, ular (o'zbek tilidagi otlar) yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida odam va hayvonlarning biologik jinsini aniqlash uchun qo'llanilgan, ya'ni:

Leksik-semantik usul:

- 1) *o'g'il* - *qiz* *tog'a* - *xola*
ota - *ona* *erkak* - *ayol*

Morfologik usul:

- 2) *Karim - Karima*
- Nodir - Nodira*
- Salim - Salima*
- Shoir - Shoir*

Sintaktik usul:

- 3) *erkak mushuk - urg'ochi mushuk*

Eslatma: morfologik usuldagi *-a* affiksi arab tilidan kirib kelgan soʻlib, oʻzbek tilida mahsuldor emas. Qoʻllanilish imkoniyatlari esa chegaralangan.

Grammatik son kategoriyasi

Grammatik son kategoriyasi narsa va predmetlarning sonini, birlik yoki koʻpligini koʻrsatadi. Bu grammatik kategoriya koʻpchilik tillarda ikki xususiy maʼno: birlik va koʻplikdan tashkil topgan. Baʼzi tillarda birlik koʻplikdan tashqari juftlikni anglatuvchi ikkilik va yana baʼzi tillarda uchlik soni ham uchraydi.

Son kategoriyasi faqat otga xos boʻlmay, sifat, olmosh va feʼllarda ham ifodalanishi mumkin. Lekin uning grammatik ifoda uslublari soʻz turkumlari va tillarda bir xil emas.

Oʻzbek, rus, ingliz, nemis, fransuz tillarida mazkur kategoriya bir-biriga zid boʻlgan ikki xususiy son – birlik va koʻplikdan tashkil topadi. Oʻzbek tilida bu kategoriya ot, olmosh va feʼllarda; rus tilida ot, sifat, olmosh, feʼl va tartib sonlarda; ingliz tilida asosan ot va olmoshlarda soʻz aksini topadi.

Birlik soni predmet va hodisalarning yakkaligini anglatrsa, koʻpliklarning birdan ortiqligini, soni noaniqligini ifodalaydi. Masalan:

kitob – kitoblar

chaqmoq – chaqmoqlar

Kitoblar soʻzi koʻplik maʼnosini bildirishiga shubha yoʻq lekin bu soʻz talaffuz etilganda undan kitoblarning *aniq* miqdori anglashilmaydi. Ingliz tilidagi *books*, nemis tilidagi *die Bücher*, fransuz tilidagi *les livres* soʻzlarida ham biz aynan shu narsani kuzatamiz.

Grammatik son kategoriyasi tildagi bir necha soʻz turkumida oʻz aksini topsa ham, uning nutqdagi vazifasi bir xil emas. Masalan,

otlarda son birlik va ko'plikni anglatasa, sifat va fe'llarda u belgi va ish-harakatning miqdorini ko'rsatmaydi. Ma'lumki, sifat ham, fe'l ham nutq jarayonida ot bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Sifat va fe'ldagi son bu so'z turkumlarining qaysi shakldagi ot bilan munosabatga kirishishiga bog'liq; ular ko'plikdagi ot bilan bog'lansa, unda o'zlari ham ko'plikda kelishlari lozim, masalan:

белый дом – белые дома

студент отвечает – студенты отвечают

O'zbek tilida sifatlarda son kategoriyasi yo'qligi sababli, ot qanday shaklda ishlatilgan bo'lishidan qat'i nazar, sifatda o'zgarish ro'y bermaydi. Masalan:

oq uy – oq uylar

osma ko'prik – osma ko'priklar

tor ko'cha – tor ko'chalar

Bundan rus tiliga o'xshagan tillarda sifat va fe'llardagi son kategoriyasi otlar bilan moslashuv uchungina zarurdir, degan xulosa kelib chiqadi.

Grammatik son kategoriyasining ifodalanish usuli tillarda bir xil emas. O'zbek tiliga o'xshash tillarda bu kategoriya otda affiksall grammatik morfemalar bilan ifoda etiladi. Rus, ingliz va nemis tillarida, garchi asosan shunday vositalar ishlatilsa ham, ba'zi hollarda ichki fleksiyalar, suppletiv usullar uchrashi mumkin. Masalan:

ing: *man (odam, erkak) – men (odamlar)*

goose (g'oz) – geese (g'ozlar)

nem: *Mann (odam) – Manner (odamlar)*

Olmoshdagi son kategoriyasi boshqa so'z turkumlaridagidan tubdan farq qiladi. Hind-ovrupo tillaridagi kishilik olmoshlari ko'plik shaklini asosan suppletiv yo'l bilan yasaydi:

Shaxs	rus		ingliz		nemis		fransuz	
	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	я	мы	I	we	Ich	wir	je	nous
II	ты	вы	you	you	du	Ihr	tu	vous
III	он она оно	они	he, she. it	they	er, sie es	sie	Il elle	ils

Rus tilidagi kishilik olmoshlarining uchinchi shaxs ko‘pligi affiksial morfema orqali yasaladi.

Turkiy tillarda va shu jumladan, o‘zbek tilida kishilik olmoshlarining son kategoriyasini affiksial grammatik morfemalar to‘magida, ya’ni birinchi va ikkinchi shaxs birlik *-en*, ko‘pligi *-iz* affiksi, uchinchi shaxs birligi «*nol*» morfema, ko‘pligi esa, otlar ingari *-lar* suffiksini qo‘shish orqali amalga oshiriladi. Bunday holat o‘zbek tilining sof agglyutinativ tillardan biri ekanligini yana bir bor isbotlaydi (bu to‘g‘rida «Tillar tipologiyasi» bobida so‘z boradi).

Narsa va hodisalarning aniq miqdori otning son bilan birikishi orqali ifodalanadi, masalan:

o‘nta uy
десять домов
ten houses

Sonning ot bilan birikishi tillarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbek tilida noaniq ko‘plik *-lar* affiksial morfema bilan ifodalansa, aniq ko‘plikda, ya’ni otning oldida son kelganda ot oxiridagi *-lar* qo‘shimchasi tushib qoladi. Ingliz, nemis va fransuz tillarida bunday emas. Bu tillarda ko‘plik ma’nosini ko‘rsatuvchi grammatik affiksial morfemalar narsalarning aniq soni ko‘rsatilayotganda ham ot arkibida saqlanadi. Rus tili bu masalada boshqa tillardan birmuncha farq qiladi: ot oldida ikkidan beshgacha bo‘lgan sonlar kelsa (ya’ni 2,3,4), ot birlikda, lekin qaratqich kelishigida turadi: *два стола / книги; три стола / книги; четыре стола / книги*.

Besh va undan keyingi sonlar qo‘shilganda ot ko‘plikda qaratqich kelishigida ishlatiladi:

Пять столов / книг
Шесть столов / книг va hokazo

Tillardagi so‘zlarning hammasi ham birlik va ko‘plikda ishlatilavermaydi. Ko‘pchilik hind-ovrupo tillarida faqat birlikda yoki faqat ko‘plikda ishlatiladigan otlar uchraydi.

Faqat birlikda ishlatiladigan so‘zlar tilshunoslik fanida «*singularia tantum*» deb yuritiladi. Bunday so‘zlarga rus tilidagi *вода, мука, веготня* so‘zlarini, ingliz tilidagi *oil, rice* kabi so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Faqat ko'plikda ishlatiladigan so'zlar «*pluralia tantum*» deb ataladi. Bunday so'zlarga rus tilidagi *сумерки, духи, брюки, сливки, очки*, ingliz tilidagi *goods, trousers, spectacles* kabi so'zlar kiradi.

Bir tilda faqat *pluralia tantum*da ishlatiladigan so'zlar boshqa tillarda, masalan, o'zbek, nemis, fransuz tillarida ham birlik, ham ko'plikda ishlatilishi mumkin:

shim – shimlar
die Brille – die Brillen

Kelishik kategoriyasi

Otning boshqa so'z turkumiga munosabati kelishik kategoriyasi orqali ifodalanadi. Bu kategoriya borliqdagi narsa, sifat va hodisalar o'rtasidagi aloqa munosabatlarini belgilaydi. Kelishik kategoriyasini ifodalovchi grammatik vositalar ot va otlashgan so'zlarning sintaktik vazifasini ko'rsatadi. Shuning uchun ko'pchilik tilshunoslar bu kategoriyani morfologik-sintaktik kategoriya deb yuritishadi. Kelishik ma'nolari grammatik affiksial morfemalar orqali ifodalanadi, masalan, *-a, -y, -om, -e* (rus tili maskulin jins, birlikdagi kelishik qo'shimchalari), *-ning, -ni, -ga, -da, -dan* (o'zbek tili kelishik qo'shimchalari).

Tillarda kelishiklar ishga tushishi uchun kamida ikki so'z munosabatga kirishishi kerak. Bir-biri bilan bog'langan ikki mustaqil so'z bor joyda sintaksis kuchga kiradi. Bu kelishikni sintaktik kategoriya deyishga yana bir dalildir:

uyda to'qilgan vestpemel dpyza
quyoshning nuri girl's bag

Kelishik kategoriyasi bir necha xususiy ma'nodan va bu ma'nolarni ifodalovchi vositalardan tashkil topadi. Kelishiklarning soni tillarda bir xil emas. Hozirgi zamon ingliz tilida ikkita, nemis tilida – to'rtta, o'zbek va rus tillarida – oltita, eston tilida o'n beshta, venger tilida esa yigirmatadan ortiq kelishiklar bor. Xitoy-tibet tillarida va hozirgi fransuz tilida kelishik umuman yo'q. Kelishik yo'q tillarda gapdagi so'zlar o'rtasidagi munosabat boshqa grammatik vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Kelishiklarning soni tillarda turlicha bo'lishi, kelishik kategoriyasiga kiruvchi xususiy ma'no va shakllarning mazmuni va vazifasi har xil ekanligidan dalolat beradi.

Bir tilda bor kelishik boshqa tillarda ham mavjud deyish noto'g'ridir. Buni isbotlash uchun o'zbek va rus tillaridagi kelishiklarni qiyoslashning o'zi kifoya. Ma'lumki, har ikkala tilda oltitadan kelishik bor. O'zbek tilidagi bosh kelishik rus tilidagi *imenitelniy padej*ga har ihatdan mos keladi: ikkala tilda ham bu kelishikda kelgan so'z gapda ega, ot-kesim vazifasida keladi; rus tilidagi *roditelniy padej* o'zbek tilidagi qaratqich va tushum kelishiklariga, *datelniy padej* esa jo'nalish kelishigiga mos tushadi va hokazo.

Ba'zi tillarda kelishik kategoriyasi bir nechta so'z turkumlariga xos bo'lishi mumkin, masalan, o'zbek tilida faqat ot va olmosh, rus tilida esa ot, sifat, son va olmosh kelishiklarda turlanadi. Qiyoslang:

Karim mening yaqin do'stimni uchratibdi.

Карим встретил моего близкого друга

Garchi o'zbek va rus tillarida kelishiklar oltitadan bo'lsa-da, kelishik qo'shimchalarining soni bir xil emas: o'zbek tilida qo'shimchalar soni beshta bo'lsa, rus tilida birmuncha ko'proq. Rus tilida kelishik qo'shimchalari turlanadigan so'zning jinsi va soniga ko'ra qo'shiladi.

O'zbek tilida kelishik qo'shimchalari so'zning birlik va ko'plikdaligidan qat'i nazar qo'shilaversa (*uy-uyga-uylarga*), rus tilida ko'plikdagi otlar o'z kelishik qo'shimchalariga ega bo'ladi:

pod.nod.: дома (birlik) – домов (ko'plik)

dam.nod.: дому (birlik) – домов (ko'plik)

Ingliz tilidagi kelishik kategoriyasi o'ziga xos xususiyatga ega. Agar rus va o'zbek tillarida bir kelishik sistemasi bir nechta so'z turkumiga xizmat qilsa, ingliz tilida ot va kishilik olmoshi o'z kelishik sistemasiga ega. Otda umumiy (*common*) va qaratqich (*genitive*), kishilik olmoshlarida esa bosh (*nominative*) va obyektiv (*objective*) kelishiklariga ega:

Ot

umumiy k.: *boy*

qaratqich k.: *boy's*

Olmosh

bosh k.: *I, we*

obyektiv k.: *me, us*

Hind-ovrupo tillarida olmoshning kelishik shakli asosan suppletiv yo'l bilan (*she – her, ya –menya*), turkiy tillar, shu jumladan o'zbek tilida, grammatik affiksial morflardan foydalanib yasaladi:

kitobning – mening
kitobga – menga va hokazo

Grammatik zamon kategoriyasi

Grammatik zamon kategoriyasi tillarda eng ko'p tarqalgan fe'l kategoriyalaridan biridir.

Fe'lning zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq sodir bo'lishi paytiga nisbatan amalga oshishini ko'rsatadi. Nazariy jihatdan bu kategoriya gapirilayotgan paytda, gapirilayotgan paytdan oldin, gapirilayotgan paytdan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Ko'pchilik tillarda zamon grammatik kategoriyasi ana shu uch xususiy ma'nodan tashkil topgan.

Hozirgi zamon fe'li nutq so'zlanayotgan vaqtda sodir bo'layotgan ish-harakatni anglatadi, masalan:

Я читаю журнал.
Men jurnal o'qiyarman.
I read a magazine.

Undan tashqari, bu zamon yana bir qator qo'shimcha ma'nolarni:

1) *doimiy to'xtovsiz takrorlanib turadigan ish-harakatni:*

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti.
Земля вращается вокруг своей оси.
The earth rotates round the sun.

2) *ma'lum vaziyatda kelasi zamon ma'nosini:*

Ertaga uyga ketyarman.
Завтра вылетаю домой.
I go home tomorrow.

3) *o'tgan zamon ma'nosini ham anglatishi mumkin:*

Вчера захожу в институт и встречаю родителей.

O'zbek tilida bu zamonning hozirgi-kelasi zamon fe'li, hozirgi zamon davom fe'li turlari bor.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq jarayonida va undan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Bu ma'no fe'l o'zagiga *-a (-y)*

ravishdosh yasovchi affiksial morfni qo‘shish va tushlash bilan ifodalanadi:

Ishni hoziroq boshlaymiz.

Ular bugun kelishadi.

Hozirgi zamon davom fe’li ish-harakatning aynan nutq jarayonida sodir bo‘layotganini ifodalaydi. Bu ma’no fe’lga *-yap, -yotib, -moqda* affiksial morflarni qo‘shish va tushlash yo‘li bilan ifodalanadi.

Gazeta o‘qiyapmiz (o‘qimoqdamiz, o‘qiyotibmiz).

O‘tgan zamon nutq jarayonidan oldin bo‘lib o‘tgan ish-harakatni anglatadi. Bu ma’no turli tillarda turlicha: rus tilida *-л* affiksi yordamida, ingliz tilida, agar fe’l to‘g‘ri fe’llar turkumiga mansub bo‘lsa, *-(e)d* affiksi yordamida, agar u noto‘g‘ri fe’l bo‘lsa, suppletiv, yo fe’l o‘zagidagi unlini o‘zgartirish orqali ifodalanadi:

Лектор помог.

Mary helped me.

Mary brought me a book (infinitiv shakli – bring).

Mary went home (infinitiv shakli – go).

Ba’zi tillarda o‘tgan zamon bir nechta ko‘rinishga ega. Bunday tillarga o‘zbek va nemis tillari yaxshi misol bo‘la oladi.

Hozirgi zamon o‘zbek tilida o‘tgan zamonning yaqin o‘tgan zamon, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon hikoya fe’li, o‘tgan zamon davom fe’li va o‘tgan zamon maqsad fe’li farqlanib, ularning har biri o‘z ifoda vositasiga ega.

Yaqin o‘tgan zamon fe’l o‘zagiga *-di* affiksini qo‘shish va tushlash, uzoq o‘tgan zamon sifatdosh yasovchi *-gan* affiksini qo‘shish va tushlash (edi, ekan to‘liqsiz fe’llarning *-gan* affiksini olgan fe’l shakli bilan birikishi natijasida), o‘tgan zamon hikoya fe’li fe’l o‘zagiga ravishdosh yasovchi *-b(-ib)* affiksini qo‘shish va tushlash, o‘tgan zamon davom fe’li *-(a)r* affiksi yordamida yasalgan hozirgi zamon sifatdoshiga *edi* to‘liqsiz fe’lini tushlab biriktirish, *-yotgan* affiksi bilan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshiga *edi* to‘liqsiz fe’lini tushlab biriktirish, fe’l o‘zagiga *-moqda* affiksini qo‘shib, *edi* to‘liqsiz fe’lini tushlab biriktirish va o‘tgan zamon maqsad fe’li o‘zagiga *-moqchi* affiksini qo‘shish hamda *edi* to‘liqsiz fe’lini tushlab biriktirish yoki *-digan* affiksi yordamida yasalgan kelasi zamon sifatdoshiga *edi* to‘liqsiz fe’lini tushlab, biriktirish bilan ifoda etiladi.

Yaqin o'tgan zamon

<i>Men ishladim</i>	<i>Biz ishladik</i>
<i>Sen ishlading</i>	<i>Siz ishladingiz</i>
<i>U ishladi</i>	<i>Ular ishladilar</i>

Uzoq o'tgan zamon

<i>Men ishlaganman</i>	<i>Biz ishlaganmiz</i>
<i>Sen ishlagansan</i>	<i>Siz ishlagansiz</i>
<i>Men ishlagan edim.</i>	<i>Biz ishlagan edik</i>
<i>Sen ishlagan ekansan</i>	<i>Siz ishlagan ekansiz</i>
<i>U ishlagan emish</i>	<i>Ular ishlagan emish(lar)</i>

O'tgan zamon hikoya fe'li

<i>Men ishlabman</i>	<i>Biz ishlabmiz</i>
<i>Men ishlab edim</i>	<i>Biz ishlab edik</i>
<i>Sen ishlabsan</i>	<i>Siz ishlabsiz</i>
<i>Sen ishlab eding</i>	<i>Siz ishlab edingiz va hokazo</i>

O'tgan zamon davom fe'li

<i>Men ishlar edim</i>	<i>Biz ishlar edik</i>
<i>Men ishlardim</i>	<i>Biz ishlardik</i>
<i>Men ishlayotgan edim</i>	<i>Biz ishlayotgan edik</i>
<i>Men ishlamoqda edim</i>	<i>Biz ishlamoqda edik va hokazo</i>

O'tgan zamon maqsad fe'li

<i>Men ishlamoqchi edim</i>	<i>Biz ishlamoqchi edik</i>
<i>Men ishlaydigan edim</i>	<i>Biz ishlaydigan edik va hokazo</i>

Kelasi zamon fe'ldan anglashiladigan ish-harakat nutq jarayonidan keyin sodir bo'lishini ko'rsatadi. Bu zamonning ifodalanishi va ma'no turlari ham tillarda bir xil emas. Hozirgi ingliz tilida bu ma'no uch turda ifodalanadi.

1. *Shall, will* yordamchi fe'llari va infinitiv orqali. *Shall* yordamchi fe'li birinchi shaxs birlik va ko'plik uchun, *will* esa ikkinchi va uchinchi shaxslar uchun qo'llaniladi, masalan:

I shall read it later (Men buni keyinroq o'qiyman).

He will phone you up (U senga qo'ng'iroq qiladi).

Bu usulda oddiy kelasi zamon ifodalanadi.

2. O'tgan zamon nuqtai nazaridan kelasi zamon ma'nosi ifodalanishi mumkin.

3. Kelasi zamonda sodir bo'ladigan ish-harakatdan oldin amalga oshadigan boshqa ish-harakatning ham ma'nosi ifodalanishi mumkin.

Bu uchala kelasi zamondan ikkinchisi *should* va *would* yordamchi e'llarining infinitiv bilan birikishi natijasida ifoda etiladi.

John said that he would come.

Jon kelishini aytdi.

Should yordamchi fe'li birinchi shaxsga, *would* esa qolgan haxslarga nisbatan ishlatiladi.

Kelasi zamonning uchinchi turida ikkita kelasi zamon ma'nosini anglatadigan fe'l bo'lib, ular biri ikkinchisidan oldin sodir bo'ladigan oki ketma-ket sodir bo'ladigan ikki ish-harakatni anglatadi, masalan:

When you come he will have finished his composition.

Sen kelganingda, u inshoni yozib bo'lgan bo'ladi.

Hozirgi zamon nemis tilida kelasi zamonning ikki turi ajratiladi. Bu ikki zamon ingliz tilidagi birinchi va uchinchi kelasi zamon ulariga mos kelib, analitik vositalar yordamida yasaladi.

O'zbek tilidagi kelasi zamon boshqa tillardagidan ancha farq qiladi. O'zbek tilida sof kelasi zamon ma'nosini anglatadigan fe'l shakli yo'q. Yuqorida aytilganidek, fe'lning bir shakli ayni vaqtda ham hozirgi, ham kelasi zamonni anglataveradi. Haqiqiy kelasi zamon kelasi zamon gumon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'lidan iborat bo'ladi.

Kelasi zamon gumon fe'li ish-harakatning nutq so'zlangandan o'ng sodir bo'lishini taxmin qilinishini anglatadi. Bu ma'no *-(a)r* affiksial morfemasi bilan yasalgan sifatdoshni tushlash orqali ifoda tiladi.

Men ishlarman – Biz ishlarmiz.

Sen ishlarsan – Siz ishlarsiz.

U ishlar – Ular ishlar.

Kelasi zamon maqsad fe'li nutq jarayonidan so'ng bajarilishi naqsad qilib olingan, mo'ljallangan ish-harakatni anglatadi. Bu ma'no fe'l o'zagiga *-moqchi* affiksial morfemasini qo'shish va tushlash bilan yoki hozirgi zamon ravishdoshiga *-digan* affiksial morfemasini qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi.

Men ishlamoqchiman – Biz ishlamoqchimiz.

Men ishlaydiganman – Biz ishlaydiganmiz.

Sen ishlamoqchisan – Siz ishlamoqchisiz.

Kelasi zamonning o'zbek tilidagi ko'rinishlari bizga ma'lum bo'lgan hind-ovrupo tillarining birortasiga ham mos kelmaydi. Demak, har bir tilning o'ziga xos grammatik ma'no turlari va ularni ifoda qilish uslublari bor.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday til hodisasi grammatik kategoriya deyiladi?
2. Grammatik kategoriyalar ifoda etilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Grammatik kategoriyalar son va sifat jihatdan barcha tillarda bir xilmi? O'zbek tilida bor bo'lgan grammatik kategoriyalar rus tilida ham bormi?
4. O'zbek tilida otda egalik grammatik kategoriyasi bor, lekin rus, nemis, ingliz tillarida yo'q. O'zbek tilidagi egalik kategoriyasi anglatgan ma'no rus, nemis va ingliz tillarida ifodalana oladimi? Agar ifodalansa, unda qanday vositalar ishlatiladi?
5. Grammatik jins kategoriyasi qanday xususiy ma'nolardan tashkil topgan? Bu kategoriya Sizga ma'lum tillarning qaysilarida bor? Biologik jins bilan grammatik jins orasidagi farqni tushuntiring. Bu kategoriyaning paydo bo'lishi to'g'risida qanday fikrlar bor?
6. Grammatik son kategoriyasi qanday ma'no anglatadi? Sizga ma'lum bo'lgan tillarda grammatik son kategoriyasi qanday vositalar bilan ifodalanadi? Quyidagi javoblarning qaysi biri to'g'ri:
 - son kategoriyasi hamma tillarda affiksial morflar bilan ifodalanadi;
 - son kategoriyasi faqat yordamchi so'zlar bilan ifodalanadi;
 - son kategoriyasi ichki fleksiyalar orqali ifodalanadi;
 - son kategoriyasi ba'zi tillarda takror (reduplikatsiya) orqali ifodalanadi;
 - son kategoriyasi tillarda turli grammatik vositalar orqali ifodalanishi mumkin.
7. Grammatik son kategoriyasi so'z turkumlaridan faqat otlarga xosmi yoki boshqa so'z turkumlarida ham uchrashi mumkinmi?
8. Kelishik kategoriyasi deganda nimani tushunasiz? Kelishik kategoriyasi qaysi so'z turkumlariga xos? Bunday kategoriyaga

ega bo'lmagan tillar ham bormi? Agar bo'lsa, kelishik kategoriyasi bajaradigan vazifani u tillarda qanday grammatik vosita amalga oshiradi? O'zbek va rus tillaridagi kelishik qo'shimchalarini qiyoslang va farqini tushuntirib bering.

9. Grammatik zamon kategoriyasi qanday ma'no anglatadi? Hamma tillarda uchta zamon bor deyish mumkinmi? Zamon kategoriyasi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?

10. So'zlarning grammatik shakl (formasi) bilan grammatik kategoriyalar orasidagi munosabatini tushuntiring.

11. Keltirilgan juftliklarda qaysi grammatik kategoriya o'z aksini topgan va ular qanday grammatik vositalar bilan ifodalangan?

O'zbek tilida

Rus tilida

uy	uylar	дом	дома
uy	uydan	дом	домов
uy	uyim	бежал	бежала
men	meni	писать	написать
u	uning	брит	сбрит
kelmoq	kel	тереть	три
kelmoq	keldi	братъ	взял
katta	kattaroq	ребёнок	дети
sen	siz	идти	шёл
yozdim	yozdirdim	читать	буду читать

Yuqorida keltirilgan juftliklarni o'zingiz o'rganayotgan xorijiy tilga tarjima qiling va ularni bu tilda qanday vosita yordamida ifodalanganligini tushuntiring.

VII BOB

SO‘Z TURKUMLARI

Inson ko‘rgan, eshitgan va his qilgan narsalarini turlarga, guruhlariga ajratadi. Turlarga va guruhlariga ajratish doimo qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Qiyoslash inson tabiatiga xos narsa. Masalan, olmani katta-kichikligi, rangi, hidi va hokazolariga qarab turlarga, navlarga bo‘lamiz. Sayyoralarning quyoshga yoki yerga nisbatan joylashishi, katta-kichikligi, harorati, atmosferasi va tarkibiga qarab guruhlariga ajratamiz.

Lekin guruhlariga, turlarga ajratishning asosiy shartlaridan biri ko‘rilayotgan narsa yoki hodisaning kamida ikkita bo‘lishi lozimligidir.

Ma‘lumki, tilda rang-barang, son-sanoqsiz so‘zlar bor. Tilshunoslik tarixida olimlar so‘zlarni so‘z turkumlariga ajratishni diqqat markazida ushlaganlar. Tilshunoslik fanining rivojlanib, mukammallashib borishi bilan so‘zlarni turkumlarga ajratish ham takomillashib borgan.

Yuqoridagi *olma* va *sayyoralar* misolidan ko‘rinib turibdiki, narsa va hodisalarni turkumlarga ajratish uchun ma‘lum o‘lchov, shart, mezonlar bo‘lishi kerak. So‘zlarni turkumlarga ajratuvchi mezonlar, belgilar to‘g‘risida ko‘p bosh qotirilgan. Bu muammoning yechilish tarixi hozirgi kunda uch asosiy bosqich: strukturalizmgacha bo‘lgan davr, strukturalizm davri, strukturalizmdan keyingi, ya‘ni hozirgi davrga ajratiladi.

Tilshunoslik tarixida strukturalizm oqimi paydo bo‘lguncha, ya‘ni o‘tgan asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrda so‘zlarni turkumlarga ajratishda asosan uch o‘lchov: *so‘zlarning leksik-grammatik ma‘nosidan, so‘zlarning morfologik belgilari, ya‘ni so‘zning grammatik shaklidan, so‘zlarning gapdagi sintaktik vazifasidan foydalanilgan.*

Strukturalistlar esa faqat birgina belgi, ya‘ni so‘zlarning disributsiyasidan foydalanishadi. So‘zning disributsiyasi deganda bir so‘zning chap va o‘ng tomonidan sintaktik aloqaga kirishishi mumkin bo‘lgan hamma imkoniyatlari nazarda tutiladi. Bu haqda quyiroqda fikr yuritamiz.

Hozirgi kun grammatikalarida soʻzlarni turkumlarga ajratishda asosan besh belgi:

- *soʻzning leksik-grammatik maʼnosi;*
- *soʻzning grammatik shakli;*
- *soʻzning sintaktik vazifalari;*
- *soʻz yasovchi morflar;*
- *soʻzning distributsiyasidan foydalaniladi.*

Soʻzning leksik-grammatik maʼnosi deganda, soʻz anglatadigan aniq maʼno emas, balki uning umumlashgan maʼnosi nazarda tutiladi. Masalan: *uy, mars, yalpiz, qor, doʻstlik, quyon* soʻzlarining muayyan aniq maʼnolari bor, yaʼni, birinchi soʻz qurilish turi – yashash uchun qurilgan binoni, ikkinchisi – quyosh sistemasiga kiruvchi sayyorani, uchinchisi – isteʼmol qilinadigan oʻsimlik turini, toʻrtinchisi – tabiat hodisasining turini, beshinchisi – mavhum tushunchani va oltinchisi – hayvon turini anglatadi. Soʻzlarning leksik-grammatik maʼnosi deganda ularning anglatadigan konkret maʼnolari emas, balki shu soʻzlarga xos boʻlgan umumiy maʼno, bu guruh soʻzlar uchun umumiy boʻlgan, narsa yoki hodisa maʼnosi nazarda tutiladi. Narsa yoki hodisa nomini anglatuvchi soʻzlar ot deb nom olgan soʻz turkumiga kiritiladi.

Chekmoq, oʻqimoq, yozmoq, turmoq, koʻrmoq, buzmoq soʻzlarining aniq, konkret maʼnolari har xil, baʼzilarining aniq maʼnolari bir-biriga qarama-qarshi va zid, lekin ularning hammasiga xos boʻlgan maʼno – ish-harakatdir. Ana shu xususiyatlariga koʻra bu turkumdagi soʻzlar feʼl deb nom olgan soʻz turkumiga kiradi.

Soʻzning grammatik yoki morfologik xususiyati deganda, u yoki bu soʻzga xos boʻlgan grammatik kategoriyalar, shakl yasovchi, soʻz oʻzgartuvchi affiksial morflar tushuniladi. Masalan, *qizil, katta, ishlamoq, yotmoq, uy, daraxt* soʻzlarining morfologik xususiyatlarini aniqlash lozim boʻlsa, avval bu soʻzlar bilan ishlatiladigan shakl yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni aniqlash lozim boʻladi. Birinchi va ikkinchi soʻz *-roq* morfoni olishi mumkin, lekin keyingi soʻzlar bu morfni olmaydi. Uchinchi va toʻrtinchi soʻzlar *-di, -(i) b, -gan* morflarini olishi mumkin, birinchi, ikkinchi, beshinchi, oltinchi soʻzlar esa bu qoʻshimchalar bilan uchramaydi. Beshinchi va oltinchi soʻzlar kelishik qoʻshimchalarini olishi mumkin, lekin uchinchi va

to'rtinchi so'zlar bunday morflar bilan uchramaydi. Birinchi va ikkinchi so'z kelishik qo'shimchalarini olishi mumkin, lekin u holda ular otlashib, ot vazifasini o'tay boshlaydilar.

Shunday qilib, so'z o'zgartuvchi va shakl yasovchi affiksial morflar ham so'zlarni turkumlarga ajratishda katta ahamiyatga egadir.

So'zlarning sintaktik vazifasi deganda ularning gapdagi o'rni, gap bo'laklari nuqtai nazaridan bajaradigan vazifasi tushuniladi.

Ma'lumki, so'z turkumlarining gapda bajaradigan vazifasi turlicha. Ot gaplarda hamma vazifada kelishi mumkin, lekin sifatlarning sintaktik vazifalari chegaralangan. Shuni ham aytish kerakki, so'z turkumlarining gapda bajaradigan vazifasi tillarda bir xil emas. Ingliz tilida ot o'zbek tilidagi singari hamma vazifalarda ishlatilavermaydi. Sifat esa ingliz tilida faqat aniqlovchi va qo'shma ot kesimning ot qismi vazifalarida ishlatilishi mumkin.

So'z yasovchi morflar deganda, u yoki bu so'z turkumiga xos bo'lgan so'z yasovchi qo'shimchalar nazarda tutiladi. Har bir so'z turkumining o'ziga xos so'z yasovchi morflari bor. Biz *-li* morfini olgan so'zni uchratsak, ikkilanmasdan uni sifat deymiz, *-zor*, *-kor*, *-chi* qo'shimchalarini olgan so'zni ko'rsak, uni ikkilanmasdan ot deymiz va hokazo. Har bir tildagi so'z turkumlarining ana shularga o'xshagan so'z yasovchi morflari bor. Masalan, ingliz tilida *-ize*, yoki *-fy* morflari faqat fe'lga *-ment*, *-dom*, *-ship* otga; *-ous*, *-ful*, *-less* sifatga xos va hokazo.

So'zlar distributsiyasi deganda, biz ularning boshqa so'zlar bilan birika olish imkoniyatlarini tushunamiz. So'zlar distributsiyasi to'g'risida gap borganda, biz avval ularning leksik-grammatik ma'nosini yodimizda tutishimiz kerak, chunki so'zlarning ma'nolari ularning boshqa so'zlar bilan birikishini ta'minlaydi. Masalan, ot narsa yoki hodisani anglatadi. Narsa, hodisalar ma'lum belgi va xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, bunday holda ular sifatlar bilan birikishadi; narsalarning ish-harakati va holati tasvirlanishi mumkin, u holda ular fe'llar bilan birikishadi. Ana shunday so'z birikmalariga qarab, biz so'z turkumini ajratishimiz mumkin. Masalan, ingliz, nemis va fransuz tillarida artikllar bilan birikkan so'zni ko'rsak, uni albatta, ot deymiz, chunki artikllar faqat otlar bilan birikadi. So'zlarning distributsiyasi o'zbek tilida ham katta ahamiyatga egadir. Bu tilda

am soʻzning qaysi soʻz turkumiga taalluqliligi baʼzan ularning birikmasiga qarab farqlanadi:

U yaxshi odam.

U yaxshi gapirdi.

Bu ikki gapda *yaxshi* soʻzi bir xil grammatik shaklda ishlatilgan, ekin uning vazifasi har xildir. Bu gaplarda uning qaysi soʻz turkumiga nansubligi va qanday sintaktik vazifani oʻtayotganini, uni qaysi soʻz bilan birikib kelayotgani orqali aniqlanadi. Birinchi gapda u otni uniqiab, izohlab kelsa, ikkinchisida feʼl bilan bogʻlanib kelgan. Shuning uchun birinchi gapdagi *yaxshi* soʻzi sifat boʻlib, aniqlovchi vazifasida ishlatilgan, ikkinchisida esa u feʼl bilan bogʻlangani uchun oʻz turkumlaridan ravishga kiradi va u hol vazifasini oʻtamoqda.

Soʻz turkumlarini aniqlovchi mezonlar qancha koʻp boʻlsa, soʻz turkumlari shuncha aniq va maqsadga muvofiq boʻladi. Mezonlar qancha kam boʻlsa, natija shuncha noaniq chiqadi.

Shunday qilib, umumiy leksik-grammatik maʼnoga ega boʻlgan, bir xil grammatik kategoriyalardan foydalanadigan hamda gapda maʼlum sintaktik vazifalarni bajarib, maʼlum soʻzlar bilan aloqaga kirishadigan va nihoyat, maʼlum soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali asaladigan soʻzlar yigʻindisiga soʻz turkumi deyiladi.

Strukturalizm va soʻz turkumlari muammosi

XX asrning ikkinchi choragida tilshunoslik tarixida keskin burilish roʻy berdi. Taxminan bir vaqtning oʻzida yer kurrasining uch namlakatida «Strukturalizm» nomini olgan oqimlar paydo boʻldi: Amerika deskriptiv maktabi, Praga funksional maktabi hamda Daniya glossematika maktabi. Ilmu fan tarixidan shu narsa maʼlumki, birorta yangi narsa, fikr, nazariya oʻz-oʻzidan, toʻsatdan sodir boʻlmaydi. Yangi fikrning roʻyobga chiqishi uchun doimo bir turtki sababchi boʻladi. Tilshunoslik tarixida ana shunday yangi oqimning paydo boʻlishiga sababchi boʻlgan narsa bu – Shveytsariyalik olim Ferdinand de Sossyurning «Umumiy tilshunoslik» asarining XX asrning birinchi choragida bosilib chiqishi boʻldi. Bu asarda ilgari surilgan gʻoyani oʻta ixcham, muxtasar ifoda qilinganda «... *Til – shoralar, shakllar tizimidir ... Til farqlardan iborat, unda farqlardan*

boshqa hech narsa yo'q» degan fikr ilgari suriladi. Ana shu fikr asosida strukturalistlar o'z izlanishlarining asosi sifatida mazmunni emas, shakl (forma)ni olib, tilshunoslik fanini birmuncha yangi nazariyalar bilan boyitishdi. Xususan, so'zlarni turkumlarga ajratishda ular o'ziga xos yo'lni tanlashdi. Quyida avval nomlari qayd etilgan maktablardan faqat AQShning deskriptiv maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan fikrni keltirish bilan kifoyalanamiz.

AQSh struktural maktabining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Charlz Friz fikricha, so'zning qaysi turkumga mansubligini belgilovchi ko'rsatgich – bu uning (ya'ni so'zning) nutqdagi (gapdagi)o'rni, mazkur so'zning shu gapdagi boshqa so'zlarga nisbatan munosabatidir. Bunday ko'rsatgichni u distributsiya so'zi bilan belgiladi.¹ Ch. Friz konsepsiyasining asosini uchta sinov gaplari tashkil etdi, ya'ni:

The concert was good (always).

The clerk remembered the tax (suddenly).

The team went there.

U ingliz tilidagi qaysi so'zlar birinchi gapdagi concert o'rnida kela olishini aniqlab, ularni I guruh so'zlar (*Class 1 words*) deb atadi. Bunday so'zlar qatoriga *food, coffee, taste* kabi so'zlarni kiritdi. Shu gapdagi *was* so'zining o'rnida kela oladigan so'zlarni (*is, are, seems, seemed*) II guruh (*Class 2 words*) so'z turkumlariga, gapdagi *good* so'zining o'rnida ishlatila oladigan so'zlarni (*large, foreign, interesting*) III guruh turkumlariga (*Class 3 words*) va nihoyat, *always* so'zi o'rnida tura oladigan barcha so'zlarni u IV guruh so'z turkumlari (*Class 4 words*) deb atadi. Shundan so'ng Friz birinchi gapdagi *concert* so'zining oldida turgan *the* yordamchi so'zning o'rnida turishi mumkin bo'lgan so'zlarni aniqlab (ya'ni *a, an, no, one, this, my, all, some, every, our, John's*), ularni A guruhi turkumiga kiritdi. Ana shu uslubda, amerikalik olimlar distributsiya va substitutsiya yo'llari bilan an'anaviy ot, sifat, fe'l, bog'lovchi kabi

¹ Ch.Friz fikricha, «a part of speech in English is a functioning pattern», ya'ni ingliz tilida so'zning turkumini ularning gapdagi vazifalari belgilaydi

soʻz turkumlarini rad etib, toʻrtta asosiy soʻz turkumlari guruhini I guruh soʻzlar, II guruh soʻzlar, III guruh soʻzlar va IV guruh soʻzlar) hamda 15 yordamchi (A guruh soʻzlar, B guruh soʻzlar, C guruh soʻzlar va hokazo) soʻz turkumlarini aniqlashdi. Demak, zamonaviy ingliz tilida jami 19 soʻz turkumi aniqlanib, asosiy soʻz turkumlarini u sonlar bilan, yordamchi soʻz turkumlarini esa harflar bilan belgiladi. Bu ikki guruh soʻzlar orasidagi farqlarni Ch.Friz quyidagicha tushuntiradi:

1. Asosiy soʻz turkumlari son jihatdan cheksiz, yordamchi guruhlariga kiruvchi soʻzlarning umumiy miqdori – 154 ta.

2. Asosiy soʻz turkumlarining leksik va grammatik (Friz grammatik maʼnoni struktural maʼno deb ataydi) maʼnolarini ajratish uchun qanday qiyinchilik tugʻdirmaydi, masalan, *remembered* soʻzining leksik maʼnosi «*esga tushmoq*», grammatik maʼnosi «*oʻtgan zamon*», yordamchi soʻz turkumlarining bunday maʼnolarini ajratib boʻlmaydi.

3. Yordamchi soʻz turkumlari asosan struktural, yaʼni grammatik maʼno ifodalaydi va asosiy soʻz turkumlari tomonidan bajariladigan vazifalarni oʻtashga xizmat qiladi.

Tilshunoslik fanining eng murakkab masalalaridan boʻlgan bu muammoni Ch.Friz taklif qilgan yoʻl bilan hal qilishning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Ijobiy deb quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

- *soʻzlarni turkumlarga ajratishda birgina oʻlchov (kriteriy)ning qoʻllanilishi;*

- *leksik maʼnoga ega boʻlgan soʻzlarning jami toʻrt turkumgagina ajratilishi;*

- *shaklan bir xil boʻlgan soʻzlarni distributsiyasiga qarab, turkumlarga ajratib tashlash, masalan: Don't trouble trouble gapidagi birinchi trouble II guruh soʻzlarga, ikkinchisi esa, I guruh soʻzlarga nisbatan belgilanishi.*

Salbiy jihatlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

- *mazkur yondoshish ingliz tiliga oʻxshagan grammatik qoʻshimchalari nihoyat darajada chegaralangan, analitik xususiyatga ega boʻlgan tillar uchun qoʻllanilishi mumkinligi, turkiy, fin-ugor, slavyan tillariga oʻxshagan tillardagi gaplarda soʻz tartibi nisbatan erkin hamda grammatik qoʻshimchalarga boy boʻlgan tillarda bu erkinlikni qoʻllash nihoyatda qiyinligi yoki umuman qoʻllana olmasligi;*

- *bu konsepsiya sodda gaplar misolida ishlab chiqilganligi lekin qo'shma gaplar misolida hal etilmaganligi;*

- *yordamchi so'zlarning turlari haddan tashqari oshib ketganligi;*

- *bir so'zni distributsiyasiga ko'ra ham asosiy, ham yordamchi so'z turkumiga kira olishi (masalan: all so'zi all concerts are good gapida A guruhga kirishi, All is well deganda asosiy I guruh so'z turkumiga kirishi).*

So'zlarni turkumlarga ajratish aslida ularning leksik-grammatik xususiyatlarini ochib berish bilan uzviy bog'liq bo'lgan muammodir. Biz tahlil qilayotgan konsepsiya so'zlarning leksik-semantik xususiyatlarini umuman chetlashtirgandek, grammatik xususiyatlardan faqat sintaktik tomoninigina nazarda tutib, ularni (so'zlarni) morfologiyadan ajratib qo'ygandek tuyuladi.

Ch.Friz tomonidan yaratilgan bu ta'limot garchi ko'pchilik tilshunoslar tomonidan tanqid qilinsa-da, tildek murakkab bir hodisani har tomonlama o'rganish, uni tashkil etuvchi birliklarini turkumlashtirish va ularga baho berish yo'lida bir muncha masalalarni hal qildi, tilshunoslik fanining keyingi yillardagi rivojiga navbatdagi turki sifatida o'z hissasini qo'shdi.

Tillarda so'z turkumlari

Tillardagi so'z turkumlarining soni haqida olimlar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Masalan, hozirgi zamon rus tilida o'nta, o'n ikkita, hatto o'n beshta so'z turkumi bor, degan fikrlar o'rtaga tashlangan.

Agar ana shu rus tilidagi *ручка* so'zini ikkilanmasdan ot desak, unda quyidagi jihatlar ko'zga tashlanadi:

a) *ma'no nuqtai nazaridan u narsani anglatadi;*

b) *grammatik shakl nuqtai nazaridan birlik va ko'plik ko'rsatkichiga ega, kelishiklar bilan turlanadi, jins ko'rsatkichi bor;*

d) *ma'lum sintaktik vazifalarni bajaradi;*

e) *sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlari bilan aloqaga kirishadi.*

Bu nuqtai nazardan *возможно, вероятно* so'zlarini hozirda ko'pchilik asarlarda nazarda tutilgan 10 ta so'z turkumidan birortasiga kiritib bo'lmaydi. Shuning uchun ba'zi olimlar ularni alohida turkum deb bilishni tavsiya qiladilar. Bu so'zlar morfologik

uqtai nazardan ravishga o'xshasa ham, gapda ravishlar bajargan azifani bajarmaydi, ya'ni hol bo'lib kelmaydi. Ular so'zlovchining apdan anglashilgan mazmunga munosabatini ko'rsatadi. Bu ususiyatiga ko'ra mazkur so'zlar *modal so'zlar* nomini olgan. *Стыд-о, жалъ* kabi so'zlar ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ular ravishni slatsa-da, gapdagi vazifalariga ko'ra, ravishdan tubdan farq qiladi, kinchidan, gapda kesim vazifasini o'taydi va bu xususiyati bilan e'lga o'xshaydi. Lekin fe'lning boshqa xususiyatlarini aks ettirmaydi. ana shu sabablarga ko'ra, ularni holat ma'nosini anglatuvchi so'zlar ategoriyasi deyilmish turkumga kiritishadi.

Hozirgi zamon ingliz tilidagi so'z turkumlarining soni turli olimlar omonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim olimlar hozirda amalda o'lgan 10 ta so'z turkumiga (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, redlog, bog'lovchi, artikl va yuklamalar), yana to'rtta qo'shib (modal o'zlar, holat kategoriyasi so'zlari, undovlar, javob so'zlar) so'z urkumlari sonini 14 taga yetkazadilar. Bu – olimlarning so'z urkumlarini farqlashda qanday va nechta mezonlardan oydalanishlariga bog'liqdir.

So'z turkumlari anglatgan ma'nolariga va gapdagi vazifalariga o'ra uch guruh; *mustaqil so'z turkumlari*, *yordamchi so'z turkumlari* a *undovlarga* ajratiladi.

Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish *mustaqil so'z turkumiga* kiritiladi. Ular borliqdagi biror voqea va hodisalar belgilarini, harakatning omiini ifodalaydi, mustaqil leksik ma'no anglatib, gapda albatta, mustaqil bir bo'lak bo'lib keladi. Mustaqil so'z turkumlari orasida *olmosh* boshqalaridan qator xususiyatlari bilan farq qiladi. *Olmoshlar* arsani bevosita emas, bilvosita ifodalaydi va ularni odatda anglatadigan ma'nolariga ko'ra bir turkumga kiritishadi. Boshqa hatlardan, ya'ni gapdagi vazifasi, grammatik shakli, boshqa so'zlar ilan aloqaga kirisha olishi nuqtai nazaridan olmoshlar bir-biridan ddiy farq qilishi mumkin. Olmoshlarga xos grammatik kategoriyalar am tillarda farq qiladi. Agar o'zbek tilidagi hamma olmoshlar elishik bilan turlansa, ingliz tilidagi olmoshlar kelishiklar bilan irlanishi jihatidan nominativ va obyektiv kelishik bilan turlanadigan lmoshlar (*kishilik olmoshlari*); bosh va qaratqich kelishigi bilan irlanadigan olmoshlar (*each-other, one-another*) va umuman

kelishiklar bilan turlanmaydigan olmoshlar (*so'roq, ko'rsatish va boshqalar*)ga ajratiladi.

So'zlarning grammatik shakllarini o'zgartirishga va gapda so'zlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladigan so'z turkumlari (bog'lovchi, predlog, artikl, ko'makchi va boshqa)ga *yordamchi so'z turkumlari* deyiladi. *Yordamchi so'z turkumlari* mustaqil so'z turkumlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi, ya'ni yordamchi so'z turkumlari:

1) *asosan grammatik ma'noga ega bo'lib, gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi yoki mustaqil so'z turkumlarining grammatik shakllarini yasashda ishtirok etadi;*

2) *grammatik kategoriyalarga ega emas;*

3) *negiz yasovchi morflarga ega emas, ulardan yangi so'zlar odatda yasalmaydi;*

4) *gapda mustaqil gap bo'lagi sifatida uchramaydi;*

5) *son jihatdan chegaralangan yopiq tizimni tashkil etadi, yordamchi so'z turkumlariga kiruvchi so'zlarni sanab chiqish mumkin;*

6) *ular son jihatdan kam bo'lishiga qaramay ishlatilish darajasi jihatdan nutqda boshqa mustaqil so'z turkumlaridan ancha yuqori turadi.*

Uchinchi guruh so'z turkumlariga *undov* va *taqlidiy so'zlar* kiradi. Ular odamning ichki kechinmasi, his-tuyg'ularini shodlik, alam, istaklarini bevosita atamasa ham, ularni ifodalaydi. Undov so'zlar odatda gap bo'lagi vazifasida ishlatilmaydi. Taqlidiy so'zlar sharpatovushlarni ifodalaydigan so'zlardir. Ularning undovlardan farqi – gapda takrorlanib ishlatilishi hamda gap bo'lagi vazifasini o'tay olishlaridir.

Qiyoslang: Bobom uzoq o'tirgandan so'ng: «ux» deb xo'rsinadi, hassasini do'qillatib, asta qadam bilan ko'chaga jo'naydi (Oybek).

Oh - oh - oh! Otangizga rahmat. (A.Qahhor).

Uzoqlardan qizlarning qah-qah urgan ovozi eshitilib turardi.

Ular hang-mang bo'lganicha, o'tirib qolishdi (Gazetadan).

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Soʻz turkumlari deb nimaga aytiladi?
2. Anʼanaviy tilshunoslikda soʻz turkumlari qanday mezonlar asosida taʼriflangan? Zamonaviy tilshunoslikda-chi?
3. Struktural tilshunoslikka mansub boʻlgan olimlar soʻz turkumlari masalasiga qanday yondoshishadi?
4. Soʻzning leksik-grammatik maʼnosi deganda nima tushuniladi?
5. Soʻzning grammatik shakli nima?
6. Soʻzlarning sintaktik vazifasi soʻz turkumlarini farqlashda qanday yordam koʻrsatishi mumkin?
7. Soʻz distributsiyasi deganda nima tushuniladi?
8. Tillarda soʻz turkumlari son jihatdan bir xilmi?
9. Mustaqil va yordamchi soʻz turkumlari orasida qanday farq bor?
10. Quyidagi soʻzlar qaysi soʻz turkumiga mansub ekanini tushuntiring: *ish, ishchi, betob, goʻzal, chiroyli, yugurmoq, yozdim, tez, yugurish, hamma, u, bizlar, un, ot, qoʻy, gulzor, ittifoqdosh, bilan, zerikarli, badavlat, uchun, va, yangilik, topishmoq, topmoq, oʻsha, dindor, ishchan, begʻaraz, mayin, kuyla, dongdorlarcha, sermazmun, yangi, eh, hayhot, axir, nahotki, guldasta, hech kim, kim, murakkab, kimdir.*
11. Oʻzbek, ingliz, nemis, fransuz, rus tillaridagi ot yasovchi qoʻshimchalarni yozib chiqing.
12. Oʻzbek va birorta chet tilidagi sifat va feʼl yasovchi qoʻshimchalarni yozib chiqing.
13. Quyidagi gaplarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning qaysi soʻz turkumiga kirishini ayting va sababini tushuntiring:
 - 1) Chigit *tekis* unib chiqdi.
Mashina *tekis* yoʻldan shamoldek uchib borardi.
 - 2) *Koʻp* oʻyla, *oz* soʻzla.
Oz yetar, *koʻp* ketar.
Oz paxta teribsan.
Koʻp darding borga oʻxshaydi.
 - 3) Navoiy gʻazalni dastlab *ichida* oʻqidi,
Keyin tovush chiqarib, *chiroyli* oʻqidi (*Oybek*).
Adirdagi *chiroyli* gullar koʻzni qamashtirar edi.
 - 4) *Yaxshi* soʻz toshni yorar.
Notiq *yaxshi* gapirdi.

VIII BOB

LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya lingvistikada tilning lugʻat boyligini oʻrganish bilan shugʻullanadigan qatlamdir. Leksikologiya fani soʻz maʼnosining oʻzgarishi, yaʼni soʻz maʼnosining kengayishi va torayishi, soʻzlarning shakli va maʼno munosabatlariga koʻra turlari, ularning hududiy va ijtimoiy qatlamlari, yangi soʻzlarning paydo boʻlishi kabi qator masalalarni oʻz ichiga oladi.

Semasiologiya, leksikografiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, onomastika kabi boʻlimlar leksikologiyaning tarkibiy qismlaridir.

1. *Semasiologiya* til birliklari (til ishoralari)ni maʼno jihatdan oʻrganadi. Til ishoralari soʻzning shakli va soʻzning maʼnosi jihatidan izohlanadi (bu oʻrinda bizni soʻz qiziqtirayotganligi uchun gap shu birlik toʻgʻrisida boradi). Soʻzning shakli deganda uning tarkibidagi tovushlari, soʻzning maʼnosi deganda uni tashkil etuvchi tovushlar yigʻindisidan anglashiladigan maʼno nazarda tutiladi. Semasiologiya tilning barcha maʼno anglatuvchi birliklarini oʻrganadi.

2. *Leksikografiya* til tarkibidagi soʻzlarni maʼlum tartib va maqsad asosida (alfavit tartibida, nutqda ishlatish darajasiga va shu kabilarga koʻra) yozma ravishda toʻplab, lugʻat tuzish bilan bogʻliq masalalarni oʻz ichiga oladi.

3. *Onomasiologiya* narsa va hodisalarga nom berish jarayonini oʻrganadi.

4. *Etimologiya* soʻzlarning kelib chiqish tarixi masalalari bilan shugʻullanadi. Yasama, qoʻshma va xorijiy tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar maʼnolari bilan ham qiziqadi. Etimologiya soʻzning har ikki tomonini, yaʼni shakli va maʼnosini hisobga oladi.

5. *Frazeologiya* tilning turgʻun birikmalarini oʻrganadi.

6. *Onomastika* atoqli otlarni oʻrganadigan fan boʻlib, *antroponimika* (odamlarning ismini ilmiy jihatdan oʻrganadi), *toponimika* (geografik nomlarni oʻrganadi), *etnonimika* (millatlarning nomlarini oʻrganadi)dan tarkib topgan.

Tilning lugʻat boyligi uning hozirgi holati va tarixan bosib oʻtgan oʻli nuqtai nazaridan hamda tasnifiy va qiyosiy oʻrganilishi mumkin.

Tilning hozirgi holati va uning tarixiy bosib oʻtgan yoʻli jihatdan *leksikologiya* ikki turga: *sinxronik (zamonaviy)* va *diaxronik (tarixiy)* *leksikologiyaga* ajratiladi.

Tilning lugʻati tasnifiy va qiyosiy oʻrganilishi mumkin. Ayrim lingan tilning lugʻat boyligini har tomonlama oʻrganish *tasnifiy leksikologiya*, ikki yoki undan ortiq tillarning lugʻat boyligini oʻlishtirib, taqqoslab oʻrganish *qiyosiy leksikologiya* deb yuritiladi.

Soʻz – leksikologiyaning oʻrganish mavzusi va tilning asosiy birligi

Soʻz tilning asosiy birligi boʻlib, u har bir til yarusi tomonidan oʻrganilishi mumkin.

Soʻzni quyidagicha taʼriflash mumkin: Soʻz fonetik jihatdan tashkillangan bir butunlikdir. Fonema va morfemalar soʻzning asosiy birliklari, soʻzlar mustaqil birlik boʻlib, oʻz urgʻusiga ega. Urgʻu soʻzni fonetik jihatdan butunligini taʼminlab, undagi tovushlarni oʻzaro irlashtiradi va shu bilan birga, nutq jarayonida bir soʻzni oʻz oʻlkinchisidan farqlashga xizmat qiladi. Soʻzning butunligini oʻrsatuvchi yana bir dalil – pauzadir. Maʼlumki, soʻz bir harakatda oʻltaffuz qilinib, uni pauzalarga boʻlish mumkin emas. Va nihoyat, maʼno anglatuvchi til birliklari ichida takror ishlatilishi mumkin. oʻz qoʻshimchalarga oʻxshab, boshqa til birliklariga bogʻliq oʻlmaydi. Masalan, *-lar, -ning, -lik* kabi elementlar nutqda mustaqil oʻllanilmaydi: ularning ishlatilishi soʻzlarga bogʻliq, soʻzlar esa ayta-qayta turli soʻzlar bilan birikkan holda ishlatilishi mumkin. Masalan: *mustaqillik gʻoyasi, gʻoyalar kurashi, milliy istiqlool gʻoyasi, progressiv gʻoya* birikmalarida *gʻoya* soʻzi turli soʻzlar bilan irikib kelmoqda.

Soʻzni morfologik jihatdan oʻrganish. Tildagi grammatik vositalar oʻz borligi uchungina mavjud boʻladi, chunki grammatik vositalar oʻzlarning oʻzaro bogʻlanishiga yoki soʻzlarning shaklini oʻzgartirishga xizmat qiladi. Ichki fleksiya ham soʻzning boʻlishini oʻltozo qiladi.

Sintaktik birliklarni yasash uchun ham soʻzlarga murojaat etiladi, chunki soʻz birikmasi kamida ikkita mustaqil soʻzning oʻzaro bogʻlanishi orqali hosil boʻladi, gap esa ayrim soʻz yoki soʻzlar yigʻindisidan tashkil topadi. Gap soʻzlardan tashkil topganidek, soʻzga ham bir butun qurilma sifatida qaraladi, shuning uchun soʻzni ham tarkibiy qismlarga ajratish mumkin, masalan: *dongdorlardan* soʻzi *dong-dor-lar-dan* tarzida qismlarga ajraladi. Unda birinchi element – oʻzak, ikkinchisi – negiz yasovchi, uchinchisi – koʻplik, toʻrtinchisi – kelishik koʻrsatkichidir. Soʻzlarning tarkibiy tuzilishi toʻgʻrisida gap borganda, tildagi soʻzlarning leksik-grammatik jihatdan turli guruhlarga boʻlinishi aytib oʻtilishi lozim. Bir qarashda betartibdek tuyulgan soʻzlar aslida oʻzlarining leksik va grammatik xususiyatlariga koʻra turli soʻz turkumlariga ajraladi. Leksik xususiyatlari deganda ularning maʼnosi va negiz yasovchi elementlari nazarda tutiladi. Grammatik xususiyatlari esa soʻzlarning grammatik shakli, yaʼni qanday grammatik qoʻshimchalar olishi, gapda qanday gap boʻlagi boʻla olishi va, nihoyat, soʻzlarning bir-biri bilan birika olishi kabilar hisobga olinadi. Masalan, *paxta* soʻzi ot sifatida narsani anglatadi; egalik, kelishik va son qoʻshimchalarini olishi mumkin (*paxtamiz, paxtani, paxtalar kabi*); *-chi, -kor, -zor* soʻz yasovchi qoʻshimchalarini olishi, gapda ega, toʻldiruvchi kabi vazifalarda kelishi mumkin. Soʻzning boshqa soʻzlar bilan birikishi, yaʼni distributsiyasi soʻzlarning grammatik va leksik-semantik nuqtai nazaridan qaralishi lozim. Grammatik distributsiya deganda bir turkumdagi soʻzning boshqa turkumdagi soʻzlar bilan birika olishi tushuniladi, masalan: *paxta* soʻzi ot boʻlgani uchun sifat, feʼl va boshqa soʻzlar bilan birikadi. Leksik-semantik distributsiyada soʻz maʼnolarining bir-biriga mos kelish-kelmasligi tushuniladi.

Yuqorida aytilganidek, *paxta* soʻzi ot boʻlgani uchun sifat bilan birika oladi: *oq paxta, momiq paxta*, lekin *qora paxta* deyilmaydi. Garchi *qora* soʻzi sifat boʻlsada, u *paxta* soʻzi bilan birika olmaydi, chunki qoralik paxtaga xos emas, *paxta* soʻzi *qora* maʼnosini singdira olmaydi.¹

Ana shu yoʻl bilan tildagi soʻzlar turkumlarga ajratiladi. Binobarin, soʻzning tarkibi uning qaysi soʻz turkumiga kirishiga bogʻliqdir. Tilning


¹ Bu yerda soʻzlarning koʻchma maʼnoda ishlatilishi hisobga olinmadi.

sosiy birligi bo‘lmish so‘z, gap bo‘lib kelishi ham mumkin. O‘zbek tilidagi nominativ va boshqa gaplar bunga misol bo‘la oladi. Bu urdagi gaplar voqea va hodisalarning mavjudligini tasdiqlab, gapga os hamma xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.


Oy, nozik jimjitlik. Salqin shamollargina qizning sochlari bilan o‘ynashadi. Bahor! Hamma yoq ko‘rkam (Oybek).

Bu xildagi gaplar boshqa tillarda ham uchraydi. Ular ma‘no jihatidan fikrning nisbiy tugallanganini anglatib, og‘zaki nutqda boshqa turdagi gaplarga xos ohang bilan talaffuz qilinadi. Gapga os bo‘lgan ma‘nolar implitsit (yashiringan) holda ifoda qilingan bo‘ladi (sintaksis bo‘limiga qarang).

Yuqorida aytilganidek, tilning asosiy birligi bo‘lmish so‘z shakli ma‘no tomonlari bilan xarakterlanadi. Hozirgi zamon ilshunosligida so‘zning ma‘nosini *signifikat* atamasi bilan, so‘z anglatayotgan hodisani esa *denotat* atamasi orqali ifodalab, so‘zni asmda uchburchak orqali quyidagicha ifodalashadi:



1-rasm



2-rasm

Bu uchburchaklarda so‘zning shakli va narsa orasidagi munosabatning tushunchasini, ma‘nosini anglatishi ko‘rsatilgan. Shunday qilib, ko‘pchilik so‘zlar bir-biri bilan bog‘langan uch jihat: shakl, narsa (hodisa) va mazmundan tashkil topadi. So‘zlarning tildagi vazifalari o‘g‘risida gap borganda, ular bir butun qilib aytganda tilda nominativ atash vazifasini bajaradi deyilgandi. Bu vazifani ko‘pchilik so‘zlar o‘g‘ridan-to‘g‘ri ya‘ni bevosita bajara olsa-da, ba‘zilari bu vazifani bilvosita bajaradi, boshqalari esa umuman bajara olmaydi. Agar ot, e‘l, ravish, sifat kabilar atash vazifasini bevosita bajarsa, olmoshlar bu vazifani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ado etmasdan bilvosita bajarishi mumkin. Olmoshlar narsa-hodisalar nomini atamasdan, ularni ko‘rsatadi, ularga ishora qiladi demakdir. Lekin nutq jarayonida

olmoshlar boshqa mustaqil soʻz turkumlari kabi qoʻllanib, narsa va hodisalarni atay oladi. Yordamchi soʻz turkumlari (predloglar, koʻmakchilar, bogʻlovchilar va hokazo) predmet, hodisa, ish-harakat, belgi-sifatlarni atay olmaydilar.

Soʻz bilan u atagan narsa va hodisa orasida bevosita bogʻlanish yoʻqligi toʻgʻrisida yuqorida gapirilgan edi. Tilshunoslik tarixida bu masala yuzasidan koʻp munozaralar boʻlganligi hamda Qadimgi Yunonistonda bu munozaralar natijasida ikki katta oqim – *anomalistlar* va *analogistlar* oqimi yuzaga kelganligi qayd etilgandi. (Bu toʻgʻrida batafsil «Tilning paydo boʻlishi va rivojlanishi» bobiga qarang). XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Avstraliyada Rudolf Meringer boshliq «Soʻz va narsa» nomli maxsus maktab ham vujudga kelgan. Bu maktab vakillari ham mazkur masala yuzasidan bir qancha fikrlar aytishsa-da, lekin uni toʻgʻri hal qilisha olmadi. Nihoyat, hozirgi zamon tilshunosligida bu masala yuzasidan uzil-kesil bir fikrga kelib toʻxtaldi va soʻz bilan narsa oʻrtasida hech qanday aloqa, bogʻlanish yoʻq, degan xulosaga kelindi.

Agar soʻz bilan narsa va hodisa oʻrtasida bevosita bogʻlanish boʻlganda edi, ayni bir narsa har xil tillarda turlicha nom bilan atalmagan boʻlardi. Masalan, rus tilidagi *стол* soʻzi nemis tilida *Tisch*, ingliz tilida *table* deb ataladi yoki oʻzbek tilidagi *tosh* soʻzi rus tilida *камень*, ingliz tilida *stone*, nemis tilida *Stein* va hokazo. Shuni ham qayd qilish kerakki, turli tillarda *chugʻurchuq*, *qizilishton*, *momaqaldiroq*, *shivirlamoq* kabi maʼnolarni ifodalovchi soʻzlar uchraydi. Masalan, *momaqaldiroq*, *shivirlamoq*, *chugʻurchuq* tovushga taqlid qilish, *qizilishton* qushning tashqi koʻrinishini tasvirlash, *медведь* hayvon yaxshi koʻradigan taomning nomi bilan atash orqali yasalgan (*мёдоед*, yaʼni *asalxoʻr* degan soʻzdan kelib chiqqan). Shuningdek, rus tilidagi *водонад* soʻzi ham hodisani tasvirlash yoʻli bilan paydo boʻlgan. Shu maʼnoni anglatuvchi ingliz tilidagi *fall* soʻzi ham xuddi shu usul bilan yuzaga kelgan. Lekin oʻzbek tilida esa bu hodisani nomi tovushga taqlid qilish yoʻli bilan hosil qilingan: *sharshara*. Bunday soʻzlar dunyodagi barcha tillarda ham mavjud boʻlsa-da, ularning soni koʻp emas. Shunday ekan, umuman olganda, soʻz va narsa orasida bevosita aloqa yoʻq degan fikr

soʻgʻridir. Bu masala umumiy tilshunoslik muammolaridan biri boʻlmish etimologiya bilan uzviy bogʻliqdir.

Etimologiya soʻzlarning kelib chiqish tarixini oʻrganuvchi fandır. Bu soʻz grekcha *etymologia*, yaʼni *etymon* – «*haqiqat*» va *logos* – «soʻz» birikmalaridan tashkil topgan.

Tilshunoslikning bu qismi oʻta murakkab boʻlib, u bilan shugʻullanish jiddiy va uzoq vaqt hamda sabrni talab etadi. Tarixiy (diaxronik) nuqtai nazardan soʻz va narsa orasida uzviylik borligini eʼtirof etishimiz lozim. Lekin ularning tarixi shu qadar chuqurki, ularning barini aniqlashning imkoniyati amaliy nuqtai nazardan mumkin emas. Bunday xulosa chiqarishimizga asosiy sabab, dunyodagi barcha narsalar oʻzgarish va rivojlanish xususiyatiga ega boʻlganidek, soʻzlar ham bundan istisno emas. Shuni nazarda tutib, il taraqqiyotining bugungi, zamonaviy holatini (yaʼni sinxronik nuqtai nazardan) hisobga olib, soʻz va narsa orasida bogʻliqlik yoʻq degan qarorga kelingan.

Tillardagi barcha soʻzlar uch xil munosabatga kirishishi mumkin:

- 1) *soʻzning oʻzi anglatgan predmet va hodisaga;*
- 2) *soʻzning inson fikriga, hissiyotiga, xohish-istaklariga;*
- 3) *soʻzning boshqa soʻzlarga nisbatan.*

Bu munosabatlarga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.¹

Soʻzning oʻzi anglatgan narsa va hodisalarga munosabati tushuncha bilan uzviy bogʻlangan. Yuqorida aytilganidek, soʻzni tashkil etuvchi tovushlar, yaʼni soʻzning tashqi shakli bilan u anglatgan narsa-hodisa oʻrtasida hech qanday bogʻlanish yoʻq. Soʻzni tashkil etuvchi tovushlar predmetning qiyofasi boʻlmay, uning shorasidir. Bu ishora boshqa signal tizimlaridagi ishoralardan tubdan farq qiladi. Boshqa signal tizimlaridagi ishoralar (koʻcha harakati qoidalarini belgilovchi ishoralar, Morze alfaviti va hokazo) shartli va ixtiyoriydir: ular sunʼiy ishoralar boʻlib, kishi tomonidan ixtiro etilgan, kelishib olingan signallardir: sharoit taqozosi bilan ularni oʻzgartirish, yaʼni yangi ishoralar qoʻshilishi, keraksiz deb topilganlari tizimdan chiqarib tashlanishi mumkin. Narsa ishorasi boʻlmish

¹ Bu masalani yoritishda. Б.Н. Головиннинг «Введение в языкознание» – Москва: 1983, 55-58 betlar.

soʻzning tovushlar yigʻindisi – shartli va ixtiyoriy emas. Unga odamlar tashqaridan oʻz xohish-istaklariga qarab taʼsir oʻtkaza olmaydilar, uni oʻzgartira olmaydilar. Garchi til va tafakkur bir vaqtda paydo boʻlgan boʻlsa-da, tilning rivojlanishi qaysi yoʻldan borishini inson belgilab bera olmaydi. Til oʻz hayot yoʻliga ega boʻlib, tafakkur bilan birgalikda evolyutsion tarzda toʻxtovsiz harakat qiladi va oʻzi jamiyatning barcha talablariga javob beradi. Fan, texnikaning rivojlanishi tufayli va kundalik hayot ehtiyojlarini qondirish maqsadida turmushdagi barcha yangiliklarni aks ettirib boradi. Yangi soʻzlar (neologizmlar)ning paydo boʻlishi mazkur tilda soʻzlashuvchi kishilar jamiyati yoʻq boʻlishi bilan toʻxtaydi. Shunday qilib, til ishoralari shartsiz boʻlib, soʻzlashuvchilarning xohishiga bogʻliq boʻlmagan holda paydo boʻladi va oʻz ichki obyektiv qonuniyati asosida taraqqiy etadi. Masalan, keyingi yillarda qishloq xoʻjaligida ekinlarni zararkunandalardan himoya qilish maqsadida oʻnlab topilgan asboblardan biri changlatgich (ruscha *распылитель*)dir. Bunday soʻzlarning paydo boʻlishida odamlar oʻz ixtiyorlari bilan mazkur tovushlar yigʻindisini shartlashib olmagan. Bu tushunchalarni ifoda qilish uchun oʻzbek va rus tillari oʻz imkoniyatlaridan kelib chiqib, *chang-la-t-kich*, *рас-пылит-ель* elementlarini ajratib, ularning qoʻllanish qonuniyatlarini ham tavsiya etadi. Ana shunday yoʻllar bilan kishilik jamiyatining tilga boʻlgan ehtiyoji muttasil qondirib turiladi.

Soʻz maʼnosining oʻzi anglatayotgan predmetga munosabati toʻgʻrisida quyidagilarni aytish mumkin. Tilshunoslik fanida bu masalaga yondashish bir xil emas, shuning uchun mazkur masalada AQSh olimlari M.Aronof, V.O. Grendi, M.Dobrovolski¹ fikrlarini keltirish oʻrinlidir.

Inson ongida ham soʻzning, ham narsaning fizik va moddiy tuzilishi aks etadi. Demak, narsa bilan soʻzning qiyofasi bizning ongimizda birlashib, bir butunlikni tashkil etadi. Har safar predmet bizning ongimizga taʼsir koʻrsatayotganda, uning aksi paydo boʻlib, u bilan birgalikda soʻzning ham aksi gavdalanadi. Yoki aksincha, har gal biz soʻzni eshitganimizda, soʻz anglatgan maʼno bilan bir vaqtda

¹ M.Aronof va boshqalar. Contemporary Linguistics. Third Edition. St. Martin's Press. –New-York: 1997.pp 245-252.

narsaning ham aksi paydo bo'ladi. So'zning fizik qiyofasi bilan u anglatgan narsaning fizik qiyofasi o'rtasidagi bog'lanish birligini ma'no deb yuritishadi.

Yuqorida uchburchak orqali ifoda etilgan xususiyatlari tufayli so'z narsa va hodisalarni atay oladi, tushunchani anglatadi, vaholanki, predmet ham, tushuncha ham, o'z-o'zicha so'zning ma'nosini tashkil etmaydi. So'z ma'nosining predmetga bo'lgan munosabati *denotativ munosabat* deyiladi. Demak, ma'no borliqdagi predmetni aks ettiradi, so'zning moddiy tomoni esa predmetning ishorasi bo'lib xizmat qiladi. Ma'noning tushunchaga munosabati signifikativ munosabatni tashkil etadi. Uning mohiyati shundaki, ma'no asosida tushuncha shakllanadi, so'zning moddiy qobig'i orqali tushuncha aks ettiriladi, ifodalanadi.

Bir ma'no (so'z)ning boshqa ma'no (so'z)ga munosabati *struktural munosabat* deyiladi. Bunday munosabat tufayli so'zlar guruhlariga ajraladi.

So'zlar tildagi vazifasini denotativ, signifikativ va grammatik munosabatlarga kirishib bajaradi. So'zning denotativ vazifasi esa tushunchaning shakllanishi va ifodalanishini ta'minlaydi, grammatik vazifa so'z boyligining turli ma'no guruhlarini hosil qiladi.


So'z va tushuncha

Yuqorida qayd qilinganidek, so'zning moddiy tomoni (qobig'i) tushunchani aks ettiradi. Bu ishora boshqa ishoralardan tubdan farq qiladi. Buning boisi shundaki, til ishoralari faqat muloqotga xizmat qiladi, boshqa signal sistemalaridagi ishoralar esa (masalan, svetoforning yashil, sariq, qizil ranglari) tabiat va jamiyatda boshqa maqsadlarda ham ishlatiladi (rangni ifodalaydi), signal sistemasi ishorasi sifatida qo'llanilishi esa ularning ikkilamchi, ya'ni jamiyat a'zolari orasida shartlashib, kelishib olingan vazifasidir.

Ma'lumki, so'zning moddiy qobig'i (tomoni) tushunchaning ishorasi deb qaraladi. Bu o'rinda so'zning ma'nosini ham tushunchaning ishorasi deb bo'ladimi? Yo'q, albatta, chunki so'zning ma'nosi so'z va predmetning birgalikda aks etishidir: so'zning ma'nosi tushunchani ifodalamaydi, balki tushunchaning tashkil topishida va rivojlanishida asos sifatida vositachi xizmatini o'taydi.

Insonga xos bo'lgan ikkinchi signal sistemasi unga fikrlash jarayonining tarkibiy qismi bo'lmish tushunchalar tizimini yaratish imkonini beradi. Ma'lumki, ongning bir qismi bo'lgan tafakkur, borliqning faqat mantiqiy in'ikosi bo'lmay, balki narsa va hodisalarni emotsional estetik nuqtai nazardan ham aks ettiradi, boshqacha qilib aytganda, odamlarning muloqot uchun tanlagan so'zlari tarkibida munosabatlari ham ishtirok etadi, shuning uchun tushuncha tarkibida emotsional – estetik ma'noning bo'lishi tabiiydir. Tarkibida bunday ma'nolari bo'lmagan tushunchalar ham bo'ladi, ularga *leksema*, *atom*, *kosmos*, *algoritm* kabi atamalar kiradi. Shu sababli atamalarga nisbatan yagona talab – ularning obyektiv bo'lishidir, ular doimo bir voqea yo hodisani anglatmog'i zarur, ularda shubyektivizmga o'rin yo'q, atamalar sof tushunchalarni ifodalashi kerak. Masalan, fonema, leksema, integral, kvant, elektron va boshqalar.

Tillarda faqat emotsiya (*hayajonni*) anglatadigan so'zlar ham mavjud, masalan, *oh*, *uh*, *voy* va hokazo. Agar so'z va tushuncha o'rtasidagi munosabatni simvollar yordamida ko'rsatmoqchi bo'lsak, uni quyidagicha ko'rsatish mumkin bo'ladi:



(S – so'z, T – tushuncha, E – emotsional-estetik ma'no).

Demak, so'z faqat tushunchani ifodalashi mumkin (S – T), so'z tushuncha bilan emotsional-estetik ma'noni o'z ichiga olishi mumkin (S – TE) bu turdagi so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi va nihoyat, so'z faqat his-hayajonni ifodalashi mumkin (S – E), lekin bunday so'zlarning soni tillarda chegaralangan.

Shunday qilib, so'zning moddiy qobig'i tushunchaning ishorasi, so'zning ma'nosi esa tushunchaning shakllanish asosidir: tushuncha so'z yordamida va uning asosida paydo bo'ladi.

Leksik ma'no va uning turlari

Leksik ma'no boshqa ma'nolar (grammatik, stilistik)ga qaraganda konkret va individualdir. Har bir leksik ma'no muayyan bir so'zga tegishli bo'ladi. O'zi anglatgan narsaga nisbatan olingan leksik ma'no

numlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, *eshik* soʻzi bir vaqtning zida ham bino, xona, transport vositalari, sovitgich, javon kabilarga rnatilgan moslamani anglatadi.

Soʻzlarning leksik maʼnosi toʻgʻrisida gap borganda, dastlab arning tildagi maʼnolari bilan nutqdagi maʼnolarini farqlash zarur. uqorida aytilganidek, soʻzlarning maʼnosi umumlashtirish ususiyatiga ega boʻlib, bu xususiyat *tilga oid maʼno* yoki *lugʻaviy aʼno* deyiladi. Soʻzning aniq, muayyan maʼnolari faqat nutqda aniq oʻladi. Masalan:

Otasidan qolgan birdan-bir yodgorlik – oltin yon soat yodiga tushdi. Bu soatni u hatto sevimli eri yangi kuyovligida soʻraganda ham yrmagan edi (R.Rahmonov).

Maʼlumki, soatning turlari juda koʻp, lekin keltirilgan misolda anday soat toʻgʻrisida gap borayotgani maʼlum.

Baʼzan nutq jarayonida soʻzlarning maʼnosi shu qadar zgaradiki, bu maʼnoni lugʻatdan topishning imkoni boʻlmaydi, uni qat mazmunidan kelib chiqib aniqlash mumkin:

Barcha yoʻllarning bexatarligiga ishonch hosil qilingan boʻlsa im, qoʻshinlarimiz egallab turgan oldingi pozitsiyadan oʻtilgach, itun vujud koʻz va quloqqa aylandi (M.Samatov).

Bu misolda *vujud*, *koʻz* va *quloq* soʻzlari oʻzining lugʻaviy aʼnosini emas, balki sezgirlik, ehtiyotkorlik, ziyraklik kabi aʼnolarni anglatadi. Bunday maʼnolar *vujud*, *koʻz* va *quloq* soʻzlari chun vaqtincha maʼno boʻlib, ular bu maʼnoda boshqa kontekstda chramasligi mumkin.

Shunday qilib, soʻzlarning tildagi maʼnosi ularning nutqdagi aʼnosidan farq qilishi mumkin. Soʻzlarning tildagi maʼnosi oʻsimiy barqaror boʻlsa, nutqdagi maʼnosi oʻzgaruvchan beqaror oʻlib, mavzu bilan uzviy bogʻlangan boʻladi. Leksik maʼnoni arsa va hodisalar munosabatiga koʻra quyidagi turlarga ajratish umkin:

1. Atash maʼnosi. Soʻzlarning tildagi asosiy vazifasi narsa va hodisalarni atashdir. Atash maʼnosi deganda leksik maʼnoning ana u vazifasi tushuniladi. Atash maʼnosiga ega boʻlgan soʻzlar hitilganda, kishi koʻz oʻngida atalayotgan narsa gavdalanadi: *ayiq, arslon va boshqalar.*

2. Ko'rsatish ma'nosi. Hamma so'zlar ham atash ma'nosiga ega emas. Ayrim so'zlar faqat narsa va hodisalarni ko'rsatishga xizmat qiladi, masalan, o'zbek tilidagi *u, bu, o'sha* rus tilidagi *этом, том* kabilar.

3. To'g'ri ma'no. Bu ma'no bevosita atalayotgan narsa va hodisani bildiradi: *tog', daraxt, suv, tosh* va boshqalar.

4. Ko'chma ma'no. Har qanday so'zning ma'nosi bir nechta kichik ma'nolar (semalar)dan tashkil topadi. Masalan: tulki so'zi *yovvoyi, yirtqich, chiroyli, ayyor, sut emizuvchi* va boshqa semalardan tashkil topgan. Ba'zan ana shu ma'nolardan biri yetakchi qilib olinib, u shaxs yoki narsaga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, odamga nisbatan *u tulki* deyilsa, *bu* odamning *ayyorligi* nazarda tutiladi. Bu so'zni ko'chma ma'noda ishlatishdir. Bu hodisa o'z ichiga *istiora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlikni* oladi.

Istiora (metafora). Ikki narsaning bir-biriga o'xshashligi asosida bir so'z bilan ikkinchisini atash istiora deyilib, u so'z ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Narsa o'z *xususiyat, shakl, harakat, rang, hid, hajm* va shu kabi biron belgisiga ko'ra boshqa shu xususiyatlarga ega bo'lgan narsaning nomini oladi. Istiora yo'li bilan bir so'zning ma'nosi ikkinchisiga ko'chganda, o'sha predmetlar uchun umumiy bo'lgan belgi tushunchada saqlanib qoladi. Masalan, *temir irodali* odam deganda, odamning irodasini temirga o'xshash qattiq, kuchli ekanligi nazarda tutiladi.

Istioraning paydo bo'lishi quyidagi xususiyatlarga asoslanadi:

a) *odam tanasi a'zolariga – tish (arraning tishi), burun (choynakning burni), og'iz (ko'chaning og'zi), bosh (suvning yoki ishning boshi) va hokazo;*

b) *vazifaning o'xshashligiga (yashindek tez uchmoq);*

d) *shakl o'xshashligiga (kulcha yuzli, masalaning ildizi);*

e) *tovush o'xshashligiga (bo'ron uvullardi);*

f) *turli taassurotlar o'xshashligiga (iliq tabassum, shirin uyqu, achchiq gap).*

Ba'zan so'z ifodalagan narsaning turli belgilari har xil narsalarning xususiyatlariga o'xshash bo'lganligi sababli, ayni bir so'z bir qancha narsalar ifodasi sifatida ishlatilishi mumkin. Bu jihatdan nemis tilidagi *Schlange* so'zi yuqoridagi fikrga misol bo'la

adi. Bu soʻzning maʼnosi *ilon* demakdir. Hozirgi zamon nemis tilida bu soʻz quyidagi maʼnolarda ishlatiladi: *badjahl, zahar, rezina ichak shlang*).

Metonimiya. Narsa va hodisalarning makon yoki zamondagi oʻzaro doimiy bogʻlanishi asosida birining nomini boshqasiga oʻchirish *metonimiya hodisasi* deyiladi. Agar metaforada bir predmet bilan ikkinchisi oʻrtasida maʼlum xususiyatlarga asoslangan oʻxshashlik boʻlsa, metonimiyada ikki predmet oʻrtasida doimiy oqaning mavjudligi sababli biri aytilganda, ikkinchisini tushunish oʻrnini beradi. Masalan, *binoda* deganimizda shu nomdagi uy-joy bilan, uning ijtimoiy vazifasi oʻrtasidagi munosabat yotadi, aytaylik, *gap institut yigʻildi*, deganimizda *gap institut* binosi toʻgʻrisida emas, balki institutda oʻqiydigan talabalar, unda ishlaydigan oʻqituvchilar tushuniladi. Yoki *samovarda osh qildik* deyilganda *binoda* – choyxona tushuniladi. Metonimiya hodisasi material va undan yasalgan buyum oʻrtasidagi munosabat, muallif va u yaratgan asarlar oʻrtasidagi munosabat asosida ham paydo boʻlishi mumkin. Masalan, *men haykovskiyning konsertiga bordim*, deyilganda, *Chaykovskiy yaratgan asarlar ijro etiladigan konsertga bordim*, degan fikr tushuniladi.

Sinekdoxa. Bu hodisa metonimiyaning tarkibiy qismi boʻlib, bunda bir butunlikni anglatuvchi soʻz orqali shu butunlikning bir qismi yoki bu qism orqali mazkur qismni oʻz ichiga oluvchi bir butunlikni ifodalash tushuniladi. Masalan, *savsar telpak* deyilganda *savsar nomli ziyvondan tikilgan telpak* emas, balki uning terisidan tikilgan telpak tushuniladi. Baʼzan barmoqni kesib olganlikni ifodalash uchun u *qoʻlini kesib olibdi* deyishadi. Bunday hollarda butunlik nomi bilan qism tushuniladi.

Sinekdoxada soʻz orqali ifodalangan qism oʻzicha mavjud boʻlmay, butunlikning boʻlinmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Demak, sinekdoxa butunlik va uning qismi orasidagi munosabat boʻlib, u bilan miqdor munosabati orqali bogʻlanadi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa va bularning oʻxshash boshqa bir qancha masalalar bilan tilning stilistik xususiyati yaqindan shugʻullanadi.

Leksik ma'noning kengayishi va torayishi

Yuqorida qayd qilinganidek, tilning hamma yaruslari doimo rivojlanishda bo'ladi. Tilning lug'at boyligi ham bundan mustasno emas.

Ma'lumki, so'zning leksik ma'nosi muntazam o'zgarib turadi va aytib o'tilganidek, u bir qancha mayda ma'nolar – semalardan tashkil topadi. Ana shu semalardan birining tushib qolishi yoki ba'zilarining rivojlanib, boshqa semalarga nisbatan yetakchi vazifani o'tay boshlashi mumkin. Shuningdek, so'zdagi dastlabki ayrim semalar neytrallashib, tushib qolishi ham mumkin. So'z ma'nosining rivojlanishi sifat va miqdor o'zgarishiga, ma'noning kengayishi va torayishiga, hattoki tildan umuman tushib qolishiga olib keladi. Bunda jamiyat taraqqiyoti alohida ahamiyatga ega. Tafakkurning mo'tadil rivojlanib borishi fan va texnika taraqqiyotiga olib keladi. Bu hol o'z navbatida yangidan-yangi tabiiy hodisalar mohiyatini bilish, texnika yangiliklarini ochish, yangidan-yangi asbob-uskuna va narsalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Til bularning hammasiga alohida yangi nom (yangi so'z) yaratmasdan, balki ularni mavjud so'zlar yordamida ifodalashi ham mumkin. Natijada leksik – semantik ma'no kengaya boradi. Masalan, *uchmoq* fe'li aslida parrandalar harakati bilan bog'langan, lekin hozir uning ma'nosi kengayib, *ko'z*, *varrak*, *samolyot*, *yer sun'iy yo'ldoshi* kabi tushunchalar bilan ham aloqaga kirishadigan bo'ldi. Shuningdek, maydon so'zi ham yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi: *ekin maydoni*, *futbol maydoni*, *Mustaqillik maydoni* va hokazo. Rus tilidagi *крыло самолёта*, *левое / правое крыло здания* ham shular jumlasidandir.

So'zning leksik ma'nosining kengayishi natijasida ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar paydo bo'ladi. Leksik ma'noning torayishi so'z ma'nosining kengayishiga nisbatan aks jarayondir. Til evolyutsiyasi jarayonida so'z ma'nosi torayishi uning qo'llanish doirasini chegaralab qo'yadi. Ko'pchilik tilshunoslarning fikricha, leksik ma'noning torayishi deyilganda umumlashtiruvchi so'zning ayrim, xususiy ma'noni ifodalashga o'tishi tushuniladi. Masalan, *osh* so'zi bir vaqtlar qozonda tayyorlanadigan ovqatning hamma turini

anglatar edi, keyingi vaqtlarda esa bu soʻz koʻproq *palov* maʼnosini ifodalaydigan boʻlib qoldi. Rus tilidagi *xrustal* soʻzi faqat xrustaldan ishlangan buyumlarni, idishlarni nazarda tutadi, aslida esa, bu soʻz bilan kristallar ifoda qilinar edi.

Soʻz maʼnolarining kengayish va torayish hodisalari lugʻat tarkibining doimo yangilanib borishini taʼminlaydigan vositalardan biridir.

SOʻZLARNING MAʼNO MUNOSABATLARIGA KOʻRA TURLARI

Til tarkibidagi leksik maʼnolar doimo oʻzaro maʼlum munosabatda boʻladi. Ayrim soʻzlar anglatgan maʼnolariga koʻra bir-biriga yaqin, boshqalari esa, bir-birini inkor qiladi, qarama-qarshi maʼno anglatadi. Bu nuqtai nazardan sinonim va antonim soʻzlar farqlanadi. Soʻzlar shakl nuqtai nazardan ham maʼlum munosabatda boʻladi. Baʼzan tillarda shakli bir-biriga oʻxshash, yaʼni shakldosh soʻzlar uchraydi. Tilshunoslikda bunday soʻzlarni ikki turga ajratib oʻrganish qabul qilingan: omonimlar va polisemantik soʻzlar. Quyida shakldosh, maʼnodosh va maʼnolari bir-biriga zid boʻlgan soʻzlarni alohida-alohida koʻrib chiqamiz.

Sinonimlar

Bir xil yoki bir-biriga yaqin maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar *sinonimlar* deyiladi. Masalan, *beparvo*, *befarq*, *betashvish*, *loqayd*; *chiroyli*, *goʻzal*, *barno* va hokazo. Sinonimlar bir narsa yoki hodisaning har xil belgilarini nazarda tutib ifodalashi tufayli doimo ham biri oʻrnida ikkinchisini qoʻllab boʻlmaydi, qoʻllangan taqdirda ham ularning maʼnolari bir-biriga aynan toʻgʻri kelmaydi. Shu sababdan tillarda mutlaq sinonimlar yoʻq deyiladi. Agar shunday sinonimlar uchrab qolsa, ulardan biri tez orada isteʼmoldan chiqib ketadi. *Samolyot* va *aeroplan* soʻzlari mutlaq sinonimlardir, shuning uchun bu sinonimlarning ikkinchisi (aeroplan) hozirgi vaqtda isteʼmoldan tushib qoldi.

Xullas, sinonimlar ma'nodosh so'zlar bo'lib, o'zlari ifoda qilayotgan narsa va hodisalarning har xil belgilarini ifodalaydi. Natijada ularda qo'shimcha ma'nolar mavjud bo'ladi, ana shu ma'nolar evaziga ular bir-biridan farq qiladi. Ularni birlashtirib turadigan narsa esa sinonim so'zlardagi yetakchi ma'nodir.

Ma'nodosh so'zlarning yig'indisi sinonimik qatorni tashkil etadi. Har bir guruhdagi ma'nodosh so'zlarda *dominanta* deb yuritiluvchi asosiy so'z bo'ladi. Ana shu *dominanta* sinonimik qatorga kiruvchi namma so'zlar o'rnida ishlatila oladi. Masalan: *yuz, bet, aft, bashara, turq, angor, oraz, chehra ...* Bu sinonimik qatorning *dominantasi yuz* so'zidir. Rus tilidagi *старый, ветхий, чѣрствый* so'zlari tashkil etgan sinonimik qatorda *старый* so'zi *dominanta* vazifasini o'taydi.

Sinonimlar, asosan, ikki yo'l bilan paydo bo'ladi. Birinchisi, har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida, masalan, o'zbek tilida *qari-keksa, chiroyli-go'zal, katta-ulkan, ulug'-buyuk* va boshqalar; ikkinchisi, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hisobiga, masalan, *bo'lim-otryad, dalil-fakt, reja-plan* yoki rus tilidagi *ускорение-интенсификация, языкознание-лингвистика* va hokazo. Sinonimlarning paydo bo'lishi til lug'at tarkibining boyib, yangilanib borishining garovidir. Ular yordamida fikr aniqroq va maqsadga muvofiqroq fodalanishi mumkin.

Omonimlar

Omonimlar sinonimlarning aksi, ya'ni, *shakldosh* so'zlardir. Yozilishi yoki o'qilishi bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar *omonim so'zlar* deyiladi. Bunday so'zlar dunyodagi barcha tillarga xosdir.

Masalan:

o'zbek tilida: ot

hayvon

ism

so'z turkumi

buyruq fe'li

bor, tuz, tush, chang, tik va boshqalar shular jumlasidandir;

rus tilida: klyuch

kalit

buloq

лук, соль, шашка, класс va boshqalar;
 ingliz tilida: well quduq
 yaxshi
 nemis tilida: Schloss qasr
 qulf
 va boshqalar;
 fransuz tilida: tour minora
 navbat
 sayohat va boshqalar

Hozirgi zamon tilshunosligi omonim soʻzlarning yozilishi va talaffuz qilinishi jihatdan ularni bir qancha turlarga ajratadi. Yozilishi va talaffuzi bir-biriga mos keladigan soʻzlar *mutlaq omonimlar* deyiladi. Masalan: tor – *musiqi asbobi maʼnosida* va *keng* soʻzining antonimi maʼnosida; rus tilida *shashka* soʻzi *qilich* va *oʻynaladigan predmet maʼnosida*: ingliz tilida *still sokin* va *hozirgacha* maʼnolarida, *acht* soʻzi nemis tilida *sakkiz* va *diqqat* maʼnolarida keladi va hokazo.

Yozilishi har xil, lekin talaffuzi bir xil omonim soʻzlar *omofon* deb yuritiladi. Masalan: oʻzbek tilidagi *toʻn* va *ton (ovoz)*, rus tilida *paз-pedumь* – *paзpядumь*, ingliz tilida *night* – *knight*, nemis tilida *viel* – *fiel* (birinchisi koʻp maʼnosida, ikkinchisi yiqildi maʼnosida), fransuz tilida *mer -mer*; *maire -ona*, *dengiz* va *mer* (hokim) maʼnolarida qoʻllaniladi.


Baʼzi soʻzlar bir xil yozilib, har xil oʻqiladi. Tilshunoslikda bunday soʻzlar *omograflar* deb yuritiladi. Masalan: oʻzbek tilidagi *tok* soʻzi ikki xil talaffuz qilinadi; *uzum* maʼnosida va *elektr quvvati* yoki rus tilidagi *zamok* soʻzi ikki xil oʻqiladi: *qasr* maʼnosida qoʻllanganda urgʻu birinchi boʻgʻinga, *qulf* maʼnosida qoʻllanganda esa ikkinchi boʻgʻinga tushadi; ingliz tilida *wind* soʻzi *shamol* va *buramoq* maʼnolarida qoʻllanib, har xil talaffuz qilinadi.

Tillarda shunday soʻzlar borki, ular oʻzlarining dastlabki shaklida (ot bosh kelishikda, feʼl harakat nomi shaklida, sifat oddiy daraja shaklida va shu kabilar)da bir-biridan tubdan farq qilib, baʼzi grammatik shakllarda oʻqilishi va yozilishi toʻgʻri kelib qoladi. Masalan, oʻzbek tilida *qoʻy* soʻzi hayvon va buyruq feʼli shaklida *qoʻy* soʻziga omonim boʻlib kelishi mumkin; rus tilida *mpu* soʻzi ikki maʼnoda: *uch* va *ishqala* maʼnolarida qoʻllanadi: *ishqalamoq* maʼnosida – *mepeмь* feʼli faqat buyruq shaklidagina uch soʻziga


shakldosh bo‘lib keladi; ingliz tilida *saw* so‘zi *arralamoq* va *ko‘rdi* (-*m*, -*ng*) ma‘nolarida ishlatiladi. Ko‘rmoq fe‘lining infinitiv shakli *to see* o‘tgan zamon *saw* shaklida *arralamoq* so‘ziga shakldoshdir. Bunday omonimlar *omoformalar* deb yuritiladi.

Omonimlar bilan polisemantik so‘zlar orasida bir qarashda umumiylik borgan o‘xshaydi. Ikkalasida ham shakl bir xil, ma‘no turlichadir. Lekin bu so‘zlar orasida katta farq yotadi. Masala shundaki, polisemantik so‘zlarning ma‘nolari bir-biriga qarindoshdir, chunki polisemantik so‘zlar bir so‘z bosh ma‘nosining kengayishidan hosil bo‘lib, bosh ma‘nodagi tushunchadan boshqa tushunchani fodalasa ham, ular anglatgan narsa va hodisalar o‘rtasida doimo umumiylik bo‘ladi. Masalan, *bet* so‘zi polisemantik so‘zdir, chunki u *odamning beti*, *ko‘chaning beti*, *kitobning beti* kabi ma‘nolarda qo‘llanadi. Ko‘rinib turibdiki, bu ma‘nolar orasida umumiylik bor. Rus tilidagi *baza* so‘zida beshta ma‘no bor. Ingliz tilidagi *get* so‘zining o‘ndan ortiq ma‘nolari bor. Odatda, polisemantik so‘z bilan omonim so‘zlarni chizmada quyidagicha ifodalashadi:

Omonim so‘zlar



Polisemantik so‘zlar



Omonim so‘zlar ma‘nolarining parallel chiziqlar bilan ko‘rsatilishiga sabab, bu so‘zlar anglatgan ma‘nolar o‘rtasida hech qanday bog‘liqlikning yo‘qligidir. Ulardagi shakl umumiyligi tildagi tasodifliklar natijasidir. Polisemantik so‘zlar esa bir ma‘noning rivojlanishi bo‘lganligi uchun bir-biri bilan kesishadigan chiziqlar orqali ko‘rsatiladi.

Antonimlar

Antonim atamasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, u «*qarama-qarshi nom*», «*zid nom*» degan ma‘nolarni bildiradi. Demak, antonimlar tillardagi qarama-qarshi ma‘noni anglatuvchi so‘zlardir. Dunyoda hamma narsa juftlik prinsipiga asoslanganligi ma‘lum. Juftlik borligi uchun dunyoda taraqqiyot bor. Lekin har qanday juftlik ham taraqqiyot, rivojlanishning asosi bo‘la olmaydi. Faqat bir-birini bir vaqtning o‘zida ham inkor qiladigan, ham taqozo qiladigan

ftlikkina rivojlanish va muvozanat asosi bo'la oladi. Antonim so'zlar
lni leksik yarusidagi ana shunday juftlikning oddiy namunasidir.
lasalan, *katta-kichik, to'g'ri-egri, keng-tor, oq-qora* va boshqalar.

«Oldinlari Otaqo'zi, issiq-sovuqni, past-balandni bilmaydigan bir
ishi edi» O. Yoqubov.

«Опомнитесь, граждане, левые и правые, консерваторы и ре-
форматоры, идеалисты и прагматики, национал-патриоты и
манисты» («Известия»).

Bunday so'zlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, biri
kinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Barcha narsalar qiyosiy o'rganiladi.
uning uchun *katta* so'zi anglatgan ma'noni tasavvur qilish uchun
chik degan so'z anglatgan tushuncha bo'lishi shart va aksincha. Agar
ayotda hamma narsa *katta* bo'lsa, unda na *katta* so'zi va na *kichik*
egan so'z tilda kerak bo'lardi. Yoki dunyoda hamma narsa bir xil
ingda bo'lsa, unda rang tushunchasi ham bo'lmasdi.

Antonimlar nutq jarayonida keng ishlatilib, rang-barang
ishunchalarni ifodalash uchun qulay vositalardir. A.A.
eformatskiyning fikricha, ular kuchli, *katta* ahamiyatga ega bo'lgan
ilistik vositalardir. Antonimlarni o'rinli ishlata bilish nutqning rang-
arangligini, o'tkirligini, ifodaliligi va ta'sirchanligini oshiradi.
o'zlarning sinonim va antonimlarini bilish, so'zlarning turli
a'nolarini aniqlashga yordam beradi.¹

Hamma so'zlarning antonimi bor deyish mumkin emas. Tillarda
ntonimi yo'q bo'lgan so'zlar ko'p uchraydi, masalan: *ruchka, sinf,*
ma, don va boshqalar. Hamma gap shundaki, antonimlar to'g'risida
o'z borganda, ularni ikkiga, ya'ni asliy leksik antonimlar va yasama
ntonimlarga ajratib olish maqsadga muvofiqdir.

Asliy leksik antonimlar til paradigmikasida tabiiy mavjud bo'ladi,
asalan, *uzun-qisqa, bor-yo'q, yer-osmon, o'ng-chap, to'g'ri-egri* kabilar.

Yasama antonimlar chegara bilmaydi. Ular inkor ma'nosini
iglatadigan til vositalari yordamida yasalib, har qanday so'zning
ntonimini ifodalashga xizmat qiladi. Bu vositalar so'zlarning oldidan
oki ketidan kelib, narsa, hodisa, sifat, belgi, ish-harakat, holat va
okazolarni inkor etadi va shu yo'l bilan aks, qarama-qarshi ma'no

A.A. Реформатский. Введение в языковедение. –М.: 1987

yasaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi *no-* affiksi so‘zdan anglashilgan tushunchaning aks ma’nosini ifodalaydi: *tinch-notinch*, *to‘g‘ri-noto‘g‘ri*, *jo‘ya-nojo‘ya*. Ko‘rinib turibdiki, bu affiks sifatarga xosdir, *-ma* affiksi yordamida ish-harakatning bajarilishi man etiladi: *bor – borma*, *yur –yurma*, *ol – olma* kabi.

Ingliz tilida *non* so‘zi yordamida (*finite – non-finite, continious – non-continious*) shunday antonimlar yasash mumkin.

Antonimlarning har ikki turi dunyodagi barcha tillarga mansubdir. Agar yasama antonimlarda bir-birining ma’nosini inkor qilish asosiy xususiyat bo‘lsa, asliy antonimlar faqat bir-birining ma’nolarini inkor etibgina qolmay, balki qarama-qarshi bo‘lgan yangi tur tushunchani ham ifodalaydi.

Antonimlar mavhum ma’noni ifodalaydigan so‘zlarda ko‘proq (yaxshi-yomon, issiq-sovuq), aniq tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlarda kamroq uchraydi.

Tabu va evfemizm

«*Tabu*» (polinezcha – «*taqiqlash*») atamasiga O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi quyidagicha tushuntirish beradi:

1) *Ibtidoiy jamiyat bosqichidagi xalqlarda tarqalgan taqiqlash tizimi.*

2) *Tilshunoslikda muayyan so‘zlar, iboralar yoki atoqli otlarni qo‘llashni taqiqlash, man etish.*

Ibtidoiy davrlarda tabiat hodisalarining sirini bila olmagan inson qo‘rquv uyg‘otadigan sehrli va zararli yovuz kuchlardan, jin, arvohlardan, ofatli kasallik va yirtqich hayvonlardan saqlanishning yagona chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushungan. Ayniqsa, kishi nomiga nisbatan tabu keng tarqalgan. Masalan, o‘lgan kishining nomini, dohiy yoki podshohning, ma’budalarning nomini va ba’zi qarindoshlar (qaynota, qaynona, er, qaynog‘a)ning nomini aytish, ularni ovoz chiqarib chaqirish taqiqlangan va bunday atoqli otlar tegishli tavsifiy iboralar bilan almashtirilgan. Ovlanadigan, tirikchilik manbai bo‘lgan hayvon nomlari, kishini seskantiradigan jonivorlar va boshqa voqea-jarayonlar ham ba’zan tabulashtirilgan. Masalan, *chayon so‘zi*,

o'zbek shevalarida *eshak, benom, gazanda, ayriqyuruq, beshbo'g'in* va boshqa nomlar bilan atalgan. Hozirgi tillarda o'lim haqida, og'ir kasallik haqida to'g'ridan-to'g'ri gapirmaslik, yoqimsiz, noxush xabarlarni eslash, eslatishdan qochish odatini ham tabuga kiritish mumkin. Tabu so'zlar o'rniga boshqa so'zlar – *evfemizmlar* zarur bo'ladiki, boshqa tillar singari, o'zbek tilida ham bunday so'zlar to'pchilikni tashkil etadi (Ochil Bo'riyev, Abduvahob Madvaliyev).¹

Demak, tabu so'zlar jamiyatda turli sabablarga ko'ra nutqda shlatishga tavsiya etilmaydigan so'z va iboralardir. Bunday so'zlar barcha tillarda uchraydi. Masalan, o'zbek tilida «*o'ldi*», «*o'lgan*» so'zlari tabu bo'lib, ularning o'rniga «*olamdan o'tdi*», «*rahmatli*», «*rahmatli bo'libdi*», «*marhum*»,² ingliz tilida shu ma'no «*the late*», «*the departed*», rus tilida esa «*покойный*», «*ушедший*» kabi *evfemizmlar*³ qo'llaniladi.

Rus olimi A.A. Reformatskiy⁴ bu hodisaning paydo bo'lishi abablarini quyidagicha tushuntiradi:

- *harbiy sir talabiga ko'ra harbiy qismlar, hududlarni shartli kelgilar bilan almashtirilishi (tabulashtirilishi);*

- *xavfli kasallik nomlarini oshkor etmaslik sababidan abulashtirish;*

- *o'g'rilar nutqida yashirin qo'llanadigan so'z va iboralarni abulashtirish;*

- *katta yig'inlarda, obro'li odamlar ichida etikani saqlash nuqtai nazaridan qo'llaniladigan tabular.*

O'zbek tilshunosligida bu masalaning ko'p jihatlarini o'rganib o'tirgan A.Omonturdiyev, *evfemizmn*ing tasviriy obyektiga quyidagilarni kiritadi:

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2004. 218-bet

² O'zbek tiliga oid misollar masalasida Anvar Omonturdiyevning «O'zbek tilining jisqacha *evfemik lug'ati*»ga qarang. –Toshkent: «Fan», 2006.

³ *Evfemizm* – yunoncha «*euphemeo*» so'zidan olingan bo'lib, «*yoqimli, mushumomalalik bilan gapiraman*» ma'nosini anglatadi.

⁴ A.A. Реформатсий. Введение в языковедение. –Москва: «Просвещение», 1967. 98-101-б.

- *oila qurish bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *axloqsizlik bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *jinsiy aloqa bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *murojaat bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *jinsiy va jismoniy nuqson bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *kasallik nomlari bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *ovqatlanish va uni hazm qilish bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *siyosiy tushunchalar evfemasi;*
- *o'lim bilan bog'liq evfemik vositalar;*
- *an'analar bilan bog'liq evfemik vositalar.*¹

Yer yuzidagi barcha hodisalar qatori til vositalari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Evfemalar evolyutsiyasini o'rganish avval man etilgan (tabulashtirilgan) so'zlarni o'rnida ishlatilgan evfemizmlar davr o'tishi bilan eskirib qolishi kuzatilgan: evfemik so'zlar o'zlarining xushmuomalalik ma'nolarini yo'qotib, tabulashgan so'zlar qatoriga o'tib qolishadi, natijada, ularning o'rniga yangi evfemik so'z yaratiladi. Masalan, rus tilidagi ayiq «медведь» so'zi eng qo'rqinchli yirtqich hayvonlardan bo'lgani uchun «медведь (мёдоед)» evfemizmi bilan atalgan. Vaqt o'tishi bilan bu so'z ham tabulashib, uning o'rniga *миша, хозяин леса, лесник*, evfemalari kiritilgan.

Shunday qilib, «tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanadi. Yangi axloq-odob, yangicha dunyoqarash normalari asosida tabulashtirishning, shu tufayli qo'llaniladigan evfemalarning ham yangi-yangi shakllari maydonga keladi. Bunda ibtidoiy tabulashtirish talablaridan farqli o'laroq, aytilishi norma bo'lib kelgan ko'pgina so'z va iboralar o'rnida unga (oldingisiga) nisbatan yanada qulay, so'zlovchi va tinglovchi uchun yanada yoqimliroq bo'lgan iboralar qo'llaniladi».²

¹ A.Omonturdiyev. O'zbek nutqining evfemik asoslari. –Toshken: 2000. 13-bet.

² A.Omonturdiyev. O'zbek nutqining evfemik asoslari. –Toshken: 2000. 13-bet.

Ingliz tilida evfemizmlarni Rawson Hughning «Rawson's Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk» Revised Edition, Castle books. –New Jersey, 2002 kitobidan qarang.

TILLARNING LUG‘AT TARKIBI

Tildagi barcha so‘zlar uning lug‘at tarkibida mujassamlashgan o‘lib, tilning leksik boyligini tashkil etadi. Tilning boyligi uning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi so‘zlarning miqdoriga, xilma-illigiga bog‘liqdir. Aslida boy yoki kambag‘al til degan ushunchalar tillarning asosiy vazifasi – uning kishilar o‘rtasida muomala, muloqot, fikr almashish quroli, aloqasi sifatida namoyon o‘lishi vazifasiga hech qanday daxli yo‘q. Chunki tillarning vazifasi to‘g‘risida gap borganda dunyodagi mavjud olti mingga yaqin tillarning hammasi bir-biriga teng; har bir millatning tili o‘z millatga to‘la-to‘kis xizmat qiladi, har qanday fikrni ifodalash uchun hamma tillarda yetarli leksik, grammatik vositalar mavjud.

Tillarning lug‘at boyligiga kelganda, ba‘zi tillarda so‘zlarning soni boshqalarinikidan ko‘proq yoki kamroq bo‘lishi mumkin. Bu narsa tarixiy, ijtimoiy masalalarga bog‘liqdir. Til lug‘atining tarkibi bir qancha nuqtai nazardan o‘rganilishi mumkin.

Lug‘atdagi so‘zlarni ma‘no turlariga qarab qatlamlarga ajratish. Bu jihatdan so‘zlarni tabiiy borliqni anglatuvchi so‘zlar: hayvonot, o‘simlik dunyosini ifodalovchi va boshqa shunga o‘xshash so‘zlarni o‘rsatish mumkin.

Lug‘atni jamiyatning o‘tmish tarixiga bog‘lab qatlamlarga ajratish. Bu nuqtai nazardan rus tili lug‘atidan biz umumslavyan tiliga oid bo‘lgan so‘zlarni, sharqiy slavyanlarga xos bo‘lgan so‘zlar, so‘zlar us tili so‘zlarini ajratishimiz mumkin.

Boshqa tillardan turli vaqtlarda o‘zlashtirilgan so‘zlar. Masalan, o‘zbek tilida arab tilidan kirgan so‘zlar, fors tiliga oid so‘zlar, lotin so‘zlari va boshqalar ko‘plab uchraydi.

Lug‘at tarkibining ijtimoiy – sheva qatlami. Bu jihatdan u yoki bu millatning ijtimoiy guruhlariga oid bo‘lgan so‘z qatlamlari: kasblarga oid so‘z qatlamlari, studentlar jargoni, til shevalari shu bo‘limda o‘riladi.

Lug‘at tarkibining aktiv va passiv leksikasi qatlamlari. Lug‘atdagi ammo so‘zlar bir me‘yorda ishlatilavermaydi. Ba‘zi so‘zlar muomalada boshqalariga qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi. Hozirda

soʻzlarning ana shu xususiyatini nazarda tutib, soʻzlarning ishlatilishi darajasiga koʻra lugʻatlar tuzila boshlandi.

Tillarning lugʻat tarkibi ana shularga oʻxshash bir qancha qatlamlardan tashkil topgan boʻlib, ularni tilning leksik yarusi oʻz mavzusi sifatida oʻrganadi. Ana shu qatlamlarning baʼzilarini koʻrib chiqamiz.

Ishlatilishdan chiqib ketgan soʻzlar. Tilning lugʻat tarkibida ishlatilishdan chiqib ketgan soʻzlar koʻplab uchraydi. Soʻz ifodalaydigan narsa, tushunchalarning hayotda yoʻq boʻlib ketishi yoki ularni ifodalash uchun yangi soʻzlarning paydo boʻlishi lugʻat tarkibining yangilanib borishini taʼminlaydi. Demak, soʻzlarning kundalik nutq jarayonidan chiqib ketish hodisasi jonli tillar uchun tabiiy holdir. Ishlatilishdan chiqib ketgan yoki chiqib ketayotgan soʻzlar tilshunoslik fanida *tarixiy soʻzlar* va *arxaizmlarga* ajratiladi. Bu soʻzlar bir-biridan farq qiladi: tarixiy soʻzlar, oʻtmishga, tarixga xos boʻlgan narsa, hodisa, tushunchalarni anglatib, tarixiy matnlarda ishlatiladi. Zamonaviy tilda ularning oʻrnini bosadigan sinonim soʻzlar ham, ularga ehtiyoj ham yoʻq. Masalan: *jallod*, *yasovul* va boshqalar.

Arxaizmlar odatda zamonaviy tilda oʻz sinonimlariga egadirlar. Demak, arxaizmlar anglatgan maʼno tarixiy soʻzlarga oʻxshab tildan va hayotdan chiqib ketmaydi, balki ular anglatayotgan narsa va hodisalar hayotda saqlanib, dastlabki nomi yangi nom bilan almashadi: dudoq (lab), yovuq (yaqin) va boshqalar shular jumlasidandir.

Neologizmlar. Tillarda soʻzlarning eskirib, muomaladan chiqib ketishi tabiiy boʻlganidek, tilga yangi soʻzlarning kirib kelishi ham tabiiydir. Aks holda til kishilik jamiyatida asosiy aloqa vositasi vazifasini oʻtay olmaydi, rivojlanib borayotgan jamiyat fan va texnika taraqqiyoti talablariga javob berolmay qoladi.

Til jamiyat bilan uzviy bogʻliq boʻlgani uchun u bilan doimo hamnafas boʻlib, jamiyat bilan birga rivojlanib turadi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida paydo boʻlgan yangicha munosabatlar, yangi narsa, hodisalarni ifoda qilish, ishlab chiqarishni jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali oʻzlashib ketmagan soʻzlar *neologizmlar* deb ataladi. Neologizmlar

leksik va semantik neologizmlarga ajratiladi. *Semantik neologizmlar* da mavjud soʻzlarning yangi maʼnoda ishlatilishi boʻlsa, leksikologizm tildagi mavjud soʻz va morfemalarning qoʻshilishi asosida yangi tushunchani ifodalash, boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish va ihyolat, turli tillarning leksik-grammatik vositalari orqali paydo oʻladi. Masalan, oʻzbek tilida jamoat va tashkilot soʻzlari azaldan mavjud. Ularning qoʻshilishidan paydo boʻlgan jamoat tashkilotlari tushunchasi hozir keng qoʻllanib kelinmoqda.

Semantik neologizmga rus tilidagi *sputnik*, oʻzbek tilidagi *yoʻldosh*, ingliz tilidagi *satellite* soʻzlari yaxshi misoldir. Bu soʻzlar hozirgi aqtda ikki maʼnoda – asliy maʼnolarida va yerning sunʼiy yoʻldoshi maʼnosida barchaga tanish.

Soʻz yasash

Leksikologiyaning bu qismi neologizm bilan uzviy bogʻlangan, chunki tildagi soʻz yasovchi vositalar yordamida yangi lugʻat birliklari asaliy, til lugʻat boyligining kengayishi taʼminlanadi. Tildagi mavjud soʻzlar va soʻz yasovchi vositalar negizida yangi soʻz hosil qilish soʻz yasash deb tushuniladi. Soʻz yasash turli yoʻllar bilan amalga oshiriladi.

1. Affikslar yordamida. Yaʼni soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida soʻz yasash koʻpchilik tillar uchun asosiy vositadir. Affikslar soʻz oʻzagiga nisbatan joylashishi nuqtai nazaridan prefiks, ostfiks va infikslarga ajraladi. *Prefikslar* – soʻzdan oldin, *postfikslar* soʻzdan keyin va *infikslar* soʻzning ichida joylashib, yangi soʻz yasashga xizmat qiladi.

Prefiks yordamida soʻz yasash:

oʻzb.: badavlat, begʻam, sertashvish

rus.: запеть, вбежать, сбежать

ing.: rebuild, misplace, distrust

nem.: bewohnen, verstehen, erzahlen

Postfiks yordamida soʻz yasash:

oʻzb.: ishchi, paxtakor, safdosh, soatsoz

rus.: работник, ирригатор, историк, напорист

ing.: teacher, spoonful, kingdom, realize

nem.: Arbeiter, Freundschaft, Freiheit

Infikslar yordamida soʻz yasash usuli arab tillariga xos boʻlib, oʻzbek, rus, ingliz, nemis tillarida deyarli uchramaydi, xom-som (arab) tillari uchun bunday soʻz yasash tabiiy holdir: kitob, kotib.

Baʼzan yangi soʻz hosil qilishda yuqorida keltirilgan vositalar uyushmasidan foydalaniladi. Masalan: *begʻamlik*, *наестся*. Bu misolda yangi soʻz yasashida ham prefiks, ham postfiks ishtirok etmoqda.

2. Ikki yo undan ortiq soʻzlarni bir-biriga qoʻshish yoʻli bilan yangi soʻz yasash. Oʻzbek tilshunosligida bu yoʻl sintaktik usul deb yuritiladi. Oʻzbek tilida: *ota-ona*, *yer yongʻoq*, *oltin tepa*, *gultojixoʻroz*; rus tilida: *радиостанция*, *пивовар*, ingliz tilida *week end*, *hot house* soʻzlari shular jumlasidandir.

3. Konversiya orqali soʻz yasash baʼzi tillarda koʻplab uchraydi. Masalan, ingliz va fransuz tillarida bu usul keng qoʻllansa, rus, oʻzbek tillarida kam uchraydi. Konversiya yoʻli bilan soʻz yasalganda, soʻzlar bir soʻz turkumidan ikkinchisiga – koʻproq ot feʼlga, feʼl esa otga oʻtadi. Ingliz tilidagi *We shall answer positively*. *The answer was positive* gaplarni misol tariqasida keltiramiz. Birinchi gapda *answer* soʻzi feʼldir, chunki u morfologik jihatdan zamon kategoriyasini ifodalovchi vosita (*shall*) ni olgan; sintaktik nuqtai nazardan bu soʻz kesim vazifasini oʻtab, ravish bilan bogʻlanib kelayapti. Ikkinchi gapda *answer* – otdir, chunki u gapda ega vazifasini bajaryapti, morfologik jihatdan bosh kelishik, birlikda boʻlib, aniq artikul bilan bogʻlangan. Ingliz tilida artikllar otning asosiy koʻrsatkichlaridan biridir. Ingliz tilida bunday misollar koʻplab uchraydi.

Oʻzbek, rus tillarida bu hodisalar oʻziga xos xususiyatga ega. Agar ingliz tilida bir soʻz turkumidan ikkinchisiga koʻchish koʻproq gapdagi soʻzlarning oʻrni almashishi bilan bogʻliq boʻlsa, oʻzbek va rus tillarida bu hodisa morfologik vositalar koʻmagida amalga oshiriladi, yaʼni soʻz qaysi soʻz turkumiga koʻchayotgan boʻlsa, ana shu soʻz turkumining grammatik kategoriyalarini qabul qiladi.

Leksikografiya

Leksikografiya leksikologiyaning lugʻat tuzish bilan ugʻullanadigan boʻlimidir.

Anatol Fransning yozishicha, «lugʻat – *alfavit tartibida ylashtirilgan voqelikdir*». Bundan borliqdagi jamiki narsa, hodisa voqealar har bir tilning lugʻat boyligida aks etadi, degan maʼno lib chiqadi.

Lugʻatlarning *izohli, tarjima, imlo, maxsus etimologik, sinonimlar, tonimlar, xorijiy soʻzlar, frazeologik, morfemik va soʻz yasovchi, ammatik, orfografik, neologizmlar, epitetlar, antroponimlar, ponimlar, qisqartmalar* va boshqa turlari mavjud.¹

Lugʻat turlari ustida qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Izohli lugʻatlar. Bu turdagi lugʻatlar bir tilli boʻlib, lugʻat ichiga ritilgan soʻz va iboralarga bir tilda izoh beriladi. Bunday lugʻatlarga gliz tilining «*Oxford Dictionary*», «*Oʻzbek tilining izohli lugʻati*» boshqalar kiradi. Masalan: oʻzbek tilidagi «*bitim*» soʻzining qayd ilgan lugʻatdagi maʼnolari quyidagicha:

Oʻzaro kelishuv, toʻxtam, qaror ...

Xalqaro munosabatlarda: *ahdnoma, shartnoma (bitim tuzmoq, timga kelmoq).*

Tarjima lugʻatlari. Bu turdagi lugʻatlar ikki yoki undan ortiq tilli oʻlishi mumkin. Bunday lugʻatlarda biror tilga oid soʻz va iboralar kinchi (uchinchi va hokazo) tilga tarjima qilinadi. Bunday gʻatlarga 1959-yilda nashr qilingan «*Oʻzbekcha-ruscha lugʻat*» (K. Borovkov muharrirligi ostida), «*Ruscha-oʻzbekcha lugʻat*», oshkent, 1983), J.Boʻronov va boshqalarning 2001-yilda oshkentda chop etilgan «*Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat*»i, Sh.Boʻtayev boshqalarning «*Inglizcha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-inglizcha*» lugʻati, oshkent, 2004), H.Neʼmatovning «*English-Uzbek Learner's dictionary*» (Samarkand, 2004), B.Alimardonov va boshqalarning

¹ Lugʻat turlari masalasida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zuridagi Respublika atamashunoslik qoʻmitasining «Oʻzbek tili atamashunosligi» borotini (Toshkent: «Fan nashriyoti», 19-36-betlar) hamda Z.A. Potixa, D.A. zentallarning «Лингвистические словари». –Москва: 1987, kitoblarini koʻring.

«Inglizcha-o'zbekcha tanlangan so'zlarning ingliz va o'zbek tillaridagi izohli lug'ati» (bosh muharrir James Zvara, Toshkent, 2004) kabilarni kiritishimiz mumkin.

Imlo lug'atlar. Bu turdagi lug'atlarga kirgan so'z va iboralarning izohi ham, tarjimasini ham bo'lmaydi. Bunday lug'at so'zlarning yozilishini, imlo qoidalarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, tillardagi hamma so'zlarning yozilishi, umumiy imlo qoidalariga mos kelmaydi. Demak, bu turdagi lug'atlar istisno so'zlarning orfografiyasini aniqlashda, ayniqsa, qo'l keladi. Imlo lug'atlari hamma uchun birdek ahamiyatlidir. Imlo lug'atlarga misol tariqasida 1998-yilda Toshkentda «*Iqtisodiyot va huquq dunyosi*» nashriyot uyi tomonidan chop etilgan «*O'zbek tilining imlo lug'ati*», Moskvada 1980-yilda «*Русский язык*» nashriyotida chiqqan «*Орфографический словарь русского языка*» va boshqalarni keltirish mumkin.

Maxsus lug'atlar. Bu lug'atlar fan va texnikaning ma'lum bir yo'nalishiga, tarmog'iga bag'ishlangan bo'lib, u ham izohli, ham tarjima lug'ati bo'lishi mumkin. Masalan, M.A. Sobirovning «*Ruscha-o'zbekcha matematik terminlar lug'ati*», «*Англо-русский железнодорожный словарь*», O.S. Axmanovning «*Словарь лингвистических терминов*», R.Alimardonovning «*Ingliza-o'zbekcha-ruscha diplomatik va siyosiy atamalar lug'ati*», (Toshkent, 2003) va boshqalarni kiritish mumkin.

So'zlarning ishlatilish darajasiga ko'ra lug'ati. Yuqorida qayd etilgan lug'atlar ko'pdan beri ma'lum bo'lsa, so'zlarning ishlatilish darajasiga ko'ra tuziladigan lug'atlar nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Izohli, tarjima, imlo, maxsus lug'atlar asosan alfavit tartibida tuziladi, lekin so'zlarning ishlatilish darajasiga ko'ra tuziladigan lug'atlarda unga kirgan so'zlar tartibi, ularning nutqda ishlatilish darajasi bilan belgilanadi. Bunga misol tariqasida 1977-yilda L.N. Zazorina tahriri ostida rus tilidagi so'zlarning ishlatilish darajasiga asoslangan «*Частотный словарь русского языка*» lug'atini keltirish mumkin. Bu lug'atni tuzish jarayonida umumiy soni bir million atrofidagi so'zlar bilan ishlangan. Shulardan eng ko'p ishlatiladigani *е* va *во* predloglari bo'lib, ular 43 ming marta, ikkinchi o'rindagi *и* bog'lovchisi esa 36 ming martadan ko'proq uchragan. Uchinchi o'rinni *не* inkori, to'rtinchi o'rinni *на* predlogi, beshinchi o'rinni *я* olmoshi egallagan. 13 mingta

o'ziga bir marta, 6 mingga bir so'zga 2 marta duch kelgan. Bular um ishlatiladigan so'zlar jumlasidan bo'lib, lug'atning oxiridan o'ringan. Lug'atning boshidan joy olgan 100 so'z matnning 40 foizini, ingtasi 70 foizini tashkil etadi. Taxminan to'qqiz ming so'z matndan marta va undan ortiqroq uchragan. Bu so'zlar lug'atning to'rtidan rini tashkil qilmasa-da, lekin o'rganilgan matnning 90 foizidan hiqrog'ini tashkil etadi.

Bunday lug'atlar juda katta amaliy ahamiyatga ega. Ularning istlabki mingta so'zi tildagi matnlarning 70-80 foizini tashkil etadi. uning uchun xorijiy tilni o'rganishda ana shu so'zlarni birinchi ixbatda o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Etimologik lug'atlar. Lug'atning bu turi so'zlarning kelib chiqish rixini tushuntirib, izohlab beradi. Bunday lug'atlar hozirgacha kam shraydi. Mashhur rus filologi V.I. Dal o'zining «Толковый словарь живого велико-русского языка» lug'ati ustida 53 yil ishlagan. Bu lug'at 'rt tomdan tashkil topgan bo'lib, birinchi nashri 1863-1866-yillarda chop etilgan. U bir necha marta nashr qilingan, so'nggi nashri 1980-lda chiqqan. Dalning lug'atida 200 ming so'z va 30 ming maqol bor.

Etimologik lug'atdan misol: *От сочетания по месту (по участку образовалось слово поместье (имение, которое взято из практики пожалования земель служивым людям на срок несения ими военных обязанностей). От слова поместье образовалось слово помещение / помещика. (Г.П. Цыганенко «Этимологический словарь русского языка», 357-358 betlar).*

Lug'at tuzishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Bu ish uzoq vaqt, muqur bilim va chidamni talab qiladi.

O'zbek leksikografistlari bu borada bir qancha ishlar qilishgan. 1980-1981-yillarda ikki tomlik «O'zbek tilining izohli lug'ati» ishrdan chiqdi. Bu lug'at 60 ming so'z va so'z birikmalarini o'z higa olgan. 1978-yilda «O'qituvchi» nashriyoti Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atini», 1971-yilda 1.Sh. Shoabdurahmonov tahriri ostida «O'zbek xalq shevalari g'ati», Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev «O'zbek tilining imlo lug'ati» (Toshkent: 1995), A.Hojiyev, X.Muhitdinova muallifligi bilan «Ўзбекско-русский словарь» (Tashkent: «O'qituvchi», 2007) kabi r nechta lug'atlar ham yuzaga keldi.

Frazeologiya

Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita soʻzdan, yaʼni «*phraseos*» –*ifoda* va «*logos*» – *soʻzlardan tashkil topgan*.

Frazeologiya tilshunoslikning ajralmas bir qismi boʻlib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamonaviy nuqtai nazarlardan oʻrganadi.

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir-biriga toʻbe boʻlgan (yaʼni erkin boʻlmagan) nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin soʻzlarni bir-biriga qoʻshish yoʻli bilan tuzilmaydigan, til leksikonida tayyor holda mavjud boʻlgan va jamiyat tomonidan belgilangan barqaror maʼnoga ega boʻlgan maʼlum bir leksik-grammatik tuzilma, birlik tushuniladi. Keltirilgan taʼrifdan maʼlum boʻlishicha, frazeologizmlar barcha tillarda oʻzlarining barqarorlik xususiyatlari bilan, nutq jarayonida ularni yasash uchun soʻz tanlash va maʼlum grammatik shakllarda ishlatish yoʻli bilan yasalmasdan, tayyor holda mavjud boʻlgan birlik sifatida qoʻllanilishidir.

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq soʻzlardan tashkil topgan boʻlib, ularning ayrimlari gapda ayrim soʻz sifatida, maʼlum bir sintaktik vazifada keladi.

Frazeologik birliklar oddiy yoki erkin soʻz birikmalaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. *Oddiy, erkin soʻz birikmasining tuzilishi* soʻzlovchining tashabbusi hamda nutq mavzusiga asoslangan holda paydo boʻladi; frazeologik birliklar esa tilda, uning lugʻat tarkibida tayyor holda mavjud boʻladi; gapiruvchi bu yerda tashabbus koʻrsatishga oʻziga oʻziga. Masalan, rus tilidagi – «*городить чушь*»; «*куры не клюют*» va boshqalar; oʻzbek tilida – «*xamir uchidan patir*», «*toqati toq boʻlmoq*» kabilar shular jumlasidandir.

Bunday frazeologik birliklarni «*Frazeologik qotishmalar*» deb atash maqsadga muvofiqdir, chunki ularning leksik tarkibini umuman oʻzgartirib boʻlmaydi.

2. *Erkin soʻz birikmasiga kiruvchi* soʻzlar tilda amal qiluvchi leksik-semantik va grammatik distributsiyaga boʻysungan holda sintaktik birikmani tashkil etadi; frazeologiyani tashkil etuvchi soʻzlar

arasidagi bog‘lanish leksik-semantik va grammatik distributsiya nuqtai nazaridan zamonaviy talablarga javob bermasligi mumkin. Frazeologik birliklarning distributsiyasini aniqlash uchun ba’zida arixiy-diaxronik tilshunoslikka murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Erkin so‘z birikmasida, yuqorida aytganimizdek, so‘zlovchi o‘zining bilim darajasiga ko‘ra, notiqlik san’ati va mahoratiga qarab, o‘z fikrini ifoda qilishda omonim, sinonim va antonimlardan o‘z xohish-istagiga qarab foydalanishi mumkin; frazeologik birliklarda, agar uning biror komponentini almashtirish mumkin bo‘lsa ham, almashtirish mumkin bo‘lgan so‘zlar miqdori chegaralangan bo‘ladi. Masalan, rus tilidagi «*глубокая осень*» frazeologik birligining ikkinchi komponenti o‘rnida «*старость*», «*печаль*», «*горе*» so‘zlari o‘rinishi mumkin, boshqa qo‘shimcha so‘z topish amrimahol. Bu kabi frazeologik birliklarni «*Frazeologik birikmalar*» deb atash maqsadga muvofiq, chunki «*Frazeologik qotishmalar*»dan ularning bir muncha farqi bor: ularning bir komponentini o‘zgartirish mumkin.

Frazeologik birliklarning tasnifiga kelsak, yuqorida qayd etilganidek, ularning biror qismini almashtira olish yoki almashtira olinmaslik nuqtai nazaridan ikki turga: *frazeologik qotishmalar* va *frazeologik birikmalarga* ajratish mumkin. Ba’zi olimlar ularni tarkibiga ko‘ra ham turlarga ajratishadi. Masalan: *aniqlovchi – niqlanmishdan tashkil* topgan frazeologik birlik: «*крошечная пыльца*», «*глубокая осень*». Bular «*nominativ frazeologik birliklar*» deb ham yuritiladi. Fe‘lлик frazeologik birlikka o‘zbek tilidagi – *tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketmoq*», ingliz tilidagi «*Don't trouble you till trouble troubles you*» va boshqalar misol bo‘la oladi.

Umuman olganda, frazeologik birikmalarning nutq jarayonida foydalanilgan o‘rnini alohida qayd etish lozim. Ularning ma’nolari lo‘nda bo‘lganda ta’sirchan, stilistik jihatdan ham bo‘yoqlarga boy bo‘lib, ularning utqning rang-barangligini ta’minlaydi.

Frazeologik birliklarni o‘rinli ishlatish odatda so‘zlovchi va aniqlovchi kuchi va vaqtini tejashga ham xizmat qiladi, bu fikrni tasvirlash qiyin emas. Masalan, o‘zbek tilidagi «*tepsa tebranmas*» frazeologik birligining ma’nosini erkin so‘z birikmasi yordamida ifodalash ushuntiring. Unga qancha so‘z, qancha vaqt sarf etilishi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tilning leksikologiya yarusi qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. Leksikologiyaning qanday bo'limlarini bilasiz?
3. Nima uchun so'z tilning asosiy birligi deb ataladi?
4. So'z, narsa va tushuncha orasidagi munosabatni tushuntirib bering.
5. Narsa va uni atovchi so'z orasida bog'liqlik bormi?
6. «Etimologiya» qaysi tildan kelib chiqqan atama? U qanday so'zlardan tashkil topgan? Diaxronik tilshunoslik va sinxronik tilshunoslik deganda nimani tushunasiz?
7. So'zlarning denotativ, signifikativ va struktural munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
8. So'zlar tushuncha va emotsional-estetik ma'nolarni ifoda qilishi nuqtai nazaridan qanday turlarga bo'linadi?
9. So'zlarning til va nutq nuqtai nazaridan anglatadigan ma'nolarini sharhlab bering?
10. So'zlar til birligi sifatida qanday vazifalarni bajaradi? So'zlar qanday ma'nolar anglatadi? To'g'ri va ko'chma ma'nolarni misollar yordamida tushuntirib bering.
11. Istiora, metonimiya va sinekdoxa nima? Bu hodisalar tilning taraqqiyotida qanday o'rin egallaydi? Bu masalalar bilan tilning leksikologik yarusidan boshqa yana qaysi yarus shug'ullanadi?
12. So'z ma'nolarining kengayishi va torayishi sabablarini tushuntirib bering.
13. So'zlar ma'no munosabatlariga ko'ra nechta turga bo'linadi?
14. Sinonim, sinonimik qator deb nimaga aytiladi? Sinonimlar qanday yo'llar bilan paydo bo'ladi?
15. Omonim deb qanday so'zlarga aytiladi? Omonimlarning qanday turi bor? Ularni misollarda tushuntirib bering.
16. Polisemantik so'zlarni ta'riflang. Polisemantik so'zlar bilan omonimlar orasidagi farqni tushuntiring.
17. Antonim so'zlarning xususiyatlarini so'zlab bering. Til va nutq antonimlari orasida qanday farq bor? Asliy va yasama antonimlar orasidagi farqni tushuntiring. Antonimlarning tildagi ahamiyati qanday?
18. Tilning lug'ati qanday qatlamlarga ajraladi?
19. Qanday so'zlar ishlatilishdan tushib qolishi mumkin? Arxaizm va istorizmlar deganda nimani tushunasiz?

20. Neologizmlar nima? Neologizmlar qanday yo'llar bilan paydo bo'ladi?

21. So'z yasashning qanday uslublarini bilasiz? O'zbek, rus, ingliz, nemis va fransuz tillaridagi so'z yasashning yetakchi uslublarini ayting va misollarda tushuntiring.

22. Leksikografiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi?

23. Lug'atning qanday turlarini bilasiz? Siz qanday lug'atlardan foydalanasiz?

24. Nuqtalar o'rnini quyida berilgan so'z va birikmalardan foydalanib to'ldiring va bu mashq nima maqsadda berilganini, tushuntiring.

a. Не было бы счастья, да ...

b. Учёный водит, а ...

d. Мы ценим и любим не праздность, а ...

e. Учение – свет, а ...

f. Не верь началу, а ...

g. Не отведав горького не...

(труд; несчастье помогло; концу; узнаешь сладкого; неученье – тьма; неучёный сзади ходит).

25. Quyidagi so'zlar qaysi xususiyatlariga ko'ra ko'chma ma'noda ishlatilgan?

I. Котелок. 1. Котелок с кашей поставили на печь.

2. Солдаты чистили свои котелки.

3. У него совсем котелок не работает.

4. Мужчина в котелке важно шагал по улице.

II. Кнопка. 1. Кнопками прикололи объявление.

2. Нажмите кнопку звонка.

3. Девочка пришила кропки к платью (Из пособия Л.А. Введенской и других. «Русское слово», Москва: Просвещение, 1987).

III. Qosh. 1. Qosh qoraygan paytda Muqimiy Yaupan qishlog'iga kirib keldi (Gazetadan).

2. Kirib shohning qoshiga shoir, ta'zim-qulluq ado qiladi (Oybek).

3. Egarning qoshi naqshdor edi. Qosh-qo'yaman deb, ko'z chiqarar (Maqol).

IV. Tish. 1. Yo'lchi tishini qisib, indamasdan o'rnidan turdi (Oybek).

2. Tishini-tishiga qo'yib, chidashga to'g'ri keladi.

3. Tish-tirnog'igacha qurollangan dushman tor-mor etildi.

4. Arraning tishi o'tkir ekan.

5. Bolaning tishi chiqdi.

V Soat. 1. Mening soatim to'xtab qolibdi (A.Qahhor).

2. Tatyana to'rt soatdan beri kitobdan boshini ko'tarmasdi (I.Rahim).

3. Yashash soatining oltin kapgiri, har borib kelishi – bir olam zamon (G'.G'ulom).

4. Institutda kunda olti soat leksiya bo'ladi.

5. Hozir bu ishning vaqti-soati kelgan emas.

6. Bir necha kilovatt-soat energiya sarf etiladi (Gazetadan).

VI. Eshik. 1. Eshik ochilib, barzangiday yigit chiqdi (Oybek).

2. Issiq uydan eshikka chiqib, bilgim keldi sovuqning sirin... (Uyg'un).

3. Eshikma-eshik yurdi.

4. Institut «ochiq eshiklar kuni»ni o'tkazdi.

(Misollar M.Mirzayevning «Hozirgi zamon o'zbek tili», «Mashqlar to'plami»dan ohndi. Toshkent – 1958, 4-bet)

26. Onomastika nima bilan shug'ullanadi? Uning qanday yo'nalishlarini bilasiz?

27. Frazologiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi? Frazologik birliklar erkin so'z birikmasidan nimasi bilan farq qiladi?

IX BOB

SINTAKSIS

Sintaksis grammatikaning bir qismi bo‘lib, unda kamida ikkita mustaqil so‘zlarning sintaktik bog‘lanishi hamda matnlar o‘rganiladi. Shu sababli ba’zi olimlar sintaksis predmeti to‘g‘risida gap borganda, uni kichik sintaksis yoki gap sintaksisi va katta sintaksis yoki matn sintaksisiga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.

Kichik sintaksis so‘z birikmasi va ularning turlari, gap va ularning urlari, sintaktik bog‘lanish vositalari, sintaktik bog‘lanish turlari bilan hug‘ullanadi.

*Katta sintaksis*ning ish mavzusi kichik sintaksisnikidan birmuncha farq qilib, u:

- *matnning nimaligi;*
- *matnni tashkil etuvchi birliklar;*
- *matnning butunligi va bog‘langanligini ko‘rsatuvchi belgilar;*
- *matnning leksik va grammatik vositalari;*
- *matnning semantik tuzilishi* kabi masalalarni qamrab oladi.

Sintaksisning ikki qismga bo‘linishi matn tilshunosligining paydo bo‘lishi bilan bog‘langan. Yaqin yillargacha gap tilning eng katta birligidir, degan fikr hukm surar edi. Gapga ta’rif berilayotganda hamda bu xil yondashish, ayniqsa ko‘zga tashlanib turardi, chunki gap «*tugal fikr anglatuvchi*» birlik sifatida talqin qilinardi. Boshqa gaplar va shu qatori tilshunoslikning rivojlanishi natijasida gap anjirsimon hodisaning bir bosqichi, bir xalqasi va o‘z navbatida, o‘zidan katta butunlikni tashkil qiluvchi birligi sifatida namoyon bo‘ladi, degan fikr o‘rtaga tashlandi. Alohida olingan gap hamma vaqt ham tugal ma’nolar anglatavermaydi. Alohida olingan gapning ma’nosi shu matndagi boshqa gaplar ma’nosi bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Bu masalalarni «*Matn tilshunosligi*» bobida batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Gap sintaksisi

Tilning hamma qatlamlari o'zi o'rganadigan narsalarni umumlashtirish va mavhumlashtirish xususiyatiga ega. Fonetika o'xshash nutq tovushlarini umumlashtirsa, leksikologiya atrof muhitdagi o'xshash narsa va hodisalarni so'zlar orqali umumlashtiradi. Grammatikaning morfologiya qismi so'zlarning ma'no xususiyatlari va morfologik belgilariga ko'ra ularni turkumlarga (ot, sifat, son va shu kabilarga) birlashtiradi. Sintaksis esa yuqoridagi mavhum umumlasmalar o'rtasidagi mazkur tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan munosabatlarni belgilaydi, ya'ni ayrim olingan muayyan so'zlar orasidagi o'ziga xos, xususiy munosabatlarni emas, balki turkumlar orasidagi munosabatlar tilni bu yarusining ish mavzusi hisoblanadi.

Til elementlari orasidagi mavjud munosabat pirovard natijada tilning asosiy vazifasi bo'lmish aloqa, kommunikativ vazifasiga xizmat qiladi: odamlar orasidagi fikr almashish quroli vazifasini bekamu ko'st bajarishga imkon beradi. Til o'zining bu vazifasini gaplar orqali amalga oshiradi. Demak, gap tilning asosiy birliklaridan bo'lib, odamlar orasidagi muloqotda muhim rol o'ynaydi.

Gap

Bir yoki bir nechta so'zdan tashkil topgan, birinchi darajali predikativlik xususiyatiga va ohang butunligiga ega bo'lgan hamda nisbiy tugal fikr anglatadigan tilning muloqot birligi *gap* deyiladi.

Keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, gap bir yoki bir nechta so'zdan tashkil topishi, predikativlik xususiyati va ohang butunligiga ega bo'lishi hamda nisbiy tugallangan fikrni aks ettirishi lozim.

Gapning bu belgilari ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Odamlar o'zaro fikr almashayotganda bir xil qolipdagi tushuncha va xulosalar asosida suhbat qurishmaydi. O'zaro muloqotning xususiyati va gapiruvchining o'z fikrini ifoda qilish uslubiga ko'ra nutq jarayonida turli-tuman gaplar uchrashi mumkin. Bu gaplarning bir, ikki, uch va hatto o'nlab so'zlardan tashkil topishi, birorta hodisa va voqeani so'rashi yo tasdiqlashi tabiiy bir holdir. Masalan:

Qorong'i. Sahna asta-sekin ochiladi (A.Qahhor). *Quyosh chiqmoqda. Kechki payt. Paxta qabul qilish punkti darvozasi yonida pritseplar karvoni navbatda turibdi.*

Har qanday gapda birinchi darajali predikativlik bo'lishi lozim, aks holda u gap emas balki so'zlar yig'indisi yo so'z birikmasi bo'lib qoladi. Birinchi darajali predikatsiya uchta ma'noni mutloq ifoda etishi shart. U modallik, shaxs va zamon ma'nolaridan tashkil topadi. Predikatsiyaning bu turi gapning bevosita ishtirokchilari, ya'ni tuzilishi asosi bo'lmish ega va kesim o'rtasidagi munosabat orqali amalga oshiriladi (Birinchi va ikkinchi darajali predikatsiya to'g'risida quyiroqda «Sintaktik munosabat turlari» bo'limini ko'ring).

Modallik mayl sintaktik kategoriya vositasida ifoda etilib, tasdiq bilan inkor orasidagi turli munosabatlar *mumkinlik, gumonlik, reja, istak, shubha* va hokazoni o'z ichiga oladi. Bu kategoriyaning pastki va yuqori chegaralari aniq: bular *ha* va *yo'q* so'zlaridir. Yuqorida qayd etilgan boshqa ma'nolar ana shu so'zlar orasidan o'rin oladi.

1. *Tong otdi. Tog'lar orasidan ko'tarilgan quyosh nuri yaylov maysalarida yarqirab ko'rindi, ko'z qamashdi!* (I.Rahim).

2. *Istaymanki, shu quyosh butun harorati-la she'rimning tomirida hamma vaqt oqib tursa* (S.Zunnunova).

3. *Ertaga yomg'ir yog'armish, qattiq bo'ron bo'larmish.*

Keltirilgan misollarda aniqlik (1), shart-istak (2) va gumon (3) ma'nolari aks etgan. Bu ma'nolar faqat fe'lga qo'shilgan grammatik affikslar orqali ifodalanmay, balki leksik vositalar orqali ham ifodalangan (*istaymanki*).

Predikativlikning tarkibiy qismi bo'lgan *shaxs ma'nosi* ko'pchilik tillarda shaxs grammatik kategoriyasi orqali ifodalanib, ish-harakatning bajaruvchisi uchta grammatik shaxsdan biriga taalluqli ekanini ko'rsatadi.

O'zbek tilida bu ma'no uch xil ifodalanishi mumkin:

1. Grammatik vositalar orqali: *Ko'rdim. Gaplashdik.*

2. Leksik vositalar bilan: *Men gunohkor. Dalalar ko'm-ko'k.*

3. Ham leksik, ham grammatik vosita yordamida: *Men uni xayolimdan quvlar edim, u bo'lsa, qalbim va fikrimga tobora qaysarlik bilan mahkam o'rnashib olardi* (S.Zunnunova).

Zamon ma'nosi ham asosan tillarda grammatik zamon kategoriyasi orqali ifodalanib, uch grammatik zamonning biriga taalluqli ekanini anglatadi. Hamma tillarda ham uchta zamoni ifodalaydigan grammatik vositalar bo'lmazligi mumkin. Zamonlarni ko'rsatuvchi grammatik vositalar bo'lmagan holda leksik ko'rsatkichlar katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'zbek tilida uchala zamoni ko'rsatadigan grammatik vositalar mavjud:

I. Men o'qiyapman – hozirgi zamon;

II. Men o'qidim – o'tgan zamon;

III. Men boraman, borarman, bormoqchiman – kelasi zamon.

Shu bilan birga bir vaqtning o'zida ham hozirgi, ham kelasi zamoni ifodalovchi vosita ham bor: *Men ishlayman*. Bunday holda zamoni ko'rsatuvchi leksik (*bugun, ertaga va kelasi yil ...*) ko'proq kelasi zamoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Qiyoslang: *Men bugun (ertaga) ishlayman. Men ishlayman*.

Shunday qilib, predikativlik to'g'risida gap borganda, ega va kesim orasidagi munosabat tushunilib, predikativlikni ifodalaydigan vositalar ko'p tillarda kesim funksiyasini o'taydigan so'zlarga qo'shib keladi.

Har bir gap o'zining maqsad va vazifasiga ko'ra ma'lum ritmik musiqaviy tuzilishiga ega bo'ladi. Gapning ana shunday tuzilishi uning ohangini belgilaydi. Gapning ohang tuzilishi u qanday ma'no – ta'kidlash, so'rash va hokazolarni ifodalashiga bog'liq. Tabiiyki, quyidagi gaplar ohang jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi.

1. *Mening brigadam birinchi o'rinda degin?!* (A.Qahhor.).

2. – *Tavba, – dedi Usmonov, – zap yozuvchilar bor-da, shu ham gap bo'ldimi?!* (S.Zunnunova).

3. *Ko'prikdan o'tish bilanoq, gular boshlanadi* (Oybek).

Ohang nutqning ajralmas tarkibiy qismidir. Nutqda ohang gaplarni bir-biridan ajratib turuvchi vosita hisoblanadi.

Gaplarning ko'pi uzil-kesil tugal fikr anglatmaydi; matnni tashkil etuvchi gaplar nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi, chunki ular bir-biri bilan uzviy bog'liq, biri-ikkinchisini to'ldirib keladi.

Gapning yuqorida qayd qilingan to'rt xususiyatidan birinchi va ikkinchisi talaffuzda va yozuvda ketma-ket namoyon bo'lib, uning segment tuzilishini tashkil etadi, ular aniq, tilning moddiy birliklaridan

ashkil topgan. Uchinchi xususiyati (ohang) esa gapning prosodik lementi bo‘lib, segment elementlari ustiga qatlangan bo‘ladi. Ba’zi limlar gapning birinchi va ikkinchi xususiyatlarini uning ichki tuzilishi, chинchi, xususiyatini esa gapning tashqi tuzilishi deb ham yuritishadi.

GAPNING TURLARI

Gaplar turli nuqtai nazardan, ya’ni tuzilishi, gapirish maqsadi, archa bo‘laklarning bor-yo‘qligiga ko‘ra turlarga ajratiladi.

Gaplarning tuzilish jihatidan turlari

Gaplar tuzilishi jihatidan sodda va qo‘shma gaplarga bo‘linadi.

Aniq bir fikrni ifodalab, bitta ega-kesimlik munosabatidan tashkil topgan gap *sodda gap* deyiladi. Masalan: *Paxta o‘zbek xalqining faxtoridir. Hayot murakkabdir.*

Sodda gaplarni ikkinchi darajali bo‘laklari bor-yo‘qligiga qarab, *sodda yig‘iq* va *sodda yoyiq* gaplarga ajratish odat tusiga kirgan. Agar gap faqat ega va kesimdan tashkil topgan bo‘lsa, u *sodda yig‘iq* gap deyiladi. Masalan: *U kuylayapti. Oy botdi. Dalalar chaman.*

Agar gapning ega va kesimidan tashqari uning ikkinchi darajali bo‘laklaridan hammasi yoki birortasi (to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchi) bo‘lsa, bunday gap *sodda yoyiq* gap deyiladi. Masalan: *Xo‘jalik ehqonlari davlatga yana 200 tonna paxta topshirishga va‘da berdilar.*

Ikki yoki undan ortiq ega-kesimlik munosabatiga ega bo‘lgan gaplar *qo‘shma gap* deyiladi.

Qo‘shma gaplar o‘z navbatida bog‘langan qo‘shma gaplar, bog‘langan qo‘shma gaplar, murakkab qo‘shma gaplarga bo‘linadi.

Ikki yo undan ortiq teng huquqli gaplardan tashkil topgan gaplar *bog‘langan qo‘shma gap* deyiladi. Masalan: *Hamma quvnoqlik bilan o‘zlashmoqda, faqat Arslonqul negadir xayolchan o‘tirardi (Oybek).*

Yer yaxshi, suv mo‘l, o‘g‘it serob, mashinalar tayyor, kuch yetarli (G‘.G‘ulom).

Qo‘shma gaplarning bu turi to‘g‘risida tilshunoslik fanida fikrlar ar xil. Ba’zi olimlar bog‘langan qo‘shma gapni gapning tuzilish urlariga kiritmasa ham bo‘ladi, deb hisoblashadi. Ularning fikricha,

bunday gaplar qo'shma gap qatoriga sun'iy ravishda kiritilgan, ularni tashkil etuvchi gaplarni osonlik bilan sodda gaplarga ajratish mumkin. Yuqorida keltirilgan gaplarni shunday tarkibiy qismlarga ajratish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Boshqa tilshunoslar bog'langan qo'shma gaplar o'ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun bunday gaplarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq, chunki ularning tarkibidagi sodda gaplarning joylashishi ma'lum tartibga bo'ysunadi, deyishadi.

Masalan: *Mehmonlar soat oltida kelishdi va biz kechki ovqatga o'tirdik.* Bu gapni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning o'rnini almashtirish mumkin emas, chunki fikr mantiqan to'g'ri chiqmaydi. Undan tashqari, bog'langan gaplar strukturasidagi sodda gaplar o'rtasida turli ma'no munosabatlari ham bo'ladi:

a) biriktirish yo'li bilan bog'lanish: U tez daryolarni jon-dili bilan sevar va muz tog'lardan shiddat-la oqib tushuvchi suvlar uni o'zida yo'q sevintirardi.

b) ayiruv yo'li bilan bog'lanish: Goh havo bulut bo'ladi, goh quyosh chiqadi;

d) zidlov yo'li bilan bog'lanish: Qor yog'di, biroq uncha sovuq bo'lmadi.

Keltirilgan dalillar bog'langan qo'shma gap o'ziga xos gap turi ekanligini ko'rsatib turibdi.

Qo'shma gaplarning *ergashgan turi* tarkibida ikki yo undan ortiq gaplar bo'lib, ulardan biri bosh gap, qolganlari esa tobe gaplar bo'ladi. Bosh gapga tobe bo'lgan gap ergash gap deb yuritiladi. Ergash gaplar bosh gapdagi birorta so'zga yoki bosh gapning hammasiga tegishli bo'lib, bosh gapdan anglashilgan fikrni turli yo'llar bilan to'ldirib keladi.

Hosil yig'ib olingach, ikki qayta urug' ekildi.

G'alla mo'l bo'lgani uchun, omborlar to'lib ketdi.

Yomg'ir tinsa, shahar bo'ylab sayrga chiqamiz.

Biz shunday zamondamizki, ilm-texnika yo'li hammaga ochiq (A. Qahhor).

Bu misollarning birinchisidagi ergash gap payt, ikkinchisidagi – sabab, uchinchisidagi – shart ma'nolarini ifoda etmoqda, to'rtinchisidagi esa bosh gapdan anglashilgan ish-harakatni aniqlab kelmoqda.

Ergash gaplarning vazifalariga qarab, ularni, payt, sabab, shart, niqlovchi, to'ldiruvchi ergash gap kabi turlarga ajratiladi. Bu barcha illarga xosdir.

Murakkab qo'shma gaplarni aralash qo'shma gaplar deb atasa nam bo'ladi. Gaplarning bu turi to'g'risida ham bir qancha fikrlar bor. Ba'zilar murakkab qo'shma gaplarga tarkibida bitta bosh gap va kamida ikkita ergash gapi bo'lgan til birliklarini kiritishsa, boshqalar uchta va undan ortiq teng huquqli gaplar yig'indisidan uzilgan bog'langan qo'shma gaplarni kiritishadi va hokazo. Agar bu tamoyilga amal qilinsa, unda gaplarning turi cheksiz bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun murakkab qo'shma gap leganda kamida ikkita teng huquqli (ya'ni bog'langan) va bir toki bir nechta ergash gaplardan tashkil topgan gaplarni ushinish maqsadga muvofiqdir. Bu fikr ko'pchilik tomonidan na'qullanadi. Masalan:

Sog'liq yaxshi bo'lsa, ish ham unumli bo'ladi, kishi charchamaydi.

*Bahor keldi, ammo havo ancha sovuq, chunki qish biroz cho'zilib
etdi.*

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Bu nuqtai nazardan gaplar darak, so'roq, buyruq va undov gaplarga bo'linadi. Bu gaplarning nutqda sodir bo'lishi gapiruvchining oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq. Ma'no va tarkibiga ko'ra gaplarning bu turlari bir-biridan farq qiladi.

Darak gaplar yordamida so'zlovchi tinglovchiga biror ma'lumot etkazadi. Masalan:

Tinchlik va xalqlarning chinakam xavfsizligi davlatlarning jamoa bo'lib kuch va g'ayrat sarflashi bilan ta'minlanishi mumkin.

Darak gaplar boshqa gaplardan so'z tartibi to'g'riligi va asayuvchi ohangda talaffuz etilishi bilan farq qiladi.

So'roq gaplarda so'zlovchi tinglovchidan birorta masala yuzasidan jaxborot berishini so'raydi. Demak, darak gaplar tinglovchidan faqat liqqat va e'tiborni talab qiladi, so'roq gaplar tinglovchidan javob nam kutadi. Bundan tashqari, so'roq gaplar darak gaplardan quyidagi ususiyatlari bilan farq qiladi:

- so‘roq gaplarning tarkibida so‘roq so‘zlar bo‘lishi mumkin, masalan, o‘zbek tilida: kim, nima, qachon, qayerda va boshqalar;

- ularda so‘roq yuklamalari bo‘lishi mumkin; o‘zbek tilida -mi, rus tilida -li va hokazo;

- qisman yoki to‘liq inversiya hodisasi ro‘y berishi, so‘z tartibi o‘zgarishi mumkin, masalan, rus tilida ну он? (kesim eganing oldiga o‘tgan – to‘liq inversiya). Ingliz tilida Is he a student? gapida kesimning bir qismi eganing oldiga o‘tgan – bu qisman inversiya;

- intonatsiya ham pasayuvchi, ham ko‘tariluvchi bo‘lishi mumkin.

Agarda o‘zbek tilidagi *Biz bugun dars tayyorlaymiz*, gapini turli ohangda aytish mumkin bo‘lsa, ingliz tilida ohang so‘roq gapning turiga bog‘liq. Ingliz tilida umumiy so‘roq gap ko‘tariluvchi ohang, maxsus so‘roq, pasayuvchi ohang bilan aytiladi. Demak, hamma tillar uchun bir xil tavsiya berish mumkin emas.

Buyruq gaplarda so‘zlovchi tinglovchidan birorta ish-harakatning bajarilishini talab qiladi.

Buyruq gaplar darak gaplardan quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

- kesim doimo buyruq maylida turadi;

- bunday gaplar ko‘proq ikkinchi shaxsga qaratilgan bo‘ladi;

- gapning egasi, odatda tushib qoladi;

- buyruq gaplar o‘ziga xos ohangda talaffuz etiladi.

Undov gaplarda so‘zlovchi o‘zining his-hayajonini, ichki kechinma (quvonch, shodlik, taajjub, qayg‘u-alam, afsuslanish) sini ifodalaydi:

Yashasin tinchlik! Yashasin mustaqillik!

Ozgina insof bormi unda!

Eh! Biz qanday baxtli kunlarda yashayapmiz!

Undov gaplar darak gaplardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- maxsus ohangda talaffuz qilinadi;

- ularning tarkibida maxsus yuklamalar (rus tilida da, ingliz tilida may va boshqalar) bo‘lishi mumkin;

- inversiya hodisasi uchrashi mumkin va o‘zbek undov gaplarida kesim egadan oldin keladi.

Gapning hamma bo'laklari mavjudligi nuqtai nazaridan turlari

Hamma bo'laklari bor-yo'qligi nuqtai nazaridan gaplar elliptik va noelliptik gaplarga ajraladi.

O'zbek tilshunosligida *elliptik gaplar to'liqsiz gaplar* deb ham nomlanadi. Bunday gaplarda aytilayotgan fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan gap bo'laklarining ba'zilarini so'zlovchi tomonidan atayin tushirib qoldiriladi. Bunday hol tinglovchiga unga yo'llangan fikrni tushunishga xalal bermaydi. Chunki bu bo'lak gapirilayotgan shart-sharoitda oldingi gapdan yoki umuman mazmundan (kontekstdan) ma'lum bo'ladi.

- *Siz qayerda ishlayapsiz?*
- *Bankda.*
- *Qachondan beri?*
- *Avgustdan.*

Keltirilgan dialogda faqat birinchi gap to'liq, qolganlari elliptik gaplardir. Ikkinchi gapda *Men ... ishlayapman*, so'zlari, uchinchi gapda *Siz u yerda ... ishlayapsiz* so'zlari va nihoyat to'rtinchi gapda *Men u yerda ... beri ishlayapman* so'zlari tushirib qoldirilgan.

Hammasi bo'lib uchta gapda 10 so'z tushirib qoldirilgan, to'rtta so'z ishlatilgan, lekin tushib qolgan so'zlar dialogning tushunilishiga xalal bermaydi. Elliptik gaplarning nutq jarayonida uchrab turishi tabiiydir. Bu masala tilshunos olimlar tomonidan ko'rib chiqilib, ularning paydo bo'lish sabablari aniqlangan, u ham bo'lsa, tilning taraqqiyot yo'lidagi muhim tamoyillaridan biri bo'lmish til vositalarini, muloqotchilarning kuchini hamda vaqtni tejash masalasidir. Odam kundalik hayotida vaqt, kuch, pulini tejashga harakat qiladi. Shunday intilish nutq jarayonida ham ro'y beradi: kam kuch va kam vaqt sarf qilib, ko'proq ma'lumot berish, ya'ni iloji boricha kamroq so'z talaffuz qilish yo'li bilan fikrni tinglovchiga yetkazish. Elliptik gaplarga qarama-qarshi qilib qo'yilgan noelliptik, to'liq gaplarda so'zlovchi o'z fikrini tinglovchiga yetkazish uchun zarur bo'lgan barcha gap bo'laklarini saqlab qoladi. Elliptik gaplar ko'proq og'zaki nutqda ishlatilsa, noelliptik gaplar ko'proq yozma nutqda qo'llaniladi.


Elliptik gaplar xususida gapirilganda *Yoz. Paxta dalasi* kabi gaplar haqida bir-biriga zid fikrlar borligini eslatib o'tamiz. Chunki ba'zi tilshunoslar ularni ham elliptik gaplar qatoriga qo'shadi.

Yoz. Paxta dalasi kabilar xususiyatiga ko‘ra gap ekanligi hech qanday shubha tug‘dirmaydi, chunki ularning tuzilishi o‘zgacha bo‘lsa ham, gaplarga qo‘yilgan hamma talablarga javob beradi. *Yoz gapi yoz* so‘zidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Fikrning nisbiy tugalligi mavjud.
2. O‘z ohangiga ega (yozuvda tinish belgilari bilan belgilanadi).
3. Yoz so‘zi lug‘atda boshqa so‘zlar qatori hodisa va narsalarni atasa, Yoz gapi hodisaning mavjudligini tasdiqlaydi.
4. Predikatsiya shu yagona gap – so‘zda ifodalangan: mayl nuqtai nazaridan bu gap aniqlik maylida, chunki u hodisaning mavjudligini ifodalamoqda; zamon jihatdan u hozirgi zamonda, chunki bunday gaplar aniq vaqtni ifodalaydi. Bu gap uchinchi shaxsga taalluqli, chunki yoz so‘zi ot turkumiga kiradi, otlar kishilik olmoshlarining uchinchi shaxsi bilan almashtiriladi.
5. Bunday gaplar elliptik gaplarga kiritilishi mumkin emas, chunki ularning tarkibida maxsus tushirib qoldirilgan bo‘laklari yo‘q. Agar elliptik gaplarda tushirib qoldirilgan bo‘laklarni tiklashning iloji bo‘lsa, *Yoz gapi*ga o‘xshaganlarni tiklashga hech kim urinmaydi, bunga ehtiyoj ham yo‘q. Tilshunoslikda bunday gaplarni turli atamalar bilan belgilashadi: o‘zbek tilshunosligida *nominativ* yoki *atov* gaplar: rus tilshunosligida *односоставные предложения*, ingliz tilida *one-member sentences* va hokazo.

GAP BO‘LAKLARI

An’anaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan har qanday gap qaysi tilga taalluqli bo‘lishidan qat’i nazar ikki qism, ya’ni bosh va ikkinchi darajali bo‘laklardan tashkil topadi. Bosh bo‘laklarga ega va kesim, ikkinchi darajali bo‘laklarga – aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol kiradi. Chizmada buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Ega gapning bosh bo'laklaridan bo'lib, gapdan anglashilgan ish-arakat kim tomonidan bajarilganligini, fikrning kimga va nimaga arashli ekanini ko'rsatadi.

Kesim ham gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lib, ega to'g'risidagi sosiy axborotni o'zida mujassamlashtiradi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan uzviy bog'langan o'ladi, ularni aniqlaydi, to'ldiradi, ular to'g'risida qo'shimcha ma'lumot beradi.

Aniqllovchi gaplarda ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalangan gap o'laklarini, sifat va ularning belgilarini ko'rsatadi. Demak, niqllovchi amaliy jihatdan har qanday gap bo'lagi oldida kelishi mumkin.

To'ldiruvchi gapning fe'l bilan ifodalangan biror bo'lagiga og'langan bo'lib, uning ma'nosini to'ldirib keladi. Odatda, o'ldiruvchi kesim bilan bog'lanib, u to'g'risida qo'shimcha ma'lumot beradi.

Gulni sevgan tikanni ham sevadi. *Gulni* so'zi to'ldiruvchidir, u esim bilan bog'langan, chunki kesim fe'lning funksional (noaniq) hakli bo'lmish o'tgan zamon sifatdoshi bilan ifodalangan (*sevgan*).

Betga aytganning zahri yo'q, gapida to'ldiruvchi aniqllovchiga og'lanib keladi, chunki aniqllovchi (*aytganning*) sifatdosh bilan ifodalangan. Yoki *Erishilgan yutuqlar haqida so'zlashning aybi yo'q* apida to'ldiruvchi yana aniqllovchi (so'zlashning) bilan bog'langan, hunki bu aniqllovchi ham fe'lning noaniq shakli – harakat nomi bilan ifodalangan.

To'ldiruvchi miqdor jihatdan kesim bilan ko'proq bog'lanib keladi.

To'ldiruvchilar *vositali va vositasiz to'ldiruvchiga* ajratiladi.

Vositali to'ldiruvchi o'zbek tilida bosh, qaratqich va tushum elishiklaridan boshqa (ya'ni jo'nalish, o'rin-payt, chiqish) elishiklardagi so'zlar bilan ifodalanadi. Bu to'ldiruvchi ko'makchi o'zlar vositasida ham ifodalanishi mumkin.

Vositasiz to'ldiruvchi harakatni bevosita o'ziga qabul qilgan arsani bildiradi va tushum kelishigida ifodalanadi. Misollar:

Yo'lchi titroq qo'llari bilan Gulorning sochlarini asta siladi Oybek). Bu yerda *sochlarini* so'zi vositasiz to'ldiruvchi vazifasida elmoqda.

Odam odamdan bahra oladi (A.Qahhor). Bu yerda *odamdan* soʻzi vositali toʻldiruvchi vazifasida kelmoqda.

Hol gap boʻlaklaridan kesimga va baʼzan umuman gapga bogʻlangan boʻlib, feʼldan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilishini va uning bajarilishi bilan bogʻliq boʻlgan sabab, maqsad, miqdor, oʻrin-payt maʼnolarini ifodalaydi. Gapda bajaradigan vazifasiga koʻra *ravish, oʻrin, payt, maqsad, sabab, miqdor-daraja* hollarini ajratish mumkin.

Gap boʻlaklari bilan soʻz turkumlari orasida bevosita aloqa bor. Chunki har bir gap boʻlagi maʼlum soʻz turkumi orqali ifodalanadi. Agar gapning egasi ot va otlashgan soʻzlar bilan ifodalansa, gapning kesimi koʻp tillarda, asosan, feʼl bilan ifodalanadi. Shuningdak, kesim ot, sifat, sonlar bilan ham ifodalanishi mumkin, lekin bunday holda har bir tilning oʻziga xos xususiyati saqlanadi. Hozirgi zamon oʻzbek tilida ot-kesim bogʻlama bilan ham kelishi mumkin. Masalan:

Kuch kam, sharoitim ogʻir gapida kesim sifat bilan ifodalangan, bogʻlama qoʻllanmagan.

Brigadada hammasi boʻlib olti kishi ishlaydi. Men – suvchi, Maʼmurjon – traktorchi gapida kesim ot bilan ifodalangan.

Koʻpchilik hind-ovrupo tillarida, xususan, roman-german tillarida bunday kesimlar bogʻlovchi feʼlni talab qiladi:

He is a student.

Er ist student.

Ingliz va nemis tillarida keltirilgan bu misollarda ega bilan ot kesimni bir-biriga bogʻlab turgan *is, ist* feʼllari boʻlmasa, gap notoʻgʻri tuzilgan boʻladi.

Aniqlovchi odatda sifat va ot bilan, baʼzan sifatdosh shakllari bilan ifodalanadi.

Toʻldiruvchi ot va otlashgan soʻzlar, olmoshlar va feʼlning funksional shakllari bilan ifodalanadi.

Hol koʻpincha *ravish* bilan, baʼzan esa ot hamda feʼlning funksional shakllari va baʼzi boshqa soʻz turkumlari orqali ifodalanadi.

SO‘Z BIRIKMALARI

Yuqorida gapdagi so‘zlar ma’no talablariga ko‘ra o‘zaro turli sintaktik munosabatlariga kirishishi aytib o‘tilgandi. Gapning butunligini, sintaktik jihatdan mustahkam jipsligini ta’minlaydigan narsalar ana shu munosabatlardir.

Masalan: *Ilg‘or chilangar topshiriqni oshirib bajardi.*

Bu gapda bir nechta so‘z birikmasini ajratib ko‘rsatish mumkin: *Ilg‘or chilangar, topshiriqni bajardi, oshirib bajardi.*

Bir-biri bilan sintaktik jihatdan bog‘langan, birinchi darajali predikativlik munosabatiga ega bo‘lmagan, ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlar qo‘shilmasi *so‘z birikmasi* deyiladi.

So‘z birikmalari anglatgan ma’nolariga ko‘ra so‘zlarga o‘xshash bo‘lib, ular so‘zlar kabi nominativ atash funksiyasiga ega, narsa va hodisalarni ularning xususiyati bilan birga qo‘shib ataydi. So‘z birikmalari gaplardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- *gaplarda birinchi darajali predikativlik munosabati bor (ega-kesim munosabatida ifoda qilinadi), so‘z birikmalarida ikkinchi darajali predikativlik munosabati bo‘lishi mumkin;*

- *gaplar bir so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin, so‘z birikmasida kamida ikkita mustaqil so‘z bo‘ladi;*

- *gaplar o‘z ohang tuzilishiga ega, so‘z birikmalarida bunday xususiyat yo‘q.*

So‘z birikmalari ikki nuqtai nazardan tasniflanishi mumkin. Buni quyiroqda ko‘rib chiqamiz.

Sintaktik munosabat turlari

Tillarda so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatni teng bog‘lanish, ergash bog‘lanish, predikativ bog‘lanishga ajratish mumkin.

Teng bog‘lanish deganda ikki yo undan ortiq bir-biriga teng bog‘langan so‘zlar orasidagi munosabat tushuniladi.

Masalan: *kun va tun; men yo sen.*

Ergash bog‘lanish deganda yetakchi va tobe so‘zlar orasidagi bog‘lanish tushuniladi: *pishiq ish, oltin vodiya* kabi. Bu birikmalarda

ish va *vodiy* soʻzlari yetakchi, *pishiq* va *oltin* – tobe soʻzlardir. Ergash bogʻlanish oʻz navbatida moslashuv, boshqaruv, bitishuv kabi turlarga ajratiladi.

Moslashuv ergash bogʻlanishning bir turi boʻlib, tobe soʻz bosh soʻz bilan sonda, kelishikda va jinsda moslashadi. Moslashuv hamma tillarda ham bir xil koʻrinishga ega emas. Agar rus tilida moslashuv qayd qilingan hamma shakllarda amalga oshirilsa, ingliz tilida qismlar faqat son nuqtai nazardan moslashadi. Qiyoslang:

Моя книга; моей книге; моим книгам;

This book, these books, that book, those books

Koʻrinib turibdiki, bu ikki tildan faqat rus tilida har tomonlama moslashuv amalga oshadi.

Boshqaruv ergash bogʻlanishning bir turi boʻlib, unda tobe soʻz bosh soʻz talab qilgan grammatik shaklda turadi. Boshqaruv toʻgʻrisida gap borganda, odatda tobe soʻz bosh soʻzning talabiga koʻra qaysi grammatik shaklda turishi kerakligi tushuniladi. Demak, boshqaruv dunyodagi barcha tillarga xos emas. Masalan, oʻzbek tilida feʼllar boshqaruvchi rolni oʻtaydi. Ular ot, olmoshlardan maʼlum kelishik shaklida turishni talab qiladi. *Ishlamoq* feʼli oʻrin-payt kelishigi shaklini, *uchratmoq* tushum kelishigidagi soʻzni talab qiladi. Odatda oʻzbek tilida moslashuv deb yuritiladigan qaratqich va qaralmish orasidagi munosabatni boshqaruv-moslashuv deyish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu ikki soʻz, bir tomondan, shaxs va sonda bir-biri bilan moslashadi (*mening kitobim, bizning kitobimiz*), ikkinchi tomondan, hokim soʻz tobe soʻzni qaratqich kelishik yoki qaratqichning yashirin (nol) varianti shaklida kelishini talab qiladi (*sinf ishi, maktab hovlisi*). Rus tilida boshqaruv keng tarqalgan: *вудеть* feʼli vinitelny kelishikdagi soʻzni, *гордятся* tvoritelny kelishikdagi soʻzni talab qiladi va hokazo.

Bitishuv ergash munosabatning bir turi boʻlib, unda munosabatga kirishuvchi bosh soʻz bilan tobe soʻz rasmiy grammatik vositalarni talab qilmaydi. Ular maʼno jihatdan bogʻlangan boʻlib, sintaktik munosabat faqat soʻz tartibi va ohang orqali amalga oshiriladi. Oʻzbek tilida sifat bilan otning birikuvi (*yirik xoʻjalik, ongli intizom*), hol bilan kesim orasidagi munosabat (*tez oʻqimoq, muttasil yangilamoq*) shular jumlasidandir.

Predikativ sintaktik munosabat ega va kesim yoki ba'zi tillardagi predikativ konstruksiyalarni tashkil etuvchi qismlar orasidagi sintaktik aloqadir.

Predikativ munosabat yuqorida qayd qilingan boshqa munosabatlardan quyidagicha farq qiladi:

- *predikativ munosabat ish bajaruvchi va ish-harakat ma'nolarini ifodalovchi so'zlar orasidagi munosabatdir;*

- *bu munosabatni ifodalovchi ikki so'zdan biri doimo fe'lning birorta shaklida bo'ladi.*

Predikativ munosabat birinchi darajali predikativ munosabat va ikkinchi darajali predikativ munosabatga ajratiladi.

Birinchi darajali predikativ munosabat deganda gap egasi va kesim o'rtasidagi munosabat tushuniladi. Bunday munosabatda predikatsiyaga xos bo'lgan mayl, zamon va shaxs ma'nolari doimo mutlaq ravishda to'g'ridan-to'g'ri ifodalanadi (bu haqda gap ta'rifiga qarang). *Ikkinchi darajali predikativ munosabatda* ham ish bajaruvchi so'z va ish-harakatni anglatadigan so'z bo'ladi, lekin mayl, zamon, shaxs ma'nolari bevosita, mutlaq tarzda ifodalanmaydi. Bu ma'nolar faqat nisbiy ifodalanib, birinchi darajali predikativ munosabatni bildiradigan so'zlar orqali aniqlanadi. Masalan, *I saw him play chess (Men uning shahmat o'ynayotganini ko'rdim).*

Bu gapdagi *I saw (men... ko'rdim)* so'zlari orasidagi munosabat birinchi darajali predikativ munosabatdir, chunki bu so'zlarning birinchisi gapning egasi, ikkinchisi – kesimi. Bu birikmada mayl, zamon va shaxs ma'nolari bevosita ifodalangan (aniqlik mayli, o'tgan zamon va birinchi shaxs); *him play (uning o'ynayotganini)* so'zlari orasidagi munosabat ikkinchi darajali predikativlik munosabatdir, chunki bu yerda ham ish bajaruvchi shaxs va ish-harakatni ifodalovchi so'z bor, lekin mayl, zamon va shaxs ma'nolarining hammasi ham bevosita ifodalanmagan; shaxs aniqlansa-da, mayl va zamon ma'nolarini ko'rsatuvchi grammatik vositalar yo'q. Agar bu ma'nolarni aniqlashga to'g'ri kelsa, unda gapning kesimiga murojaat qilish kerak. Har qanday gapda birinchi darajali predikativlik munosabat bo'lishi shart, chunki bu ega va kesim orasidagi munosabatdir.

Yuqorida soʻz birikmalarining turi toʻgʻrisida gap borganda, biz ularning turi soʻz birikmalarini tashkil etuvchi soʻzlar orasidagi munosabatga bogʻliq degan edik. Endi ularni aniqlashimiz mumkin.

Qismlari teng bogʻlanish yoʻli bilan bogʻlangan soʻz birikmalari *teng bogʻlangan soʻz birikmalari* deyiladi. Qismlari ergash bogʻlanish yoʻli bilan bogʻlangan til birikmalarini *ergashgan soʻz birikmalari* deyiladi. Bosh (hokim) soʻz qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligiga koʻra ergashgan soʻz birikmalarini oʻz navbatida yana bir nechta xillarga boʻlish mumkin: ergashgan ot soʻz birikmalari, ergashgan feʼl soʻz birikmalari va hokazo. Ergashgan ot soʻz birikmalarida hokim soʻz ot bilan, ergashgan feʼl soʻz birikmalarida esa feʼl bilan ifodalangan boʻladi. Masalan:

<i>musaffo osmon</i>	<i>tez yurmoq</i>
<i>shahdam qadam</i>	<i>sekin oʻrganmoq</i>

Qismlari predikativ sintaktik munosabat bilan bogʻlangan birikmalar predikativ soʻz birikmalari deyiladi. Masalan: uning oʻqishi, otning chopishi va boshqalar.

Sintaktik munosabat vositalari

Soʻzlarni birin-ketin qoʻyish bilan gap tuzilmaydi. Har bir tilda gapdagi soʻzlarni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiladigan grammatik vositalar bor. Nutq mantiqiy boʻlishi uchun tildagi barcha vositalar ishtirok etishi shart. Gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydigan vositalar – grammatik affikslar, soʻz tartibi, yordamchi soʻzlar va ohangdir.

Bu vositalar dunyodagi koʻpchilik tillarda mavjud. Lekin ularning ishlatilishi har xil. Baʼzi tillar, masalan oʻzbek, rus, nemis tillarida grammatik affikslar birinchi darajali, boshqa vositalar esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega boʻladi.

Baʼzi tillar, masalan, ingliz, fransuz tillari, asosan soʻz tartibi va yordamchi soʻzlarni koʻp ishlatib, grammatik affikslarni deyarli ishlatmaydi. Bunday tillarda grammatik affikslar nihoyat darajada kam.

Uchinchi xil tillar, masalan, xitoy, vyetnam tillari gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlash maqsadlarida soʻz tartibi va ohangdan foydalanadi, chunki bunday tillarda grammatik affikslar va yordamchi soʻzlar juda kam miqdorda boʻladi.

Gapning aktual bo‘linishi

Gapning aktual bo‘linishini ba’zi adabiyotlarda *gapning inksonal istiqboli* deb ham yuritiladi.

Ma’lumki, til – tafakkurning nutqda bevosita namoyon bo‘lishidir.

Lekin til bilan tafakkur bir-biriga teng emas, ular dialektik utunlikni tashkil etadi. Tilni tafakkurdan va tafakkurni tildan ajratib o‘yish mumkin emas. Ular doimo bir-birini taqozo qiladi. Gaplar (darak gaplar) mantiq birligi bo‘lmish hukmni aks ettiradi. Hukm sosan subyekt va predikatdan tashkil topadi. Ba’zi olimlar subyekt a predikat o‘rtasida yana bog‘lovchi ham bor, degan fikrni ilgari urishadi. Gap esa ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, holdan tashkil topgan. Shunday qilib, miqdor nuqtai nazaridan gapning tuzilishi bilan hukmning tuzilishi bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Bu nomutanosiblik tafakkurning, hukmning predikati subyekt va u haqda nima deyilayotganini bildiradigan predikat bilan gapning ega-kesimi o‘rtasida ham ko‘zga tashlanadi. Hukmning subyektini hamma vaqt ham gapning egasiga, hukmning predikati esa, gapning kesimiga to‘g‘ri kelavermaydi. Gapdagi hukmning subyektini ifodalovchi so‘z *rema*, gapdagi hukmning predikatini anglatadigan so‘z – *rema* tamalari bilan belgilanadi. Hukmning bo‘laklari serharakat, tez o‘zgaruvchan, gap bo‘laklari esa qotib qolgan, o‘zgarmasdir. Bundan, har bir gap yordamida bir nechta hukmni ifoda qilish mumkin. Gapning har bir bo‘lagi hukmning subyektini – temasi yoki predikati – remasi o‘lib kelishi mumkin, degan ma’no kelib chiqadi. Shuning uchun har bir tafakkurning birligi – hukmni serharakat deb atashadi. Masalan: *Biz paxta terdik* gapida doimo grammatik ega – *biz*, kesim – *terdik*, to‘ldiruvchi – *paxta*. Lekin *biz* doimo tema, *terdik* – rema bo‘lib keladi, deya olmaymiz. Bu so‘zlovchining gapirishdan oldiga qo‘ygan raqsadiga bog‘liq. Agar so‘zlovchi «*Biz paxta terdik*» deb oxirgi o‘zni ajratsa, unda gapning *Biz paxta* qismi – tema, *terdik* – rema bo‘ladi. Agar *Biz paxta terdik* deyilsa, *Biz* – tema, *paxta* – rema vazifasida keladi, ya’ni *biz ko’sak yoki olma emas paxta terdik* – degan ma’no anglashiladi. *Biz paxta terdik* gapida *paxta terdik* – rema, *Biz* esa – rema vazifasida keladi (bu holda *boshqalar emas, biz paxta terdik* degan fikr tushuniladi). Shunday qilib, gapning

grammatik tuzilishi bilan bu gap yordamida ifodalangan hukm tuzilishi ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi. Gap bo'laklarini qotib qolgan, o'zgarmas dedik, chunki gapda birorta so'z ega vazifasini bajarishi uchun u ma'lum talablarga javob berishi lozim, xususan u ega vazifasini o'tay oladigan so'z turkumiga tegishli bo'lishi, bosh kelishikda turishi zarur. Hukmning bo'laklari bunday chegarani bilmaydi. Tinglovchi va o'quvchilar, so'zlovchi va yozuvchilar o'z gaplari orqali qanday hukmni ifoda etayotganlariga ahamiyat berishlari lozim.

Har bir til tema va remani ifoda qiluvchi til vositalariga ega. Shulardan og'zaki nutqqa xos universal vositalardan asosiysi *mantiqiy urg'udir*; so'zlovchi remani ifodalash uchun, odatda mantiqiy urg'u bilan kerakli so'z yoki so'zlarni ajratib ko'rsatadi.

Rus tilida remani anglatuvchi so'zni gapning oxiriga o'tkazib qo'yish katta ahamiyatga ega. Ingliz tilida bu maqsadda maxsus grammatik konstruksiyalar, inversiya, ya'ni gapdagi so'zlarning tartibini o'zgartirish kabi vositalardan foydalaniladi. Bu vazifani leksik vositalar ham bajarishi mumkin: o'zbek tilida ularga *faqat, xususan, kamida* kabi, ingliz tilida noaniq artikl, *just, also, only* kabi so'zlar kiradi.

Tillardagi tema va remani ifodalovchi vositalar rang-barang bo'lib, ular har bir tilning grammatik tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

Amaliy darslarda myhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sintaksis qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. Katta va kichik sintaksis qachon paydo bo'lgan?
3. Gap deb qanday til birligiga aytiladi? Gapga xos bo'lgan xususiyatlar to'g'risida batafsil gapirib bering.
4. Gaplar qanday nuqtai nazardan turlarga ajratiladi?
5. Sodda va qo'shma gaplar qanday mezon asosida aniqlanadi? Ularning orasida qanday farq bor?
6. Qo'shma gaplarning qanday turlarini bilasiz? Ular orasidagi farq nimadan iborat?
7. Bog'langan qo'shma gaplar to'g'risida tilshunoslikda qanday fikrlar bor? Siz bu fikrlarning qaysi biriga qo'shilasiz? Nima uchun?

8. Qanday gaplar murakkab qo'shma gap deyiladi?
9. Darak, undov, so'roq va buyruq gaplar qaysi mezonlar asosida farqlanadi? Bu gaplar orasida qanday tafovutlar bor?
10. Qanday gaplar elliptik gaplar deyiladi? Bunday gaplar nutqning qaysi turida ko'proq uchraydi?
11. Atov gaplar deb qanday gaplarga aytiladi? Atov va elliptik gaplar orasida qanday farq bor?
12. Gap grammatik jihatdan qanday bo'laklardan tashkil topgan? Gap bo'laklari qanday vazifalarni o'taydi?
13. Gap bo'laklari va so'z turkumlari orasida qanday bog'liqlik bor?
14. So'z birikmalari deb nimaga aytiladi? So'z birikmalari bilan gap orasida qanday farq bor? So'zlarning analitik shakli bilan erkin so'z birikmalari orasidagi o'xshashlik va tafovutni tushuntiring.
15. So'z birikmalari qanday nuqtai nazardan turlarga ajratiladi? So'z birikmalarining turlarini gapirib bering va ularga misollar keltiring.
16. Tillarda so'zlar orasida qanday sintaktik munosabat bo'lishi mumkin? Bu hodisani o'zbek, rus va chet tili misollari asosida tushuntiring.
17. Teng bog'lanish deb qanday sintaktik munosabatga aytiladi? Uning qanday turlarini bilasiz?
18. Ergash bog'lanish o'zining qaysi xususiyati bilan predikativ bog'lanishdan farq qiladi? Uning qanday turlari bor?
19. Birinchi va ikkinchi darajali predikativ munosabat orasidagi o'xshashlik va farqlarni tushuntiring.
20. Sintaktik bog'lanish turlari hamma tillarda bir xil ifodalanadimi?
21. Sintaktik munosabatlar qanday vositalar yordamida amalga oshiriladi?
22. Sintaktik munosabat vositalarining mavqei hamma tillarda bir xilmi? Bu savolning sintetik va analitik til turlariga qanday aloqasi bor?
23. Gapning aktual bo'linishi qanday muammoni o'z ichiga oladi?
24. Gapning aktual bo'linishi bilan an'anaviy gap bo'laklari bir-biriga to'g'ri keladimi? Qaysi bo'linish barqaror-u, qaysinisi beqaror? Buning sababini biror til misolida tushuntirib bering.

25. Tema va remalar tillarda qanday vositalar bilan ifoda etiladi? Ular hamma tillarda bir xilmi?
26. Quyidagi gaplarda tema va remani ifodalovchi vositalarni aniqlang:
- 26.1. Hatto burningga ham tayoq tegibdi (*A. Qahhor*).
- 26.2. Hikmatsiz emas maqollar.
- 26.3. Vatan – ona so‘zi naqadar laziz!
- Sensan har narsadan mo‘tabar, aziz (*Uyg‘un*).
- 26.4. Пётр приехал только вчера.
- 26.5. На углу нашей улицы строят новый дом.
- 26.6. Завтра я поеду в библиотеку на весь день
- 26.7. Затем последовала борьба взглядов между ними.
- 26.8. Звонил отец, а не Володя.
- 26.9. Дождь заставил их забраться в шалаш.¹
- 26.10. There was a tap on the door.
- 26.11. The girl’s hands came together in a convulsive pressure. She sank down again on a chair.
- 26.12. He spoke against Mrs. Doyle once or twice. I myself have heard him.
- 26.13. ... but all the same she did mean more than one person.
- 26.14. «Where were you last night between the hours of twelve and two?», «In my bunk asleep ...».
27. 26-topshiriqdagi o‘zbekcha gaplarni rus tiliga, rus va ingliz tilidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Bu tillardagi tema va remani ifodalovchi vositalarni qiyoslang.

¹ Rus tilidagi misollar S.I.Kolabinaning «Практикум по курсу» «Введение в языкознание» qo‘llanmasidan olindi. –M: 1977.

KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK

Shveysariyalik mashhur olim F. de Sossyur ijodi bilan uzviy bog'langan strukturalizm oqimi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni o'tgan asrning 50-illariga kelib bajardi. Bu oqimga mansub olimlar tilning ichki tuzilishi stida namunali ishlar qilishdi. Ular ijodida tizim, tarkib, qatlam, morfizm, allomorfizm, etalon til, til universalialari kabi tushunchalar ar tomonlama o'rganilib chiqildi va ularning chegaralari ko'p jihatdan niqlandi. Til va nutq dixotomiyasi (juftligi) masalasi ko'tarilib, ularning 'zaro bog'liqlik tomonlari va farqlari e'tirof etildi. Ayniqsa, til tizimiga atta ahamiyat berilib, uning tarkibiy bo'limlari ko'rsatildi.

Strukturalizm oqimining asosiy kamchiligi «*til o'z ichida va o'zi chun mavjud hodisadir*» degan nazariyaning ilgari surilishi, natijada utqni o'rganishga deyarli ahamiyat berilmaganligidir. Tilni o'rganish malda ishlatuvchi odamlar faoliyatidan ajratib qo'yildi, muomaladagi til chetda qolib ketdi.

Nutqda uchraydigan variantlar rasmiy ta'kidlanib, ularni tartibga shirish masalalari yaxshi yoritildi, lekin ularning paydo bo'lish abablari o'rganilmadi. Shunday qilib, til va odam orasidagi uzviylik, lar orasidagi bog'liqlik strukturalistlar nazaridan chetda qoldi.

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik fanida sezilarli o'zgarish o'y berdi, tilning invariant tizimini o'rganish o'z mavqeini asta yo'qota orib, til variantlarini o'rganishga o'z o'rmini bo'shatib berdi. Endi lning bevosita harakatdagi, muomaladagi ko'rinishi, unda sodir o'ladigan o'zgarishlarni aniqlashga kirishildi. Tilshunoslik fanida lning bu tomonini o'rganish uning kommunikativ-pragmatik aspekti eb nom oldi. Tilning rivojlanishi kishilarning hayoti, ularning nutq oliyatlar bilan bog'liq ravishda o'rganila boshlandi. Bu esa o'z avbatida tilshunoslikda bir qancha yangi ilmiy fan sohalarining paydo o'lishiga sabab bo'ldi: psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn lshunosligi va lingvistik pragmatikani o'z ichiga olgan kommunikativ lshunoslik shular jumlasidandir¹. Quyida biz bu masalalardan o'siolingvistika va matn tilshunosligiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

¹ Sh. Safarov. «Pragmalingvistika». –T.: 2008.

MATN TILSHUNOSLIGI

Qayd qilinganidek, XX asrning 60-yillaridan boshlab tilshunoslik fanida burilish ro'y berdi. Tilshunoslik bu vaqtga kelib, til birliklari bo'lmish fonema, morfema, leksema (so'z), gaplarni o'rganishni gapdan kattaroq birliklarga bog'lab o'rganish zarurligini qayd etdi. Ularni mazkur fanda sintaktik butunlik, xat boshi, diskurs va matn atamalari bilan atashdi. Sintaktik butunlik, xat boshi, diskurs tushunchalari turli tilshunoslar ishlarida turlicha ta'riflansa ham, biz ularni birlashtirib, bir mavzu bilan bog'langan gap yoki gaplar yig'indisi, deb umumlashtirishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda tilning eng katta birligi matn deb topildi. Shuni qayd etish kerakki, matnni bir butun birlik sifatida o'rganish rus tilshunoslari tomonidan XX asrning 30-yillarida boshlangan edi. Ular o'z asarlarida matnning o'ziga xos xususiyatlari borligini, tilning boshqa birliklaridan o'zining mayl xususiyatlari, shaxs ma'nosini ifodalashi, matndagi shaxs ma'nosi bilan muallif shaxsi orasidagi bog'liqlik, uzviylik borligini isbotlashga ko'p kuch sarflashdi. Boshqa xorijiy mamlakatlar olimlari bu masalaga e'tiborni birmuncha keyinroq qaratdilar.

Matnning ta'rifi va birligi masalalari

Matnning ta'rifi masalasiga kelsak, hozirgi kunda ko'pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo'q. Matnning ta'rifi matn ustida ishlayotgan olimning tilshunoslik sohasining qaysi yo'nalishida (ya'ni fonetika-fonologiya, leksikologiya, sintaksis, semantika, generativ semantika va hokazo) ishlashiga bog'liq. Masalan, A.Greymas matn (diskurs)ni gaplarga bo'linadigan butunlik bo'lsa-da, gaplarni bir-biriga bog'lanib kelishining natijasi emas, deb ta'kidlaydi. Bundan matn birlamchi, dastlab matn yaratiladi, keyin esa tahlilchilar uni tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarga ajratishadi, degan ma'no kelib chiqadi.

P.Giro fikricha, matn yopiq, o'zaro bog'langan birliklar butunligi, tuzilishi bo'lib, bu butunlikni tashkil etuvchi ishoralar stilistik

taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib, yagona tizimni tashkil qiladi.

Matn ta'rifi matnga xos xususiyatlarni aniqlash bilan bog'liq. Hozir matnning ana shunday xususiyatlaridan bir nechtasi aniqlangan.

S.Todorovning fikricha, har qanday matn jarayon bo'lib, sintaktik va semantik xususiyatlarga ega. Matnlarning aniq gaplardan tashkil topishi – uning jarayon ekanini tasdiqlaydi. Matnni tashkil etuvchi qismlar orasidagi o'zaro bog'lanish uning sintaktik xususiyatini va, nihoyat, matnning mazmuni – uning semantikasini belgilaydi.¹

N.Enkvist ham matnning uch lingvistik parametrini mavzu (Topic), fokus (Focus) va bog'lanish (Linkage)ni aniqladi. *Mavzu* – matnning asosiy mazmuni, *fokus* – matnni tashkil etuvchi birlik (so'z, so'z birikmasi, gap va hokazo), *bog'lanish* esa matnning tashkil etuvchi qismlari orasidagi bog'lanish vositalaridir.

Bu xususiyatlar faqat matngagina emas, balki boshqa til birliklariga ham xosdir.

Nutq faoliyatiga kiruvchi matnlar ma'lum sistema asosida tuzilgan, o'z mazmuniga ega bo'lgan tugallangan mahsulotdir. Ularning tuzilishi, tarkibi jamiyatda uchraydigan matnlarning birortasining mavhum modeliga asoslangan bo'ladi.

Matn tilshunosligi munosabati bilan mazmun va ma'no atamalarini bir-biridan farqlashga to'g'ri keladi.

Matnning mazmuni deganda mazkur matndan o'rin olgan ma'lumot, axborot tushuniladi. Ma'no deganda esa matn birliklari (gap va gapdan kattaroq – yagona sintaktik butunlik, xat boshi)ga xos axborot tushuniladi.

Mazmun ifodalanayotgan axborotning uzil-kesil yakunlanganligiga bog'liqdir. Ma'no esa tugal fikr anglatrsa ham, fikrning davom etishini taqozo etadi. Demak, gap va matn o'rtasidagi asosiy farq ana shu masalada: *yakunlanganlik mutlaq, tugallanganlik esa nisbiydir*.

¹ Fikrimizning dalili sifatida taniqli rus olimlari A.B. Пешковскийning «Русский синтаксис в научном освещении», (–М.: 1934), В.В. Виноградовнинг «О художественной прозе» (–М.: 1930), Л.А. Булаховский «Курс русского литературного языка» (–Киев: 1952) va boshqalarning ishlarini keltirish mumkin.

Matn o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega: ma'lumot kategoriyasi tabiat, hodisa, ish-harakat va shu kabilarni ifoda qilish, ular yuzasidan fikr yuritishni anglatadi; integratsiya kategoriyasi matn birliklari orasidagi uzviylik, bog'liqlik, ergashish kabi munosabatlarni ko'rsatadi; retrospeksiya kategoriyasi ma'lum qilinayotgan voqea yoki hodisani ketma-ket, izchil hikoya qilish orqali amalga oshiradi.

Matnning bir butun mahsulotligini ta'minlovchi kategoriyani integratsiya (lotincha «*integratio*» – to'latmoq) deb ataldi. Bu atama tizim (sistema) nazariyasida ham ishlatilib, bir butunlikni tashkil etuvchi ayrim qismlar orasidagi bog'lanishni bildiradi. Integratsiya gap va gapdan yirikroq bo'lgan til birliklari anglatgan ma'nolarning nisbiy mustaqilligini bartaraf etib, ularni matn mazmunining butunligini ta'minlashga jalb etadi. Demak, integratsiya kategoriyasi matnning yakunlanishi bilan bog'liq kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

I.R. Galperin matnning birligi masalasiga to'xtab, kogeziya va integratsiya atamalarini bir-biridan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. *Kogeziya* matn qismlari orasidagi bog'liqlikni grammatik, semantik va leksik vositalar bilan amalga oshirishni anglatadi. *Integratsiya* esa matnning butunligini ta'minlash maqsadida, ularni birlashtirishdir. Integratsiya kogeziya vositalari bilan yoki assotsiativ va presuppozitiv munosabatlar bilan amalga oshirilishi mumkin. Demak, kogeziya – mantiqiy kategoriya, integratsiya esa psixologik kategoriyadir.

Ana shu masalalarni ko'rib chiqib, matn nima degan savolga javob topish mumkin.

Ma'lumki, matnning asosiy xususiyatlaridan biri – uning uzil-kesil tugal fikr anglatishidir. Matn bayon qilingandan keyin tinglovchida kim, qachon, qayerda, qanday kabi qo'shimcha savollarga o'rin qolmaydi. Har qanday matn fikrlar yig'indisi bo'lib, o'zaro uzviy bog'langan mulohazalarni o'z ichiga olgan bo'ladi. Matnning chegarasini uni yaratuvchi (ya'ni yozuvchi, bayon qiluvchi) belgilaydi.

Matn o'z oldiga qo'ygan amaliy maqsadiga ko'ra turlarga bo'linadi. Masalan, *yozma* va *og'zaki* matnlar. Ular o'z navbatida yana turlarga ajratiladi. *Og'zaki* matnlarga *dialog matnlar*

suhbatlar), *folklor*, *ovozalar (mish-mishlar)* kiradi. Matnning turlari o'g'risida quyiroqda batafsil to'xtalamiz.

Matnlarning har bir turi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'z tarkibi va mazmuni bilan boshqalardan ajralib turadi. Folklorning ir ko'rinishini tashkil qiluvchi ertak matnlari fikrimizning dalili o'lishi mumkin.

Dunyodagi barcha xalqlarning ertaklari ijobiy kuchlarning salbiy uchlar ustidan g'alabasi bilan yakunlanadi. Ularning tarkibiga elsak, bu yerda ham o'xshashlik bor. Masalan, o'zbek xalq ertaklari *or ekan-u, yo'q ekan* degan gaplar bilan boshlansa, rus tilida *жил-ыл*, nemis tilida *в стародавние времена, жил-был на свете ко-оль, жил на опушке дремучего леса бедный дровосек ...* kabi kirish o'z va gaplar bilan boshlanadi.

Yozma matnlar turkumiga kiruvchi ilmiy matnlar mazkur masala o'g'risida avval ma'lum bo'lgan fikrlarni muhokama qilish bilan oshlanib, kamchiliklar ochib tashlanadi va nihoyat yangi fikr bayon ilinib, uning amaliy qo'llanilishiga oid tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Matnni tashkil etuvchi birliklar

Matn tilshunosligi bilan bog'langan yana bir masala – uning birligi, a'ni matnni qanday birliklar tashkil etishi muammosidir.

Bu masalaga o'tishdan oldin til birligi tushunchasining o'zi nima, qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligini aniqlab olish zarur.

Mavjud fikrlar majmuida til birliklariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- *quyi yarus birliklari yuqori yarus birliklarining yasalishida htirok etishi kerak;*

- *quyi yarus birligida sodir bo'lgan omonimik hodisa yuqori arusda ishlatilganda bartaraf qilinishi lozim;*

- *nutq va til ko'rinishlariga ega bo'lishi lozim;*

- *ular hamma tillar uchun bir xil – universal bo'ladi.*

Bu talablarning hammasiga javob bera oladigan til birligi – gapdir. 'hunki, *birinchidan*, u hamma tillar uchun universal birlik, ya'ni amma tillarda gap deb atalmish til birligi mavjud; *ikkinchidan*, nutq arayonida gap semantik nuqtai nazardan o'z distributsiyasiga ko'ra etma-ket izchil sodir bo'ladi; tuzilishi ham ketma-ket namoyon

bo'ladigan quyi yarus birliklaridan tashkil topgan; *uchinchidan*, boshqa til birliklari qatori (fon-fonema, morf-morfema va hokazo) nutq va til ko'rinishlariga ega bo'lishi mumkin. Bu bir fikrni bir qancha yo'llar bilan ifoda qilish mumkin demakdir. Masalan: *Bu ishni Alisher bajaradi. Bu ish Alisher tomonidan bajarildi.*

Omonimiya morfema va so'zlarda bo'lganidek, gaplarda ham uchrab turadi. Ingliz tilidagi *Flying planes may be dangerous* gapi omonim gapdir, chunki uning uch xil ma'nosi bor, ya'ni:

1. *Uchayotgan samolyotlar xavfli bo'lishi mumkin.*
2. *Samolyotlarning uchishi xavfli bo'lishi mumkin.*
3. *Samolyotlarda uchish xavfli bo'lishi mumkin.*

Yuqoridagi gap uch ma'nodan qaysi birida ishlatilgan bo'lishi aniq vaziyat, matnga bog'liq; uzil-kesil ma'noni bu gap faqat matn tarkibidagina kashf etishi mumkin. O'zbek tilidagi *Aminjonga tikildi* degan gap ham yuqoridagi gapga o'xshaydi. Bu gap ikki ma'noni anglatadi. Bu o'rinda *tikmoq* va *tikilmoq* (qaramoq) fe'llarining shakllari nutqda bir-biriga to'g'ri kelib qolgan. Gap qaysi ma'noda ishlatilganligi faqat vaziyatda aniqlanishi mumkin. Va, nihoyat, morfemalar fonemalardan, gaplar so'z (leksema)lardan tashkil topganidek, matnlar gaplardan tashkil topadi. Gapning matn birligi ekanligini shu tariqa tasdiqlash mumkin.

Matnning tarkibi

Matn deb atalmish til birligi ifoda qobig'i, mazmuni (semantikasi) va grammatikasiga ajratiladi.

Ifoda qobig'i deganda, matnlarning tovushlardan tashkil topgan bo'lishi (yozma matnda bu harflar yordamida ifoda qilinadi, og'zaki matnda esa bu eshitish organlari orqali qabul qilinadigan tovush to'liqlaridir) va ma'lum melodik ohang tuzilishi tushuniladi.

Matnning mazmuni deganda, har qanday matn asosida yotgan axborot tushuniladi. Matnning nazarda tutilgan bu ikki tomoni bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri ikkinchisini doimo taqozo qiladi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Matn tovushlarning tanlanishi, tovushlarning miqdor ko'rsatkichi, musiqaviy ifodasi, matnning ma'nosi bilan belgilanadi.

Tilning eng yirik birligi bo‘lmish matnda, tabiiy ravishda uning boshqa birliklari ma’no talabiga ko‘ra ketma- ketlik tamoyili asosida namoyon bo‘ladi. Bu birliklar fonetik, grammatik va semantik distributsiya qoidalariga ko‘ra bir-biri bilan bog‘lanadi. So‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarning tuzilishi yuqorida ko‘rib chiqilgan. Bu yerda bizni matnni tashkil etuvchi birliklarning, ya’ni gaplarning bir-biri bilan bog‘lanadigan vositalarini aniqlash matnning grammatikasi qiziqtiradi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash kerakki, ba’zi olimlar gap bilan matn orasida yana bir pog‘ona – xatboshi, sintaktik butunlik yoki diskurs degan birliklar bor, degan fikrni ham ilgari surishadi. Birinchidan, bu masala uzil-kesil hal etilmaganligi va, ikkinchidan, matnni tashkil etuvchi gaplarni o‘zaro bog‘lanish vositalarini aniqlashda ular (diskurs, xat boshi va boshqalar)ning ahamiyati yo‘qligi sababli bu masalaga to‘xtalib o‘tirmaymiz. Matnning butunligini ta’minlab turgan narsa uning asosida yotgan asosiy g‘oyadir. Buni biz *makrotema* deb belgilashimiz mumkin. Makrotemalar bir qancha mikrotemalardan tashkil topgan bo‘lib, bu *mikrotemalar* gaplar yoki ularning birikmasi orqali ifoda etiladi. Mikrotemalar matnning asosiy g‘oyasi orqali bir-biriga o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Mavzular orasidagi munosabat bir xil emas. Olimlarning fikriga qaraganda, matnni tashkil etuvchi birliklar orasidagi bog‘lanish *presuppozitsiya*, *implikatsiya* kabi munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Bu tushunchalar o‘zaro bog‘liqdir; har bir yangi gap oldingi gapni to‘ldirib keladi va o‘z navbatida yangi gapning tug‘ilishiga zamin tayyorlaydi demakdir. Matndagi gaplar bir-biri bilan shu zaylda zanjirsimon bog‘lanib ketaveradi. Mana shu hodisa *presuppozitsiya* yoki *implikatsiya* deb yuritiladi. Matndagi makrotema ishtirokchilari bo‘lmish mikrotemalar faqat bitta gap orqali ifodalanmay, balki gaplar birikmasi, xatboshilar, bo‘limlar orqali anglashilishi mumkin. Demak, mikrotemalar kichik, katta bo‘lishi mumkin, ya’ni makrotema pog‘onama-pog‘ona bo‘lib joylashgan turli kattalikdagi mavzular yig‘indisidan tashkil topgan bo‘ladi. Matnni tashkil etuvchilar orasidagi bog‘lanish to‘g‘risida gap borganda gapning aktual bo‘linishini eslamay bo‘lmaydi. Ma’lumki, bu nazariyaga binoan har qanday gap ikki qism – birinchisi

eski axborot, ikkinchisi esa yangi axborotdan tashkil topgan bo‘ladi. Tilshunoslik fanida avval qayd etilganidek, birinchisi *tema*, ikkinchisi *rema* deb yuritiladi. Yangi gapning yaratilishiga sabab bo‘lgan narsa – remani ifodalashdir. Odatda gap faqat remadan tashkil topgan bo‘lmaydi, gapning tarkibida tema ham o‘z aksini topishi kerak. Buning sababi – mazkur gap ana shu tema orqali oldingi gap yoki gaplar bilan bog‘langan bo‘ladi, chunki tema avval aytilgan fikrning bir qismini takrorlaydi. Yangi yaratilgan gapning remasi keyingi gapda (yoki gaplarda) tema bo‘lib keladi. Shunday qilib, gaplardagi tema va remalar matnning butunligini, bog‘langanligini ta‘minlaydi.¹

Matndagi sintaktik bog‘lanish vositalari

Matndagi sintaktik-semantik bog‘lanish asosida tema va remalar yotar ekan, ular anglatgan ma‘nolar qanday leksik-grammatik vositalar orqali ifoda qilinishini o‘rgansak, matnning sintaktik bog‘lanish vositalarini aniqlagan bo‘lamiz.

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan rema quyidagi vositalar yordamida ifodalanadi:

- *noaniq artikllar*;
- *so‘z tartibi (inversiya)*;
- *mantiqiy urg‘u*;
- *yuklamalar*;
- *ba‘zi sintaktik konstruksiyalar*.

Temani ifoda qiluvchi vositalarga:

- *olmoshlar (ba‘zi turlari)*;
- *aniq artikl*;
- *o‘rin va payt ma‘nolarini sinsemantik ravishda ya‘ni bir vaqtning o‘zida ifodalovchi so‘zlar*;
- *ba‘zi kirish so‘z va iboralar*;
- *so‘z va gap tartiblari*;
- *matn g‘oyasi bilan uzviy bog‘langan yetakchi so‘zlarning qayta-qayta takrorlanishi*;

¹ Bu masalaning tafsilotini «Gapning aktual bo‘linishi»dan ko‘rib oling.

- sinonimik qatorga kiruvchi sinonimlardan matnning asosiy g'oyasiga mos keladiganini tanlash;

- grammatik zamonlarning qo'llanishi va boshqalar kiradi.

Matnning g'oyaviy butunligini ta'minlab turgan turli leksik-grammatik vositalarning ba'zilarini quyidagi nasr matni misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Hayvonlar boshqa muhitga o'tkazilsa, yo halok bo'lishadi, yo nosiashib ketishadi.

... *Odam ham ne-ne kuylarga tushmaydi. Lekin u moslashib ham tashmaydi, o'lmaydi ham! U muhitni o'ziga moslaydi (O. Matchon).*

Keltirilgan nasr falsafiy mazmundagi asar bo'lib, matnga xos ramma xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. U to'rt gapdan tashkil topgan bo'lsa ham, tugallangan fikrni, bir umumiy g'oyani o'ziga qamrab olgan. Birinchi gap – *Hayvonlar boshqa muhitga o'tkazilsa, yo halok bo'lishadi, yo moslashib ketishadi* – matnning kirish gapi bo'lib, gap nima to'g'risida borishini, dastlabki axborotni ifodalaydi. Bu gapdan keyin ikkita boshqa gap kirish gapidan tashkil topgan ma'noni kengaytirib, ochib beradi. Bu gaplar orasidagi ma'no munosabatlari leksik va grammatik vositalar orqali amalga oshirilgan. Ikkinchi – *Odam ne-ne kuylarga tushmaydi* – gapi birinchi gap bilan ma'no tomondan hamjihat, birdamdir. Bu umumiylik muhit ushunchasi bilan bog'langan (ya'ni odam ham turli muhitga tushib qolishi mumkin). Ana shu hamjihatlik, birdamlik ma'nosi ko'rilayotgan gapda *ham* so'zi orqali ifodalanib, u bog'lovchilarning birlashtiruvchi turiga kiradi. Demak, bu vaziyatda ham bog'lovchisining ma'nolanishi tasodifiy bo'lmay, ikki gap orasidagi ma'no munosabatlarining talabiga mos tushadi.

Birinchi gap bilan ikkinchi gap orasida farq ham bor. Birinchi gap hayvonlar to'g'risida bo'lsa, ikkinchisi – odamlar to'g'risida. Bu farq yozuvda (grafikada) yangi qatordan yozish – xat boshi bilan ifodalangan. Demak, matnlarda yangi qatorga o'tish sabablaridan biri subyektning o'zgarishidir.

Ikkinchi gap keyingi ikki gapga nisbatan sabab ma'nolarini ifodalovchi gapdir. Har qanday sabab biror oqibat bilan bog'langan. Birinchi va to'rtinchi gaplar oqibatni ifodalaydi. Bu ma'noni ifodalovchi uchinchi gap birinchi gapdan tashkil topgan oqibatga

ziddir, ya'ni *u moslashib ham ketmaydi, o'lmaydi ham*. Bu zidlik mazkur gapda zidlovchi bog'lovchi *lekin* yordamida ifodalangan. Shunday qilib, uchinchi gap ikkinchi gapning oqibati sifatida ikkinchi gap bilan bog'langan; undan tashqari, uchinchi gap birinchi gapning oqibatiga zid bo'lgani uchun, unga qarama-qarshi qilib qo'yilishining sababi birinchi gap bilan ham bog'liqligidir. Birinchi gap bilan uchinchi gapni bir-biriga bog'lab turgan vosita *lekin* bog'lovchisidir. Ikkinchi bilan uchinchi gaplarni ham bog'lab turgan til vositasi bor. Bu vosita – u olmoshidir. Bu olmosh birinchi gapdagi odam so'zining o'rnida turib, ikkala gapning subyekti bir ekanligini ta'kidlamoqda. To'rtinchi gap uchinchi gap tomonidan nihoyasiga yetkazilmagan oqibatning mantiqiy yakunidir. Bu gapni oldingi gaplar bilan bog'lab turgan vositalardan biri yana subyektni ifodalayotgan u olmoshidir.

Tahlil qilinayotgan matnning butunligini ta'minlovchi yana bir dalil bor. Bu matn 27 so'zdan tashkil topgan. Lekin ularning turi 18; 9 so'z dastlabki 18 so'zning ba'zilarini 2-3 marta qaytarilishi natijasidir. Bu matn ko'rilyotgan masalaga bevosita daxldor, chunki bir g'oya ifodalanayotganda bir xil so'zlar yoki ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan leksik birliklarning qo'llanishi tabiiydir.

Har qanday matnning yaratilishi ma'lum amaliy maqsadlarni ko'zda tutadi. Ushbu matn inson oliy tafakkur egasi ekanligi va buning natijasida u shart-sharoitga ko'nikishi emas, balki shart-sharoitni o'ziga moslay olishi to'g'risidagi asardir.

Bu matnda yuqorida qayd qilingan leksik-grammatik vositalarning ko'pchiligi uchramaydi. Shuning uchun ularning ba'zilarini matnlardan ajratib olingan bo'laklarda ko'rsatish bilan chegaralanamiz.

One day a boy went down the road. He had two gold coins in his pocket.

*Soon the boy met a farmer with a basket in his hand
(R. Stevenson).*

Bu ingliz tilida yozilgan matndan olingan parchadagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga ahamiyat bering. Birinchi – kirish gapda *boy* so'zi noaniq artikl bilan kiritilishi tabiiy. Chunki bu bola to'g'risida hali hech nima ma'lum emas. Keyingi gapda bu so'z *he* kishilik olmoshi bilan almashtirildi; buning sababini biz o'zbek tilidan olingan

nisolda ham ko‘rganmiz. Uchinchi gapda *boy* so‘zidan oldin *the* aniq artikli turibdi. Buning sababi bola so‘zi oldingi gaplarda ikki marta ilga olingan, demak u o‘quvchiga tanish bo‘lganligidir. Ana shu vositalar berilgan uch gapni bir-biriga bog‘lash uchun boshqa vositalar bilan birgalikda xizmat qilmoqda.

Matnlarni tashkil etuvchi gaplarni bir-biriga bog‘lashda quyidagi vositalar ham katta ahamiyatga ega: *natijada, shunday qilib, nihoyat, aytilganidek, ma‘lum bo‘lishicha, shundan so‘ng, ertasiga, bir yil o‘tgach* va boshqalar.

Ingliz tiliga o‘xshash ba‘zi tillarda grammatik zamonlar moslashib shlatiladi. Bu vosita ham matndagi voqealarning sodir bo‘lishi artibini ifodalaydi va natijada gaplarni bir-biriga bog‘lashda grammatik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan:

Then Mr. Epperly pulled a one-dollar bill from his pocket.

...I had never yet had a one-dollar bill of my own.

(R. Stevenson)

Birinchi gapda ish-harakat *pulled* fe‘li bilan, ikkinchisida esa *had had* fe‘l shakli bilan ifodalangan. *Had had* shakli anglatayotgan ish-harakat birinchi gapdagi ish-harakatdan oldin sodir bo‘lganligini bildiradi.

Hozirgi kunda umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan hamma vositalar aniqlanganicha yo‘q. Bu masalada hali ko‘p ilmiy izlanishlar olib borilishi tabiiy.

Matn turlari

Matnlar yaratilishi maqsadlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Bu nasala taniqli rus tilshunosi Yu.V. Rojdestvenskiy tomonidan troflichia yoritilgan. Matn to‘rtta katta guruh: *og‘zaki, yozma (qo‘lyozma), bosma va ommaviy kommunikatsiyaga* ajratiladi. Bu matnlar o‘z navbatida bir qancha turlarga ajraladi. *Og‘zaki matn monolog-dialog matn (suhbat), ovozalar (mish-mishlar); folklor* urlariga bo‘linadi.

Og‘zaki matnlarning birinchi turi bir marta nutqda sodir bo‘lib, odatda qaytarilmaydi, natijada yo‘q bo‘lib ketadi. Ikkinchisi qaytarilishi mumkin, lekin tinglovchi odatda uni faqat bir marta qabul

qiladi; ovoza matnlarning umri qisqa bo'ladi. Uchinchisiga ertak, dostonlar kiritilib, ular doimo tildan-tilga o'tib yuradi, tinglovchilar ularni qayta-qayta eshitishga tayyor, shuning uchun ularning umri boqiydir.

Yozma (qo'lyozma) matnlar to'rt xil bo'ladi: epigrafik, sfragistik, numizmatik, paleografik.

Epigrafik matnlarga turli-tuman ko'rsatkich-yozma matnlar: *O'zbekiston Akademik opera va balet katta teatri. Dam olish uyi. Aeroport* kabilar kiradi.

Sfragistik matnlarga muhrlarga bitilgan matnlar kiradi.

Ma'lumki, muhr bir necha asr muqaddam paydo bo'lgan, uning o'ziga xos tarixi mavjud.

Numizmatik matnlarga pullarga bitilgan, pullarning qiymatini ko'rsatuvchi so'zlar kiradi: *Bir so'm, O'n tiyin. Пять рублей. One dime* va boshqalar.

Paleografik matnlar qo'lyozma matnlarning asosiy turi bo'lib, jamiyatning madaniy normativlarini belgilaydi. Paleografik matnlar maktub, hujjat va ijodiy asarlarni qamrab oladi.

Maktub odamlar o'rtasidagi nutq faoliyatining bir ko'rinishi bo'lib, asosan erkin fikr almashishga asoslangan; erkin fikr almashish ham maktub bitishning ichki tartiblariga rioya qilishni taqozo etadi.

Hujjatlar – jamiyatda odamlarning yurish-turish qoidalarini o'z ichiga oladigan yozma matndir. Agar maktublarni yozish va o'qish erkin bo'lsa, hujjatlarning o'qilishi va ularga amal qilinishi majburiydir. Bu matnlarda yaratuvchi va ijro etuvchilar doimo ta'kidlanadi. Maktublarni yozuvchi va o'quvchi ayrim-ayrim shaxslardir. Hujjatlar odatda jamoa tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, jamiyatning barcha a'zolariga yoki uning bir qismiga taalluqli bo'ladi.

Ijodiy matnlar jamiyatning yashash normalarini belgilamaydi va aniq bajaruvchilarni ham nazarda tutmaydi. Ularni o'qish majburiy emas.

Bosma matn qo'lyozma matnlarning mukammal ko'rinishidir. Bosma matnlar adabiy va ilmiy matnlarga ajratiladi.

Matnlarning to'rtinchi asosiy turi – **ommaviy muloqot** vositasidir. Bu matnlar ommaga yetib kelishida maxsus texnik vositalar (radio,

elevizor, kino jihozlari, kompyuter) yoki aloqa bo‘limlari bo‘lishi hart. Bu matnlarni eshitish yoki o‘qish erkin bo‘lib, u boshqa tur natnlardan sodir bo‘lgan voqea va hodisalarni ifoda qilishi bilan arqlanadi. Odatda bu matnlar bir marta e‘lon qilingandan keyin ayta tiklanmaydi, qayta tiklanadigan bo‘lsa, unga yangi qo‘shimcha xborot qo‘shilishi zarur. Bu matnlar so‘nggi yangiliklarnigina mmaga taqdim etadi; uning vositachilari (radio, televizor, ro‘znoma, nternet, jurnal va boshqalar) ma‘lum sistema asosida ishlaydi. Bu istema jamiyat a‘zolariga ma‘lum.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday til birligi matn deyiladi? Matn tilshunosligi qachon paydo bo‘lgan? Matn boshqa til birliklaridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?

2. Matn tilshunosligi qanday masalalarni o‘z ichiga oladi?

3. Matnni tashkil etuvchi birlik nima? Til birliklariga qanday talablar qo‘yiladi?

4. Matnning uch tarkibiy qismi – ifoda qobig‘i, mazmuni va grammatikasini tushuntirib bering.

5. Matnni tashkil etuvchi birliklarni bir-biri bilan bog‘lab turuvchi vositalarga nimalar kiradi? Gapning aktual bo‘linishi deganda nimani tushunasiz va bu masalaning matn tilshunosligiga qanday aloqasi bor? Tema va rema atamalarini tushuntirib bering. Keltirilgan misollarda matnning butunligini ta‘minlaydigan vositalardan qaysilari uchradi? Matnning butunligini ta‘minlab turadigan vositalar hamma tillarda bir xil, universal desa bo‘ladimi?

6. Matnning qanday turlarini bilasiz? Ularning bir-biridan farqi nimada va ularning qaysi turi hayotda ko‘proq uchraydi?

7. Matnga oid qaysi masala sizda qiziqish uyg‘otdi?

8. Implikatsiya yoki presuppozitsiya nima?

9. Quyidagi parchada gaplarni bir-biriga bog‘lab turgan vositalarni toping.

– *Становится свежо, – сказала Ольга Ивановна и вздрогнула.*

Рябовский окутал её в свой плащ и сказал печально:

– *Я чувствую себя в вашей власти. Я раб. Зачем вы сегодня так обворожительны?*

Он всё время глядел на неё, не отрываясь. И глаза его были страшны, и она боялась взглянуть на него (А.П. Чехов).

10. She'rni o'qing. Undagi makro- va mikrotemalarni aniqlang. Mikrotemalarni bog'lab turgan vositalarni ko'rsating. Bu matnning qaysi turiga kiradi?

DORBOZ

Bulutlarga yondosh, osmon ostida,
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning domiday arqon ustida,
Ko'zlarini yumib, yuribdi dorboz.
Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o'ktam.
Biz-chi, eh ... ba'zi bir ko'zi ochiqlar,
Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham.

A. Oripov

... Go'ro'g'li olis safarga ketayotgan ekan. Yo'lda bir g'orga duch kelibdi. Dam olmoqchi bo'lib kirgan ekan, birdan unga devlar hujum qilib qolishibdi. Go'ro'g'li devlar bilan rosa olishibdi. Oxiri ularni yengib, bandi qilibdi. Devlarga havdak ko'li atrofida ariq qazdirib, cho'llarga suv chiqaribdi.

– Buva, devlar Go'ro'g'lini hecham yengisha olmabdimi?

– Yo'q, o'g'lim, yengisha olmagan. Go'ro'g'li hamisha odamlarga yaxshilik qilgan. Shuning uchun ishi o'ngidan kelavergan. El yorlaqagan odamdan hatto devlar ham qo'rqishadi.

– Buva, Nodir akam Go'ro'g'liga o'xshaydimi?

– Ha, o'xshaydi. El-yurtiga yaxshilik qiladigan odamlarning hammasi Go'ro'g'liga o'xshaydi.

– Katta bo'lganimda men ham odamlarga ko'p yaxshilik qilaman-a, buva?

E. Usmonov

XI BOB

SOTSIOLINGVISTIKA (Ijtimoiy tilshunoslik)

Zamonaviy tilshunoslikda bu atama ikki ma'noda ishlatiladi:

1. *Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat, ya'ni jamiyat hayoti va rivojlanishida tilning roli va aksincha, tilning rivojlanishida jamiyatning ahamiyati.*

2. *Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi munosabati bilan bo'ladigan farqlar.*

Bu masalalar tilshunoslik tarixida bir qadar o'z aksini topgan. Lekin oldingi asrning oltmishinchi va yetmishinchi yillariga kelib tilshunoslik fanining bu yo'nalishi jadal rivojlana boshladi. Sotsiolingvistika faqat tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari orasidagi munosabatlarni emas, balki falsafani, ijtimoiy psixologiya va etnografiyaga oid masalalarni ham qamrab oladi.

Tilshunoslik fanidagi bu yo'nalishga qiziqishning oshishi quyidagi omillar bilan tushuntirilishi mumkin:

1) *jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosati tamoyillariga bo'lgan ehtiyoj;*

2) *struktural tilshunoslikning faqat tilning ichki tuzilishini o'rganishga bo'lgan qiziqishi.*

Bugungi kunda jamiyatda til siyosati masalasi borgan sari keskinlashmoqda. Mustamlaka bo'lgan ko'plab Osiyo va Afrika mamlakatlarida til muammosi shu vaqtgacha hal etilmagan.

Birorta milliy tilni davlat tiliga aylantirishda qator muammolar hal etilishi lozim.

Birinchidan, bu til o'z mavqei bilan shu davlatda yashovchi boshqa millatlarga manzur bo'lishi kerak. Buning ma'nosi shuki, mazkur til boshqa tillarga nisbatan ko'proq hududga tarqalgan bo'lishi, bu tilda ko'pchilik gapirishi, leksik jihatdan boshqalariga nisbatan namuna bo'lish kerak.

Ikkinchidan, bu tilni targ'ib qilishni to'g'ri uyushtirish, o'qish-o'qitish ishlarini yo'lga qo'yish, bu maqsadda ommaviy axborot vositalaridan kengroq foydalanish lozim.

Uchinchidan, umummilliy tilga o'tish bu bir necha yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda fan va texnika yangiliklarini yangi umummillat tili orqali yetkazish mushkul, bu vazifani faqat g'arbiy tillar bajaradi, degan fikr endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlarda chuqur o'rnashib qolgan, shu sababli g'arbiy tillardan qutulish qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Bulardan tashqari sotsiolingvistikaning tez rivojlanib ketishiga strukturalizm oqimining salbiy tomonlari ham ta'sir etdi.

XX asrning o'ttizinchi yillarida maydonga kelgan strukturalizm tilni asosan bir tomonlama o'rganishni, tilning tuzilishi va uni tashkil etuvchi birliklar orasidagi munosabatlarni o'rganishni tilga oid boshqa masalalardan ustun qilib qo'ydi. Natijada til birliklariga xos bo'lgan shakl va ma'no birligini rad etib, faqat shaklni o'rganishga zo'r berildi. Ko'p o'tmay bu oqim inqirozga uchrab, qo'yilgan maqsadlarni uzil-kesil hal qila olmadi. Tilning yashashi va rivojlanishi bu tilda gaplashuvchi jamiyat bilan uzviy bog'liq ekani ravshan bo'lib qoldi.

Shular va shunga o'xshash yana bir qancha boshqa masalalar tilshunoslik fanining asosiy masalalaridan bo'lmish til va jamiyat masalasini yana kun tartibiga qo'ydi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar asosida yotgan sabablar hamma yerda bir xil emas.

Adabiy tillarning yaratilishi bilan bog'liq masalalar. Sotsiolingvistika fani qo'yilgan masalani muvaffaqiyatli bajarishi uchun quyidagilarni hal qilishi lozim:

- *adabiy tilga asos bo'la oladigan shevani topish;*
- *bo'lajak adabiy tilning tovush tarkibi xususiyatlarini hisobga olib, milliy yozuvni yaratish.*

Bu masalalarni hal etishda boshqa muammolar ham yuzaga keldi. Masalan, adabiy til darajasiga ko'tarilishi lozim bo'lgan sheva boshqa shevalardan o'z mavqei bilan ajralib turishi, ko'pchilikka manzur bo'lishi kerak. Bu anchagina murakkab masaladir. Sotsiolingvistika yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, milliy adabiy tilni barpo etishda ko'pchilik gapiradigan sheva emas, balki ijtimoiy mohiyati kuchliroq, fan va madaniyat markazida ishlatilayotgan shevagina adabiy tilga asos qilib olinishi mumkin, degan xulosaga keldi.

Ma'lumki, adabiy til o'z normalari va qoidalariga ega bo'ladi. Adabiy tilning qoida va normalari barcha shevalar vakillari uchun majburiy bo'lib, aloqa va fikrlashuvni osonlashtirishga, ulaylashtirishga xizmat qiladi. Adabiy til atamashunoslik bilan uzviy bog'langan. Atama fan va texnika, madaniyat va san'at sohasidagi bir aniq tushunchani ifodalaydigan so'zdir. Masalan: *fon, fonema, onologiya, paradigma* kabi atamalar tilshunoslikka xosdir. *Atamashunoslik* – atamalarni o'rganadigan fan tarmog'idir. Atamashunoslikda ikki yo'nalishga duch kelinadi:

1) *baynalminimal so'zlarni o'zlashtirish;*

2) *baynalminimal so'zlardan butkul voz kechish va faqat milliy til aminida atamalar yaratish.*

Bu yo'nalishning ikkalasi ham o'rinli emas. Ko'pchilik tillar omonidan qabul qilingan baynalminimal atamalar o'rniga milliy adabiy tildan uning o'rnini bosuvchi so'zni axtarish yoki uni sun'iy yaratish maqsadga muvofiq emas. Bu o'ta purizm (tilni o'zlashtirilgan so'zlardan tozalash) bo'lib, adabiy tilning mavqeini pasaytirishga olib keladi. Atamalarning ko'pchilik tillarda umumiy bo'lishi, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi, ortiqcha so'zlarni yodlashdan ozod qiladi.

Shu bilan birga milliy adabiy tilda bor bo'lgan atama o'rniga boshqa tildan so'z o'zlashtirish ham maqsadga muvofiq emas. Odatda mazkur tilda gaplashuvchi xalq bunday sun'iylikni qabul qilmaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili atamalar lug'ati, birinchidan, o'zbek tilida bor bo'lgan so'zlar va vositalarni hisobga olish va, ikkinchidan, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish evaziga boyib bormoqda.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan atamalarning tovush strukturasi qarama-qarshi qarama-qarshi o'zgartirilmay ishlatiladigan atamalar bo'lib, ularga demokratiya, federatsiya, partiya, ensiklopediya, standart, internet tashabbotlari kiradi.

Sotsiologik tilshunoslik millatlararo aloqa vositasi muammosi bilan bog'liq hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda millatlararo aloqa vositasi bo'lib xizmat qiluvchi tillarni *lingva – franka* atamasi bilan belgilashgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida bu vazifani rus tili o'zaro aloqada, xalqaro miqyosda esa ingliz tili.

Adabiy tillarning shakllanishini o'rganish natijasida tilshunoslar til jarayoniga maqsadga muvofiq ta'sir o'tkazish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin hamda bu tilning rivojlanishini tartibga solish va rejalashtirish imkonini tug'diradi, degan xulosaga keldilar.

AQShlik R.T. Bell fikricha, ijtimoiy tilshunoslikka ikki xil yondashuv bo'lishi mumkin. Birinchisi «*sof sotsiolingvistika*» bo'lib, unda gapiruvchi va tinglovchilar grammatikasining o'zaro bir-biriga ta'siri, hamkorligi o'rganiladi. Ikkinchisi «*til sotsiologiyasi*» bo'lib, til tuzilishi bilan ijtimoiy tuzilishlarning ishoralar nazariyasi ichidagi integratsiyasidir. Bu yo'nalish tilshunoslikni boshqa ijtimoiy fanlar bilan qo'shib, til ishoralarining turli ijtimoiy hayot mazmunida ishlatilishi masalalarini o'rganadi. Ba'zi olimlarning fikricha, ijtimoiy tilshunoslik o'rganadigan masalalarni ikkiga ajratish maqsadga muvofiq emas. Chunki AQShda birinchi yo'nalish mikrosotsiologiya deb nomlanib, uni asosan tilshunoslar, ikkinchisi esa makrosotsiologiya deb atalib, uni sotsiologlar o'rganadi. Natijada yagona masala bilan turli fanlar shug'ullanadi. Mikrosotsiolingvistikaning diqqat markazida kichik ijtimoiy guruhlarni tashkil etuvchi shaxs va guruhning a'zolari o'rtasidagi nutqiy hamkorlik munosabati yotadi. Makrosotsio-lingvistikaning diqqat markazida esa bir sotsial guruh bilan ikkinchi bir sotsial guruh o'rtasidagi nutqiy muloqot yotadi. Mikro va makrosotsiolingvistikani bir-biridan ajratib bo'lmasligining asosiy sababi ham, har qanday ijtimoiy guruh ayrim shaxslardan tashkil topgan bo'lishidadir. Har bir shaxs mazkur guruh uchun umumiy bo'lgan tildan foydalanadi va shu bilan birga o'ziga xos nutqiy xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Bu xususiyatlar bir tomondan, shaxsning o'ziga xos psixologiyasiga, ikkinchi tomondan bu shaxs a'zo bo'lgan kichik sotsial guruhning kasb-hunariga ham bog'liq. Demak, bu guruhning o'ziga xos atama va jargonlari bo'lishi mumkin. Lekin bundan na ayrim shaxs va na ayrim sotsial guruh o'z tiliga ega ekan, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bu shaxslar mazkur milliy hududning qayerida yashamasin, u mazkur milliy tilga aloqador bo'lsa, shu milliy til normasidan chiqib ketmaydi, balki milliy tilning bir ko'rinishida, variantida gapiradi. Shunday ekan, mikrosotsiolingvistika erishgan yutuqlar makrosotsiolingvistika tadqiqotlari uchun yaxshi ilmiy zamin bo'lishi mumkin.

mikrosotsiologiyistik tadqiqotlar esa makrosotsiologiyistikaning ilmiy soslariga tayanmay to'g'ri xulosalar chiqara olmaydi, chunki kichik timoiy guruhlarining tuzilishi jamiyatning sinfiy tuzilishidan kelib hiqadi.

Chet el tilshunosligida ham bizdagi tilshunoslikda bo'lganidek, lning ijtimoiy muhitiga ko'ra o'zgarish xususiyatlari atroflicha 'rganiladi. Bu – tilshunoslikda tilning o'zgarish nazariyasi deb uritiladi. Tildagi o'zgarishlar, aytib o'tilganidek, tilning ichki ırayonlari va tashqi ta'sirlar asosida sodir bo'ladi. Tilning ichki 'zgarish jarayoniga tilshunoslik fanida «kompensatsiya qonuni» omi bilan yuritiladigan hodisani misol tariqasida keltirish mumkin. u qonuniyatga ko'ra, tilning biror qismida birorta o'zgarish ro'y ersa, bu o'zgarish tilning boshqa qismida ham o'z aksini topadi. rgliz va fransuz tillarining tarixi bu jihatdan yaxshi misol bo'lishi umkin. Qadimgi ingliz va fransuz tillari grammatik qo'shimchalarga oy, kelishik tizimiga ega bo'lgan tillar bo'lgan. Lekin vaqt o'tishi ilan bu tillar asta-sekin o'z grammatik qo'shimchalarini yo'qota organ. Shu jumladan kelishik sistemasi ham yemirilib, fransuz tilida umuman yo'q bo'lib ketgan, ingliz tilida esa bitta kelishik o'shimchasi saqlanib qolgan. Bu hodisa ikkala tilning grammatik uzilishida burilish yasadi, ya'ni grammatik qo'shimchalar ajaradigan vazifaning asosiy og'irligi so'z tartibiga o'tdi: ikkala lda ham gapdagi so'zlarning sintaktik aloqasini so'zlarning tartibi elgilaydigan bo'ldi; gap, gapni tashkil etuvchi so'zlarni ma'lum ırtibda joylashtirilishini talab qiladigan, ya'ni qat'iy so'z tartibi aydo bo'ldi. Bu tillar uchun to'rt sintaktik vosita (grammatik o'shimchalar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi, ohang)lardan so'z ırtibi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ldi. Demak, bir grammatik osita mavqeining kamayishi, ikkinchi grammatik vosita hamiyatining oshishiga olib keldi. Tillar ana shunga o'xshash yo'llar ilan o'zlarining ichki muvozanatlarini saqlab turadi.

Zamonaviy ingliz tilida [1] fonemaning yumshoq va qattiq turi chraydi. Birinchi turi so'zning boshida va o'rtasida, unlilar oldida, ckinchisi esa so'zning oxirida va so'zning o'rtasida undosh ovushlardan oldin ishlatiladi. Tildagi bunday o'zgarishlar ichki 'zgarishlar bo'lib, tashqi omillarning bunga aloqasi yo'q.

Til o'zgarishining tashqi omillari deganda ko'proq tilning ishlatilishidagi ijtimoiy shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Ma'lumki, tilning lug'ati mazkur tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy, tushunarli bo'lgan umummillat toifasidagi so'zlardan tashqari, millatning ijtimoiy guruhlanishi bilan bog'langan bo'lishi ham tabiiy. Millatning ijtimoiy guruhlariga genetik jihatdan ayrim qabila va aholining hudud belgisiga ko'ra ajralgan ayrim guruhlar bilan birga jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishga, kasb-hunarga ko'ra ajralgan aholi guruhlar ham kiradi. Sotsial tabaqalar nutqidagi o'ziga xosliklar, guruhlardagi o'zaro muloqot xususiyatlari, turli guruhlar orasidagi aloqa vaqtida qanday so'zlar va grammatik konstruksiyalarning tanlanishi tilning ishlatilish turlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga bunday o'zgarishlar gapiruvchilarning yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo'layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir.

Ichki qonuniyatlar asosida bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan hisobga olish mumkin, bu o'zgarishlar gapiruvchining xohish-istagiga bog'liq emas. Ular obyektiv o'zgarishlardir. Tashqi omillar asosida paydo bo'ladigan o'zgarishlar subyektiv xususiyatga ega. Bunday o'zgarishlarning hammasini oldindan aytib berish imkoniga doimo ega bo'linmaydi. Tashqi ta'sir manbalarini sotsial guruhlarining xususiyatlari (buni shaxslararo o'zgarishlar deb ham yuritishadi), shaxslar ichidagi o'zgarishlar va ingerent o'zgarishlar tarzida uchga ajratish mumkin.

Birinchi manba qaysi ijtimoiy guruhni tashkil etishiga ko'ra tilshunos bu guruhni tilning qaysi variantini o'z nutqida qo'llashini aytib berishi mumkin.¹

Masalan, ipakchilik bilan shug'ullanadiganlar nutqida pilla, ipak qurti, pillakash, tut, tutchi kabi so'zlar uchraydi; suvoqchilarda boza, andava, loy, loylash, gazcho'p kabi so'zlar ko'plab uchraydi.²

Ikkinchi manbaga ayrim shaxslarning nutqiga bog'liq bo'lgan o'zgarishlar kiradi. Ayrim shaxslarning nutqlarida uchrashi mumkin

¹ Роджер Т.Белл. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы. –М.: 1980, 57-бет.

² М.Мирзайев ва бoshqalar. O'zbek tili. –Toshkent: 1970, 41-бет.

oʻlgan oʻzgarishlarni oldindan bilish mumkin emas. Chunki bunday oʻzgarishlar mazkur shaxsning kim bilan qanday sharoitda hbtlashishi va bu nutqning rasmiy yoki norasmiyligi va boshqa unga oʻxshash sabablarga bogʻliq boʻladi.

Uchinchi manba ingerent oʻzgarishlar aslida tilning ichki tuzilishi minida yotadi. Odatda, tildagi birorta tovush yoki boshqa til rliklari ikki yoki undan ortiq koʻrinishga ega boʻladi. Bulardan qaysi ri gapiruvchi tomonidan ishlatilishini aniq bilish qiyin. Tilning zilishidagi ana shunday hodisalarning boʻlishi gapiruvchilarga til sitasidan foydalanayotganda erkin tanlash imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarni itirishimiz mumkin:

1) *jamiyat taraqqiyoti tillarning ijtimoiy vazifalarining ortib rishiga olib keladi;*

2) *hamma adabiy tillarning lugʻat tarkibi kengayib, boyib boradi;*

3) *ijtimoiy taraqqiyot surʻatining jadallashib borishi adabiy larda oʻz aksini topib boradi;*

4) *qoʻshni xalqlar tillarining bir-biriga oʻzaro taʻsiri ortib boradi;*

5) *millatlararo aloqa vositasi vazifasini oʻtovchi tilning ijtimoiy li oshib boradi va uning boshqa tillarga taʻsiri kuchayadi;*

6) *ikki tillilik rivojlanib boradi.*

Sotsiolog olimlar tillarning oʻzaro munosabati yuzasidan olib rrgan tadqiqotlari natijasida tillar bir-biriga leksik tomondan taʻsir rʻrsatibgina qolmay (yaʻni bir-biridan faqat soʻz oʻzlashtirmasdan), lki bir-birining ichki tuzilishiga ham taʻsir etadi, degan xulosaga ldilar.

Zamonaviy tilshunoslikda «*tillar ichki tuzilishining oʻzaro mkorlik jarayoni*» degan tushuncha mavjud. Bu tushuncha:

- nutq shakllarining oʻzaro taʻsiri (xalq ogʻzaki tili bilan adabiy til asidagi munosabat, adabiy til bilan shevalar orasidagi munosabat boshqalar);

- turli til qatlamlarining oʻzaro munosabatlari, bir-biriga taʻsiri onetik, morfologik, leksik, sintaktik, semantik, stilistik qatlamlar asidagi hamkorlik) masalalarini qamrab oladi.

Maʼlumki, tillarning ichki rivojlanishi ichki va tashqi qonuniyatga rʻysunadi, yaʻni oʻzaro hamkorlik jarayonida tillar taraqqiyoti ichki

qonunlar ta'siriga emas, balki tashqi ta'sirlarga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi mazkur mamlakatlarda yashovchi xalq va elatlarning madaniyatining bir-biriga yaqinlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradi. Tillar ham bir-biriga ta'sir ko'rsatib boyib boradi; bunday hamkorlik tillarning ichki rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

Sotsiologik til tipologiyasi

Ijtimoiy tilshunoslik an'anaviy tilshunoslik yaratgan tipologiyalardan farqlanuvchi til tipologiyasini yaratishga ham intilmoqda. Bunday tipologiya tilning ichki tuzilishini nazarda tutmay, balki uning tashqi ijtimoiy (sotsial) vazifasini aks ettiruvchi sotsiolingvistik tipologiyadir.

Bunday tipologiyaga qator tamoyillar ichida standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik va avtonomlik deb nomlanuvchi o'lchovlar ham qabul qilingan.

Standartlashtirish deganda mazkur tilda gaplashuvchilar tomonidan qabul qilingan adabiy til tushuniladi. Standartlashtirishning muhim omillaridan biri tilning grammatikasini va lug'atini tuzishdir. Demak, standartlashtirilgan til deganda jamiyat tomonidan kundalik hayotda o'zaro fikr almashish quroli sifatida foydalaniladigan milliy adabiy til nazarda tutiladi.

Hayotiylik deganda mazkur tilda gapiruvchi jamiyatning bor-yo'qligi tushuniladi. Til hayotiy bo'lsa, bu tilni ona tilim deb biladigan jamiyat hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ba'zan o'lgan tillar qaytadan hayot kashf etishi mumkin. Bunday tillarga klassik ivrit tili misol bo'lishi mumkin. Ivrit milodgacha 1-ming yillikda Qadimgi Falastin aholisining tili bo'lgan. «Tavrot»ning birinchi qismi o'sha davrdagi ivritning asosiy yodgorligidir. 1948-yilda Isroil davlati ba'zi o'zgartirishlar kiritib, uni davlat tili sifatida qabul qiladi.

Tarixiylik deganda mazkur tilning jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mo'tadil rivojlanib turishi tushuniladi.

Avtonomlik deganda mazkur ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilayotgan til boshqa tillardan tuzilishi jihati bilan tubdan

arq qilishi yoki bir tilning varianti sifatida namoyon bo'lishi ushuniyladi. Agar o'zbek va qozoq tillari bir-biri bilan qiyoslansa, ular orasidagi fonetik, leksik va grammatik farqlar ko'zga yaqqol ashlanadi, ularning avtonomligiga hech qanday shubha yo'q. Lekin adabiy o'zbek tili bilan Xorazmda yoki Samarqandda gapiriladigan o'zbek tilining shevalari to'g'risida gapirilsa, unda ularni avtonom leyishga hech qanday asosimiz yo'q. Chunki sheva bilan milliy adabiy il o'rtasida tuzilish jihatidan o'zgarishlar bo'lmashligi aniq.

Yuqorida keltirilgan tipologik prinsiplar hisobga olinsa, quyidagi ijtimoiy tilshunoslik tipologiyasi paydo bo'ladi

O'lchovlar				Tilning turlari	Misol
Standartlashgan	Hayotiylik	Tarixiylik	Avtonomlik		
+	+	+	+	Standart tillar	O'zbek adabiy tili
+	-	+	-	Klassik tillar	Lotin tili
+	+	+	+	Mahalliy tillar	Og'zaki arab tili
+	+	±	-	Kreol tillar	Krio tili
+	-	-	-	Pijin tillar	Neomelaneziy tili
+	-	-	+	Sun'iy tillar	Esperanto tili
+	+	+	-	Sheva tillar	Kokni tili

Eslatma: + Xususiyatning borligini ko'rsatadi.

- Xususiyatning yo'qligini ko'rsatadi.

± Bo'lishi/bo'lmashligi mumkin.

Shunday qilib, tilning ijtimoiy lingvistik tipologiyasida *standart*, *klassik*, *mahalliy*, *kreol*, *pijin*, *sun'iy* va *marginal* tillar deb atalmish til turi bo'lishi mumkin. Bu tillarning qisqacha xususiyatlari o'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Standart tillar deganda adabiy til normasiga ega bo'lgan tillar ushuniyladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili bunga yaqqol misol bo'la oladi, chunki bu tilni o'z ona tili deb bilib, undan kundalik hayotda foydalanadigan xalq bor, u boshqa qardosh xalqlar tillari kabi teng

huquqli; uning lug'ati o'z resurslari hamda qardosh tillardan o'zlashtirilgan so'zlar va baynalminal so'zlar asosida boyib boradi.

Klassik tillar deganda klassitsizm davrida mukammal, takomilga yetgan, o'z yozuviga ega bo'lgan, o'z davrida buyuk asarlar yaratilgan tillar tushuniladi. Ular o'z davri uchungina emas, balki tillarning keyingi taraqqiyoti uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Klassik tillar faqat mazkur tilda gaplashuvchi xalqqa emas, balki keng xalq ommasiga mazmun va shakl jihatidan yaqin turadi. Bunday tillarning adabiy tillardan farqi shundaki, ular jonli til emas. Bu tillarda gaplashuvchi jamiyat yo'q, shuning uchun ular o'lik tillar deyiladi.

Mahalliy tillar deganda son jihatdan ko'p bo'lmagan kichik millatlarga xizmat qiluvchi, o'z yozuviga ega bo'lmagan tillar tushuniladi. Amerika qit'asidagi ko'pchilik mahalliy hindularning tili bunga misol bo'la oladi.

Kreol tillar «Evropa mustamlakachilarining afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan fikr almashuvlari natijasida Ovrupo tillari (portugal, fransuz, ingliz) elementlaridan tashkil topgan tillardir. Masalan, Amerikadagi Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida gatti-kreol tili, Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi – nauatllar tili bilan ispan tilining aralashuvidan ispan-nauatl kreol tili hosil bo'lgan. Kreol tilining o'ziga xos xususiyatlari bor. Amerikadagi Kyurasao, Aruba, Bonayre orollarida negr va ispan tillari aralashuvidan tashkil topgan papiyamento tilining grammatikasi sodda: otlar turlanmaydi, fe'l faqat bir xil shaklda qo'llanadi, gazeta va darsliklar chiqariladi. Kreol tilidagi badiiy ijodiyot, asosan folklor xarakterida». Shunday qilib, kreol tillar mahalliy tillardan ikki yoki undan ortiq tillarning bir-biriga qo'shilib, aralashib ketishi bilan va manba tillarining grammatik strukturasi keskin qisqarishi bilan farq qiladi.

Pijin tillar deganda ham ovrupoliklar tili bilan mahalliy tillarning chatishuvidan paydo bo'lgan tillar tushuniladi. Lekin pijin tillar kreol tilidan farq qiladi. Kreol tilida so'zlashadigan, uni ona til deb biladigan jamiyat bor. Lekin pijin tillar bunday jamiyatga ega emas. Pijin tillaridan ikkinchi til sifatida katta port shaharlarda foydalaniladi. Ba'zi olimlarning fikricha, pijin tili, kreol tillari paydo bo'lishining

oshlang'ich bosqichidir. Ma'lum davr o'tishi bilan bu tillar kreol larga aylanishi mumkin. Hozirgi kunda kengroq tarqalgan pijin lardan biri «pijin-english» tili deyish mumkin.

Sun'iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Esperanto tili unga misol bo'la oladi. Bu til 1887-yilda polyak L.Zamengof tomonidan yaratilgan bo'lib, keyingi yillarda muallifning o'zi va oshqa shaxslar tomonidan mukammallashtirilgan.

Uning grafikasi lotin alfavitida, so'zlarning asosiy ko'pchiligi Yurpo tillaridan olingan, grammatikasi agglyutinatsiya prinsipiga soslangan. Undagi grammatik qo'shimchalar so'zlarning grammatik haklini o'zgartirish imkoniyatini beradi. Bir qo'shimcha bir grammatik ma'no anglatishi bilan esperanto turkiy va fin-ugor tillarini eslatadi. Hozirgi kunda u ancha keng tarqalgan sun'iy lardan biridir. Bu tilda axborotlar chiqariladi, bir qancha mashhur klassik asarlar tarjima qilingan. Ba'zi mamlakatlarda bu tilda radio shittirishlar ham tashkil etilgan.

Dialekt (yunoncha «dialectos» – sheva, lahja) – ma'lum bir qabila, alq yoki millatning tarkibiy qismlari tilidir. Dialektlar umumxalq tilining quyi bosqichi sanalib, shevaga nisbatan kengroq ma'noga ega, tilning kichik bo'lagi hisoblangan shevalar yig'indisidan tarkib topadi. Masalan, yuz, qirq, saroy, nayman, mang'it, qoraqalpoq, qirg'iz, faloyir, burqut kabi shevalar birlashib, o'zbek tilining qipchoq dialektini tashkil etadi. Dialektlar orasidagi farqni fonetika, grammatika va lug'at tarkibida ko'rish mumkin.

Dialektlar grammatik qurilish va lug'at fondiga ega bo'lib, sotsial rayonlardan farq qiladi. Dialektlar millatning tashkil topish rayonida milliy tilga asos bo'lishi va taraqqiy etib, milliy til arajasiga ko'tarilishi mumkin. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman tillari fonetik sistemasi, grammatik qurilishi va lug'at boyligi hatdan bir-biriga yaqin. Bu qadim davrlarda shu xalqlarni tashkil etgan urug' va qabilalarning aralash yashagani, yaqin munosabatda o'lganligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, sotsiolingvistika hozirgi kunda katta odimlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu zamon taqozosidir. O'z mustaqilligiga erishgan davlatlarning o'z milliy adabiy tillarini yaratish, yozuvni soslash, uni mukammallashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Fan

va texnika taraqqiyoti xalqaro savdo-sotiqning kengayib borishi bir tomondan, tillarda baynalminimal soʻzlar sonining oshib borishiga sabab boʻlsa, ikkinchi tomondan, mahalliy tillar bilan xalqaro til vazifasini oʻtayotgan tillar oʻrtasidagi toʻqnashuvlarga, til chatishuvlariga (kreollashtirish, pinyinlashtirish) sabab boʻlmoqda. Bu masalalar bilan ijtimoiy tilshunoslik shugʻullanishi, bunday hodisalarning qonuniyatlarini ilmiy ravishda ochib berishi zarur.

Demak til, Sossyur aytganidek «oʻzi uchun va oʻz ichida» voqea boʻlmasdan, u bir tomondan oʻz ichki qonuniyatlari asosida evolyutsion yoʻl bilan rivojlansa, ikkinchi tomondan, tashqi tazyiqlar, taʼsirlar asosida ham rivojlanishi mumkin ekan. Jamiyatga til qanchalik zarur boʻlsa, tilga jamiyatning boʻlishi ham shunchalik zarurdir.

Tilning mavqei, rivojlanishi uning muomalada boʻlishiga bogʻliq. Til oʻzining muloqot, bilish, ifoda vazifalarini bajarishi uchun uning oʻz hududi, bu hududda yashovchi jamiyati, jamiyatning iqtisodiy bazasi boʻlmogʻi darkor, zero bu hudud, sodir boʻlayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar, maʼnaviy va mafkuraviy siljishlar tilga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi. Til kishilar orasida asosiy muloqot vositasi boʻlishi bilan bir qatorda xalqning hayotiy tajribasini, anʼanasi, milliy xarakterini va hatto bilim darajasini aks ettiruvchi koʻzgudir. Millatning bu xususiyatlari oʻzgaruvchandir, shuning uchun ularni oʻzida aks ettiruvchi til ham doimo oʻzgarib, yangilanib boradi. Ana shular tilga tashqaridan oʻtkaziladigan taʼsirdir. Shu taʼsirlar asosida tilda sodir boʻladigan oʻzgarishlar sotsiolingvistika mavzularidan biri hisoblanadi.

Har bir jamiyat aʼzosi tilning sotsiolingvistik ishlatish qoidalarini oʻzlashtirib olishi kerak. Gapiruvchining til malakasi har bir muayyan vaziyatda til vositalaridan mazkur shart-sharoitga toʻgʻri keladiganlarini tanlay bilishiga qarab belgilanadi. Bunday qoidalarni gapiruvchilar ikki xil yoʻl bilan hayot va nutq tajribasi va maxsus tayyorgarlik orqali (maktab, oliy taʼlim sistemasida) oʻzlashtirishlari mumkin.

Bunday masalalar ham ijtimoiy tilshunoslik nazaridan chetda qolmaydi.

Zamonaviy sotsiolingvistika yuqorida aytilganlardan tashqari ayollar, erkaklar, oʻsmirlar, maktab va bogʻcha yoshdagilarning nutqiga xos xususiyatlarni oʻrganish bilan ham shugʻullanadi.

KOGNITIV TILSHUNOSLIK

Sotsiolingvistika yoki ijtimoiy tilshunoslik bilan uzviy bog‘langan tilshunoslik fanining yana bir yo‘nalishi – kognitiv tilshunoslikdir.

«*Kognitiv*» atamasining asosida «*bilish*», «*idrok etish*» degan ma’nomalar yotadi (ingliz tilida «*cognitive*», rus tilida «*poznatelniy*»). Sh.Safarov fikricha, «Bilim olish va saqlash, uni amalda qo‘llash va uzatish manbai va, nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo‘lgan til tizimi kognitiv tahlil obyekti ekanligiga hech qanday shubha yo‘q... Bilimning mavjudligi tilning mavjudligidan. Tilning o‘zi esa kognitiv tizimning faoliyati mahsulidir, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi». Shunday ekan, «tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faoliyat asosida voqelanuvchi hodisadir».¹

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi va maqsadi til sistemasining insonlarning o‘rab turgan muhitni, insoniyat tarixi va madaniyatini, urf-odatlarini o‘rganishda, anglab olishdagi ishtirokini aniqlash, inson ongidagi mavjud tajribaga suyanib, to‘plangan bilimni ma’lum tartibga tushirish, uni boshqalarga uzatishda vositachilik qilayotgan tilning rolini tadqiq etishdir. Aynan shu jarayonni hozirda tilshunoslar *lingvokognitiv faoliyat* deb yuritishadi.

Kognitiv tilshunoslikning keng ko‘lamda shug‘ullanyotgan sohalaridan ba’zilari quyidagilar: kognitiv fonologiya, matnning real voqelikka munosabati, tillar grammatik sathining o‘rni va boshqalar.

Axborotning inson ongidagi faollashuv darajasi, uzatilajak axborot mazmuni yoki axborotni tinglovchiga yetkazilmoqchi bo‘lgan ma’lumot muloqotga kirishayotgan shaxs tomonidan talaffuz etilgan gap intonatsiyasining turi, urg‘ularning joylashtirilishi orqali tinglovchiga yetkaziladi.

Matnning real voqelikka munosabati, ya’ni haqiqatga mos kelish-kelmasligi, ma’lumki absolyut haqiqat bilan gapiruvchining u to‘g‘risida berayotgan axboroti doimo bir-biriga mos kelmaydi, chunki insof turli sabablarga ko‘ra (bilib-bilmasdan, ataylab)

¹ Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: «Sangzor» nashriyoti, 2006-yil. 9-12 betlar.

voqelikni o'zicha talqin qiladi, bunday holatlar gapiruvchining oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq: gapiruvchi faktni o'zidek yetkazishi, qisman yo butunlay buzib ko'rsatishi uning aqliy imkoniyatlariga, ba'zan oldiga qo'ygan maqsadiga monand bo'lishi mumkin.

Tillarning grammatik tarkibi, uning tizimi kognitiv tilshunoslik nazariidan chetda qolmaydi. Voqelik va uni idrok etish makon va zamon tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Shunday ekan, muloqotga kirishayotgan shaxs tinglovchini qiziqtirayotgan mavzu (konsept)ni unga yetkazishda gapirilayotgan tildan leksik birliklarni tanlaydi, so'ngra mavjud grammatik kategoriyalar asosida ularni modellashtiradi va shu tariqa uni tinglovchi e'tiboriga havola etadi. Voqelik (mavzu) – uni tegishli tartibda grammatik jihatdan modellashtirish – tinglovchi tomonidan bu axborotni qabul qilinib, idrok etilish jarayoni ijtimoiy tilshunoslik, psixolingvistika va kognitiv tilshunoslikning o'rganish obyektlaridan biridir.

Aytilganlardan ma'lum bo'lishicha, dunyoni, bizni o'rab turgan muhitni, sodir bo'lgan, bo'layotgan voqea va hodisalarni bilish, idrok etish til faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. «Kognitiv tilshunoslik... inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitiv – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqat matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi».¹

Amaliy mashg'ulotlarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sotsiolingvistika atamasi qanday ma'nolarni anglatadi?
2. Nima uchun sotsiolingvistika keng odimlar bilan rivojlanmoqda?
3. Xorijiy sotsiolingvistika qanday masalalar ustida ishlamoqda?

¹ Sh.Safarov. Qayd etilgan asar. 27-bet.

4. Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlari toʻgʻrisida gapiring.
5. Tillarning hozirgi davrdagi qanday rivojlanish qonuniyatlarini bilasiz?
6. Tillar bir-biriga faqat leksik jihatdan taʼsir koʻrsatadimi yoki grammatik nuqtai nazardan ham taʼsir oʻtkazishi mumkinmi?
7. Chet ellarda va xususan AQShda sotsiolingvistika qanday masalalar bilan shugʻullanadi?
8. Mikrosotsiolingvistika va makrosotsiolingvistika nima?
9. Tildagi «kompensatsiya qonuni»ni tushuntirib bering.
10. Sotsiolingvistik tipologiya qanday oʻlchovlar asosida tillarni turlarga ajratadi?
11. Standart, klassik, mahalliy, kreol, pijin, dialekt va sunʼiy tillarning bir-biridan farqini tushuntirib bering.
12. «Lingva-franka» atamasi nimani anglatadi?
13. «Kognitiv» atamasining asosida qanday maʼno yotadi?
14. Kognitiv tilshunoslik qanday masalalar bilan shugʻullanadi?

XII BOB

TILLARNING TIPOLOGIK TASNIFI

YuNESKOning axborotiga ko'ra hozirgi kunda dunyoda 5600 dan ortiq til mavjud. Bu tillarning rivojlanish darajasi va jamiyatda tutgan o'rni, ularda gaplashuvchilarning soni turlichadir. 100-200 kishidan tashkil topgan qabilaning tili ham, yuz millionli xalq gapiradigan til ham alohida til hisoblanadi. Mavhum tafakkur sohibi bo'lgan odam turli tillarni eshitganda yoki o'rganganda ularda asosan ikki jihatdan: moddiy o'xshashlik (*net, not, nicht, nest yoki birodar, brother, Bruder, brat*) va so'zlarning grammatik tuzilishi, negiz yasalishi, gapda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanish usulidagi o'xshashlik (o'zb. *kitob + lar + im + iz + da*) borligini albatta sezadi. Bu masalalar bilan jiddiy shug'ullanish XIX asrdan boshlandi. Tillarni turlarga ajratish to'g'risida gap borganda genetik (geneologik), morfologik va struktural tasniflashga ahamiyat beriladi. Ba'zan tillarni turlarga ajratish *tillar tipologiyasi* deb ham yuritiladi. Tilshunoslik fanida bu eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Uni hal qilishga chet el olimlari qatori, o'zbek tilshunoslari ham o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Ma'lumki, har qanday tipologiya qiyoslashni taqozo qiladi. J.Bo'ronovning fikricha, til tizimlarini qiyosiy o'rganishda umumiy tipologik uslub va tarixiy qiyosiy uslub mavjud.

Umumiy tipologik uslub lingvistik tipologiyani yaratishga xizmat qiladi. Lingvistik tipologiya o'z navbatida struktural tipologiya universalisasi, tillarning tipologik (morfologik) tasnifi, maxsus tipologik nazariya va etalon tilni aniqlashni qamrab oladi.

Umumiy tipologik uslub «*turli tillar tizimlarini umumlashtirib, qiyoslab o'rganuvchi uslub*»dir.

Hozirgi zamon lingvistik tipologiya fanining asosi bo'lgan struktural tipologiya, tilning struktural tilshunoslik uslublariga asoslanib, turli tillarning struktural belgilarini sistemaga soladi va inventarlashtiradi. Struktural tipologiya aniq uslublar asosida til qatlamining differensial belgilarini, tipologik xususiyatlarini aniqlaydi

va ularning tipologik tasnifini tuzadi. Struktural tipologiya tildagi har bir strukturani umumiy lingvistik ishtirokchi tarzida o'rganadi.¹ Til universalialari barcha tillarga xos til xususiyatlaridir. Hamma tillarning vazifalari bir xil bo'lganligi uchun, tillarda qandaydir o'xshashlik bo'lishi tabiiydir. Tillar strukturasiidagi ana shu o'xshashlik hodisasi tildagi umumiy o'xshashlik yoki universallik deyiladi.

Til universalialari barcha tillar sistemalariga xos umumiy lingvistik kategoriyadir. Til universalialari yoki universalizm tildagi umumiy kategoriyalarni o'rganadi va deskriptiv hamda boshqa uslublarni tilning umumiy qonunlari bilan tipologik umumiylikni aniqlashda qo'llaniladi. Universalizm til qonunlarining umumlashtirilishi demakdir.

Strukturalizm deduktiv uslub vositasida ish ko'rsa, universalizm induktiv uslub asosida ish ko'radi, ya'ni ma'lum umumiylikni barcha tillar tizimlariga tatbiq etadi.² Masalan:

- agar til faqat suffiksli bo'lsa, *poslelog albatta bo'ladi*;
- agar til faqat prefiksli bo'lsa, *predlog ham bo'ladi*;
- agar tilda rod kategoriyasi bo'lsa, *son kategoriyasi ham bo'ladi*;
- agar tilda rod kategoriyasi otlarga xos bo'lsa, *olmoshlarda ham rod kategoriyasi bo'ladi*.³

Morfologik tipologiya «tillarning grammatik qurilishiga qarab taksonomik guruhlariga bo'lish bilan shug'ullanadi». Bu tipologiya ustida quyiroqda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Maxsus tipologik nazariya. «Tillar sistemalarini tipologik tadqiq qilish usullari hamda maxsus qoida va uslublarini yaratish, maxsus tipologik nazariyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maxsus tipologik nazariyani yaratishda dunyo tillari sistemasi struktural tipologiyaning obykti hisoblanadi. U konkret til sistemasini alohida o'rganuvchi deskriptiv uslub va bir guruh qardosh tillar

¹ J.Bo'ronov. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. –Toshkent: 1973. 70-bet

² J.Bo'ronov. Qayd etilgan asar. 71-72-betlar.

³ Ж.Гринберг. Некоторые грамматические универсалии, преимущественно касающиеся порядка значительных элементов. Новое в лингвистике. Том V. – М: 1970. 114-161-бетlar.

sistemasini o‘rganuvchi genetik uslubdan foydalanib, umumiy tipologik uslublarni yaratadi.

Tipologik nazariya barcha tillar sistemalaridagi universallikni aniqlashga qodir bo‘lishi kerak. Tipologik nazariya universalialarni bayon etish usullarini ifodalaydi, tipologiya uchun maxsus atamalar tanlaydi».¹

Metatil (etalon til). Tipologiyaning asosiy vazifalaridan biri turli tillar sistemalarini tasniflash uchun mezon vazifasini o‘tovchi ma‘lum sistema yaratishdir. Bunday sistema *metatil yoki etalon til* deyiladi. Etalon til umumiy universal til bo‘lib, hamma aniq tillar uning invarianti hisoblanadi. Deduktiv usulda aniqlangan tayyor vositachini etalon tilga solishtirish natijasida boshqa tillarning sistemasi aniqlanadi. Etalon til sifatida aniq til yoki sistema ham olinishi mumkin. Etalon tilning asosiy vazifasi tillar sistemasini ifodalashda o‘lchov birligi vazifasini o‘tashdan iborat. Ko‘rilayotgan nazariyada qayd qilinishicha, etalon til vazifasini umumiy sun‘iy til qoidalaridan tashkil topgan ramziy til sistemasi yaxshi ishlangan konkret til, ma‘lum fonologik, morfologik, sintaktik modellar va boshqa sistemalar bajarishi mumkin.²

Qiyosiy tipologiya

J.Bo‘ronovning nazariyasiga asosan, qiyosiy tipologiya umumiy lingvistik tipologiyaning bir qismidir. «U ikki va undan ortiq aniq tillar tizimlarini, tillardagi ma‘lum kategoriyalarni deduktiv ravishda alohida o‘rganadi, tillar tizimlaridagi lingvistik hodisalarning bir-biri bilan taqqoslab, umumiy tipologik qoida va qonunlar yaratadi.

Ikki til sistemasini ikki yoqlama qiyoslashda har bir qiyoslanayotgan til sistemasining bayon etilgan materiali alohida-alohida qiyoslanadi. Har bir qatlam birligining o‘ziga xos xususiyati, boshqa qatlamlardagi birliklarning o‘zaro aloqalari hisobga olinadi».³

¹ J.Bo‘ronov. Qayd etilgan asar. 75-bet.

² J.Bo‘ronov. Qayd etilgan asar. 75-bet.

³ J.Bo‘ronov. Qayd etilgan asar. 76 bet.

Qiyosiy tipologiya xarakterologiyani va universal grammatikani o'z ichiga oladi. Xarakterologiya tillarni qiyoslash bilan hug'ullanuvchi nazariy va amaliy fandır. U «biror aniq tilni boshqa il bilan solishtirib, uning xarakterli xususiyatini o'rganadi. Xarakterologiya aniqlagan lingvistik birliklar va lingvistik belgilar ham struktural tipologiya, ham qiyosiy-tarixiy uslub uchun tayyor material bo'lib xizmat qiladi».¹

Universal grammatika. Qiyosiy tipologiyaning bu qismi ham til sistemalarini qiyoslash bilan shug'ullanadi. Universal grammatika xarakterologiyadan farq qiladi. Agar xarakterologiya faqat bir xil atamlarni taqqoslasa, universal grammatika grammatik vositalardan tashqari leksik vositalarni ham hisobga oladi. Masalan, ko'plik kategoriyasi universal grammatika nuqtai nazaridan quyidagi vositalarni o'z ichiga oladi:

1. Ko'plikni yasovchi affiksial morfema (ot, olmosh, fe'l va boshqa o'z turkumlarida).

2. Son turkumiga kiruvchi so'zlar.

3. Ayrim olmoshlar.

4. Jamlovchi otlar.

5. So'z shakllarini o'zgartiruvchi fonetik hodisalar (umlaut):

das Haus – uy die

Tochter – qiz

die Hauser – uylar

die Tochter – qizlar

das Buch – kitob

die Mutter – ona

die Bücher – kitoblar

die Mütter – onalar

Universal grammatika qardosh bo'lmagan tillar sistemalarini qiyoslashda juda qo'l keladi. Shuningdek, u tarjima nazariyasi, leksikografiya metodika fanlari uchun juda muhim asos yaratib beradi.

Til universalialarini tuzishda universal grammatikadan qisman oydalaniladi.

Qiyosiy tipologiya struktural tipologiyadan quyidagicha farq qiladi:

a) tekshirilayotgan tillar soni chegaralanganligi sababli qiyosiy tipologiya umumiy tipologik qonun va mukammal til universaliasini

¹ J.Bo'ronov.Qayd etilgan asar. 77-78 betlar.

ishlab chiqolmasa ham, unga zamin yaratadi. Qiyosiy tipologik tadqiqotlar natijasida olingan til tizimiga oid dalillar tillar universalialari va umumiy tipologik qonun yaratishda ishlatiladi;

b) qiyosiy tipologiya tillar tizimlarini alohida-alohida tadqiq qilish usullarini ishlab chiqadi va qiyoslash usullarini topadi;

d) struktural tipologiya tillar elementlarining vazifalari va o'zaro aloqalarni qiyoslasa, qiyosiy tipologiya til elementlari o'rtasida aloqa bilan shug'ullanadi;

e) qiyosiy tipologiya faqat tillar sistemasidagi o'xshashlikka tayanibgina qolmay, balki sistema birliklaridagi turlilik va ma'lum kategorial ma'nolar ifodalanishidagi qatlamlararo farqlarini ham o'rganadi.

Masalan, struktural tipologiya til universaliasini gapda qatlamlarga ko'ra aniqlaydi. Har bir qatlam birligini boshqa tillardagi aynan shunday qatlam birligi bilan taqqoslaydi. Qiyosiy tipologiya esa biror kategoriyani turli qatlamlar birliklari vositasida ifodalanish usullarini ko'rib chiqadi.

O'.Q. Yusupovning fikricha,¹ til bilan bog'langan qiyoslash ikki xil: ayrim olingan tilning strukturasini o'rganishda ishlatiladigan qiyosiy uslub (bitta til ichida qiyoslash) va ikki yoki undan ortiq tillarni o'rganishdagi qiyosiy uslub (tillararo qiyoslash) bo'lishi mumkin.

Tilning fonemasidan tortib, to murakkab sintaktik birliklari aniqlanguncha, qiyoslashning birinchi turidan foydalaniladi. Masalan: *kitob, kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz, kitobingiz, kitoblari.*

Bunday qiyoslash natijasida bu so'z shakllari orqali yagona grammatik kategoriya – otlardagi grammatik egalik kategoriyasining ifodalanishi aniqlandi. Shuningdek, mazkur kategoriyada shaxs hamda son ma'nolari ham o'z aksini topgan. Egalik shaxs bilan bog'liq bo'lgach, nutqda narsa va hodisalar uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligi doimo anglashilib turishi kerak. Ega bo'lmish shaxs bo'lishi va unga aloqador bo'lgan narsa ham birlik yoki ko'plikda turishi mumkin. Shu sababli bu kategoriyada son ma'nosi doimo aks etib, o'z grammatik ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.

¹ O'.Q. Yusupov. Problemi sopostavitelnoy lingvistiki. –Toshkent: 1986.

O'zbek tilida egalik ma'nosi takrorlanib turadigan grammatik ositalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday qiyoslash *xususiy ilshunoslikka xos bo'lgan qiyoslash* deyiladi. Har qanday qiyoslash atijasida qiyoslanayotgan hodisadagi o'xshashlik va farqlarni niqlash mumkin. Yuqorida keltirilgan misollardagi o'xshashlik archa so'zlar orqali yagona egalik ma'nosining ifodalana-otganligidadir. Farq esa har bir so'z shakllarining xususiy ma'nosida: *itobim* garchi egalikni ifodalasa-da, kitobing so'zidagi egalikdan arq qiladi, chunki birinchi so'z birinchi shaxsga xos bo'lgan egalikni, kinchisi esa ikkinchi shaxsga xos egalikni ko'rsatadi.

Tillar aro qiyoslashda ikki yoki undan ortiq tillar qiyoslanadi. bunday qiyoslash o'z navbatida sistematik qiyoslash va nosistematik iyoslashga ajratiladi.

Nosistematik qiyoslash aksariyat ilmiy asarlarda uchraydi, ualliflar bunday qiyoslashdan o'z fikrlarini tasdiqlash maqsadida oydalanadilar.

Sistematik qiyoslash tillarning barcha yoki ayrim qatlamlari va larning birliklarini har tomonlama chuqur o'rganib, tillar tarkibidagi 'xshashlik va farqlarni ta'kidlaydi. O'.Q. Yusupov bunday iyoslashni tillarni tahlil qilish uslubi darajasigacha ko'taradi.¹

Tillarni sistematik ravishda qiyosiy o'rganish *qiyosiy-tarixiy ilshunoslikda, tipologiyada (klassik – morfologik va struktural ipologiyalarda), qiyosiy tipologiyada, chog'ishtirma tilshunoslikda* o'llaniladi.

Qarindoshlik darajasi turlicha bo'lgan va joylashgan o'midan qat'i azar ikki tilni sinxronik qiyosiy o'rganish chog'ishtirma tilshunoslik eb ataladi.

Tillarni chog'ishtirma o'rganish tarjima, mashina tarjimasi, ngvofalsafiy, lingvodidaktik va nazariy masalalarni o'rganishni naqsad qilib oladi.

Tarjima maqsadidagi chog'ishtirish asosida bir umumiy ma'noning ski tildagi ifodalanish vositalarini aniqlash yotadi. Asl matn esa ayanch nuqta vazifasini o'taydi. Tarjima qilinayotgan matnning

¹ V.K. Юсупов. Проблемы сопоставительной лингвистики. –Toshkent: 1986.

ma'nosini ikkinchi til vositalari orqali ifodalash tarjimaning asosiy maqsadidir. Demak, tarjima maqsadida qiyoslash ikki tilning sistemasini muntazam solishtirib o'rganish bo'lmay, balki bir tilning sistemasini ikkinchi til so'zlari orqali izohlashdir.

Dunyodagi tillarning bir-biridan farq qilishi yuqorida aytib o'tilgandi. Ularni tarkibiy qismlarga ajratib solishtirib o'rganish *lingvofalsafiy maqsadlardagi chog'ishtirma o'rganish* deb yuritiladi. Bu masala tilshunoslikning asosiy muammolaridan bo'lmish til va tafakkur orasidagi munosabatga bevosita aloqadordir.

Chet tilni o'rganish murakkab lingvopsixologik hodisadir. Chet tilni o'rganish jarayonida o'rganuvchi ongida ona tili va xorijiy til sistemalari to'qnashadi. O'rganuvchining ona tilisi yangi til sistemasini o'zlashtirishni osonlashtiradi yoki uning yo'liga to'siq bo'ladi. Tilshunoslikda birinchisini «fasilitatsia» va ikkinchisini – «interferensia» atamaları orqali belgilashadi.

Bu ikki tillar sistemasidagi o'xshashlik va farqlarga bog'liq bo'ladi. Ikki til sistemasini tillarni o'qitish metodikasini nazarda tutib qiyoslash *tillarni lingvodidaktik maqsadlarda chog'ishtirma o'rganish* deyiladi. Tillar nazariy maqsadlarda ham chog'ishirma o'rganilishi mumkin. Bunda tillarning fonetik, morfologik, leksikologik va sintaktik qatlamlari sistemali tarzda o'rganilib, ularning o'xshashlik va farqlari, shuningdek, o'xshashlik va farqlarning sabablari aniqlanadi.¹

Genetik tipologiya

Genetik tipologiya tillarni qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga ajratib, bir umumiy manbadan tarqalgan tillarni *qarindosh tillar* deb ataydi va ularni bir tillar oilasiga kiritadi.

Genetik tipologiyaning ish uslubi tilshunoslikda *tarixiy-qiyosiy uslub* deb yuritiladi. Tillardagi har qanday o'xshashlik va farqlar ularni qiyoslab o'rganish asosida aniqlanadi. Qiyoslashda faqat tillarning bugungi holati emas, balki ularning tarixiy taraqqiyot yo'li, dastlabki yozma yodgorliklari ham hisobga olinadi. Shunga ko'ra bu uslub *tarixiy-qiyosiy uslub* deb yuritiladi va u bir-biri bilan bog'liq

¹ У.К. Юсупов. Проблемы сопоставительной лингвистики. –Ташкент: 1986.

ch masala: tillarning qarindoshlik munosabatini isbotlash; tillarning asl labki shakllari (ko‘rinishlari)ni tiklash, tillarning tarixiy araqqiyot yo‘lining ilmiy asosini isbotlashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Ikki va undan ortiq tillarning qarindoshligini tasdiqlash maqsadlarida ularning bitta umumiy manbadan kelib chiqqanligini isbotlovchi dalillarni topish kerak bo‘ladi (Bu haqda «Lingvistik tahlil slublari»ga qarang).

Zamonaviy tilshunoslik ma‘lumotlariga ko‘ra hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud. Bulardan eng kattasi hind – ovrupo tillari oilasidir. Til oilasi o‘z ichiga bir bobo tildan kelib chiqqan tamma tillarni olgani uchun u juda yirik tillar yig‘indisini tashkil tutadi. Har bir oila o‘z navbatida qarindoshlikning yaqinlik darajasiga ko‘ra bir necha guruhlarga ajralishi mumkin.

1. Hind-ovrupo tillari oilasi

1. *Slavyan guruhi.* Tilshunoslikka oid adabiyotlarda slavyan tillari harqiy slavyan (rus, ukrain, belorus tillari), g‘arbiy slavyan (chex, slovak, polyak, kashub, serbolujtsk tillari), janubiy slavyan (bulg‘or, makedon, serb, xorvat, sloven tillari) bo‘limlariga ajratiladi.

2. *German guruhiga* ingliz, nemis, shved, norveg, dat, island, norvland tillari kiritiladi.

3. *Roman guruhi* fransuz, ispan, portugal, italyan, rumin, romoldavan tillarini qamrab oladi.

4. *Bolting guruhi* litva, latish, latgal tillaridan iborat.

5. *Eron guruhiga* fors, afg‘on, osetin, kurd, tojik va pomir shug‘nan, rushan, bartang, oroshor, sarikol) tillari taalluqli.

6. *Hind tillari guruhiga* hind, urdu, bengal, panjob, sindhi, gujarat, naratxi va boshqa tillar kiradi.

Bu oilaga yana har biri bittadan tildan tashkil topgan *arman, grek, erman, tibet tillari guruhlari* va bir nechta *o‘lik tillar guruhlari* kiradi.

Hind-ovrupo tillari oilasi eng mukammal ishlab chiqilgan tillardir. Lekin bu oilaga qaysi qabilalar tillari asos solgani ya‘ni ularning kelib chiqish manbai hanuzgacha noma‘lum. Olimlar fikricha, bu oilaning maskani Hindiston (F.Shlegel), O‘rta Osiyo (A.Shleyxer), Markaziy Yevropa (O.Shrader), Dunay havzasi (V.Georgiyev)

bo'lgan. Ammo buning aniq asosli dalillari yo'q. 1986-yilda taniqli olimlar T.V. Gamkrelidze va V.V. Ivanovlar o'zlarining ko'p izlanishlari natijasida («Индоевропейский язык и индоевропейцы. Реконструкция и историко-типологический анализ праязыка и протокультуры») e'lon qilingan asarlarida hind-ovrupo tillari oilasining dastlabki hududi Kichik Osiyo (ya'ni Tigr va Yefrat daryolari oralig'i)dir deb e'lon qilishdi. Olimlarning fikricha, mazkur tildan foydalangan qabilalar bu hududda eramizdan oldingi IV asrda yashagan. Ular bunday xulosaga hind-ovrupo tillari oilasiga kiruvchi tirik va o'lik tillarni qiyosiy o'rganish, ularning leksik, fonetik, grammatik materiallarini har tomonlama tahlil qilinishi natijasida keldilar. Bu asar olimlarning umumiy tilshunoslikka, xususan, tarixiy-qiyosiy tilshunoslikka qo'shgan ulkan ulushlaridir. Yangi nuqtai nazar ko'pchilik olimlar tomonidan ma'qullandi. Yangi fikr hind-ovrupo tilshunosligida amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun zamin yaratadi. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu fikr so'nggisi, undan keyin boshqasi yaratilmaydi, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim.

II. Turkiy tillar oilasi

Turkiy tillar oilasi to'g'risida turli fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar (E.D. Polivanov, G.Ramstedt) turkiy tillarini katta Oltoy tillar oilasiga kiruvchi guruh deb hisoblab, bu oilaga tungus-manchjur, mo'g'ul, koreys va yapon tillarini ham kiritishadi. Boshqa olimlar (O.Betling, G.Vinkler) ural-oltoy tillar oilasini ajratib, unga yuqorida qayd etilgan tillardan tashqari fin-ugor tillarini ham kiritishadi. Turkiy tillar bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikricha, turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur tillari orasidagi genetik qarindoshlik uzil-kesil tasdiqlanmagan. Ularni birlashtirish mumkin bo'lgan narsa – tipologik o'xshashlik bo'lib, bu tillar agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Lekin bu qarindosh degan ma'noni anglatmaydi. Shuning uchun ham ko'p adabiyotlarda turkiy tillar alohida oila sifatida ajratiladi. Turkiy tillar o'zaro yaqin qarindosh tillar bo'lib, bu oilaga kiruvchi birorta tilni o'zlashtirgan kishi shu oilaga kiruvchi boshqa tilni ham tushuna olishi mumkin. Yoqut va chuvash tillari bundan

stisnodir, chunki ular ko'pchilik turkiy tillardan ancha uzoqlashib etgan. Quyida ko'pchilik tomonidan tan olingan¹ N.A. Baskakov tasnifi keltirilgan.¹

Turkiy tillar oilasiga kiruvchi guruhlar va tillar:

A. G'arbiy xun tarmog'i

1. *Bulg'or guruhi: chuvash tili.*

2. *O'g'iz guruhi bir necha kichik bo'limlardan tashkil topgan:*

1) o'g'iz-turkman: turkman va truxman tillari;

2) o'g'iz-bulg'or: gagauz va bolqon turklari tillari;

3) o'g'iz-saljuq: ozarbayjon, turk, qrim-tatar tilining janubiy irg'oq shevasi va urum tili.

3. *Qipchoq guruhi ham bir nechta kichik bo'limlardan tashkil topgan:*

1) qipchoq-polovetsk bo'limi: qaray, qo'miq, qorag'ay-balqar, rim-tatar tillari;

2) qipchoq-bulg'or bo'limi: tatar va boshqird tillari;

3) qipchoq-no'g'ay bo'limi: no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq, o'zbek llining qipchoq shevasi.

4. *Qarluq guruhi: o'zbek va yangi uyg'ur tillari.*

B. Sharqiy xun tarmog'i

1. *Uyg'ur-o'g'uz guruhi:*

1) uyg'ur-tukuy bo'limi: tuva va tofa tillari;

2) yoqut bo'limi: yoqut tili;

3) xakas bo'limi: xalas, shor, cho'lim tatar, qamashi, oltoy tilining shimoliy shevasi, sariq-uyg'ur tillari.

2. *Qirg'iz-qipchoq guruhi: qirg'iz va oltoy tillari.²*

Kezi kelganda shuni qayd etish kerakki, turkiy tillarni qiyosiy tashkil qilishda tilshunoslik tarixida Mahmud Qoshg'ariyga yetadigan tilshunos-olim bo'lmagan. A.Nurmonovning yozishicha «Tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik XIX asrdan paydo bo'ldi deyiladi

¹ G'.Abdurahmonov, S.Mamajonov. O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent: O'zbekiston», 2009, 9-bet.

² Bu o'rinda N.A. Baskakov tasnifi keltirilib, unda jonli tillargina hisobga olingan. Tarang: Басков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. –Moskva: «Высшая школа», 1968, 350-354-бетлар.

va uning asoschilari sifatida Frans Bopp, Rasmus Rask hamda Yakov Grimlar e'tirof etiladi. Buning sababi shundaki, G'arb olimlari Mahmud Qoshg'ariyning «Devon»i bilan XX asrning birinchi choragiga qadar tanish bo'lmagan. Agar tanish bo'lganlarida edi, uning tilshunoslikdagi xizmatlari oldida tiz cho'kkan va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik yo'nalishlarining otasi sifatida Mahmud Qoshg'ariyni e'tirof etgan bo'lardilar». «Mahmud Qoshg'ariy turkiy qabilalarni birma-bir kezib, ularning tildagi farqli xususiyatlarini aniqladi, til xususiyatlariga ko'ra turkiy tillarni guruhlariga tasniflash imkoniyatiga ega bo'ldi»¹.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asari garchi XI asrda yozilgan bo'lsa-da, tasodif tufayli Turkiyaning Diyorbakir shahrida yashovchi Ali Amiriy tomonidan 1914-yilda topilib, bir yil keyin uch tomli kitob holda Istambulda nashr etildi. Asar arab tilida bitilgan bo'lib, keyinchalik nemis (1928-yil), turk (1939-yil) tillariga tarjima qilingan. Bu asar S.Mutallibov tomonidan 1960-1963-yillarda o'zbek tiliga o'girilgan bo'lib, Toshkentda, «Fan» nashriyotida chop etilgan.

Mahmud Qoshg'ariy turkiy tillarning fonetik, morfologik hamda leksik yaruslaridagi mutanosiblik va nomutanosibliklar yuzasidan qiyosiy tarixiy tilshunoslikni boyitishga, takomillashtirishga xizmat qiluvchi talay dalillar keltirganki, XX asrning o'rtalaridan boshlab uning ishi mazkur yo'nalishga bag'ishlangan ko'pchilik asarlarda qayd etilgan.²

III. Fin-ugor tillari oilasi

Bu oilaga ikkita til guruhi kiradi, ya'ni fin va ugor tillari guruhlari. Birinchi guruhga fin, eston, karel, komi-ziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mordov va boshqalar; ikkinchi guruhga venger (yoki madyar), mansiy, xantiy tillari kiradi.

¹Abduhamid Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2002, 34-bet.

² Abduhamid Nurmonov. Qayd etilgan asar. 29-bet.

IV. Som-xom tillari

Bu til oilasiga arab sharqi mamlakatlari tillari kiradi. Odatda, larni besh guruhga ajratishadi:

- 1) **Semit (yoki som) tillari:** arab, amxar, xarari, oysor, ivrit;
- 2) **Qo'shit tillari:** galla, somali, saho, beja;
- 3) **Berber tillari:** kobil, shilx, tuareg, rif, tamazist;
- 4) **Chad-xom tillari:** xause, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, rubi va boshqalar.
- 5) Arab guruhiga qadimgi arab tili kiradi. Bu o'lik tildir.

V. Kavkaz tillari oilasi

Olimlarning fikricha,¹ bu tillarning ham turkiy tillar kabi genetik arindoshligi uzil-kesil isbotlanmagan. Kavkaz tillari oilasi deyilishiga sosiy sabab, ularning geografik joylashuvidir.

A. G'arbiy guruhi:

- 1) **Abxaz bo'limi:** abxaz, azabin;
- 2) **Cherkas bo'limi:** adigei, kabardin, ubix.

B. Nax guruhi: chechen, ingush, batsbiy.

D. Dog'iston guruhi: avar, dargin, lezgin, lak, karatin, axvax, unzib va boshqalar.

Ye. Janubiy guruh:

- 1) **Zan bo'limi:** megrel, chan tillari;
- 2) **Iberiy bo'limi:** gruzin, kartaliy, guriy va boshqalar;
- 3) **Svan bo'limi:** svan tili.

VI. Xitoy-tibet tillari oilasi

A. Tay-xitoy guruhi: xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vyetnam tillari.

B. Tibet-birma guruhi: tibet va birma tillari.

Qayd etilgan til oilalaridan tashqari, mongol tillari oilasi, tungus-manchjur, dravid, austr – osiyo, malay – polinez, avstraliya, papua, frika kabi boshqa til oilalari ham bor.

³ А.А.Реформатский. Введение в языковедение. –Москва: 1967, 419-бет.

Morfologik tipologiya

Morfologik tipologiya tillarni qarindoshlik munosabatlaridan qat'i nazar grammatik tuzilishi asosida turlarga ajratadi. Tillarning morfologik tipologiyasiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy asar Germaniyada 1809-yilda Fridrix Shlegel tomonidan yaratilgan. «Hindlarning tili va donoligi haqida» degan asarida F. Shlegel tillarni flektiv va affiksallarga ajratadi. Uning fikricha, tillar paydo bo'lgan kundan boshlab, bu ikki turdan biriga mansub bo'ladi va shundayligicha qoladi. Shunday qilib, tildagi doimiy sodir bo'lib turuvchi o'zgarish inkor etiladi. Tasnifga asos qilib so'z o'zagidagi o'zgarish olingan. F. Shlegel gapda so'zlar munosabatga kirishganda o'zakning ichki tuzilishi o'zgaradigan tillarni istiqbolli hisoblab, ularni flektiv tillar deb atagan, bu turga nemis va boshqa hind – ovrupo tillarini kiritgan. Uning fikricha, affiksallarning o'zaklari o'zgaraydi, grammatik shakl esa affikslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'shilishi tufayli o'zgaradi. Bunday tillarni u «nuqsonli» tillar deb atab, ularga grammatik strukturasi turkiy tillarnikiga o'xshagan tillarni kiritgan. Qiyoslang:

<i>Flektiv tillar</i>	<i>Affiksall tillar</i>
<i>shraybe – shriyb</i>	<i>yozayapman – yozdim</i>
<i>лежy – лёг</i>	<i>yotibman – yotdim</i>

1818-yilda F. Shlegelning ukasi Avgust Shlegel «Provansal tili va adabiyoti to'g'risida xotiralar» degan asarida tillarni *flektiv, affiksall* va *amorff* tillarga ajratadi.

U amorff tillarga xitoy-tibet tillarini kiritib, ularning xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot berdi, flektiv tillarni esa sintetik flektiv tillar va analitik flektiv tillarga ajratishni tavsiya etdi.

A. Shlegel ham tillarni mukammal va mukammal bo'lmagan tillarga ajratadi. Kezi kelganda shuni qayd qilish kerakki, tillarning yaxshi-yomon, mukammal yoki nuqsonliligi bo'lmaydi. XIX va hatto XX asrda yashab ijod etgan ayrim nemis va Amerika olimlari millat va ularning tillarini kamsituvchi ana shunday fikrlarni ilgari surishgan. Aslida barcha millat va tillar bir-biriga teng, chunki tillar o'z jamiyatiga to'la-to'kis xizmat qiladi. Nemis tili nemis xalqiga qanday xizmat qilayotgan bo'lsa, Kannada (Hindiston), nanay tillari

ham o'z xalqiga aynan shunday xizmat qilmoqda. Barcha tillarning vazifasi bir xil, ya'ni aloqa vositasi xizmatini o'tashdir.

Aka-uka Shlegellardan keyin bu masala taniqli nemis olimi, tilshunoslik fanining asoschilaridan biri Vilgelm Fon Gumboldt tomonidan har tomonlama ko'rib chiqildi. «*Tildagi tovush va g'oya shakllarini bir-biriga to'g'ri va shiddat bilan qovushib ketishi, tillardagi munosabatlarning ifoda etilishi, gaplarning yasalish uslublari va tovush shakllaridan ko'rinib turadi*», – deydi Gumboldt. Ana shularni hisobga olib, u tillarni flektiv, agglyutinativ, ajratuvchi (amorf), mujassamlashtiruvchi (polisintetik) deb nomlanuvchi to'rt turga ajratdi.

Bu tasnif oldingilaridan birmuncha farq qiladi. Gumboldt tillarning birinchi turi nomini o'zgartirmay, «flektiv» tarzida qoldirib, unga qo'shimcha tillarni kiritdi. Xususan, bunday tillarga faqat o'zakda o'zgarish sodir bo'ladigan tillar emas, balki ba'zi affiksial tillar ham kirishini tushuntirdi. Lekin bu affikslar agglyutinativ tillardagilardan tubdan farq qiladi.

Aka-uka Shlegellar affiksial deb atagan tillar guruhini Gumboldt *agglyutinativ* atamasi bilan atadi. Bu bilan u affiksial flektiv tillarni affiksial agglyutinativ tillardan farq qilishini nazarda tutdi.

Amorf tillarni u ajratuvchi tillar deb atadi, chunki amorf so'zi shaklsiz degan ma'noni anglatadi. Xitoy-tibet tillari boshqa tillar kabi o'z shakliga ega, lekin ularning grammatik shakllari boshqa tillardan farqli so'z shakllarini o'zgartirish yo'li bilan emas, balki so'z tartibi va ohang orqali o'zgaradi.

V.Gumboldt mavjud tasnifga yana bir tillar guruhini kiritish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlab, uni mujassamlashtiruvchi tillar deb ataydi.

Tillardan nuqson topishda V.Gumboldt ham chetda qolgani yo'q. Uning fikricha, tafakkurning rivojlanishini ta'minlay oladigan va uning rivojlanishiga «to'siq bo'ladigan» tillar mavjud. Birinchi turdagi tillarni u «*qat'iy to'g'ri shaklga ega bo'lgan tillar*» va «*ikkinchisini qat'iy to'g'ri shakldan chekinuvchi tillar*» deb atab, birinchisiga flektiv tillarni, ikkinchisiga – agglyutinativ, ajratuvchi va mujassamlashtiruvchi til turlarini kiritdi. Ammo u o'z fikrini tasdiqlaydigan birorta asosli dalil topa olmadi.

Yuqorida keltirilgan olimlardan tashqari tillar tasnifi bilan Avgust Shleyxer, F.Misteli, N.Fink, F.F. Fortunatov, E.Sepir va boshqa bir qancha tilshunoslar ham shug'ullanishgan. Masalan, A.Shleyxer tillarni uchga ajratib (o'zak, agglyutinativ va flektiv tillar), har bir til o'z taraqqiyot davrida ana shu uch bosqichni o'z boshidan o'tkazadi, deb tushuntiradi.

Uning fikricha, tillar o'zak holda tug'ilib, vaqt o'tishi bilan ba'zi o'zaklar o'z urg'ularini yo'qotadi va yordamchi so'zlar qatoridan o'rin oladi. Bu yordamchi so'zlar keyinchalik mustaqil so'zlarga bog'lanib, avval agglyutinativ affikslarga, keyinroq esa flektiv affikslarga aylanadi. Umuman olganda tillarda mustaqil so'zlarni yordamchi so'zlarga va ularning o'z navbatida qo'shimchalarga aylanish hodisasi uchrab turadi. Turkiy tillarda bu hozir ham davom etmoqda, masalan, o'zbek tilidagi *Men talabaman* gapini olsak, undagi shaxs va son ko'rsatkichining bevosita *men* olmoshiga aloqadorligi, shu olmoshdan kelib chiqqanligiga hech qanday shubha yo'q. Bu gapimizga dalil sifatida hozirgi zamon boshqird va tuva tillarini keltirish mumkin. Ushbu tillarda kesimdagi shaxs va son ko'rsatkichini urg'u olmagan kishilik olmoshlari bajaradi. O'zbek tilida bu jarayon birmuncha ilgarilab ketgan, ya'ni *-man* qo'shimchaga aylanib, kesimga qo'shilib yoziladi, lekin tuva va boshqird tillarida bu ko'rsatkich garchi urg'u olmasa ham, o'z mustaqilligini saqlab, kesimga qo'shilmay yoziladi. Keltirilgan misol turkiy tillar, Shleyxer aytganidek, uch bosqichni bosib o'tgan, deyishga hech qanday asos bo'la olmaydi. Turkiy tillarning tarixida o'zak davri bo'lganligini isbotlaydigan dalil yo'q. Lekin ayrim tillarda aks jarayonni kuzatish mumkin. Masalan, bir vaqtlar ichki va tashqi fleksiyaga boy bo'lgan ingliz, fransuz tillari keyinchalik o'zlarining bu xususiyatlarini yo'qotib, xitoy, birma tillari kabi gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash, sintaktik munosabatlarni ifodalashda qat'iy so'z tartibi va yordamchi so'zlarni keng ishlatadigan bo'ldi. Demak, Shleyxer yaratgan nazariya amalda tasdiqlanmadi.

Taniqli rus olimi F.F. Fortunatov tillar tipologiyasi mutlaq emas, balki nisbiy ekanini ta'kidladi. U mujassamlashtiruvchi tillarni tipologik sistemadan chetlatib, tillarning to'rtinchi turi sifatida flektiv – agglyutinativ tillarni qo'shdi va unga semit tillarini kiritdi, chunki

u tillarda negiz fleksiyalari asosiy grammatik vosita rolini o'taydi. Bu tillardagi ichki fleksiyalarning negizlarga bo'lgan munosabati gglyutinativ tillardagi affikslarning o'zak va negizlarga bo'lgan munosabati bilan bir xildir, deydi F.F. Fortunatov.

Amerika tilshunosi E.Sepir morfologik tipologiyaning yangi sistemasini yaratishga urindi. U tillarni 15 dan ortiq turga ajratdi. Bu tasnif qator kamchiliklari tufayli ko'pchilikka manzur bo'lmadi. Hozirgi zamon tilshunosligida V.Fon Gumboldt yaratgan morfologik tipologiya ko'pchilik tomonidan e'tirof etilib, tillarni to'rt turga ajratish an'anaga aylangan. Bu tasnif asosida Gumboldt sistemasi otgan bo'lsa ham, uning uzoq vaqt saqlanib qolishiga Gumboltdan eyin yashab ijod etgan tilshunoslar o'z hissalarini qo'shdilar. Endi tillarning ana shu to'rt asosiy morfologik turini batafsil ko'rib hiquamiz.

Flektiv tillar. Flektiv tillar tipiga hind-ovrupo va xom-som tillar ilasiga mansub bo'lgan tillar kiradi. Bu tillar *sintetik flektiv tillar* a *analitik flektiv* tillarga ajratiladi.

Sintetik flektiv tillarga nemis, rus tillarga o'xshagan fleksiyalarga oy tillar kiritiladi.

Nutqda so'zlar orasidagi sintaktik munosabatlar asosan leksiyalar asosida amalga oshiriladi. *Analitik flektiv* tillarda, garchi leksiyalar bo'lsa ham, ularning miqdori katta emas, gapdagi so'zlar rasidagi sintaktik munosabat ko'proq so'z tartibi va yordamchi o'zlar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun antik tillarda so'z artibi qat'iy, har bir gap bo'lagi o'z o'rnida turishi shart. Analitik lektiv tillarga ingliz, fransuz tillari kabi tillar kiritiladi. Bu tillarda datda gapning egasi birinchi o'rinda (kesimdan oldingi o'rinda), esim ikkinchi o'rinda (egadan keyingi o'rinda), agar kesim o'timli e'l bilan ifodalangan bo'lsa, unda uchinchi o'rinda (kesimdan keyin) o'ldiruvchi turadi. Aniqlovchining o'rnini oldindan belgilab o'lmaydi. U doimo ot bilan bog'langan bo'ladi; aniqlanmish qayerda o'lsa, aniqlovchi ham shu yerda bo'ladi; u ega vazifasini ajarayotgan so'zdan oldin ham, qo'shma ot kesimning ot qismi azifasida kelgan otdan oldin ham turishi mumkin. Hol esa ma'nosiga o'ra gapda turli o'rinlarni egallab turishi mumkin. Shunday qilib, o'z tartibi to'g'risida gap borganda ega, kesim va to'ldiruvchining

gapdagi o‘rni nazarda tutiladi. Sintetik flektiv tillarda so‘z tartibi nisbatan erkin.

Flektiv tillarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar quyidagilar:

1. Bir fleksiya bir nechta ma‘no anglatishi mumkin. Masalan, rus tilidagi *виж-у* so‘ziga qo‘shilgan *-у* fleksiyasi bir vaqtning o‘zida shaxs, son, zamonni ko‘rsatadi.

2. Bir fleksiya bir nechta variantga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, rus tilida otlarda ko‘plik *-и, -ы, -а, -я* kabi qo‘shimchalar yordamida yasaladi: *столы, стулья, дома, книги*.

3. O‘zakka va negizga fleksiya qo‘shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi mumkin:

Бежать – бегу

Писать – пишу

4. O‘zak va negiz, negiz va grammatik fleksiyalar o‘rtasidagi chegarani aniqlash ko‘p qiyinchiliklar tug‘diradi:

мыться – моюсь

пить – пью

5. Ichki fleksiyalarga boy: masalan, arab tilida:

kitab – kitob

kutub – kitoblar

tiktib – u(jenskiy rod) yozyapti

jiktib – u(mujskoy rod) yozyapti

uktib – men yozuyapman.

лечь – лягу

петь – пою

везти – вожу va hokazo.

6. Grammatik shakllari suppletiv yo‘l bilan yasaladigan so‘zlar ko‘plab uchraydi. Masalan, rus tilida:

ходить – шёл

я – меня

хорошо – лучше

nemis tilida:

sein, bin, ist, war va boshqalar.

Agglyutinativ tillar. Agglyutinativ tillarga turkiy, fln-ugor, yapon, koreys, dravid, bantu tillari kiradi. Bu tillarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Affikslarga boy, gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlash uchun asosan ana shu qoʻshimchalardan foydalaniladi.

2. Bir affiks bir grammatik maʼno ifodalaydi, shu xususiyati bilan agglyutinativ tildagi affikslar fleksiyalardan farq qiladi. Qiyoslang:

<i>Uuu – y</i>	<i>hozirgi zamon</i>	<i>Yoz – yap – m – an</i>
	<i>1-shaxs</i>	
	<i>birlik</i>	

Oʻzbek tilidan olingan misolda *-yap* – zamon koʻrsatkichi, *-m* – 1-shaxs koʻrsatkichi, *-an* – son koʻrsatkichidir. Rus tilida bu koʻrsatkichlar hammasi faqat birgina *-u* bilan ifoda etiladi;

3. Affikslar asosan bir xil koʻrinishga ega boʻlib, variantlari deyarli oʻq. Masalan: oʻzbek tilida koʻplik faqat *-lar* qoʻshilishi orqali ifodalaydi; kelishik qoʻshimchalarining deyarli hammasi oʻz koʻrinishiga ega; variantlari bor qoʻshimchalar esa (masalan: *-m, -im, -ng, -ing, -ga, -ga, -qa* kabilar), soʻzlarning fonetik tuzilishi bilan bogʻliq aloqasiz oʻzgarishlarga kiradi).

4. Oʻzak, negiz, grammatik affikslar orasidagi chegara doimo aniq, masalan: *ish – chi – lar – dan, dars – lik – lar – ni*.

5. Soʻzlarning grammatik shakllarini yasashda suppletiv hodisasi eʼtiborli uchramaydi.

6. Koʻpchilik agglyutinativ tillarda soʻz tartibi nisbatan qatʼiy. Lekin bu qatʼiylik analitik flektiv tillardagi sabablar bilan ifodalanmaydi. Soʻz tartibining buzilishi hamma vaqt ham soʻz maʼnosini oʻzgarishiga olib kelmaydi; qatʼiy soʻz tartibi koʻproq oʻz maʼnanasi bilan bogʻliq. Masalan, oʻzbek tilida oddiy gaplardagi soʻz tartibi quyidagicha: ega – toʻldiruvchi – kesim.

7. Soʻzlarga qoʻshiladigan affikslar oʻzakka maʼlum tartib asosida qoʻshiladi. Agglyutinativ tillarni oʻrganuvchilar ularning grammatik tuzilishidagi bu xususiyatni hisobga olishlari kerak.

8. Agglyutinativ tillar affikslarning oʻzakdan oldin yoki keyin turishiga oʻziga oʻrala prefiksali agglyutinativ tillar va postfiksali agglyutinativ tillarga oʻxshaydi. Turkiy tillar postfiksali agglyutinativ tillardir. Afrikadagi suaxili tili prefiksali tildir. Masalan: *anamataka* soʻzida uchta prefiksdan keyin oʻzak oʻrin olgan, yaʼni *a – na – m – ataka* (u buni xohladi).

O'zak (ajratuvchi) tillar. Tilshunoslik fanida ikkala atama ham uchraydi. Bu tillarga asosan xitoy-tibet tillari (xitoy, tibet, tay, vyetnam va boshqalar) kiradi. Ularning asosiy xususiyatlari so'zlari ko'proq bir bo'g'inliligi, affikslar, fleksiyalar yo'q yoki deyarli yo'qligi, gapda so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish asosan so'z tartibi va ohang orqali amalga oshirilishidir. So'zning gapda tutgan o'rni uni qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarayotganini va qaysi so'z turkumiga taalluqli ekanini ko'rsatadi. Tilshunoslik tarixida va hozirgi zamon tilshunosligida bu tillar «*amorfs*», ya'ni «*formasiz*» tillar nomini olgan. Grammatik shakl tillarda bir xil namoyon bo'lmaydi. Yuqorida ko'rganimizdek, ba'zi tillarda shakl affiks va fleksiyalar yordamida, ba'zilarida esa ichki fleksiyalar orqali, uchinchilarida yordamchi so'zlar yoki suppletiv yo'llar bilan ifodalanadi. Umuman olganda, shaklsiz til yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. O'zak tillarning shakli o'ziga xos ravishda yasaladi. Ulardagi so'zlar o'z shakllarini gapdagi o'rinlari orqali ifoda etadilar yoki ohang yordamida amalga oshiradilar.

Mujassamlashtiruvchi (polisintetik) tillar. Bu tillarga amerikalik hindular va Rossiyadagi chukot, koryak tillari kiradi. Bu tillar ko'p jihatdan hali o'rganilmagan. Hozirgi kunda ma'lum bo'lgan manbalarga qaraganda, bu tillarda so'z tushunchasi nisbiydir. Chunki bu tillardagi so'z boshqa tillardagi ayrim tovushlarga to'g'ri kelib, o'zining uzil-kesil ma'nosini faqat gap tarkibidagina kashf etadi. Odatda, bu so'z-gapda elementlar bir-biriga qo'shilib yoziladi. Bu tillardagi gaplar boshqa tillardagi so'zga to'g'ri keladi. Masalan, naxuatl tilidagi *qanivatcar canivinju* gapning ma'nosi «*men uyning oldida ichdimmi?*», ya'ni «*uy+oldida+o'tgan zamon+ichmoq+savol+men*».

Chinuk tilidan yana bir misol: *inialudam* – «*men buni unga bergani keldim*». Bu gapda «d» elementi «*bermoq*» fe'li bo'lib, gapning o'zagini tashkil etadi.

i-yaqin o'tgan zamon

n-men

i-bu

a-unga (feminin jinsi)

l-vositasiz to'ldiruvchi ko'rsatkichi

*u-gapiruvchi tomonidan bajariladigan ish- harakat
am-kelmoq.*

Shunday qilib, mujassamlashtiruvchi tillardagi bir so‘z-gap boshqa tillarda bir nechta so‘zlar orqali ifoda qilinadi.

Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi to‘g‘risida gap borganda hech bir til o‘z xususiyatlari bilan boshqa tilga mutloq mos kelmasligini aytib o‘tish o‘rinlidir, demak, tipologiya mutlaq, ya‘ni absolyut emas, nisbiydir. Tillar o‘zlarining ko‘proq xususiyatlari bilan u yoki bu turga mansub bo‘lishi mumkin. Har bir tilda flektiv, agglyutinativ va boshqa elementlar bo‘lishi tabiiy. Masalan, o‘zbek tili agglyutinativ til, lekin unda fleksiya uchrashi mumkin: *keldik* so‘zidagi *k* bir vaqtning o‘zida ham shaxsni, ham sonni ko‘rsatadi. Ingliz tili garchi analitik flektiv til bo‘lsa ham, shunga o‘xshagan agglyutinativ vositalari bor. Demak, tillarni u yoki bu turga kiritishda ularning jaysi xususiyatlari ko‘proqligiga asoslaniladi.

**Amaliy mashg‘ulotlarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash
uchun savol va topshiriqlar**

1. Dunyoda nechta til bor? Tillarning sonini uzil-kesil aytish mumkinmi? Javobingizni asoslang.
2. Tipologiya so‘zining ma‘nosini tushuntiring.
3. Tillar tipologiyasining qanday turlarini bilasiz?
4. J. Bo‘ronovning tillar tipologiyasi, xususan, qiyosiy tipologiya to‘g‘risidagi fikrini tushuntirib bering.
5. O‘.Q. Yusupovning tillar tipologiyasiga oid fikrini gapirib bering.
6. Genetik (geneologik) tipologiya qanday masalalar bilan shug‘ullanadi? Genetik tipologiyaning ilmiy asoslarini kim va qachon yaratdi? Genetik tipologiyani o‘rganuvchi uslubni va uning uslubini tushuntirib bering.
Bobo til, tillar oilasi, tillar guruhi, prospektiv diaxroniya, retrospektiv diaxroniya qanday tushunchalarni ifodalashini gapirib bering.
Qanday til oilalarini bilasiz? Genetik tipologiya o‘z vazifasini tugatdimi (dunyodagi hamma til oilalari aniqlanganmi)? O‘lik va jonli til orasida qanday farq bor?
7. Morfologik tipologiya qanday masalalar bilan shug‘ullanadi? Morfologik tipologiyaning tarixini gapirib bering. Qaysi chet el

olimlari bu masala bilan shug'ullangan? Mukammal va mukammal bo'lmagan tillar bo'lishi mumkinmi? Javobingizni asoslab bering.

Morfologik tipologiyani tillarning qarindoshligiga aloqasi bormi?

Qaysi olimning morfologik tipologiya to'g'risidagi fikri tilshunoslik fanida boshqalarnikidan kengroq tarqalgan? Tillarni flektiv, agglyutinativ, polisintetik va o'zak tillarga ajratish bahssizmi? Sof flektiv, sof agglyutinativ tillar bormi? Tillarning grammatik jihatdan to'rt turini gapirib bering.

8. Struktural va areal tipologiyalar qanday masalalar bilan shug'ullanadi?

9. Quyidagi rus so'zlari ma'nolariga mos keladigan ingliz va nemis tillaridagi so'zlarni aniqlang va shular asosida bu tillarni qarindosh ekanini tushuntiring.

So'zlarning ma'nolarida farq bo'lsa, uni qayd eting.

Ветер, нос, два, три, шесть, семь, десять, молоко, дочь, сестра, брат, волк, нет.

10. O'zbek tilidagi *-ga, -ka, -qa, -gan, -kan, -gani, -qani, -m, -im, -ng, -ing, -i, -si, -day, -dek* kabi ikki yo undan ortiq ko'rinishga ega bo'lgan qo'shimchalarni flektiv tillarga xos bo'lgan elementlar desa bo'ladimi?

11. Ota bola izladi. Bola ota izladi gaplarida so'zlar o'rtasidagi analitik munosabat o'zbek tiliga xosmi? Qaysi tillarda so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabat asosan ana shunday vositalar ko'magida amalga oshiriladi?

12. Tulki baliqni yedi gapini rus (ingliz, nemis, fransuz) tiliga tarjima qiling va bu tildagi so'zlar o'rtasida sintaktik bog'lanish qanday vositalar orqali amalga oshirilganligini qayd eting. Sodda gapdagi so'z tartibini qiyoslang.

13. Keltirilgan qatorlardagi tillardan ikkitasi boshqa tillar oilasiga kiradi.

Shularni qatordan chiqarib tashlang.

1. Rus, ukrain, belorus, amxar, chex, bolgar, xakas.

2. O'zbek, koryak, tojik, chuvash, qirg'iz.

3. Qirg'iz, tatar, turk, tuva, abxaz, avar.

4. Karaim, fransuz, italyan, ispan, yakut, portugal.

5. Fors, pushtu, tojik, kurd, osetin, lezgin, qo'miq.

14. Quyidagi javoblardan to'g'risini aniqlang.

- 14.1. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun unda so‘zlarning grammatik shakli ko‘proq infikslar yordamida yasaladi.
- 14.2. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun so‘zlarning grammatik shakli asosan so‘z tartibi bilan belgilanadi.
- 14.3. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun so‘zlarning grammatik shakli yordamchi so‘zlar va ohang yordamida yasaladi.
- 14.4. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun so‘zlarning grammatik shakli ko‘proq postfikslar orqali yasaladi.
- 14.5. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun so‘zning o‘zak, negiz va grammatik qo‘shimchalari orasidagi chegaralar aniq.

XIII BOB

LINGVISTIK TAHLIL METODLARI

Tilni bir butun murakkab tizim sifatida o'rganish hozirgi zamon fanining barcha taraqqiyot talablariga javob bera oladigan yangi ilmiy uslublarning bo'lishini taqozo etadi.

Metodlar qaysi fanga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Metod obyektiv, ya'ni: a) uslub qachon, qayerda, kim tomonidan qo'llanilmasin, tahlil qilinayotgan material bir xil bo'lsa, natija ham bir xil bo'lishi; b) tahlil natijasida olingan ma'lumot tekshirilish imkoniyatiga ega bo'linishi; d) subyektiv fikrlarning aralashuviga yo'l qo'ymasligi kerak.

2. Metod izchil bo'lishi o'rganilayotgan obyektzni to'liq tahlil qila olish uchun zarur atamalar sistemasini qamrab olishi va qo'shimcha tushunchalarni talab etmasligi lozim.

3. Metod universal bo'lishi, ya'ni tilning kamida asosiy to'rt qatlami (fonetika, morfologiya, leksikologiya va sintaksis)ni tahlil qilishga yaroqli bo'lishi kerak.

4. Metod sodda bo'lishi, ya'ni foydalanilganda qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.

Quyida hozirgi zamon tilshunosligida qo'llanilayotgan ba'zi uslublarni ko'rib chiqamiz.

Gap bo'laklari metodi

Gap bo'laklari uslubi qadimiy tahlil uslublaridan bo'lib, u o'z ichiga bosh bo'laklar: ega va kesim, ikkinchi darajali bo'laklar: aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi, uyushiq bo'laklar kabi atamalarni oladi va asosan gaplarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Tahlil quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari aniqlanadi. Bu bosqichda so'zlarning gapdagi vazifasiga asoslanib ega, kesim, to'ldiruvchi, hol va aniqlovchilar ajratiladi.

2. Aniqlangan gap bo'laklari qaysi so'z turkumlari tomonidan fodalanganligi o'rganiladi.

3. Bu bosqichda esa gap bo'laklari vazifasida kelayotgan so'zlar qanday grammatik shaklda turganligi (ya'ni morfologik kategoriyalari) aniqlanadi.

Bu uslub yuqorida keltirilgan talablarning hammasiga to'liq javob berolmaydi. Garchi u izchil va sodda bo'lsa ham, uni obyektiv va universal deb bo'lmaydi.

Universal emasligiga sabab, u faqat sintaksis qatlamida ishlatilib, qolgan qatlam birliklarini tahlil qilmaydi. Obyektiv emasligiga ham sabablar bor. Shu yerda T.Qudratov va T.Nafasovlarning «Lingvistik tahlil» qo'llanmasidan ko'chirma keltiramiz: «Gap bo'laklari tahlilida gapni tarkibiy qism (bo'lak)larga to'g'ri ajrata olish, gap bo'laklariga ajratishning prinsiplarini ajrata olish muhimdir. Shu fakt ayonki, har qanday gap bo'lagi ma'lum savolga javob bo'ladi. Shu xususiyatga ko'ra, ko'pincha so'roqlar berish bilan gap bo'lagini aniqlash amaliyoti mavjud. Bu birdan-bir to'g'ri uslub emas... Nutqda *Molli kolxoz – yog'li kolxoz. Karim – ishchi. Ikki o'n besh bir o'ttiz* tipidagi gaplar ko'p qo'llanadi. Bunday gaplar bosh bo'laklardan iborat. Har ikkala bo'lak ham bir xil so'roq talab etadi, lekin ikki xil gap bo'lagidir...

So'zning ma'nosi gap bo'lagini belgilashda zaruriy belgilardan ibiridir».¹

Keltirilgan ko'chirmalardan sezilib turibdiki, bu uslubni qo'llayotganda faqat so'roq berish, faqat so'zning grammatik xarakterini hisobga olish yoki faqat so'zlarning ma'nolariga tayanish mumkin emas ekan. Chunki har xil gap bo'laklari bir xil savolga javob bo'lishi mumkin: bir xil grammatik shaklga ega bo'lgan so'zlar turli gap bo'lagi bo'lib qolishi mumkin va hokazo. Demak, bu uslub yuqorida keltirilgan ko'pchilik talablarga javob bera olmaydi. Keltirilgan dalillar asosan o'zbek tilini tahlil qilishdagi qiyinchiliklarni ko'rsatayapti. Boshqa tillarni tahlil qilishda ham yuqoridagiga o'xshash bir qancha qiyinchiliklar uchraydi.

¹ T.Qudratov, T.Nafasov. Lingvistik tahlil. –T: «O'qituvchi» nashriyoti, 1981-yil. 00-101-betlar

Tarixiy-qiyosiy metod

Tarixiy-qiyosiy uslub shu nomda ataladigan tilshunoslik bilan uzviy bog‘liq.

Tarixiy-qiyosiy tilshunoslikning paydo bo‘lishi tilshunoslik tarixida tasodifiy hol bo‘lmay, balki bu fanda erishilgan yutuqlarning mantiqiy yakunidir.

1599-yilda Gollandiyalik olim Yu.Skaliger 11 til oilasi borligini va har bir oila o‘z bobo tiliga ega ekanligini ta’kidlagandi.

1767-yilda Fransuz ruhoniysi Kerdu fransuz akademiyasida, 1786-yili ingliz sharqshunos olimi V.Jounz Kalkuttadagi Osiyo jamiyatida qilgan ma’ruzalarida Ovrupo tillari bilan qadimgi hind tili – sanskrit orasida qarindoshlik munosabatlari borligini ta’kidlashgandi. Lekin bu masala R. Raskning «*Qadimgi island tilining paydo bo‘lishi*» (1814-yil) F.Boppning «*Sanskrit tilining tuslanish sistemasini grek, slavyan, lotin, fors va german tillari bilan qiyosiy o‘rganish*» (1816-yil), nemis olimi Ya.Grimmning «*Nemis tili grammatikasi*» (1819-yil) va rus olimi A.Vostokovning «*Slavyan tili haqida mulohazalar*» (1920-yil) asarida ilmiy asosda isbotlandi. Bu olimlar o‘z ilmiy ishlarida Ovrupa tillari bilan Osiyodagi fors va sanskrit tillarini fonetik, grammatik va leksik tomonidan qiyosiy o‘rganib, ular bir umumiy bobo tildan kelib chiqqan, degan xulosaga keldilar va bu tillar oilasini shartli ravishda Hind-Ovrupa oilasi deb yurita boshladilar. Ana shu ish jarayonida qiyosiy-tarixiy uslub maydonga keldi.

Tarixiy-qiyosiy uslub hozirgi kunda yuqorida keltirilgan talablarga javob bera oladigan eng mukammal uslub hisoblanadi. Bu uslub yordamida quyidagi masalalar hal qilinadi.

1. Tillarni qiyosiy o‘rganish va ularning bir-biriga qarindosh yoki qarindosh emasligini aniqlash.

2. Qarindosh deb topilgan tillarni bir-biri bilan qiyoslab o‘rganish natijasida ularning asosida yotgan bobo tilni tiklash; bunday qiyoslash tilshunoslik fanida *retrospektiv* qiyoslash deyiladi. Tahlil tillarning hozirgi holatini qiyoslashdan boshlab, tillar tarixiga qarab chuqurlashib boradi.

3. Tillarning rivojlanish yo‘li aniqlanishi mumkin, ya’ni ma’lum til o‘zining shu kungi ko‘rinishiga qanday yetib kelganligi, tilning

hakllanish masalalari muhokama qilinishi mumkin. Tillarni bunday qiyoslab o'rganish *prospektiv qiyoslash* deb yuritiladi. Tahlil qarindosh tillarning yozma yodgorliklari paydo bo'lgan davridan boshlab hozirgi kungacha o'tgan tarixini qiyoslab o'rganadi.

Quyida tarixiy-qiyosiy uslubning ish uslubidan namuna keltiramiz:¹

	<i>sanskrit</i>	<i>lotin</i>	<i>qadimgi slavyan</i>
<i>I shaxs</i>	<i>bharami</i>	<i>fero</i>	<i>beru</i>
<i>II shaxs</i>	<i>bharasi</i>	<i>fers</i>	<i>beresh</i>
<i>III shaxs</i>	<i>bharati</i>	<i>fert</i>	<i>beret</i>

Bu misollar uch qarindosh tildan bir xil ma'no anglatuvchi so'z fe'l) olingan va uchta shaxsdagi shakllari keltirilgan. Bu tillarning bir-biriga qarindosh ekanini ko'rsatuvchi birinchi dalil 2- va 3-haxslardagi qo'shimchalarning o'xshashligidir. Fonetik jihatdan ham o'xshashlik bor. Tillarning fonetik tuzilishi o'rganilayotganda ahamiyat ko'proq undoshlarga beriladi, chunki unlilar tarixan beqaror bo'lib, o'zgarib turishi mumkin. Sanskrit va qadimgi slavyan tilidagi so'zlar arkibida B va R undoshlari bor; lotin tilida esa R bor-u, lekin B ning o'rniga F kelyapti. Izlanishlar ko'rsatishicha, ko'p holatlarda sanskrit va qadimgi slavyan tillarida B tovushi kelganda, lotin tilida F tovushi kelgan. Demak, buni *fonetik qonuniyat* deb atasa bo'ladi. Lotin tili tarixiy rivojlanishining ma'lum bir bosqichida ana shunday o'zgarish (ko'chish) ro'y bergan. Tarixiy-qiyosiy uslub tillarning bir-biriga qarindoshligini ana shunday yo'l bilan isbotlaydi. Bitta bobo tildan arqalgan tillar, tillar oilasini tashkil etadi. Masalan: Hind-ovrupo tillar oilasi, Turkiy tillar oilasi, Kavkaz tillar oilasi va boshqalar.

Bir oilaga kiruvchi tillar leksik, grammatik va fonetik tuzilishining taqin-uzoqligiga ko'ra, turli guruhlarga ajralishi mumkin. Masalan, Hind-ovrupo tillar oilasi o'ndan ortiq guruhlarga ajraladi: slavyan, german, roman, boltiq, fors, hind va boshqalar (tafsilotlar uchun XII bobga qarang).

¹ Bu misol F.Boppning «Sanskrit tilining tuslanish sistemasini grek, slavyan, lotin, fors va german tillari bilan qiyosiy o'rganish» asaridan qisqartirib olindi.

Substitutsiya metodi

Bu uslub ham ko'pdan beri tilshunos olimlar tomonidan ishlatilib kelinadi. Nutqdagi ma'lum bir pozitsiyada turgan til elementlarini boshqasi bilan almashtirib, sodir bo'ladigan funksional o'zgarishni aniqlash substitutsiya uslubining vazifasiga kiradi.

Substitutsiya uslubi yordamida sinonim, antonim va omonim so'zlarni tillarning leksik sistemasida tutgan o'rnini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Masalan: *eski, qari, keksa* so'zlari sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu so'zlar ma'nolarining yaqinlik darajasini substitutsiya uslubi bilan tekshirib ko'rish mumkin:

qari odam
keksa odam
eski odam

Keltirilgan so'z birikmalarida aniqlovchi vazifasini o'tayotgan sinonimlarni almashtirib ko'ramiz: 1- va 2- birikma til normasiga mos keladi, uchinchi esa g'ayri tabiiy so'z birikmasidir. Yana bir misol:

qari kiyim
keksa kiyim
eski kiyim

Bu o'rinda 1- va 2- birikmalar o'zbek tili uchun odatiy emas, uchinchi esa odatiy. Shunday qilib, bu sinonimlar mutlaq sinonim emas. Chunki ular doim biri ikkinchisini almashtirib kela olmaydi.

Bu uslub hamma talablarga javob bera olishi tufayli tilshunoslik fanida mustahkam o'rin egallagan. Bu uslub tilning hamma qatlamlariga birday xizmat qila oladi.

Distributiv metod

Distributsiya bu – tildagi birorta elementning nutq jarayonida boshqa elementlar bilan birika olish qobiliyatidir. Masalan, birorta so'z, morfema, fonemaning boshqa so'z, morfema, fonemalar bilan munosabatga kirisha olishi shu elementlarning distributsiyasi deyiladi.

Distributsiyaning morfologik, sintaktik va leksik-semantik turlari mavjud.

Morfologik distributsiya deganda bir soʻz turkumini boshqa soʻz urukmlari bilan munosabatga kirisha olishi tushuniladi: sifat ot bilan, avish feʼl bilan, artikllar ot bilan va hokazo.

<i>sifat</i>	<i>ot</i>	<i>ravish</i>	<i>feʼl</i>	<i>artikl</i>	<i>ot</i>
<i>yashil</i>	<i>bayroq</i>	<i>tez</i>	<i>gapirmoq</i>	<i>a</i>	<i>pen</i>
<i>quyoshli</i>	<i>Oʻzbekiston</i>	<i>baland</i>	<i>uchmoq</i>	<i>a</i>	<i>book</i>
<i>yangi</i>	<i>bayonnoma</i>	<i>toza</i>	<i>termoq</i>	<i>a</i>	<i>table</i>

Leksik-semantik distributsiya deganda til elementlarining maʼno nuqtai azaridan bir-biri bilan munosabatga kirisha olish qobiliyatlari tushuniladi. Leksik-semantik distributsiya baʼzan morfologik distributsiyaga zid kelib olishi mumkin. Chunki hamma sifatlar ham hamma otlar bilan munosabatga kirisha olmaydi. Masalan, *yaxshi* soʻzi *dushman*, *yovuz* soʻzi *oʻst* bilan maʼno jihatdan munosabatga kirisha olmaydi, garchi ularning biri sifat va boshqasi ot soʻz turkumiga xos boʻlsa ham. Chunki ular maʼnolari jihatdan bir-biri bilan birika olmaydi. Lekin *yaxshi doʻst*, *yovuz dushman* soʻz birikmalari maʼno jihatidan bir-birlariga mosdir.

Sintaktik distributsiya gap boʻlaklarining bir-birini taqozo qilishidir. Masalan, ega kesim va aniqlovchi bilan bevosita munosabatga kirishsa, kesim ega, toʻldiruvchi va hol bilan munosabatga kirishadi.


Maʼlumki, til birliklari shakl va maʼno jihatdan ikkiga ajratiladi: ham shakli, ham maʼnosi bor boʻlgan birliklar *ikki planli* birliklar deb yuritiladi va faqat shaklga ega boʻlgan birliklar esa *bir planli* birliklar deb yuritiladi. Bir planli birliklarga fon va fonemalar ajratiladi. Tilning qolgan birliklari (morfema, soʻzlar va boshqalar) ikki planli birliklardir. Grammatik va leksik-semantik distributsiya ikki planli til birliklariga xosdir.

Demak, fon va fonemalarning distributsiyasi toʻgʻrisida gap borganda mazkur tovushdan oldin va keyin tura oladigan tovushlarni aniqlashning oʻzi kifoya. Ikki planga ega boʻlgan birliklar toʻgʻrisida gap borganda distributsiyaning hamma turlarini hisobga olish zarur.

Bevosita ishtirok etuvchilarga ajratish metodi

Bu uslub tilning ikki planli birliklari bor bo'lgan yaruslarga birdek xizmat qiladi. Bevosita ishtirokchilarga ajratish uslubi o'z ishini sintaktik qatlamda boshlab, morfologik yarusgacha davom etadi. Bu uslubga asosan har qanday butunlik, xususan, gap hokim va tobelik munosabatida bo'lgan qismlardan iboratdir va ular bevosita bo'ysunish-iyerarxiya prinsipiga amal qiladi. Gap avval ikki ishtirokchi qismga va so'ngra har bir ishtirokchi qism yana ikki ishtirokchi qismlarga ajratiladi. Bu ish to oxirgi ikki eng kichik ma'no anglatuvchi birlik aniqlanguncha davom etadi.

Masalan:



Tahlilni shu yerda to'xtatsa ham bo'ladi. Lozim bo'lsa, har bir so'zning eng kichik ma'no anglatuvchi birliklarini aniqlashda davom etish mumkin.

Tahlildan ko'rinib turibdiki, bevosita ishtirokchilarga ajratish analitik uslubdir; u gaplarni mayda qismlarga bo'lib o'rganadi. Bu uslub yordamida tahlilchi gaplarni tashkil etuvchi bir-biri bilan sintaktik ravishda bog'langan bevosita ishtirokchilarni aniqlaydi. Gapning katta kichikligiga qarab tahlil bir necha bosqichdan tashkil topgan bo'ladi. Har bir bosqichda tahlilchi so'nggi juftlikni navbatdagi tashkil etuvchilarga ajratadi. Bu uslubni yaratgan olimlarning tavsiyasiga ko'ra, gapni birinchi bor ishtirokchilarga ajratish ega guruhi bilan kesim guruhi o'rtasida amalga oshiriladi. Keyingi bo'linishlar esa sintaktik bog'lanish qayerda kuchsiz bo'lsa, o'sha yerdan amalga oshiriladi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, gapdagi

birinchi bo‘linish undagi eng kuchsiz sintaktik bog‘lanish nuqtasini ko‘rsatadi, oxirgi bo‘linish esa sintaktik bog‘lanishning eng kuchli nuqtasidir. Yuqorida keltirilgan gapimizda kuchsiz sintaktik bog‘lanish nuqtasi *olimlarimiz* bilan *kosmosni* so‘zlari chegarasidir, eng kuchlisi esa *zabt* bilan *etmoqdalar* so‘zlari orasidagi bog‘lanishdir. Demak, bevosita ishtirokchilarga ajratish uslubining maqsadi gapni tashkil etuvchi so‘zlar orasidagi sintaktik bog‘lanish darajasini ko‘rsatishdir.

Bu tahlil bir necha xil ko‘rinishga ega. Uni daraxtsimon tahlil qilish mumkin (yuqoridagiga o‘xshab) yoki gapdagi ishtirokchilarni vertikal chiziqlar bilan ajratish mumkin. Chiziqchalarning soniga qarab, nechanchi bosqich ishtirokchisi ekanini aniqlash mumkin, masalan:

Dunyo || *olimlari* | *kosmosni* || *zabt* ||| *etmoqdalar*.

Transformatsion metod

Bu uslub zamonaviy uslublar ichida eng mukammali hisoblanadi. Chunki u tildagi sintaktik jarayonlarni tushuntirish imkoniga egadir.

Transformatsion uslub ta‘limotiga binoan tilning sintaktik tuzilishi asosida elementar yadro gaplar yotadi. Bu elementar sintaktik strukturalarning o‘zgarishi yangi turdagi mukammalroq strukturalarning (sintaktik birliklarni: so‘z birikmalari, gaplarning) yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Har bir murakkab gap boshqa bir elementar (yadro) gapning o‘zgarishi natijasidir. Bu uslub go‘yo til paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab, tilning to hozirgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ba‘zi olimlarning fikricha, tillarning rivojlanish bosqichlarini bolalar nutqi misolida ko‘rish mumkin.

Bolalar nutqini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular dastlab ayrim tovushlarni, ularning kombinatsiyasini, ayrim so‘zlarni, so‘z birikmalarini va keyinchalik sodda elementar gaplarni talaffuz qila boshlaydilar. Shundan so‘ng asta-sekin bog‘langan qo‘shma gaplarni (parataksis), keyinchalik esa, ergashgan qo‘shma gaplarni (gipotaksis) ishlata boshlaydilar. Transformatsion tahlil ana shu jarayonni

tushuntirish imkoniyatiga ega. Shu sababli uni kuchli uslub deb yuritishadi.

Bu uslub elementar (yadro) gaplar, transformatsion gaplar, transformatsion qoidalar, sintaktik paradigmalar kabi tushuncha va atamalarni qamrab oladi.

Elementar (yadro) gap deganda ikki yoki uch soʻzdan tashkil topgan «narsa va uning xususiyati» (rangi, hajmi va boshqalar), «narsa va uning ish-harakati», «narsa va uning holati», «narsa va uning soni» kabi maʼnolarni anglatuvchi sodda gaplar tushuniladi.

Masalan: *Eshik ochiq. Qoʻy oʻtlayapti. Karim uy qurmoqda* kabilar. Transformatsion gaplar deganda maʼlum transformatsion qoidalar yordamida murakkablashtirilgan gaplar tushuniladi.

Transformatsion qoidalar deganda elementar (yadro) gaplarni turli xildagi soʻz birikmalariga yoki turli boshqa xildagi gaplarga aylantiradigan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Transformatsion qoidalar uch xil boʻladi: a) elementar (yadro) gaplarni soʻz birikmalariga aylantirish; b) elementar (yadro) gaplarni boshqa sodda gaplarga aylantirish; d) ikki va undan ortiq elementar (yadro) gaplarni bitta murakkab yoki qoʻshma gaplarga aylantirish.

Birinchi qoidaga binoan, *Qush sayrayapti* degan elementar gapni *qushning sayrashi* yoki *sayrayotgan qush* kabi soʻz birikmasiga aylantirish mumkin. Ikkinchi qoida oʻz ichiga bir nechta mayda qoidalarni oladi. Masalan, soʻz qoʻshish, soʻz tartibini oʻzgartirish, soʻz tushirib qoldirish, aktiv shakldan passiv shaklga aylantirish va boshqalar.

Eshik ochiq *eshik ochiq emas*

Eshik ochiq *eshik ochiqmi?*

Uchinchi qoidaga asosan *Kech tushdi. Yomgʻir yogʻdi* degan elementar gaplar qoʻshma gapga aylantirilishi mumkin: *Kech tushdi va yomgʻir yogʻdi. Kech tushgach, yomgʻir yogʻdi kabi.*

Transformatsion uslubga asosan *Biz qushning sayrashiga mahliyo boʻlib oʻtirar edik* degan gap uch elementar (yadro) gapdan tashkil topgan: *Biz oʻtirar edik. Biz mahliyo edik. Qush sayrar edi.* Birinchi va ikkinchi elementar gaplar kompressiya (ixchamlash) deb atalmish transformatsion qoida asosida bir-biri bilan birikkan. Ikkala gapda ham umumiy ega *biz* boʻlgani uchun ulardan biri tushib qoladi. Xuddi

bu tarzda *edik* to'liqsiz fe'lining ham bittasi tushib qoladi, natijada *iz mahliyo o'tirar edik* gapi paydo bo'ladi. Bu gapga so'z qo'shish oidasiga asosan, *bo'lib* so'zini qo'shamiz. *Qush sayrar edi* gapini uqorida keltirilgan transformatsion qoidaga asosan so'z birikmasiga ylantiramiz: *qushning sayrashi*. Shularning hammasini qo'shsak, urakkab sodda gap hosil bo'ladi. *Biz qushning sayrashiga mahliyo o'lib o'tirar edik*.

Rus tilidagi «*приглашение писателя*» degan so'z birikmasi ikki il ma'no anglatadi: *kimdir yozuvchini taklif qilgan yoki yozuvchi imnidir taklif qilgan*. Buni transformatsion uslub vositasida uyidagicha izohlash mumkin. Bu so'z birikmasi asosida ikkita biriridan faqlanuvchi elementar (yadro) gap yotibdi.

1. *Писатель приглашает кого-то.*

2. *Кто-то приглашает писателя.*

Bu gaplarni birinchi transformatsion qoida asosida so'z irikmalariga aylantirib ko'raylik.

Писатель приглашает – приглашение писателя.

Кто-то приглашает писателя – приглашение писателя.

Natija shuni ko'rsatadiki, bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikkita ap so'z birikmasiga aylantirilganda bir xil natija berdi: *приглашение писателя*. Bu so'z birikma omonimik so'z birikmaligi uchun uning ra'nosi ham ikki xil.

Transformatsion uslub ana shunday muammolarni tushuntura olish ususiyatiga ega bo'lganligi sababli boshqa uslublardan ancha kuchli a takomillashgan sanaladi.

STATISTIK METOD

Statistik tahlil tilning barcha qatlamlarida birdek qo'llanishi sababli niversal uslub hisoblanadi. Bu uslub transformatsion tahlil kabi ishuntirish qobiliyatiga ega bo'lmasa-da, nutqda til elementlari va l hodisalarining ishlatilish darajasini aniq ko'rsatib beradi. Hozirgi amon tilshunosligi til hodisalarini faqat sifat tomonidan emas, balki uqdor jihatidan ham chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ma'lumki, uqdor o'zgarishi sifat o'zgarishi bilan uzviy bog'liqdir.

Til va nutq hodisalarining ishlatilish darajasi bir xil emas. Til hodisalarining statistik xususiyati lug'aviy ma'lumotlarga asoslanadi. Tillardagi so'z turkumi miqdor jihatdan o'rganilganda otlar lug'at tarkibining 50-60 %, fe'l 20-25 %, qolgan so'z turkumlari taxminan 15-20 % ni tashkil etishi aniqlangan.

Nemis tilidagi otlarda jins kategoriyasi borligi ma'lum. Uchta jinsning bu tildagi nisbati quyidagicha:

feminin jinsdagi otlar – 45 %

maskulin jinsdagi otlar – 38 %

neytral jinsdagi otlar – 17 %

Avval aytganimizdek, keltirilgan miqdor ko'rsatkichi ularning nutqda ishlatilish darajasiga to'g'ri kelmaydi. Ma'lumki, tillarda eng kichik so'z turkumi artikl va predlogdir. Bu ikki so'z turkumi ingliz, nemis, fransuz tillarida taxminan 20 so'zni o'z ichiga oladi. Lekin ularning ishlatilishi juda yuqori darajada. Fransuz olimi Gironing ta'бири bilan aytganda, bu so'zlar nutqning taxminan 50 % ini tashkil etar ekan.

Statistik uslub XX asrda paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda ba'zi tillardagi so'zlarning nutqda qo'llanilishi darajasiga ko'ra tuzilgan lug'atlar mazkur uslubning samarali natijasidir. Statistik uslub funksional uslublarni farqlashda ko'p ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida majhul nisbat badiiy asarlarga qaraganda ilmiy asarlarda ko'proq qo'llaniladi. Nutqda ergashgan qo'shma gaplar (gipotaksis) bog'langan qo'shma gaplardan (parataksis) ko'proq uchraydi va hokazo.

Shunday qilib, statistik tahlil til va nutq hodisalarini oddiy sanash, miqdorini aniqlash uslubi bo'lib, tilning tabiatini, qonuniyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Ma'no komponentlarini tahlil qilish metodi (definitson tahlil)

Keyingi yillar ichida so'zning ma'no anglatish jihatini mayda elementar ma'no anglatuvchi birliklarga bo'lib o'rganish rivojlandi. So'zning lug'aviy ma'nosini bu tarzda o'rganish tilshunoslikda ma'no komponentlarini tahlil qilish uslubi nomini oldi.

Ushbu uslub azaldan ko'p ma'noli so'zlarning o'zaro ma'nosini farqlashda leksikografiya sohasida ma'lum darajada qo'llanib kelingan.

Tilshunoslar bu uslubdan XX asrning 50-60-yillariga kelib, intaksisda ham foydalana boshladilar.

Soʻzning maʼnosini farqlovchi semalar yigʻindisidan tashkil topadi. *Sema* – soʻzning eng kichik maʼno birligidir.

Masalan:

<i>ayol – odam</i>	<i>qiz – odam</i>
<i>ayol jinsiga taalluqli</i>	<i>ayol jinsiga taalluqli</i>
<i>yoshi katta</i>	<i>yoshi katta emas</i>

Demak, ushbu uslubga koʻra soʻzning maʼnosi diskret elementar semalar yigʻindisidan (maʼnoviy komponentlar, belgilardan) tashkil topadi.

Hozirgi kunda maʼno komponenti uslubining ikki koʻrinishi mavjud:

1. *Soʻzning lugʻaviy maʼnosini tahlil qilish.*
2. *Koʻp pogʻonali definitson tahlil (KPDT).*

Ularning oʻzaro farqi quyidagicha:

1. Soʻzning asosiy maʼnosi (umumiy farqlovchi semalar) ushbu soʻzning lugʻaviy maʼnosida eksplitsit, yaʼni ochiq va aniq fodalangan boʻlsa, bunda definitson tahlilning birinchi turidan foydalanamiz.

blackhead – a stupid person

Bu yerda *blackhead* soʻzining izohi bu soʻzning insonga taalluqli ekanligi (person leksemasi – eksplitsit izoh) va bu insonning aqlan oʻtirmaz (stupid) ekanligini koʻrsatib turibdi.

2. KPDT asosan farqlovchi semalarni aniqlashda keng foydalaniladi. Agar soʻzning maʼnosi lugʻaviy maʼno izohida aniq boʻlmasa, yaʼni implitsit (yashirin) tarzda ifodalangan boʻlsa, unda koʻp pogʻonali uslubdan fodalangan holda til birligining semantik belgilarini aniqlaymiz:

*calf-stupid, silly, raw-indesent, morally
offensive-unpleasant, disgusting*

Ushbu soʻzning farqlovchi stilistik semasi KPD tahlilining 4 pogʻonasidagina aniqlanadi.

Hozirgi kunda KPD tahlili frazeologiyada ham keng foydalanmoqda:

to be on tenterhooks-in a state of discomfort or agony

Bu yerda *state* (holat, ahvol) soʻzi holatni eksplitsit ravishda ifoda etgan. Ammo, *to have bee in one's bonnet* frazeologik iborasi holat yoki harakatni anglatishini lugʻatlardan aniqlash qiyin.

Shuning uchun, ushbu iboraning lugʻaviy maqolasidagi asosiy komponentni KPDT yordamida tahlil qilib chiqamiz: *to have bee in one's bonnet -to be foolish or even fantastic on some matter, imbecile, mentally weak, in a state of stupor or lethargy.*

Holat maʼnosi beshinchi pogʻonada aniqlanadi. Oʻzbek tilida ham bunday misollarni keltirish mumkin. Masalan: *beti-shuvut boʻldi – uyatli holatda boʻlmoq* (eksplitsit ifodalangan). *Biroq taʼbi xira boʻldi, kayfiyati yomonlashdi* iborasi ruhiy holatni anglatadi (2-pogʻonada aniqlandi).

Hozirgi kunda maʼno komponentlari tahlili har ikki koʻrinishda tarjima nazariyasi va amaliyotida keng qoʻllanilmoqda. Ikki til oʻrtasidagi soʻzlarning mos kelish-kelmaslik hollarini ushbu uslub yordamida oʻrganish katta qulayliklar tugʻdiradi.

Amaliy mashgʻulotlarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Lingvistik tahlil deganda nimanı tushunasiz?
2. Lingvistik tahlil qanday talablarga javob berishi kerak?
3. Qanday lingvistik uslublarnı bilasiz?
4. Gaplarnı tahlil qilish uslubining ish uslubini tushuntirib bering. Uning qanday kamchiliklari bor?
5. Qarindosh tillarnı aniqlash uchun qaysi uslub ishlatiladi? Bu uslub kimlar tomonidan yaratilgan? Tarixiy-qiyosiy uslub hozirgi zamon tilshunosligida ham ishlatilishi mumkinmi?
6. Til oilasi va til guruhi deganda nima tushunasiz?
7. Substitutsiya uslubining vazifasini tushuntirib bering. Bu uslub tilning qaysi qatlamini tahlil qilishda koʻproq foyda keltiradi?
8. Distributiv uslub oʻz oldiga qanday vazifalarnı qoʻyadi? Morfologik, leksik-semantik va sintaktik distributsiya nima?
9. Bevosita ishtirokchilarga ajratish uslubi qaysi qatlam birliklari bilan shugʻullanadi? Bu uslub qanday savolga javob beradi? Iyerarxiya deganda nima tushunasiz? Gapdagi bevosita ishtirokchilar qanday yoʻllar bilan ajratiladi?
10. Nima uchun transformatsion uslub mukammal hisoblanadi? U qanday tushuncha va atamalarnı oʻz ichiga oladi? Elementar

(yadro) gaplar, transformalarni tushuntirib bering. Nechta asosiy transformatsion qoidalarni bilasiz? *Katta bayram kontsertini tomosha qildik* gapi necha xil ma'no anglatadi? Buni transformatsion uslub asosida tushuntirib bering.

11. Statistik tahlil uslubi qanday masalalar bilan shug'ullanadi? U qaysi til qatlamlarida ishlatilishi mumkin?

12. Ma'no komponentlarining tahlil qilish uslubi boshqa uslublardan qaysi xususiyati bilan farq qiladi? Sema atamasini tushuntirib bering. Bu uslub tilshunosga qaysi til birliklarini tahlil qilishda ko'proq foyda keltiradi va nima uchun?

13. Sizingcha qaysi uslub til hodisalarini o'rganishda ko'proq foyda keltiradi? Yuqorida keltirilgan uslublardan qaysi birini siz amalda qiyinchiliksiz qo'llay olasiz?

14. Quyidagi gaplarni gap bo'laklari uslubi yordamida tahlil qiling.

Ular bog'dan chiqish oldidan bir yigitga duch keldi (Oybek).

U ko'm-ko'k vodiyning markazidan ancha uzoqda (I. Rahim).

Manzura katta derazani ochib yubordi (A. Muxtor).

Хлопок нового урожая ещё не поступил в закрома Родины.

Молодые не верят в эти признаки (А. Седой).

В приведенном тексте содержится три скрытых вопроса (Л.П. Добраев).

Before them stood Linnet and her husband.

She does not look so starved as some of these young women.

Andrew Pennington displayed all the conventional reactions of grief and shock.

His personal possessions were not many (A. Christie).

15. Yuqoridagi mashqda keltirilgan gaplarni bevosita ishtirokchilar uslubi yordamida tahlil qiling.

16. Quyidagi sinonimlarni substitutsiya uslubi yordamida ma'nolarining yaqinlik darajasini aniqlang.

Yuz, bet, bashara, turq, oraz, chehra.

Uy, tom, kulba.

Yurak, dil, qalb.

Oston, ko'k, havo, falak, samo.

Гранидозный, громадный, большой, великопленный, огромный, крупный..

Битва, сражение, побоище, борьба, бой, драка.

Глаза, очи.

Грустить, печалиться, унывать, тосковать, вешать нос.
Худой, тощий, костлявый.
Есть, лопать, жрать, хватать.
to begin, to start, to commence.
soon, instantly, swiftly.
calm, quiet, cool.

17. Quyidagi so‘zlarning grammatik va leksik distributsiyasini aniqlang:

- 1) *qiyosh, ta'zim, paxta, kech, tun, chaqmoq, diyor;*
- 2) *oq, qizil, musaffo, sokin, qudratli;*
- 3) *chalmoq, chekmoq, yozmoq, qovjiramoq.*

18. a) Quyidagi so‘z birikmalari qaysi gaplarning transformatsiyasi natijasi ekanini aniqlang:

- *ochiq havo, bolalarning baland ovozda kuylashi;*
- *poyezdning to'xtamaganligi;*

b) Quyidagi gaplarni transformatsion uslub bilan otlashgan so‘z birikmalariga aylantiring:

Nazarov tashakkur aytdi.
Osmonda bulut qalinlashdi.
Maktab bolalar bilan to'ldi.
Yosh rassom asarlari ko'rgazmasi ochildi.

Самолёт произвёл посадку.

Я провёл три дня в колхозе.

Деревья наряжаются.

Олег усмехнулся.

John plays chess.

She stole a sideways glance at him.

I'll look after you.

I hardly think so.

I have a cabin.

19. Quyidagi so‘zlarni ma’no komponentlariga ko‘ra tahlil qiling hamda ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlang: *aka-uka, ora-singil, nabira-внук, nabira-внучка, kulba-том-том -уу, хижина-хата-дом.*

XIV BOB

FIKR ALMASHUV EHTIYOJINING TILLAR TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Xalqaro savdo-sotiq ishlari, iqtisodiy va madaniy aloqalarning vojlaniishi yuqorida qayd etilganidek, lingva-franka deb omlanuvchi millatlararo umumiy til masalasini olzarblashtiradi. Bu masala turli davr, hudud va tabaqalarda irlicha hal qilingan.

Hozirgi vaqtda tilshunoslik bunday tillarning bir necha turini iladi. Xitoy portlarida *«pijin-english»* degan til port xodimlari va oshqa davlatlardan kelgan kemalar dengizchilari o'rtasida aloqa ositasi xizmatini o'tamoqda. Bu til buzib aytiladigan ingliz tili ksikasi va xitoy grammatikasidan tashkil topgan. Masalan, ingliz lida *«pigeon»* so'zi *«kaptar»* degani bo'lsa, *«pijin-english»*da bu so'z talgan parrandani anglatadi. *«Mary»* so'zi ingliz tilida atoqli ot, rg keng tarqalgan ayollar ismidir, *«pijin-english»*da bu so'z bilan muman ayollarni atashadi va hokazo.

O'rta yer dengizi portlarida «sabir» tili lingva-franka vazifasini 'taydi. Bu til fransuz, ispan, italyan, grek va arab tillarining ementlaridan tashkil topgan.

Xalqaro diplomatiyada turli davrda turli til ishlatilgan: o'rta srlarda sharq mamlakatlarida arab tili, Ovrupoda esa lotin, undan eyingi davrlarda fransuz tili katta ahamiyatga ega bo'lgan. XIX srning birinchi yarmida bu til hattoki dunyo tili darajasiga o'tarilgan. Buyuk Britaniya imperiyasining mavqei oshishi bilan ansuz tili o'rnini ingliz tili egallay boshladi. XX asrda Germaniyada un va texnikaning rivojlanishi natijasida nemis tili ham dunyoga tez irqala boshladi, lekin bu ko'pga cho'zilmadi. Germaniya nperiyasining barbod bo'lishi bilan nemis tili ham o'zining avvalgi ravqeini yo'qotdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi bilan xalqaro iplomatik til masalasi ham hal bo'ldi. Hozirgi kunda BMTning lizomiga muvofiq ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari mazkur shkilotning rasmiy tillaridir. Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi

va Iqtisodiy hamda Ijtimoiy Kengash tomonidan arab tili ham rasmiy til sifatida qabul qilingan.¹

Xalqaro til sifatida *lotin* tili tilshunoslik tarixida chuqur iz qoldirdi. XIX asrgacha lotin tili ilm-fan sohasida Ovrupoda yakkayu yagona til sifatida qo'llanar, ilmiy maqola va ma'ruzalar, hattoki dissertatsiyalar ana shu tilda yozilar edi. Ilmiy adabiyotlarda *lotin* atamalarining ko'plab uchrashi ham shu tufaylidir. Hozirgi kunda botanika, zoologiya, meditsina, farmakologiya fanlarida *lotincha* nomenklatura xalqaro nomenklatura vazifasini o'taydi.

Millatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning rivojlanishi milliy tillarning taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ma'lumki, har bir til eng avval o'zining ichki imkoniyatlari asosida boyiydi, rivojlanadi, yangilanib boradi. Kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan yangi tushunchalarni tilda ifoda qilish uchun ona tili tizimidagi elementlardan mumkin qadar foydalanib, yangi so'z va iboralar tuziladi. Lekin shu bilan birga milliy tillarning boyishi faqat ichki resurslar bilan chegaralanmay, boshqa tillardan ham turli qo'shimcha, so'z va hattoki iboralar o'zlashtiriladi. Hozirgi ingliz tilining amerika variantida *flopnik* degan so'z bor. Bu so'z ingliz tilida taxminan 1960-yillarda paydo bo'lgan. Uning tarixi quyidagicha: rus fanining fazodagi muvaffaqiyatlari ko'pchilik tillar leksikasini ana shu sohadagi so'z va iboralar bilan boyitdi. Boshqa tillar qatori ingliz tili ham rus tilidan *sputnik* so'zini o'zlashtiradi. Amerika Qo'shma Shtatlari uchirgan yerning sun'iy yo'ldoshlari bir necha bor muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin AQSh matbuoti ularni *flopnik* deb atadi; *to flop* – *barbod bo'lmoq, yiqilmoq* ma'nolarni anglatadi. Demak, *flopnik* so'zi internatsional so'z; o'zak *flop* – inglizcha, so'z yasovchi elementi esa ruscha *-nik*. Shunday qilib, bu so'z *sputnik* so'zining antonimi sifatida ishlatilgan.

Bunday misollarni tillarda ko'plab uchratish mumkin.

¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Asosiy omillar. BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi. –Toshkent: 2001 yil. 6-bet.

Xalqaro sun'iy tillar

Yuqorida qayd qilinganidek, xalqaro til masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan azaldan olimlar xalqaro aloqa vositasi sifatida sun'iy til yaratishga harakat qilishgan. Bunday tillar faqat XIX asr oxirida paydo bo'la boshladi.

1880-yilda Germaniyada «volyapyuk» degan til loyihasi e'lon qilindi. 1887-yilda esa Polshada Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto*» tili paydo bo'ldi.

Bu ikki tildan esperanto ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. U tez orada urli mamlakatlarga tarqaldi. Dastlab bu til bilan marka yig'uvchilar (filatelistlar), numezmatlar (tanga pul yig'uvchilar), sportchilar, ijorat ahli, keyinchalik faylasuflar, filologlar va hattoki yozuvchilar ham qiziqib qoldilar. Esperanto tili darsliklari ko'plab nashr qilina boshlandi. Ba'zi adabiy asarlar bu tilga tarjima qilindi, ba'zi yozuvchilar esa bu tilda adabiy asarlar ham yaratishdi. Lekin bu asarlarning badiiy qiymati yo'q darajadadir, chunki sun'iy tillar tabiiy tillardan farqli o'laroq stilistik vositalardan holidir. Ular tabiiy milliy tillarga nisbatan ikkilamchi, yordamchidir. Bu tilda yozuvchilarning soni chegaralangan. Bulardan tashqari sun'iy tillarning asosiy kamchiligi – ularning rivojlanmasligi, bu tilni ona til sifatida hisoblaydigan jamiyatning yo'qligidir. Agar tabiiy tillar muvofiq ravishda evolyutsiya yo'li bilan doimo rivojlanib tursa, sun'iy tillardagi yangiliklar sun'iy ravishda amalga oshiriladi. Ana shu sabablarga ko'ra shu va shunga o'xshash boshqa tillar hech qachon xalqaro til vazifasini o'tay olmaydi.

Haqiqiy xalqaro til tabiiy milliy til asosida paydo bo'ladi. Lekin bunday tilning paydo bo'lishi uchun ma'lum tarixiy shart-sharoit yaratilishi lozim. Bunday til buyruq yo'li bilan kiritilmay, balki jamiyatlarning erkin ixtiyoriy xohishi, irodasi bilan maydonga keladi.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda ingliz tilining mavqei muhim o'rgan sari mustahkamlanib bormoqda. Lingva-franka vazifasini o'tashda hozircha unga raqobat qiladigan boshqa til yo'q.

Bu masalada 6 yil ichida ketma-ket ikki marta chop etilgan Deyvid Kristalning «*English as a Global Language*» («*Ingliz tili dunyo tili*

sifatida) kitobida keltirilgan dalillar o‘ziga xos xususiyatga ega. Muallifning fikricha, biror til lingva-franka yoki xalqaro til vazifasini o‘tashi uchun u «benuqson strukturaga» ega bo‘lishi, boshqa tillardan so‘z boyligi ustunligi, o‘tmishda bu tilda ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lishi, til egalarining o‘tmishdagi madaniyati boshqalarnikidan yuqori bo‘lgani, mazkur xalqning u yoki bu dinga mansubligi masalani hal qilmaydi. Dunyo tili vazifasini bajaruvchi tilda gaplashuvchi xalqlarning xalqaro miqyosdagi mavqei kuchli bo‘lishi lozim. Ayniqsa, uning siyosiy va harbiy qudrati bu o‘ta muhim masalada yetakchi rolni bajaradi.¹

Xalqaro til masalasi globallashuv jarayoni bilan uzviy bog‘langanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bu jarayon milliy tillarning istiqboliga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ba’zi olimlarning bu jumboq yuzasidan kuyinishlari ham bejiz emas. Hindistonlik Sharada Prasad «Bizning tillarimiz istiqboli qanday bo‘ladi?» degan maqolasida bu mamlakatda taxminan 40 yoshdan oshganlar hisobga olinmasa, yetishib kelayotgan yosh avlod nafaqat shaharlarda, balki chekka o‘lkalarda ham o‘zaro ingliz tilida gaplashishga, ingliz tilida chop etilgan adabiyotlarni o‘qishga, televizorda inglizcha eshittirishlarni ko‘rishga harakat qilayotgani to‘g‘risida fikr yuritib, agar ahvol shu tarzda davom etaversa, Hindistondagi milliy tillar yaqin kelajakda sanskrit va tulu tillari qatoridan joy olib qolishi mumkinligi haqida tashvishlanib yozayotganini tushunsa bo‘ladi.²

Amaliy mashg‘ulotlarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Millatlararo va xalqaro tillar deganda nimani tushunasiz?
2. Kishilik faoliyatining taraqqiyoti jarayonida millatlararo til masalasi qanday hal qilingan?

¹ David Crystal. *English as a Global Language*. Cambridge University Press. 2003, 9-bet.

Bu masalada yana Schmidt R.ning *Language Policy and Identity Policies in the United States*. Temple University Press. – Philadelphia: 2000 asarini o‘qing.

² H.Y.SH. PRASAD. “What if our languages don’t survive?”. *The Asian Age*. 19 January 2005. New Dehli. p.16.

3. Xalqaro til yaratilishiga oid qanday loyihalar mavjud?
4. «Lingva-franka» deganda nimani tushunasiz?
5. Dunyoda eng ko‘p tarqalgan tillarni qayd eting.
6. BMT da qabul qilingan rasmiy tillar nechta va ular qaysilar?
7. Ko‘p tillilik muammosi qanday yo‘llar bilan yechilishi mumkin?
8. Sun‘iy tillarning nechta turini bilasiz?

YOZUV. YOZUVNING PAYDO BO'LISHI

Til dastlabki qarashda barqaror, o'zgarmas fonetik, leksik va grammatik sistemani tashkil etadi. Masalan, bizga fikr almashish quroli bo'lib xizmat qilayotgan o'zbek tili, bobolarimizga ham, otalarimizga ham birday xizmat qilib kelgan. Bobo va nabira o'zaro gaplashayotganlarida na birinchi va na keyingi avlod til nuqtai nazaridan hech qanday qiyinchilik sezmaydi. Ular doimo bir-birlarini tushunishadi. Lekin shu bilan birga, til qotib qolgan narsa emas. Tilga chuqurroq yondashilsa, bunga ishonch hosil qilinadi. Til har kun, har daqiqa o'zgaruvchan hodisadir. Tildagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar shunday sekinlik bilan bo'ladiki, buni bir avlodning yashash davrida ajratib olish va uni qayd qilish odatda amrimaholdir. Uch-to'rt avloddan keyin esa tilning leksik, grammatik qatlamlaridagi siljishlar ko'zga tashlana boshlaydi. Bunday siljishlarni biz bir narsa tufayli – u ham bo'lsa, yozuv orqali bilib olishimiz mumkin (gap yozuv paydo bo'lgandan so'nggi davr haqida boradi). Agar yozuv bo'lmasa, til evolyutsiyasi to'g'risida bizda hech qanday tasavvur bo'lmasligi mumkin edi. Faqat yozuv borligi uchungina, biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish sharafiga muyassar bo'lamiz: bu rivojlanishni qayd qilamiz, oldingi avlodlarimiz tilini o'rganib, uni hozirgi davrdagi til bilan qiyoslaymiz. Tilning rivojlanish yo'lini o'rganamiz, tilga kirib kelayotgan yangiliklarni va ularning sababini aniqlaymiz.

O'qish va yozuv hozirgi vaqtda shunchalik odat tusiga kirib qolganki, go'yo ular bir umr til bilan birga bog'liq bo'lgandek ko'rinadi. Aslida yozuvning paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ba'zi tillarning hanuzgacha yozuvi yo'q. Amerika qit'asi mahalliy aholisining ko'pchilik tillarini bunga misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Yozuvning paydo bo'lishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, u madaniyat va tilning taraqqiyotiga ijobiy hissa qo'shdi. Yozuv voqea va hodisalarni abadiylashtirish hamda voqea va hodisalarni (axborotni) uzoq masofaga yetkazish imkonini berdi.

Piktografik yozuv

Ko'pchilik olimlarning fikricha, har qanday yozuv asosida nusavvirlik yotadi. Atrof-tevarakdagi narsalarni suratda aks ettirish tamma xalqlarga xosdir. Shuning uchun hozirgi zamon yozuvi bo'lmagan paytda odamlar ba'zi hodisa va voqealarni uzoq masofaga etkazish niyatida yoki zamonda abadiylashtirishni, jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish yo'li bilan amalga oshirishgan. Bunday yozuv *piktografik* yozuv deb nom olgan. Bu atama ikki so'zdan iborat bo'lib, birinchi yarmi lotincha *pictus* (*chizilgan*) va ikkinchi yarmi grekcha *grapho* (*yozaman*) degan ma'nolarni anglatadi. Bu yozuvning birliklarini *piktogrammalar* deb atashadi. AQShning aniq olimi L. Blumfeld bu yozuvga misol tariqasida quyidagilarni keltiradi: Amerikaning mahalliy odjibva qabilasining bir a'zosida daraxtning uzun postlog'i bo'lgan. Postloqda bir qancha shakllar chizilgan bo'lib (tulki, boyo'g'li va boshqalar), u aytiladigan nuqaddas qo'shiq tartibini ko'rsatar edi. Yana bir misol: mandan qabilasining bir a'zosi savdogarga ikki bir-birini kesib o'tgan chiziq va bu kesmalarning bir tomoniga bir miltiq bilan qunduz va uning tomoniga o'ttizta parallel chiziqchalarni, ikkinchi tomonda esa savsar, suvsar va qo'tosning surati chizilgan maktubni yuborgan. Bu xatning na'nosi quyidagicha bo'lgan: «*Men savsar, suvsar va qo'tos no'ynalarini bir miltiq va o'ttizta qunduzning terisiga almashtirishga hozirman*».

Yozuvning bu turi mukammal bo'lmay, u birinchidan, rasmlar orasidagi munosabatlarni, ularning tartibini ko'rsata olmaydi va uning natijasida bir maktubni bir necha xil o'qishga, talqin qilishga yo'l qo'yadi, ikkinchidan, mavhum tushunchalarni aks ettirish imkoni yo'q darajadadir.

Ideografik (logografik, iyeroglifik) yozuv

Tushunchalar mavhum tafakkurning rivojlanishi natijasida piktografik yozuv asta-sekin mukammallashib bordi va natijada *yeroglifik* (grekcha «*idea*» – *tushuncha* va «*grapho*» – *yozaman*) degan o'zlardan tashkil topgan) yozuv paydo bo'ldi.

Ba'zi olimlar yozuvning bu turini logografik (grekcha «*logos*» – soʻz va «*grapho*» – yozaman degan soʻzlardan tashkil topgan) yozuv deb atashadi, chunki bunday yozuvda undagi simvollar faqat bizni oʻrab turgan muhitdagi narsalarni aks ettirmay, tildagi soʻzlarni ham aks ettiradi. Tildagi har bir soʻz oʻz simvoliga ega boʻladi. Ideografik (logografik) yozuvning birligini ideogramma (logogramma) deb yuritishadi. Masalan, *Koʻl tez kunda qurib qoldi*, deydigan boʻlsak, bu gapda tashqi dunyodagi bir predmet toʻgʻrisida gap borayotir. Ideografiya nuqtai nazaridan bu yerda bir simvol bor, lekin gap besh simvoldan tashkil topgan. Maʼlumki, tildagi hamma soʻzlar tashqi dunyodagi narsalarga mos kelmaydi.

Logogrammaning piktogrammadan farqi shundaki, piktogramma bevosita predmetni aks ettiradi, logogramma esa soʻzning maʼnosini izohlaydi. Demak logogramma bevosita predmet shakli boʻlmay, u soʻz maʼnosini aks ettiruvchi shartli belgidir.

Bu yozuvdagi qiyinchiliklardan biri, maʼnosini shakllar bilan aks ettirish qiyin boʻlgan logogrammalarni ishlab chiqishdir. Qadimgi arablar «yuz ming» sonini itbaliqning shakli orqali izohlashgan. Xitoyliklar esa, «yaxshi» soʻzini ayol kishi bilan bola ramzi orqali koʻrsatishgan.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan afzalligi quyidagilardan iborat:

a) *logografik yozuv xabar qilinishi lozim boʻlgan matnni ancha mufassal aks ettira oladi;*

b) *piktografik yozuvda soʻz tartibi, soʻz shakllari noaniq boʻlsa, logografik yozuvda bu masalalar umuman hal qilingan;*

d) *piktografik yozuv subyektivlikka, ixtiyoriylikka yoʻl qoʻysa, logografik yozuv barqaror logogrammalardan tashkil topgan.*

Logografik yozuvning biroz mukammallashgan shakli *iyeroglifik* yozuv deb nom olgan. Iyeroglif soʻzi grekcha «*hiyeroglyphoi*» soʻzidan olingan boʻlib, u «*muqaddas yozuv*» demakdir. Iyerogliflarda oz boʻlsa ham, ifodalanuvchi narsa bilan bogʻlangan biror xususiyat saqlanib turadi. Bu yozuv qadimgi Arabistonga, hozirgi Xitoyga xosdir.

Agar logografik yozuvda baʼzi mavhum tushunchalarni ifodalash qiyin boʻlgan boʻlsa, endi iyeroglifik yozuvda bu masala ham uzil-kesil hal boʻldi. Bu yozuvda alfavit tushunchasi ham paydo boʻla

boshlaydi. Chunki iyeroglifik yozuv asosida yozilgan matnni o'qish uchun bir qancha mavhum tushunchalarni anglatuvchi belgilarni va ko'p miqdorda iyerogliflarni bilishga to'g'ri keladi.

Ma'lum shakllar ma'lum narsalarga bog'lanib qolgandan keyin ular yozuv shakllari deb ataladi. Yozuv shakllari barqaror va doimiy shakl bo'lib, u hammavaqt kishilar tomonidan bir xil qabul qilinadi va ma'lum sharoitlarda boshqalarga tegishli ma'lumotlarni yetkazish maqsadida qo'llaniladi. Kishilar bu shakllarni yaxshi o'zlashtirib olinganlaridan so'ng bu shakllar bilan ular ifodalayotgan narsalar orasidagi o'xshashlik katta ahamiyatga ega bo'lmay qoladi. Tez yozish va ko'proq ma'lumot yetkazish maqsadida odamlar shakllarning ba'zi ikkinchi darajali elementlarini tushirib qoldiradilar va natijada bu shakllar bilan ular ifodalayotgan narsalar orasidagi o'xshashlik kamayib, oxir natijada u yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bunday o'zgarishlar yozuvni qanday materialga yozilayotganiga va qanday yozuv quroli ishlatilayotganiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Qadimgi Mesopotamiyada qo'llanilgan *mixxat* ana shunday o'zgarishlarni o'z boshidan kechirgan logografik yozuvning bir ko'rinishidir. Bu shakllar turli kombinatsiyadagi uzun va qisqa nixsimon chiziqlardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosida piktoqrammalar va logogrammalar yotgan bo'lishi aniqdir. Mazkur yozuvlarning shu darajada o'zgarib ketishiga sabab, ularning loyga yozilgan bo'lishidir.

Yuqorida keltirilgan yozuvlarning hamma turi o'qish va o'qitish shahlarini ancha mushkullashtiradi. Yozuvni ommaviylashtirish uchun uni albatta osonlashtirish, soddalashtirish kerak edi. Bunday zaruriyatning tug'ilishiga yana boshqa obyektiv sabablar ham bor edi: savdo-sotiqning rivojlanishi va davlatlarning barpo bo'lishi ham yuqorida zikr etilgan jarayonni tezlashtirishga sabab bo'ldi. Yozuvning soddalashtirish jarayoni bir necha yo'llar bilan amalga osha boshladi.

1. Leksik elementlarning sonini yangi shakllar bilan ko'paytirish orqasiga, yangi tushunchalarni mavjud logogrammalar yoki iyerogliflar kombinatsiyasi orqali ifodalashdir. Bu yo'l bilan xitoy yozuvi rivojlana boshladi. Masalan, «ko'z yoshi»ni ifodalash uchun «ko'z» va «suv»ning kombinatsiyasidan, «asirlik»ni ko'rsatish uchun «oyoq»

va «doira» yoki «aylana» kombinatsiyasidan foydalanish kerak edi. Logografik alfavitni bu yo'l bilan soddalashtirish va qisqartirish unumsiz edi.

2. Logografik yozuvni soddalashtirishning ikkinchi yo'li – so'zlarning grammatik shakllariga taalluqliligidir. Masalan, logogrammalarni o'zak sifatida qoldirib, grammatik ma'nolar uchun yangi logogrammalarni o'zak logogrammalar ma'nosiga qarab qo'shish. Bunday usul tilning grammatikasi uchun birmuncha siljish bo'lsa ham, tildagi leksik birliklarni, ya'ni so'zlarning sonini qisqartirishga xizmat qilmas edi.

3. Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va progressiv usuli *fonografik yozuvga* o'tish edi. Bu so'z grekcha bo'lib, u «*phone*» tovush «*grapho*» yozaman degan ma'nolarni anglatadi. Shunday qilib, fonografik yozuv tilning faqat grammatik tuzilishini ifodalamay, balki uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettirar edi.

Fonografik yozuv

Fonografik yozuv bir turli bo'lmay, u ham ko'p ko'rinishlarga ega. Shulardan biri – sillabik yoki bo'g'in yozuvidir. Bu yozuv qo'shma so'zlarni mayda qismlarga bo'lish yo'li bilan paydo bo'ldi. Bu mayda qismlar hozirgi vaqtdagi bo'g'inlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib, iyerogliflar bo'g'inlarni ifodalaydigan bo'ldi. U yoki bu so'zni yozish lozim bo'lsa, ana shu bo'g'inlarni bir-biriga qo'shish usuli bilan tuzishar edi. Bu yozuvga qadimgi hind yozuvi *devanagari* yaxshi misol bo'la oladi. Bu yozuvdagi har bir ishora undosh tovushlarning *a* unlisi bilan qo'shib talaffuz qilinishini nazarda tutadi, ya'ni *pa, ba, da, ga, sha* va shu tartibda. Agar boshqa unlini talaffuz qilish zarur bo'lsa, unda yo harflarning ustiga yoki tagiga ma'lum belgilar qo'yiladi.

Qadimgi Mesopotamiyaliklarning mixxati ham shunday bo'g'inlarga ega edi: *ma, mi, mu, muk, mut, nam* va hokazo. Bu birliklar logogramma sifatida qo'llanishi bilan bir qatorda, yangi so'zlarni yasashda ham ishtirok qilardilar. Yangi so'zlarni yasashda ana shu logogrammalardan qaysi biri to'g'ri kelsa, shularning

kombinatsiyasidan foydalanilar edi. Shunday qilib, logografik yozuv birliklari asta-sekin fonografiya vazifasini bajara boshladi. Boshqacha qilib aytganda, bo‘g‘inlar tovushlarning vazifasini o‘tay boshladi. Bo‘g‘inlarning soni turlicha edi. Masalan, Kipr orolidagi qadimgi greklar taxminan 65 ta sillabariydan (bo‘g‘in birligidan) foydalanishgan. Gvineya orolidagi vaylar yozuvi 226 sillabariydan ashkil topgan.

Ba‘zi bo‘g‘in yordami bilan so‘z tuzish imkoniyati kam bo‘lgan illar, keyinchalik bo‘g‘inlar bilan ishlatiladigan turli belgilar kashf etishdi. Tilshunoslikda bu belgilar *diakritik belgilar deb* nom olgan bunday belgilar hozirgi zamon o‘zbek tilida ham mavjud: o‘, g‘ harflaridagi belgilar shular jumlasidandir).

Bunday diakritik belgilar qadimgi hind tilida ham keng qo‘llanilgan. Ularda undoshdan keyin unlini va, hattoki, unli dan oldin uruvchi undoshni bekor qiluvchi belgilar ham bo‘lgan. Keyinchalik bu tilda ham undoshlar uchun, ham unli lar uchun yangi qo‘shimcha imvollar kashf etilib, uzil-kesil fonografik yozuvga, ya‘ni tildagi so‘z hakllarini fonetik birliklar – tovushlar orqali ifodalashga o‘tildi. Agar illabik (bo‘g‘in) yozuvi fonografik yozuvning birinchi bosqichini ashkil qilsa, har bir tovush uchun o‘zining ramzini yaratish, ikkinchi bosqich bo‘ldi.

Shu munosabat bilan, hozirgi biz ishlatayotgan harflarning kelib chiqishi diqqatga sazovor. Ba‘zi olimlarning yozishlariga qaraganda, biz hozir qo‘llayotgan yozuvga Arabistonda finikiylar tomonidan asos olingan. Finikiylarning yozuvlari dastlab qadimgi greklar tomonidan o‘zlashtirilgan. Bu o‘zlashtirish jarayonida yunonlar finikiylarning yozuviga anchagina yangiliklar kiritib, keraksiz elementlarni tashlab, o‘zlarining tillariga moslashtirishgan. Yunonlardan bu yozuv asta-sekin O‘rta Yer dengizi atrofida joylashgan boshqa xalqlarga ham arqala boshlagan. O‘rta asrlarda bu yozuv greklardan bolgarlarga, erblarga va ulardan ruslarga o‘tgan. Yuqorida qayd qilinganidek, har bir til bu yozuvni qabul qilayotganda, mazkur tilning tovushlar izimi talabiga binoan o‘zgartirishlar kiritgan. Shuni ham aytish kerakki, bunday alfavitlarning harflari oddiy bir tovushni ifodalamay, balki u yoki bu tilning asosiy tovushlariga, ya‘ni fonemalariga mos kelardi. Shuning uchun bu alfavitlarni fonematik alfavitlar deyish

mumkin. Yozuvning bu turi eng progressiv bo‘lib, ko‘p jihatdan iyeroglifik va sillabik yozuvdan afzalliklari bor. Dunyodagi alifbolar son jihatdan turlichadir. Miqdor jihatdan eng katta alifbo Kambodjaniki bo‘lib, unda 74 harf bor. Eng kichik alifbo esa Solomon orolidagi alifbo bo‘lib, unda jami 11 harf bor.

GRAFIKA

Grafika atamasi grek tilidagi «*graphikos*» so‘zidan olingan bo‘lib, «*yozilgan*», «*ifodalangan*» degan ma‘nolarni anglatadi. Bu harflarning yozilishi shakllarini va harf bilan tovush orasidagi munosabatni o‘rganadigan fandır. Shunday qilib, grafikani harflarning yozilish shakli, turi, xususiyatlari, so‘zdagi o‘rni va shu munosabat bilan ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari qiziqtiradi. So‘nggi yillarda ba‘zi psixologlar ayrim shaxslarning harflarni yozish xususiyatiga qarab, bu shaxsning xarakterini aniqlash yo‘lida ancha ishlar qildilar.

O‘zbek tilining alfavitidagi ba‘zi tovushlar turli grafik shakllarga ega. Masalan, kirill yozuvida T harfining bosma shakli bilan yozma shakllari orasida ancha farq bor. O‘zbek tilida B harfining so‘zdagi o‘rniga qarab, har xil talaffuz qilamiz: so‘zning boshida, yoki unli oldida u b zaylida talaffuz qilinadi, masalan, *barobar*, *darboza* va h.k. Lekin ba‘zida so‘zning oxirida p deb talaffuz qilinadi: *kelib (p) ketdi*, *o‘qib (p) chiqdi* va boshqalar. Bu masalalarda ingliz, fransuz tillari alohida o‘rin tutadi. U tillarda harf bilan talaffuz orasida juda katta farq yotadi. Bu to‘g‘rida quyiroqda, orfografik tamoyillar to‘g‘risida gap borganda batafsil gapiriladi. Rus alfavitida sillabik fonemalar ham uchraydi: masalan, *ya*, *yu*.

Garchi fonografik yozuv hozirgi vaqtda keng tarqalgan bo‘lsa ham, kundalik hayotda yozuvning boshqa turlari ham uchrab turadi. Chunki har bir turning o‘ziga xos afzalligi bor. Bugungi kunda piktografik yozuv odatda reklama ehtiyojlari uchun, mehmonxonalarda mahalliy tilni bilmaydigan xorijiyning mushkullarini osonlashtirish maqsadlarida keng ishlatiladi (masalan, sataroshxona, ustaxona va shu kabilar eshik-derazalaridagi hamda jismoniy tarbiya va sport turlarini ifodalovchi belgi-suratlar).

Ideogrammlar ko'cha harakatini ta'minlashda (masalan, undov belgisi ogohlantirishni, doira ichiga olingan to'g'ri to'rtburchak yurish man etilishini va boshqalar), kartografiyada (qazilma boyliklar belgisi, katta shaharlar, territoriyaning hayvonot dunyosi va boshqalar), matematikada (sonlar va belgilar: 1, 6, 9, +, -, =, ...), kimyoda (N_2O , ..) keng qo'llaniladi.

Piktogramma va logogrammalarning hozirgi vaqtda ko'plab qo'llanilishiga sabab, ularning tushunchalarni aniq, qisqa va tajamli ifodalashidir. Masalan, $12 + 29 = 41$ deb so'zlar bilan yozsak, bizga qancha vaqt va masofa kerak bo'lishini aniq tasavvur qilamiz. Bundan tashqari piktogramma va logogrammlar odamlarning qaysi tilga mansub bo'lishidan qat'i nazar, hammaga tushunarlidir.

Yuqorida qayd etilgan masalalar grafika shug'ullanishi lozim bo'lgan masalalardir.

ORFOGRAFIYA

Orfografiya so'zi ikkita grekcha so'zdan tashkil topgan, ya'ni «*orthos*» – «to'g'ri» va «*grapho*» – «yozaman». Demak, orfografiya so'zining ma'nosi «to'g'ri yozishdir». Shu sababli orfografiyaning asosiy vazifasi – alfavitning yozuvdagi qo'llanish qoidalari, so'zlarning yozilishi va bo'g'in ko'chirishdir. Agar hozir ishlatiladigan alfavitlar tildagi mavjud tovushlarga miqdor va sifat nuqtai nazaridan bir-biriga teng bo'lsa, orfografiyaning vazifasi yarmiga qisqarar edi. Lekin afsuski, bunday alfavit yo'q darajada; alfavitdagi harflar soni tildagi nutq tovushlari soniga hamma vaqt nam to'g'ri kelavermaydi. Avvallari so'zlarning yozilishini tartibga soluvchi qoidalar bo'lmagan. Hamma o'zicha, o'zi to'g'ri deb bilgan usulda harflarni ishlatgan. Bu narsa, ba'zi hollarda tushunmovchiliklarga ham olib kelgan. Orfografik qonun va qoidalarning kelib chiqishiga sabab ana shular bo'lgan.

Tilshunoslik fani tarixida harflarni ishlatishning oltita tamoyili (prinsipi) qayd qilingan. Lekin bulardan asosiysi beshta: *fonetik, fonematik, tarixiy (yoki an'anaviy), morfologik va simvolik*

tamoyillardir. Bu tamoyillarning har birini izohlashga o'tishdan oldin shuni aytish kerakki, u yoki bu tilda ular ayrim, sof holda uchramaydi, balki aralash holda uchraydi. U yoki bu tildagi bosh orfografik tamoyilni biz ular orasidagi nisbatdan aniqlab olamiz: qaysi tamoyil ko'proq qo'llanilsa, ana shu asosiysi hisoblanadi.

Fonetik prinsip. Bu prinsip hozirgi vaqtda asosiy prinsiplardan biridir. Fonetik prinsipga asosan talaffuzda qanday tovush eshitilsa, shunga mos keladigan harf yozilishi lozim. Bunga eng yaxshi misol o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigining qo'shimchasidir: ya'ni *-ga, -ka, -qa*. So'zning oxirida bularning qaysi biri eshitilsa, shunisi yoziladi. Masalan: *uyga, dalaga, botqoqqa, terakka, eshkakka* va hokazo. Bu qo'shimchalar ham har xil yozilishidan qat'i nazar, tilda yagona vazifani o'taydi. Fonetik prinsipga o'zbek tilidan yana bir misol keltirish mumkin: *qorin, burun, singil* kabi so'zlarga egalik, kelishik qo'shimchalari qo'shib kelganda, ulardagi unlilarning eshitilmasligi (talaffuz qilinmasligi) natijasida tushib qoladi: *qorniga, burnim, singling* kabi.

Rus tilidagi *bez-* morfning yozilishi ham fonetik prinsipga bo'y sunadi, bu morfning oxiridagi tovush qanday eshitilsa, shunday yoziladi, masalan: *бездушный, обездоленный, бессрочный, беспечный* kabi.

Lekin na o'zbek tilining va na rus tilining orfografiyasi fonetik prinsipga to'la-to'kis bo'ysunmaydi. Fonetik prinsipga belorus tilining orfografiyasi amal qiladi.

Fonematik prinsip. Fonematik prinsipga asosan morflardagi tovushlar qaysi pozitsiyada va qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, bir xil yozilishni talab qiladi. O'zbek tilidagi o'tgan zamon fe'lining *-di* qo'shimchasi o'tgan zamon ravishdoshi qo'shimchasi *-(i) b*, bu prinsipga yaxshi misol bo'la oladi. Masalan, *olib bordi* deganimizda nazarda tutilayotgan ikkala qo'shimcha ham o'zining asl holicha, ya'ni *b* va *d* deb talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Lekin *olib ketdi* deganimizda birinchisi *-p* va ikkinchisi *-t* deb talaffuz qilinsa-da, biz fonematik prinsip asosida yozuvda *b* va *d* larni saqlab qolamiz. Yoki *olib bordi* deyilganda, nutqda bittagina *b* talaffuz qilinadi: *oli-b-ordi*. Tillardagi bunday hodisa *gaplogiya* deb nom olgan (tildagi yonma-yon turgan ikki o'xshash elementning bir-biri

ilan qo'shilib ketishi va ularning faqat bittasi talaffuz qilinishi *aplogiya* deyiladi). Lekin shunga qaramay, fonematik prinsiplar t'sirida biz birinchi so'zning oxirida ham, ikkinchi so'zning boshida ham *b* ni yozamiz.

Orfografik tamoyilning bu turi rus tilida ayniqsa ko'zga yaqqol ishlanadi. Chunki yuqorida aytganimizdek, bu prinsip rus tilida hal iluvchi ahamiyatga ega. Masalan, *deraza* so'zi *акно* deb eshitilsa ham, *окно* deb yoziladi; suv so'zi *вада* bo'lib eshilitilishiga qaramay, *ода* deb yoziladi; *to'qimoq* so'zi *визать* deyilsa ham, *вязать* deb yoziladi; *mos kelmoq* so'zida *f* eshitilsa ham (*совнадать*), *в* yoziladi a hokazo.

Tarixiy prinsip. Tarixiy yoki an'anaviy tamoyil asosida so'zlar larda mavjud hozirgi vaqtda talaffuz qilinadigan tovushlarga moslanib yozilmay, balki tarixda, ya'ni avval o'tmishda qanday yozilgan bo'lsa, hozir ham shunday yoziladi. Ko'p g'arbiy Ovrupo llari shu tamoyilga bo'ysunadi. Hozirgi zamon ingliz va fransuz llari bu tamoyilga eng yaxshi misoldir. Masalan, ingliz tilidagi *ashamoq* so'zi *to live* deb, ishlamoq so'zi *to work* deb, *yomon o'rmoq* so'zi *to condemn* deb, *qarz* so'zi *debt* deb yoziladi. Talaffuzda esa *e*, *r*, *n*, *b* lar tushib qoladi, ya'ni [liv] [wə:k] [kən'dem] [et].

Shu tildagi *light*, *daughter*, *thorough* (*yorug'*, *qiz*, *sinchiklab*) so'zlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Birinchi so'zdagi besh harfdan uchta, ikkinchi so'zdagi sakkizta harfdan to'rttasi, uchinchi so'zdagi ham sakkizta harfdan to'rttasi talaffuz qilinadi, ya'ni [lait], [ˈdɔ:tə], [ðrə].

Fransuz tilidagi *Paris* (*Parij*) so'zidagi oxirgi harf o'qilmaydi yoki *omologue* so'zidagi to'qqizta harfdan faqat oltitasi talaffuzda o'z aksini topadi, ya'ni [omolog].

Nemis tilida bunday misollar ingliz va fransuz tillaridagiga qaraganda kamroq bo'lsa ham, lekin uchraydi, masalan: *Tisch* (*stol*) so'zi beshta harfdan iborat bo'lsa, uchta tovush talaffuz qilinadi. Lekin *Deutsch* (nemis tili) so'zida yettita harf bo'lsa ham, faqat to'rt tovush talaffuz qilinadi va boshqalar.

Morfologik va simbolik prinsiplar. Morfologik va simbolik tamoyillar so'zlarning yozilishida grammatika va leksikaning

manfaatlarini nazarda tutadi. Bunga rus tilidagi ba'zi so'zlarning yozilishi qulay misol bo'la oladi. Rus tilidagi yumshatish belgisi yumshatish lozim bo'lgan undoshlardan keyin ishlatiladi, masalan, *мел – мель, был – былъ* va hokazo. Lekin ayrim hollarda bu belgi undoshni yumshatish maqsadida emas, balki so'zning qaysi grammatik jinsga kirishini ko'rsatish uchungina qo'llaniladi: *мышь, фальш, ночь, тушь*. Ma'lumki *ch* va *sh* tovushlarining yumshoq turi yo'q. Yumshatish belgisi bu yerda grammatik vazifani o'tash uchungina ishlatilgan.

Nemis tilidagi otlarning bosh harf bilan yozilishi ham orfografiyaning morfologik prinsipiga asoslangan. Bu yo'l bilan nemis tili otlarni boshqa so'z turkumidan ajratadi, masalan, *acht-sakkiz, Acht – diqqat, lesen- o'qimoq. Lesen - o'qish, Leben - hayot, leben-yashamoq* va hokazo.

Simvolik prinsip fonetika ajrata olmaydigan leksik omonimlarning farqini ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Masalan: ingliz tilidagi *tun* va *suvoriy* so'zlari bir xil talaffuz qilinadi, ya'ni [nait]. Lekin, yozilishida biri *night* tarzida, ikkinchisi *knight* tarzida yoziladi. Ingliz tilidagi *uchrashmoq, go'sht* va *chegara* so'zlari bir xil talaffuz qilinadi, ya'ni [mi:t] lekin yozuvda ularni bir-biridan ajratish uchun simvollardan foydalaniladi (yuqorida keltirilgan tartibda) *meet, meat* va *mete*. Bunday hodisa nemis tilida ham uchraydi: *viel* va *fiel* so'zlari bir xil talaffuz qilinsa ham, yozilishi har xil, chunki ularning ma'nolari ham har xil: *ko'p, yiqildi*.

Orfografiyaning morfologik va simvolik prinsiplari boshqa prinsiplarga nisbatan kam uchraydi.

YOZUVNING MAXSUS TURLARI

Yuqorida keltirilgan yozuvlardan tashqari, hozirgi vaqtda maxsus yozuvlardan ham keng foydalanishadi. Stenografiya va transkripsiya – yozuvning ana shunday maxsus turiga kiradi.

Stenografiya. Bu so'z ikkita grek so'zidan tuzilgan bo'lib, *steno* – «tor» va *grapho* – «yozaman» degan ma'noni anglatadi. Stenografiya maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan va mutaxassislar

omonidan ishlatiladigan yozuvdir. Uning yordamida og‘zaki nutqni ez va to‘liq qog‘ozga tushirish mumkin. Uni harfli yozuvning boshqa bir turi desa ham bo‘ladi. U logogramмага o‘xshash belgilar tizimi ifatida (bunday holda ularning har biri ayrim bir va hattoki bir nechta o‘zning ma‘nosiga teng keladi) yoki fonogrammalar sifatida ishlatilib, yrim bo‘g‘in va hattoki bo‘g‘inlar birikmasini ifodalaydi. Stenografik yozuvning o‘z orfografik tamoyillari mavjud. Bular stenografik belgilarni to‘g‘ri, bir xil ma‘noda ishlatilishlarini ta‘minlaydi. Yozuvning bu turi og‘zaki nutqni yozib olishni bir necha marta qisqartirishi mumkin. Shuning uchun u majlislarning bayonnomalarini yozib olishda keng qo‘llaniladi.

Transkripsiya. Transkripsiya so‘zi lotin tilidagi *transcription* degan o‘z asosida kelib chiqqan. Bu stenografiya singari maxsus va sun‘iy yozuv bo‘lib, nutqdagi so‘zlarning talaffuzini aniq ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Uning ishlatilish doirasi juda tor. Agar orfografiya tizimi tamma uchun umumiy va birdan-bir yozuv deb hisoblansa, transkripsiya maxsus ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

Ishlatilish maqsadiga ko‘ra, transkripsion yozuv fonetik, fonematik, amaliy transkripsiya ajratiladi.

Fonetik transkripsiya. Fonetik transkripsiya talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Transkripsiyaning bu turi xorijiy tillar talaffuzida keng qo‘llaniladi. Orfografiyasi tarixiy va an‘anaviy prinsiplarga asoslangan tillarning talaffuzini aks ettirishda maxsus fonematik transkripsiyaning roli ayniqsa kattadir. Har bir talaffuz ifodalangan tovushni aks ettirish fonetik transkripsiyaning asosiy vazifasidir. Bu transkripsiya har qanday alfavitga asoslangan bo‘lishi mumkin. Ba‘zi maxsus tovushlarni belgilash uchun esa u fonematik belgilardan boshqa alifbelardan qo‘shimcha belgilar foydalanishdan, mavjud belgilarni teskari yozish yo‘lidan foydalanadi.

Fonetik transkripsiya chet tilini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lganidir.

Fonematik transkripsiya. Agar fonetik transkripsiya so‘zlarning talaffuzini so‘zlarni ulardagi mavjud harflar birikmasidan qat‘i nazar aks ettirsa, fonematik prinsip so‘zlarni, fonemik tarkibiga ko‘ra ifodalab, tovushlarning tutgan o‘rniga qarab o‘zgarish xususiyatlarini ifodalashga imkon beradi. Fonematik transkripsiya grammatika kitoblarida

misollarning morfologik tarkibini ko'rsatish uchun ko'plab ishlatiladi, chunki bunday hollarda so'zlarning talaffuzi emas, balki ularning tarkibi, strukturasi ahamiyatlidir. Demak, bu transkripsiyaning asosiy tamoyili shundan iboratki, u fonemalarni qanday o'rinda ishlatilgan bo'lishidan qat'i nazar, uni doimo bir xil belgi bilan ko'rsatishdir. Fonematik transkripsiya belgilarining soni fonetik transkripsiya belgilaridan birmuncha kam. Buning sababi fonematik transkripsiya fonemalarning variantlarini aks ettirish uchun qo'shimcha belgilardan foydalanmaydi. Shunday qilib, transkripsiyaning bu turi rus tiliga o'xshagan orfografiyasi fonematik tamoyiliga asoslangan yozuvga yaqin turadi.

Hozirgi vaqtda chet tilini o'qish va o'qitish ishlarida amalda Xalqaro Fonetik Assotsiatsiyaning lotin tili grafikasi asosida tuzilgan transkripsiyasi keng qo'llaniladi.

Transliteratsiya. Bu so'z ikkita lotin so'zidan tashkil topgan bo'lib, *trans* – «orqali», *lit(t)era* – «harf» ma'nolarini anglatadi. Shunday qilib, transliteratsiya bir tilning grafik belgilarini yoki harflarini ikkinchi tilning grafik belgilari yoki harflari bilan ifodalashdir.

Transliteratsiya odatda so'zlarni tarjima qilish kerak bo'lmaganda yoki tarjima qilishga ehtiyoj bo'lmaganda ishlatiladi. Ko'pincha atoqli otlar va atamalar shu yo'l bilan ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi *astronaut* so'zi [ˈæstrənɔ:t] deb talaffuz qilinsa ham, biz uni rus va o'zbek tillarida *astronavt* deb yozamiz yoki *park* so'zi [pa:k] deb talaffuz qilinishiga qaramay, biz *park* deb yozamiz. Fransuz tilidagi *Meillet* so'zini *Meye*, *Paris* so'zini *Parij* deb yozamiz. Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, hozirgacha tillararo transliteratsion qoidalar uzil-kesil kelishib olinmagan. Chunki ba'zi hollarda biz ona tilimizda transliteratsiya yo'li bilan so'zlarni ifodalayotganimizda mazkur so'zning chet tilida talaffuz qilinishini nazarda tutamiz; bunga fransuz tilidagi *Meillet* so'zi yaxshi misol bo'la oladi, lekin ko'p vaqtlarda biz so'zlarning talaffuziga ahamiyat bermaymiz va natijada o'zlashtirilayotgan so'zning talaffuzi buzib ko'rsatiladi. *Karter*, *Parij* so'zlari shular jumlasidandir. *Paris* so'zini fransuzlar «*pari*» deb, inglizlar *Carter* so'zini «'ka:tə» tarzida talaffuz qilishadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yozuvning kishilik jamiyatidagi roli nimadan iborat?
2. Yozuvning qanday bosqichlarini bilasiz?
3. Qanday yozuv piktografik yozuv deyiladi? Piktografik yozuvning birliklari qaysi atama bilan belgilanadi?
4. Logografik (ideografik) yozuvning paydo bo‘lish sabablarini qayd eting. Bu yozuvning birligi qaysi atama bilan belgilangan?
5. Iyeroglifik va mixsimon yozuvlar to‘g‘risida nimani bilasiz? Hozir ham bu yozuvlardan foydalanishadimi?
6. Nima uchun piktografik va logografik yozuv jamiyatning talabiga javob bera olmaydi?
7. Qanday yozuvni fonografik yozuv deyishadi? Bu yozuv avvalgi yozuvlardan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
8. O‘zbek va rus tillarida piktografik yozuv elementlari uchraydimi? Agar uchrasa, qayerlarda qo‘llaniladi va nima uchun?
9. Grafika atamasi qaysi tildan olingan va u qanday ma‘noni anglatadi? Tilshunoslik fanida grafika qanday masalalar bilan shug‘ullanadi?
10. Orfografiya atamasi qaysi tildan olingan va u qanday ma‘no anglatadi?
11. Orfografiya qanday masalalar bilan shug‘ullanadi?
Qanday orfografik tamoyillarni bilasiz?
13. Fonetik, fonematik, tarixiy, morfologik va simvolik tamoyillar to‘g‘risida gapirib bering. Ularning ijobiy va salbiy tomonlarini qayd qiling.
14. Yozuvning maxsus turlariga nimalar kiradi?
15. Stenografik yozuv bilan logografik yozuv orasida bog‘liqlik bormi?
16. Transkripsion yozuvning amaliy ahamiyati nimadan iborat? Uning qanday turlarini bilasiz?
17. Transliteratsiya nima va transliteratsion tamoyillar uzil-kesil hal bo‘lganmi?
Quyidagi ingliz, nemis va fransuz tilidagi so‘zlarda tovush va harflar nisbatini aniqlang:
ingliz: thought, phone, daughter, teach, taught, know, light, boy, girl, certain, bed, respect, who, damn, wrong, dangerous, happy
nemis: Sprache, Uhr, beleuchten durchschnittlich, zehn.

fransuz: beau, aujourd'hui, beau coup, chambardement nous, veu.x, chien, soutien, protestation, l'opposition, autant, joyeus, citoyen, cadeau.

19. Quyidagi rus tilidan olingan misollarda necha xil prefiksalar morfemalar bor? Bu morfemalarning yozilishi qaysi orfografik tamoyilga asoslanganini tushuntirib bering.

izbirat, ispit, razvyazat, rastayat, vosstat, vozvesti, bespechniy, bezdonniy, spryatat, sdat.¹

20. Quyidagi keltirilgan so'zlar va so'z shakllarining qaysi tamoyilga asosan yozilganini izohlang. Ularning morfemik tarkibini aniqlang:

ketdi, o'tgan, kechgan, tekkan, yozdirish, uqtirish, chiqqan, oldinga, parkka, toqqa, boqqa, kuchga, yozuvchi, keluvchi, boribdi, kelibsan, atamoq, almashtirmoq, olmosh, avtor, sbor, bitta, uchta, obod, g'isht, mazkur, ko'ngil, ko'nglim, foniy.

A. son son + a = sana; ot ot + a = ata

yosh yosh + a = yasha; ong ong + la = angla

B. sayla sayla + v = saylov; o'qi o'qi + v = o'quv

tarqa tarqa + v = tarqov; tara tara + v = tarov

21. A. Berilgan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchalarini qo'shib yozing. Qo'shimcha olgan ba'zi so'zlardagi tovush o'zgarishini orfografik tamoyillar asosida tushuntiring.

uy, maktab, dala, qishloq, yotoq, tog', barg.

pedagog, miting, tilak, yaproq, terak, qumloq, tig', ittifoq, etak, tuproq, etik.

B. Berilgan otlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib, ba'zi so'zlar o'zagidagi tovush o'zgarishlarini orfografik tamoyillar asosida tushuntiring.

oyoq, quloq, ko'ngil, singil, ko'ylak, bayroq, park, huquq og'iz, ishtirok.¹

¹ С.И. Колабина. Практикум по курсу «Введение в языкознание». –М.: 1977, 39-бет.

² М.Мирзайев. Hozirgi zamon o'zbek tili. Mashqlar to'plami. –Toshkent: 1958. 27-32 - betlar.

XVI BOB

TILNING SISTEMALIK XUSUSIYATI

Sistemaning umumiy nazariyasi ustida ish olib borayotgan olimlarning fikricha, sistema «bir-biri bilan bog'langan elementlar majmui», «elementlarning har qanday yig'indisi va ular orasidagi munosabat», «tarkibiy qismlarga bo'lina oladigan va struktura deb atalmish elementlar orasidagi bog'lanish sxemasiga ega bo'lgan murakkab butunlik»dir.

Keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, sistema tushunchasini olimlar turlicha talqin qiladilar. Ba'zilar sistema bilan tarkibni (strukturani) sinonimlar sifatida ishlatishsa, boshqalar ularni arqlaydilar. Ba'zilar sistema deb faqat til birliklari orasidagi bog'lanishlarni tushunsa, boshqalar ham birlik, ham ular orasidagi munosabatlarni tushunishadi. Yuqorida tilshunoslik fanining mavzusi o'g'risida gapirilganda tilning tarkibi (strukturasi) deganda til birliklarini, tizim (sistema) deganda mazkur birliklar orasidagi munosabatning tushunilishi aytib o'tilgandi. Ana shu fikrni davom ettiramiz. Munosabat yoki bog'lanish bor joyda butunlik bor. Har qanday butunlik tarkibiy qismlarga bo'linish xususiyatiga ega. Tarkibiy qismlar yoki birliklar mazkur butunlikda tutgan o'miga va almog'iga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni butunlikning bevosita shtirokchilari bu butunlikning xususiyatlariga va unda hukmronlik qilayotgan qonun-qoidalarga qarab kichik va katta bo'lishi mumkin. Agar butunlik tarkibiy qismlarga ajralishi mumkin bo'lsa, parchalanishdan hosil qilingan birliklar yana qayta qo'shilib, asl labki shakliga ham kelishi mumkin. Lekin qayta tiklanish mantiqiy, tartibsiz bo'lmay mazkur butunlikning yaxlitligini ta'minlab beradigan qonun-qoida asosida amalga oshiriladi. Butunlikni parchalash tahlil (*analiz*), ularni qayta eski holiga qaytarish esa *sintez* deyiladi. Tahlil va sintez bir xil uslub va atamalar yordamida olib boriladi.

Sun'iy va tabiiy sistemalarni ajratish maqsadga muvofiqdir. *Sun'iy sistemalar* inson tomonidan yaratilib, uning aqli va idroki asosida qayta ko'rib chiqilishi, mukammallashtirilishi mumkin. Masalan, radio, televizor, sovuqtgichlar bunday sistemalar misoldir.

Tabiiy sistemalar biror maqsadni ko‘zlab atayin yaratilmaydi. Ular tabiatda, jamiyatda mavjud bo‘ladi. Inson bunday sistemalarni turli tadqiqotlar yo‘li bilan o‘rganadi, chunki ular insonning ishtirokisiz tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari asosida paydo bo‘lgan. Insonning vazifasi bu sistemani tushuntirib berishdan iborat bo‘lib, unga o‘zgartirish kirita olmaydi, undagi birorta elementni tushirib qoldirish yoki boshqasini qo‘shish mumkin emas. Ana shunday sistemalardan biri – tildir.

Bir qarashda tovushlar, so‘zlar va ularning tartibsiz yig‘indisidan iboratdek bo‘lib ko‘ringan til, aslida mukammal sistemani tashkil qiladi. Tilning sistemalik xususiyatini tilshunoslik tarixida birinchi bo‘lib taniqli nemis olimi V. fon Gumboldt ochib bergan.¹ Uning fikricha, har bir tovush ma‘lum differensial (farqlash) belgilari yig‘indisi bo‘lib, boshqa tovushlarga ham o‘xshaydigan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Tovushlardagi umumiy va farqlanuvchi belgilar ularning o‘zaro sistemasini tashkil qiladi. Tildagi tovushlarning miqdori va ularning o‘zaro munosabati mazkur tilning talab va ehtiyojlariga mos keladi.

Tilning sistemasi turli hollarda turlicha namoyon bo‘ladi. Shulardan biri, V. fon Gumboldt tomonidan asos solingan kompensatsiya (muvozanatni saqlash) qonunidir. Bu qonunga binoan so‘zning biror qismida birorta o‘zgarish ro‘y bersa, bu o‘zgarish so‘zning boshqa qismiga ta’sir etmay qolmaydi. Masalan, qadimgi zamon ingliz tilidagi *berg*, *sort* so‘zlarida *r* tovushi talaffuz qilinardi. Keyinchalik bu tovush asta-sekin talaffuzdan tushib qola boshladi. Lekin bu tovushning tushib qolishi undan oldin kelayotgan qisqa unilarning cho‘ziqroq talaffuz qilinishiga olib keldi, shunday qilib, so‘zdagi muvozanat saqlanib qoldi.

Bu masalani chuqurroq va to‘laroq yoritilishida shveysariyalik olim F. de Sossyurning xizmati kattadir. U tilni shunday ta’riflaydi:

¹ Tafsilotlarini quyidagi asarlardan ko‘ring. В.фон Гумбольдт. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человеческого рода. О сравнительном изучении языков применительно к различным эпохам их развития. В.А. Звегинцевнинг «История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях» to‘plamida. I qism. –М.: 1964, 73-85-betlar.

Til – bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yilgan elementlar 'stemasidir», «Til faqat farqlardan iborat». Bunday ta'rifdan naqadigan xulosa shuki, tilni tashkil etuvchi elementlar uning stemasini hosil qilmasdan bu birliklar orasida o'rnatiladigan munosabatlar ahamiyatlidir. Sossyur til sistemasining ikki xususiyatini o'rsatadi:

1. Til sistemasining tarkibiy qismlari hamma vaqt muvozanatda o'ladi.

2. O'z xususiyatiga ko'ra til sistemasi yopiqdir.

Sossyur fikricha,¹ til birliklari o'zaro ikki xil munosabatga irishadi: sintagmatik va assotsiativ (zamonaviy tilshunoslikda eyingisi paradigmatic munosabat deb yuritiladi). Til birliklari akonda va zamonda birin-ketin paydo bo'ladi. Bu sintagmatik loqadir. Buning ma'nosi shuki, so'z talaffuz qilinayotganda ovushlar muloqot davomida gapdagi so'zlar baravariga bir vaqtda ytilmasdan ketma-ket talaffuz qilinadi. Demak, ketma-ket sodir o'lgan til birliklari orasidagi aloqa *sintagmatik* aloqadir.

Birorta o'xshash xususiyati bilan birikkan til elementlari orasidagi munosabat *assotsiativ* munosabatdir. Masalan, o'zbek tilidagi *itobim, uyim, do'stim, Vatanim* so'zlari assotsiativ munosabat bilan og'langan, chunki ularning hammasini birinchi shaxs birlikdagi galik qo'shimchasi birlashtirib turibdi: *дом, дома, домом, дому, домов* so'zlarini barlashtirib turgan narsa – umumiy negizdir. illardagi sintagmatik va assotsiativ munosabatlar ham o'zaro og'liqdir. Sintagmatik munosabatga kirishgan so'zlar so'z irikmalari va gaplarni so'zlar assotsiativ munosabatga kirishgan o'zlardan tanlab olinadi. Masalan, *Мы видели дома* degan gapdagi *ома* so'zi ana shu so'zga o'xshagan boshqa so'zlardan tanlab lingan.


Tilning sistemasi uni tashkil etuvchi til qatlamlarini o'rganishda yniqsa ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ma'lumki, tilda to'rt asosiy qatlam bo'lib, ular bir-birlari bilan evosita bog'langan. Fonetika, morfologiya, leksikologiya va

¹ Ф.де Соссюр. Заметки по общей лингвистике. –Москва: 1990.

sintaksis hamda bu qatlamlarning birliklari – fonema, morfema, so‘z (leksema), gaplar tilning tarkibini, strukturasi tashkil qilishadi. Har bir qatlamning birliklari o‘zaro sistemalik munosabatida bo‘lishdan tashqari qatlamlararo tizim ham mavjuddir. Masalan, fonetika birliklari bo‘lmish fonlar orasidagi tizimga oid bog‘lanishni olib ko‘ramiz. [p], [t], [b], [d] fonlari orasida mustahkam bog‘lanish bor: ularning hammasini bog‘lab turgan narsa – undoshlikdir; birinchi va ikkinchi tovushni birlashtirayotgan xususiyat – ularning jarangsiz undosh; uchinchi va to‘rtinchi fonlarni birlashtirib turgan xususiyat – ularning jarangli undoshligidir.

Lekin bu tovushlar bir-biridan birmuncha farq ham qiladi: [t] va [d] til-tanglay, [p] va [b] lab-lab tovushidir. Keltirilgan tovushlar orasidagi o‘xshashlik va farqni quyidagicha tasvirlash mumkin:



Ikki tomonga yo‘naltirilgan strelkalar keltirilgan fonlar orasidagi umumiylik va qarama-qarshilikni ifodalaydi. Har qanday rivojlanish, taraqqiyotning asosida juftlik (binarlik) yotadi. Juftlikning asosiy ko‘rsatkichi juftlik a‘zolarining har ikkisiga xos umumiylik va shu bilan birga ular orasida ma‘lum jihatlarida farq bo‘lishidir. Bunday ko‘rsatkichlar yuqoridagi to‘rt tovushda bevosita o‘z aksini topgan. Sossyurning «*til faqat farqlardan iborat*» deyishi ham bejiz emas. Buning asl ma‘nosi til birliklari bir vaqtning o‘zida bir-birini taqozo qiladi hamda inkor etadi, demakdir. Bu tamoyilni tilning boshqa birliklariga ham tatbiq etish mumkin. Qatlamlararo munosabat til tizimini yanada yaqqolroq ko‘rsatadi. Fonetika, morfologiya, leksikologiya va sintaksis qatlamlari o‘zaro chambarchas bog‘langandir. Quyi qatlam birliklari yuqori qatlam birliklarini hosil qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi: fonlar morflarni, morflar so‘zlarni, so‘zlar so‘z birikmalari va gaplarni, gaplar esa matnlarni barpo qiladi. Ayrim olimlarning ta‘kidlashicha, tilning lug‘ati so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi vositalarning manbai sifatida ham namoyon

o'ladi. Ba'zi hollarda leksik birlik bo'lmish so'zlar boshqa so'zlar bilan birikib, qo'shma so'z sifatida ishlatilishi jarayonida, ulardan iri o'zining dastlabki ma'nosini yo'qota boradi va asta-sekin ordamchi so'zlarga, keyinchalik esa affikslarga o'tib qoladi. Aniqlovchi vazifasini o'tab turgan so'zlar so'z yasovchi affikslarga 'tishi ko'pchilik tillarning ta'rifida e'tirof etilgan (ingliz tilidagi *full «to'la»* so'zi so'z yasovchi affiks sifatida ham ishlatiladi: *spoonful, seful* kabi).

Erkin yoki barqaror so'z birikmalarining ishtirokchilaridan biri aqt o'tishi bilan o'zining asosiy ma'nolarini yo'qotadi. Ba'zan fonetik ko'rinishida ham o'zgarish sodir bo'ladi, ular avval yordamchi so'zlarga, keyin esa grammatik morfemalarga aylanadi. Turkiy tillardagi fe'llarning shaxs-son ko'rsatkichlari fikrimizning dalilidir. Tabiiyki bu jarayon katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

Tilning tizimli xususiyatini yana bir misolda ko'rsatish mumkin. Morfologiya qatlamining birligi, morflarning turlari ham o'ziga xos izimni tashkil etadi. Yuqorida qayd qilinganidek morf (morfemalar) o'tiq va tilning ikki tomonlama (ikki planli) birligi hisoblanadi: ular harbiy va ma'noga ega bo'lgan birliklardir. Lekin shakl va ma'no o'zgarishsizlik ham to'g'ridan-to'g'ri, ochiq ifodalanmaydi: ba'zilarida morfning har ikkala tomoni ochiq ifodalanadi [*choy*], boshqalarida harbiy yo'q-ku ma'no bor (o'zbek, ingliz tillarida otlarda birlik ana hunday morf bilan ifodalanadi), morflarning uchinchi turida shakl o'zgarishi ma'no yo'q: rus tilidagi *поливомоечная* degan so'zdagi [o] morfning aniq ma'nosi yo'q, ammo vazifasi bor, ikki so'zni bir-biriga o'tqo'shishga xizmat qiladi, ya'ni, *полив-о-моечная*. Bunday morflar boshqa tillarda ham mavjud.

Shunday qilib, til – sistemadir. Tilni tashkil etuvchi barcha elementlar o'zaro uzviy bog'langan. Tillarda hech qanday tasodifga o'rinish yo'q, uning har qanday elementi, bo'lagi katta bir butunlikning tarkibiy qismidir (F. de Sossyur). Bu mavzuning yakunida sistema haqida tartib tushunchalari orasidagi munosabatga ham to'xtalib o'tish kerak. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan bog'liq bo'lsa ham, ular bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Tartib ko'proq individual, subyektiv bo'lib, harbiy har bir shaxs o'zicha tushunishi, o'zicha tartib o'rnatishi mumkin, nasalan, uy jihozlarini yoki kutubxonadagi kitoblarni hamma o'zicha

tartibga keltirishi mumkin, ularning tartibi o'zgarishi bilan sifati o'zgarmaydi. Lekin sistema garchi o'z ichiga tartib tushunchasini olsa ham, u tartibdan tubdan farq qiladi: sistemani o'zgartirish mumkin emas, sistemaning qismlarini o'zgartirish uning sifati o'zgarishiga, hatto uni barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Muloqot vaqtida gapiruvchi tovush, so'z va boshqa til birliklarini ishlatayotganda albatta til tizimiga rioya qiladi, aks holda tinglovchi uni tushunmasligi mumkin.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sistema (tizim) va struktura (tarkib) atamalari orasida qanday farq bor? Bu atamalarning har biri to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
2. Sun'iy va tabiiy sistemalarni ta'riflang. Til sistemasi bulardan qaysi biriga kiradi? Javobingizni asoslang.
3. Til va uni tashkil etuvchi qatlamlar/yaruslar to'g'risida gapiring. Bu qatlamlarning til sistemasiga qanday aloqasi borligini tushuntiring.
4. Sistema bilan tartib orasidagi o'xshashlik va farqlar to'g'risida gapiring.
5. V. fon Gumboldt hamda F.de Sossyurning til sistemasi to'g'risidagi fikrlarini gapirib bering.
6. Binar yoki juftlik atamasining ma'nosini tushuntirib bering. Bu atamalarning tilga qanday aloqasi bor?
7. Ona tilidan yoki birorta chet tilidan olingan misollarda «*analiz*» (tahlil) va «*sintez*» atamalarini tushuntiring.
8. Differensial belgilar deganda nimani tushunasiz? Til va nutq birliklari misollarida uni tushuntiring.
9. Kompensatsiya qonuni deganda nimani tushunasiz? Hayotiy misollarda va birorta til misolida kompensatsiya qonuni to'g'risidagi tushunchangizni asoslab bering.
10. Sintagmatik va assotsiativ (yoki paradigmatic) munosabat deb qanday munosabatlarga aytiladi? Til misollarida bu atamalarni tushuntirib bering.

XVII BOB

TIL VA TAFAKKUR

Fikr almashish quroli bo‘lmish til tafakkur bilan uzviy bog‘langan. U milliy madaniyat shakli sifatida tafakkurning harakati, uning faoliyati natijasida yaratilgan ma‘naviy boylikni zamonda va o‘tirda abadiylashtiradi. Sh.Safarovning yozishicha «*Tafakkur ayni holatda va qanday ko‘rinishda harakatga kelmasin, yagona usul va usulning vazifani bajaradi – u voqelik haqidagi axborotni qabul qilish, o‘zlashtirish, o‘zlashtirish, qayta ishlash va tartibga solish usulidir. Bu usul vositasida o‘zlashtirish bo‘ladigan g‘oya yoki fikr voqelikning ongda aks etish shaklidir. Tafakkurning harakatlanishi va fikrning shakllanishi voqelikning vositasida ongda aks etishini ta‘minlovchi jarayon – bilish faoliyati bilan bog‘liq. Tilning bilish faoliyatidagi o‘rni alohida, u voqelikni o‘zlashtirish va bilish vositasi – qurolidir.*»¹

Bizning asrimizda barcha fanlarning katta odimlar bilan rivojlanib borishi ba‘zi masalalarga yangicha yondashishni taqozo qilmoqda. O‘tgan yillardagi logika, psixologiya, odamning bosh miyasi faoliyatini o‘rganishdagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, tafakkurning bir-biridan farq qiluvchi ikki ko‘rinishi mavjud bo‘lib, ularning biri – predmet tafakkuri, ikkinchisi esa – mavhum tafakkurdir. Predmet tafakkuri odam va hayvon uchun umumiy bo‘lib, ularning kundalik ma‘naviy hayotini belgilovchi, avloddan-avlodga instinkt orqali o‘tib boradigan xavf-xatarni, issiq-sovuqni ajratishni ta‘minlaydigan tafakkurdir. Mavhum tafakkur faqat odamlarga xos bo‘lib, u til bilan bog‘langan va til bilan birga rivojlanadi. Til bilan tafakkur o‘zlashtirishdagi munosabat to‘g‘risida gap borganda, ana shu tafakkur o‘zlashtirishda tutiladi. Bu ikki ijtimoiy hodisa doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birini yashashiga va rivojlanishiga yordam beradi. Ma‘lumki, fikr yuritishning asosiy maqsadi narsa, hodisalarning bizni o‘rab turgan muhit, borliqdagi o‘rnini aniqlash, ular orasidagi munosabatni o‘rganish, mavjud ilmiy farazlar yuzasidan fikr yuritish va ularni mukammallashtirishdir, takomillashtirish.

¹ Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: «Sangzor» nashriyoti. 2006, 13- bet.

Hozirgacha fan va texnika erishgan yutuqlar asosida tafakkurning ana shunday faoliyati yotadi. Lekin tafakkur erishgan ajoyib muvaffaqiyatlarni ilm olamiga yetkazish, abadiylashtirish tilsiz amalga oshmasligi tabiiy bir holdir. Til vositasi yordamida erishilgan amaliy, nazariy yutuqlar e'tirof etiladi, targ'ib qilinadi, son-sanoqsiz o'quvchi, eshituvchilarga yetkaziladi. Bu yangilikni o'qigan va eshitganlar ular yuzasidan yana fikr yuritib, ularning kamchiliklarini topishadi, e'tirof etishadi va mazkur g'oyani yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishadi. Tabiiyki, g'oyalarning takomillashishi jarayonida yangi tushunchalar, yangi nazariyalar paydo bo'ladi, ularni qayd etish uchun hamma vaqt ham tilda tayyor so'zlar, so'z birkimlari bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda til tafakkur faoliyati mahsulini to'la-to'kis o'zida aks ettirishi uchun mazkur yangilikka har tomonlama mos keladigan so'z va iboralarni topishi zarur. Shu tariqa til ham qotib qolmay tafakkur bilan birgalikda rivojlanib, takomillashib boradi. Shuning uchun til va tafakkur orasidagi munosabat to'g'risida gap borganda, ularni o'zaro bir-biriga har tomonlama bog'langan hodisalar deb yuritishadi. Bu ikki hodisa umuman mavjud bo'lishi uchun ular orasida doimo ana shunday hamjihatlik bo'lishi zarur: shu yo'l bilan ular bir-biriga doimo ta'sir o'tkazadi va bir-birini boyitib boradi. Shuni ham qayd etish kerakki, bu ikki juftlikdan birinchisi, ya'ni tafakkur doimo oldinda boradi, tilga nisbatan tezroq rivojlanadi. Ba'zi olimlar obraz tafakkuri, texnik hamda mantiq tafakkurlarini farqlashni tavsiya etishadi. Obraz tafakkuri o'z aksini adabiy asarlar – nazm, navo va tasvirlarda, texnika tafakkuri texnikaga oid adabiyotlarda, mantiq tafakkuri esa tushuncha va muhokamalarning to'g'ri qo'llanilishida topadi.

Boshqalardan farqli o'laroq B.A. Serebrennikov tafakkurning lisoniy va nolisoniy turlarini farqlaydi:

- *aniq tafakkur* – aniq, konkret muhitda yuzaga keladigan voqelikning umumlashtirilgan obrazi;

- *ramziy tafakkur* – xotirada mavjud bo'lgan butun bir voqelik yoki predmet-hodisalarni alohida bir muhit-sharoitga bog'liq bo'lgan holda qayta eslash;

- *amaliy tafakkur* – bevosita maqsadli harakatlar bajarilishi bilan bog'liq fikr;

- *lingvokreativ yoki lisoniy shakllantiruvchi tafakkur*, ya'ni bu urdagi tafakkur harakatlari bevosita til tizimi zaxiralari bilan bog'liq;
- *nolisoniy tushuncha tafakkuri* – nutq paydo bo'lishidan oldingi afakkur.¹

Til tafakkurning hamma turlarini aks ettirishda yagona qurol va ositadir. Tilshunoslik fanining markaziy muammosi bo'lmish til va afakkur masalasida so'z yuritilganda ular bir-biriga tengmi yoki ular boshqa-boshqa narsalarni, degan savolga javob berish kerak bo'ladi. Bu masalaning o'rganilish tarixida mazkur savolga bir-biriga zid bo'lgan fikrlar izhor qilinadi. Ba'zi olimlar ularni bir-biriga teng deyishsa, boshqalar ularni bir-biridan umuman ajratib qo'yishadi. Ushu mulohazalar ustida biroz to'xtalib o'tamiz.

Til bilan tafakkurni bir-biriga teng deyish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, *birinchidan*, kishi o'ylab yurgan fikrini til orqali ifodalaydi deyish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Kishi fikrining boshqalarga aytish mumkin bo'lgan qisminigina til yordamida suhbatdoshiga (o'quvchisiga) yetkazadi; *ikkinchidan*, til moddiy, tafakkur esa ruhiy hodisalardir; *uchinchidan*, ikki narsani teng deyish uchun ularning tarkibini ham bir-biri bilan qiyoslash va ular bir-biriga mos kelmasa, ularni teng deyishga asos tug'iladi. Ma'lumki, tafakkurni mantiq fani, tilni esa tilshunoslik o'rganadi. Mantiq fani tafakkurni tarkibiy qismlarga ajratganda, u uch birlikdan: tushuncha, muhokama va xulosadan tarkib topganini qayd etadi. Tilshunoslik fani nutqni tarkibiy qismlarga bo'lganda nutq tovushi (fon), morf, so'z, gap, natnlarga ajratadi. Keyingi yillarda til yoki nutq birliklari to'g'risida gapirilganda so'z birikmasi, yagona sintaktik butunlik, diskurs kabi yana bir qancha birliklar borligi ham ko'rsatilmoqda. Demak, til va afakkur birliklari bir-biriga miqdor jihatdan ham to'g'ri kelmaydi; *o'rtinchidan*, ba'zi olimlar tafakkurdagi tushuncha tildagi so'zga, muhokama esa gapga to'g'ri keladi, degan fikrni ham ilgari surishadi. Ma'lum bo'lishicha, bu fikr ham asossiz ekan. To'g'ri, ko'pchilik o'zlar ma'lum bir tushuncha bilan bog'langan: *uy, qor, atom, yelvizak*

¹ Б.А. Серебрянников. О материалистическом подходе к явлениям языка. – Москва: «Наука», 1989, 319-бет.

va boshqalar. Lekin shu bilan birga tilda *men, u, biz, kim, nima* kabi soʻzlar ham borki, ular bevosita birorta tushuncha bilan bogʻlanmaydi. Agar hamma gaplar voqea va hodisalarning mavjud yoki yoʻqligini anglatganda, unda gap va muhokama bir-biriga teng birliklar desak boʻlardi. Vaholanki, tillardagi baʼzi gaplar soʻroq va buyruqni ifodalaydi. Muhokama bunday xususiyatlardan holidir. Ahamiyatga molik boʻlgan yana bir narsa bor: u ham boʻlsa, gap boʻlaklari grammatika nuqtai nazaridan qotib qolgan qurilmani tashkil etishidir. Mantiqan esa har qanday gap bir nechta, bir-birini takrorlamaydigan mavzuni ifoda eta oladi. Mantiq jihatdan gap boʻlaklari oʻzgaruvchan, doimo harakatdadir. Gapdagi har bir soʻz mantiq subyekti va uning predikati boʻlib kelishi mumkin (bu masala «sintaksis» boʻlimida yoritilgan).

Xulosa qilib aytganda, til birliklari va tafakkur birliklari na miqdor, na sifat jihatidan bir-biriga toʻgʻri keladi. Demak, til bilan tafakkur bir-biriga teng deyish xatodir.

Til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib qoʻyish ham mumkin emas. Yuqorida aytilganidek, tafakkursiz til va tilsiz tafakkur boʻlishi mumkin emas, ular doimo biri ikkinchisini taqozo qiladi; tafakkur tilda yashaydi, u faqat til vositasi orqali namoyon boʻladi; tilda oʻz aksini topgan tafakkurgina yashash va rivojlanish imkoniyatiga egadir. Tilning mavjudligi tafakkur mavjudligi bilan, tafakkurning rivojlanishi, taraqqiy qilishi tilning taraqqiyotiga olib keladi. Taniqli nemis olimi V. fon Gumboldt taʼbiri bilan aytganda «*bunchalik bir-biriga oʻxshash boshqa bir narsani oʻylab topish qiyindir*». Shunday boʻlsa ham, til va tafakkur bir-biriga har jihatdan mos keladigan hodisalar emas. Ular yagona bir butunlik boʻlib, baʼzi tomondan ular bir-biriga zid, ikkinchi tomondan ular bir-birini doimo taqozo qiluvchi hodisalardir, boshqacha qilib aytganda yagona bir narsaning ikki ajralmas tomonidir. Insoniyat mahsuli boʻlmish mavhum tafakkur oʻziga tilni yaratdi, til va tafakkur odamlarni jamiyatga birlashtirdi.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Til bilan tafakkur orasidagi bogʻlanish qanday masalalarni oʻz ichiga oladi?

2. Predmet tafakkuri va mavhum tafakkur orasidagi farqni tushuntiring.
3. Nima uchun tilsiz tafakkur va tafakkursiz til bo'lmaydi? Ular bir-biriga tengmi? O'z hayot tajribangizdan dalillar keltiring.
4. Obraz tafakkuri, texnika tafakkuri va mantiq tafakkuri nima? Tafakkurning shunday turlarga bo'linishiga o'z munosabatingizni bildiring.

XVIII BOB

PSIXOLOGIK TILSHUNOSLIK

Tilshunoslikning bu bo‘limini barcha tillarda *«psixolingvistika»* deb yuritishadi.

Har bir fanning o‘z predmeti bo‘lganidek, psixolingvistikaning ham o‘zi o‘rganadigan predmeti bor.

Psixologik tilshunoslik fanining predmetini 2 qismga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

- *hozirgacha ko‘rilgan tilga oid masalalarni psixologiya nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqish;*

- *sof psixologik tilshunoslik masalalari.*

Har qanday ilmiy ishda o‘rganilayotgan predmetning mavhum modelini yaratmay kutilgan natijalarga erishish mumkin emas. Tilshunoslikda ham til va til birliklarining o‘ziga xos modeli ishlab chiqilgan va shu model asosida ish yuritiladi. Tilshunoslar yaratgan modelning psixolog yaratgan til modeliga to‘g‘ri kelish-kelmasligini e‘tiborga olishmaydi. Bu modellar bir-biridan farq qiladi. Chunki tilni psixologiya nuqtai nazaridan o‘rganayotgan olimlar gapiruvchining nutq faoliyatini hisobga olishlari lozim: nutq faoliyati natijasida yuzaga keladigan matn ma‘lum jarayonni, sistemani tashkil qiladi: yaratilgan matn jamiyatning boshqa a‘zosi (yoki a‘zolari) tomonidan qabul qilinadi; qabul qilishning o‘zi ham ma‘lum jarayonni, sistemani tashkil etadi. Bu jarayonlar inson psixikasi, uning ongi bilan uzviy bog‘langan.

Tilshunoslikni tayyor matn(lar) qiziqtiradi. U bu mahsulotni imkoni boricha to‘liq, har tomonlama tahlil qilish yo‘lida uning taxminiy (faraz qilish yo‘li bilan) modelini chizadi. Tekshirish nihoyasiga yetganda (nisbiy nihoya nazarda tutiladi), tilshunos dastlabki modelga yana qaytib, uni erishilgan natija bilan qiyoslaydi; natijada uni (modelni) avvalgi shaklida qoldirishi mumkin yoki qo‘lidagi yangi tadqiqiy dalillar asosida dastlabki modelni tubdan o‘zgartishi yoxud ba‘zi tuzatishlar, o‘zgartishlar kiritishi mumkin.

Psixolog tilshunoslar modeli o‘zining o‘ta mavhumligi bilan tilshunoslarnikidan farq qiladi. Chunki psixolog tilshunoslar inson

bosh miyasida sodir bo‘ladigan nutqni yaratish jarayoni hamda uning qabul qilinish jarayonini ishlab chiqishlari lozim. Demak, psixolog tilshunoslar tomonidan yaratiladigan modelda ana shu bosh miyadagi matnni yaratish va uni qabul qilish tizimi o‘z aksini topishi kerak. Bu modellarning to‘g‘riligi, hayotiyligining birdan-bir ko‘rsatgichi – ular nar jihatdan (fonetik, grammatik, leksik va mantiqan) to‘g‘ri matnlar yaratishi va bu matnlar tinglovchi tomonidan to‘g‘ri, gapiruvchi tomonidan belgilangan, ifodalangan tarzda tushunilishidir. Tilshunoslik bilan psixologiya chegarasidagi masalaning tafsilotlariga o‘tishdan oldin eng mukammal modellar ham gapiruvchi va tinglovchining ongida sodir bo‘ladigan jarayonni har tomonlama nisobga olishdan o‘zligini aytib o‘tish lozim. Insonning bevosita nazaridan yashiringan bosh miyaning bu faoliyati doimo ilmiy taxmin bilan bog‘langan bo‘lib, ilmu fan taraqqiyoti bu sistemaning chuqurroq o‘rganilishiga yordam beradi, lekin uni tamomila bilib olish imkonini bermaydi, chunki bosh miya tizimining izchil faoliyatini uzil-kesil modellashtirishning iloji yo‘q. Agar L.Blumfeld aytganidek, insonning tashqi muhitga nisbatan bo‘lgan mexanik reaksiyasi deb tushunilganda, nutqning sodir bo‘lish jarayonini modelga tushirish o‘z munda yengillashardi. Lekin bu «mexanik reaksiya» faqat nutqning tug‘ilishi va uning zikr qilinish zanjirining bir kichik dalilidir. Mavhum tafakkur egasi bo‘lmish insonda yana xotiradegan bir narsa borki, u nutqning paydo bo‘lishi va tushunilishida dalil qiluvchi ahamiyatga egadir. Inson tug‘ilganidan to‘yogay yetguncha bo‘lgan davrda ko‘rgan, eshitgan, his qilgan narsa-hodisalarni xotirasida saqlash xususiyatiga ega. Zaruriyat tug‘ilganda u o‘zining bu bitmas-tuganmas manбайдan keng foydalanadi. Qisqay qilib aytganda, xotira – insonning hayot tajribasidir, uning hayot tajribasi to‘g‘ri nutqiy matnlarni barpo qilishda va uni idrok etishda insonga bebaho durdona sifatida xizmat qiladi. Xotira mavjudligi tufayli insonlar ba‘zi voqea va hodisalarning natijasidan u qanday qilib sodir,bo‘lganini tasavvur qilishlari mumkin. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, inson hamma vaqt ham bo‘lib o‘tgan voqealarning tafsiloti bilan qiziqib o‘tirmaydi; kishi hayotida ko‘p voqealar qaytarilishi tabiiydir. Ular odam ongida, uning xotirasida o‘z in‘ikosini saqlab qoladi. Fanda bunday hodisa *evristika* deb yuritiladi. Demak, evristika

– bu inson xotirasida saqlanadigan hayot tajribalari asosida bizni o‘rab turgan muhitda ro‘y beradigan voqea va hodisalarga baho berish va ularga nisbatan xoh jismoniy, xoh aqliy (ruhiy) javobdir. Mantiqda evristikaga aks uslub sifatida *algoritmlar*¹ namoyon bo‘ladi. Algoritmlar qunt bilan amalga oshiriladigan mantiqiy jarayon bo‘lib, uning yordamida odamlar voqea va hodisalarni ketma-ket, izchillik bilan tadqiqotlar yordamida o‘rganishadi. Bu yo‘l odamdan ko‘p kuch va vaqtni talab qiladi. Uning natijasi sarflangan mehnatni odatda oqlaydi, u aniq, ishonchli bo‘ladi. Evristikaga asoslangan xulosa ko‘pincha yuzaki, taxminiy, noaniq bo‘ladi. Odam kundalik hayotida kuchni va vaqtni tejash prinsipiga amal qiladi. Shuning natijasi bo‘lsa kerak, u ko‘proq evristikaga murojaat qiladi va ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.

Evristik va algoritmik uslublar biz ko‘rayotgan masalaga bevosita aloqador. Tilshunoslik tomonidan ishlab chiqilgan modellar o‘z xususiyatlari bilan algoritmik modellardir, chunki ular odamning gapirish, nutqiy faoliyatini ko‘zda tutadi. Psixolingvistik modellar esa o‘z mohiyati bilan evristikdir, chunki psixolingvistika insonning nutq faoliyatini uning boshqa aqliy va ruhiy qobiliyatlari bilan bir qatorda o‘rganadi.

Psixologik tilshunoslik uchta bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayonlar modelini, ya’ni «matn til tizimi», «mazmun matn» va «matn mazmun», jarayonlarini tushuntirib berishi kerak. Shulardan birinchisining tilni o‘zlashtirishga bevosita aloqasi bor.

Tilni o‘zlashtirish

Til tizimini o‘zlashtirish masalasiga doir adabiyotlarda go‘daklarda nutqning paydo bo‘lishiga yondashish bir xil emas. Ba’zi olimlarning fikricha, odam paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab til ham

¹ “Algoritm deganda muayyan tipdagi barcha vazifalarni hal qilishga olib boradigan operatsiyalarning biron sistemasini ma’lum tartibda bajarish haqidagi aniq buyruq tushuniladi. Qo‘shuv, ayiruv, ko‘paytiruv va bo‘luv kabi arifmetik qoidalar, kvadrat ildiz chiqarish qoidalari, har qanday ikki natural son uchun eng umumiy bo‘luchini topish usuli algoritmning eng oddiy misollaridir”. *Filosofiya lug‘ati*. – Toshkent: 1976, 18-bet.

aydo bo'lgan. U avloddan-avlodga o'tib, takomillashib bordi. Natijada insonning gapirish qobiliyati odam ruhiga shuncha chuqur oylashganki, u nasldan-naslga o'tish xususiyatiga ega bo'lgan, har bir yangi tug'ilgan go'dak tilni yangidan o'rganmasdan, balki organizm balog'atga yetishi bilan uning til qobiliyati ham organizm bilan birga taraqqiy etadi. Demak, inson zoti gapirishni uni o'rab turgan jamiyat a'zolari tomonidan o'rganmay, ular yordamida bosh niyasiga joylashgan mavjud tizimni tiklaydi, aks holda, bu olimlarning fikricha, bolalar tildek murakkab bir hodisani bunchalik tez va mukammal o'rganib olishlari mumkin bo'lmasdi. Bu fikr qanchalik o'g'ri ekanini hozir aytish qiyin, lekin jonli mavjudotlar ichida ravhum tafakkur egasi bo'lmish insonlar tilni ma'lum bir jamiyat 'zosi sifatida o'zlashtirishi va undan foydalanish qobiliyatiga ega kani hech qanday isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Turli millatga mansub bo'lgan go'daklarda til tizimini o'zlashtirishda talay mumiyliklar bor: go'daklar nutq tovushlardan urg'u olgan isminigina talaffuz qila boshlaydilar, dastlab ochiq bo'g'inlar talaffuzi o'rganiladi. Yoshi ulg'aygan sari bolaning til tajribasi osha oradi va takomillashadi.¹

Nutqning yaratilishi

Nutqning yaratilishi o'z ichiga bir qancha murakkab ruhiy va smoniy jarayonlarni oladi. Demak, nutq – faoliyatdir. Har qanday faoliyat biror ehtiyoj, niyat (motiv) bilan bog'liq. Niyatni amalga shirish yo'lida inson harakat qiladi. Har bir harakat o'z oldiga biror maqsadni qo'yadi: bir yoki bir necha maqsadning bajarilishi niyatning shalishiga olib keladi. Birorta maqsadni amalga oshirish o'z avbatida bir qancha tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Qisqasi, niyatning ushalihi birin-ketin ma'lum tartibda joylashgan osqichlardagi faoliyatlar yig'indisi bilan bog'liq.

Faoliyatning ikkita yetakchi va yordamchi turlari farqlanadi. Yetakchi faoliyatning bajarilishi ong ishtirokida, yordamchi faoliyatning bajarilishi ong ishtirokisiz amalga oshiriladi.

¹ Bolalar a, pa, ma kabi bo'g'inlarni ilk bor talaffuz qilishi hech kimga sir emas.

Nutqning yaratilishi yuqorida keltirilgan modellardan ikkinchisiga «mazmun matn»ga to'g'ri keladi. Nutq paydo bo'lishining boshlang'ich nuqtasi ruhiy, yakuniy nuqtasi jismoniydir, chunki u nutq organlarining harakati natijasida sodir bo'ladi. Ana shu ikki nuqta orasidagi jarayon psixologik tilshunoslikni qiziqtiradigan masaladir. Yuqorida ta'kidlanganidek, nutq faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'langan jarayonlar natijasidir. Har bir bosqich o'z vazifasini to'la-to'kis mustaqil bajarishi to'g'ri matnlarning yaratilishi bilan yakunlanadi. Bu jarayonda mazmun yetakchi bo'lib, uning maqsadga muvofiq chiqishi yordamchi bosqichlarning avtomatlashgan faoliyati bilan bog'liq. Biror mazmunni nutq shakliga keltirishda birinchi bosqich xotiradagi so'z boyligidan zarur so'zni tanlaydi, ikkinchi bosqich to'g'ri sintaktik qurilmani aniqlaydi, uchinchi – so'zni kerakli morfologik shakllar bilan jihozlaydi. Mazkur bosqichlarda tayyorlangan «mahsulotning» to'g'ri yoki noto'g'riligini nazorat qilib turuvchi moslashmalar bo'lib, ular o'zlaridan oldin joylashgan ishlab chiqarish bosqichlariga aks-sado sifatida signallar jo'natib turadi, lozim bo'lganda tuzatishlar kiritilishini talab qiladi. Endi ana shu jarayonni, ya'ni «mazmun - matn»ni modellashtirishga o'tamiz. Nutq sodir bo'lishi uchun biror niyat bo'lishi kerak, ya'ni gapiruvchining boshqa bir kishiga (eshituvchiga) biror xabar yetkazish ehtiyoji tug'ildi, deylik. Niyatning tug'ilishi nutqqa kirmaydi. Niyat paydo bo'lgandan keyin inson uni amalga oshirishga haraqat qiladi: shu maqsadda mazkur niyatning mazmuni shakllantiriladi; bu jarayon o'z ichiga ikki bosqichni oladi.

Uning birinchi bosqichida matnning temasi va bu tema to'g'risida nima deyilishi, ya'ni rema aniqlanadi.

Psixologik tilshunoslik ma'no va mazmun atamalarini bir-biridan ajratishni talab qiladi, chunki ularning asosida turli tushunchalar yotadi. Shaklning ma'nosi bu shaklning sistemada tutgan o'rnidan aniqlansa, uning mazmuni ko'proq insonning hayot tajribasidan, atrof-tevarakni uning ongida qay darajada aks etganligi, qisqasi, uning bilim darajasi bilan belgilanadi. Masalan, aloqada ishlatiladigan marka ko'pchilik uchun xatni aloqa tizimi orqali biror manzilga yuborish vositasi sifatida qabul qilinadi. Lekin marka yig'uvchilar (filatelistlar) uchun uning qiymati

oshqacha, ular markalarni qachon aloqaga chiqarilganligi, nima munosabat bilan ta'sis etilganligi, nashrning miqdori kabi masalalar bilan qiziqadilar. Shunday ekan, biz ma'noni ijtimoiy mumlashgan tushuncha, mazmunni esa mantiqiy-hissiy tushuncha deb ajratishimiz mumkin, ularning birinchisi ijtimoiy, ikkinchisi akka tartibdagi shaxsiydir.

Niyatni amalga oshirishdagi urinishning birinchi bosqichdagi takli mazmun tushunchasi bilan bog'liq, ya'ni bunda aytilmoqchi o'lgan axborotning shaxsiy ko'rinishi aniqlanadi. Bu ko'rinish ham utqqa kirmaydi, gapiruvchi uni o'zi uchun aniqlab oladi. Buni limlar chuqur semantik bosqich deb yuritishadi.

Niyatni amalga oshirishning ikkinchi bosqichi nutqning dastlabki o'rinishidir. Bu bosqichda so'zlovchi mazmunning egasi – subyekt va obyekt kabi qismlarni ajrata boshlaydi. Agar birinchi bosqichda bir butun niyatni so'zlovchining shaxsiy hayot tajribasi asosida takllangan mazmuni hamda uning tema va remasi aniqlangan bo'lsa, ikkinchi bosqichda ana shu mazmunni jamiyat a'zolariga umumiy o'lgan, ular tushuna oladigan qismlarga ajratib, har bir tarkibiy ismning o'z tema va remalari, subyekt, obyektlari aniqlanadi. Demak, mazmun bosqichi o'z o'mini ma'no bosqichiga bo'shatib beradi.

Gapirilayotgan fikrlarning qanchalik haqiqatga to'g'ri kelishi, munson bosh miyasida ro'y berayotgan bu jarayonlarni uzil-kesil o'g'riligini isbotlovchi dalillar yo'q. Lekin tibbiyot o'z tarixida, shu davrlardan hozirgi kunda ham ba'zi shaxslarning mavjud fikrlarini ifodalay olmayotganlaridan shikoyat qilishlari ma'lum. Bunday hollarda hamma bemorlarning kasali bir xil emasligi tabiiydir: a'zolari o'z xotiralaridagi so'z boyliklaridan kerakli so'zlarni topa olmaydilar, boshqalari so'zlarni ajratib olsalar ham, ularning morfologik shakllarini aniqlashda qiyinchiliklar sezadilar, uchinchilari intaktik qurilmani tanlashda ojjizlik qiladilar va hokazo.

Hozirgacha biz ikki bosqich to'g'isida fikr yuritdik. Olimlar birinchi ya'ni mazmun bosqichi) bosqichni *chuqur-semantik bosqich*, ikkinchisini (ma'no bosqichi) *tashqi semantik bosqich* deb yuritishadi. bundan keyin niyatni amalga oshirishning uchinchi bosqichi oshlanadi. Bu bosqich *chuqur-sintaktik bosqich* deb nom olgan. Mazkur bosqichda subyekt, obyekt va predikatlarni ifodalaydigan

soʻzlar hamda ushbu modelning sintaktik qurilmasi tanlanadi. Lekin bu soʻzlar va sintaktik qurilmalar, bevosita muloqotga moʻljallangan yakuniy mahsulot boʻlmay ularning umumlashgan obrazlaridir: nazarda tutilgan subyekt, obyekt va hokazolarning ifodalanishi mumkin boʻlgan soʻzlar yigʻindisi – mazkur xabarni ifoda qila oladigan sintaktik qurilmalar majmuasi sifatida namoyon boʻlishidir. Koʻpchilik olimlarning fikricha, bu bosqichdagi jarayon ichki nutqqa toʻgʻri keladi. Soʻzlovchi xabarni bevosita muloqotga chiqarishdan oldin u bu mahsulotni ovozning ishtirokisiz, ichki nutq yordamida qaytarib oladi. Bu narsa yosh bolalarning oʻynayotganda qilayotgan ishini ovoz chiqarib bajarishi bilan teng; mana shu nutq ichki nutqning manbai hisoblanadi; bolalar uni yoshligida ovoz chiqarib taʼkidlashsa, kattalarda bu ovozning ishtirokisiz amalga oshiriladi. Nutqning bu bosqichi eng oddiy sintaktik qurilmadan tashkil topgan boʻlishiga hech qanday shubha yoʻq. Bundan keyingi bosqich tashqi sintaksisdir; bunda soʻzlovchi tomonidan sintaktik qurilmaning uzil-kesil shakli aniqlanadi.

Sintaktik qurilma hal boʻlgach, navbatdagi bosqich boshlanadi. Bu *chuqur morfologik bosqich* deb yuritiladi. Chuqur morfologik bosqichda tanlangan sintaktik qurilmaga mos keluvchi soʻzlarning umumiy morfologik shakli aniqlanadi. Shundan soʻng model keyingi bosqichga tashqi-morfologik bosqichga oʻtkaziladi. Bu yerda dastlabki mazmunni ifoda qiluvchi soʻzlarning morfologik shakli uzil-kesil aniqlanib, uning tarkibiy qismini tashkil etuvchi gaplardagi soʻzlarning morfologik shakllari ham ravshanlashadi. Nihoyat, fonologik va fonetik bosqich ish boshlaydi: fonologik bosqichda mazkur mazmunni ifoda qila oladigan fonemalar ajratiladi; fonemalarning oʻzi bevosita nutqda ishtirok etmaydi; ular nutq tovushlarining umumlashgan koʻrinishidir. Shuning uchun mazmun bevosita nutqda namoyon boʻlishi uchun konkret nutq tovushlari fonema (til tovush) larining oʻrmini egallaydi. Endi koʻzda tutilgan mazmun bevosita muloqotga chiqishi va tinglovchi eʼtiboriga havola qilinishi mumkin.

Nihoyat, nutqning yaratilish modelini koʻrsatishimiz mumkin: *niyat (motiv) → chuqur semantik bosqich → tashqi semantik bosqich → chuqur sintaktik bosqich → tashqi sintaktik bosqich → chuqur morfologik bosqich → tashqi morfologik bosqich chuqur tovushlar bosqichi yoki fonologik bosqich va nihoyat fonetik bosqich.*

Turli eksperimentlar yo'li bilan zamonaviy psixologik tilshunoslik avsiya etadigan model ana shu. Tabiiyki, ilm-fanning rivojlanishi bilan bu model kelajakda yanada takomillashishi mumkin.

Keltirilgan nazariyani bir niyat (motiv) misolida ko'rib chiqaylik. Masalan, *Ertaga biz toqqa chiqamiz*, degan xabarni tinglovchiga etkazish niyati tug'ildi, deylik. Chuqur semantik bosqichda hali arkibiy qismlarga ajratilmagan umumiy mazmun paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda endi so'zlovchi umumiy mazmundan til bilan bog'liq bo'lgan «subyekt», «obyekt» kabi tarkibiy qismlarni ajratadi. Bu tushunchalarni tilga oid deyishimizga sabab, ular til yordamida ajratiladi. Uchinchi bosqichda ikkinchi bosqichda aniqlangan subyekt, obyekt, predikatlar xotiradagi so'zlar va nazmunni ifodalashga mos keladigan umumiy mavhum sintaktik qurilmalar tanlanadi. So'z va sintaktik konstruksiya konkret bo'lmasdan, balki subyekt, obyekt va hokazolarni ifoda qila oladigan il vositalari yig'indisi, mazkur mazmunga mos keladigan barcha sintaktik qurilmalar aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda esa konkret so'zlar va konkret sintaktik qurilma ajratib olinadi (sodda yoyiq gap va bu gapni tashkil etuvchi *biz, tog', erta, chiqmoq* so'zlari). Keyingi bosqichda so'zlarning umumiy morfologik shakli aniqlanadi (*biz* so'zi bosh kelishikda, *tog'* so'zi jo'nalish kelishikda, *chiqmoq* fe'li hozirgi-kelasi zamon shaklida va hokazo). Oltinchi esa morfologik shakllarning tanlangan so'zlarga mos kelgan vositalari belgilanadi (*biz*, nol qo'shimcha bilan, *tog'* so'ziga o'nalish kelishigidagi *-ga, -ka, -qa* qo'shimchalarida oxirgisi, ya'ni *qa* tanlab olinib, *tog'* so'zidagi oxirgi «g'» tovushini «q» bilan almastirib qo'shimcha tayyorlaniladi va hokazo). Shundan so'ng ovushlar bosqichiga o'tilib, dastlab fonemalar, keyin esa konkret nutq tovushlari va morflar yordamida *Ertaga biz toqqa chiqamiz* legan gapni ovoz hamda nutq organlari ishtirokida talaffuz qilamiz.

Qayd etilgan jarayonda evristik va algoritmik hodisalar ko'plab ictirashiga hech qanday shubha yo'q; bunday hodisalar har bir bosqichda o'z aksini topib, barcha talablarga javob beradigan to'g'ri natn yaratilishiga o'z hissalarini qo'shishadi.

Evristik va algoritmik jarayonlar to'g'ri matnlar yaratilishiga xizmat qiladi. Yaratilgan matnning to'g'rilik ko'rsatkichi ushbu

matnni tinglovchi tomonidan soʻzlovchi nazarda tutganidek tushunilishidir. Baʼzan soʻzlovchi tomonidan fikr yaxshi ifodalanmagan ham boʻlishi mumkin, bunday hollar turli bosqichlardagi evristika va algoritmlarning yoʻl qoʻygan kamchiliklari natijasi deb qaraladi. Shunday voqea sodir boʻlganda tinglovchi qoʻshimcha savollar bilan bu kamchiliklarni bartafar qilishi mumkin.

Endi nutqning tinglovchi tomonidan tushunilishi yoki idrok qilinishi masalasiga oʻtamiz.

Nutqning idrok qilinishi

Soʻzlovchi tomonidan yaratilgan matn talaffuz qilingach, havo toʻlqinlari orqali tinglovchining qulogʻiga yetib keladi. Ana shu ondan boshlab nutq tovushlari birikmasidan tashkil topgan matn soʻzlovchining jamiyatdoshi tomonidan idrok qilina boshlaydi. Idrok qilish ham uzundan-uzoq bir murakkab jarayonni tashkil qiladi. Tinglovchining oldida turgan vazifa bir toʻda tovushlar birikmasidan uning asosida yotgan mazmuni chiqarib olib, unga yo nutqiy, yo jismoniy javob qaytarish, yoxud murojaatni eʼtiborga olib qoʻyishdir. Demak, bu yerda gap «matn mazmun» modelining tafsilotlarini aniqlash toʻgʻrisida boradi.

Matnni idrok etish masalasiga yondashishda olimlarning fikri bir xil emas. Shulardan eng keng tarqalgani ikkita: *birinchisi* – nutq yaratilishining aks jarayoni (yaʼni: matn → fonetik-fonologik bosqich → morfologik bosqich → sintaktik bosqich → semantik bosqich → mazmun); *ikkinchisi* – sintez orqali tahlilga oʻtish. Bu fikrlarning birinchisi toʻgʻrisida gap borganda ham tilshunos, ham psixologlar uning ijobiy tomonlarini hamda izchilligini taʼkidlash bilan birga, uni haqiqatdan ancha uzoq boʻlgan ilmiy faraz deb bilishadi. Chunki muloqot vaqtida paydo boʻladigan matn asrab, saqlab qoʻyiladigan mulk boʻlmay, u odatda amaliy nuqtai nazardan hozirjavoblikni talab qiladi (bu narsa yuqorida aytganimizdek, yo jismoniy, yo nutqiy boʻlishi mumkin). Shunday ekan, nazarda tutilgan yoʻl bilan matnni idrok etish talay vaqtni talab etadi. Agar tinglovchining mazkur signalga javob qaytarishi hisobga olinsa, unda bunday muloqot gʻayritabiiy boʻlib qolishi xavfi tugʻiladi. Avval taʼkidlanganidek, inson kundalik hayotida

kuchini, vaqtini doimo tejamlilik sarf qiladi. Bu jihatdan ham birinchi fikr to'g'ri emasligi ko'rinib turibdi. U tejamlilik prinsipiga ziddir.¹ Shuning uchun ko'pchilik olimlar ikkinchi fikrni maqsadga muvofiq deb topishdi. Bu nazariya qator tadqiqotlar asosida yuzaga kelgan. Mazkur nazariyaga ko'ra so'zlovchi talaffuz qilgan tovushlar birikmasi tinglovchining eshitish organlari tomonidan qabul qilingach, u butunligicha idrok qilish jarayonining semantik bosqichiga tushadi. Ma'lumki, inson o'z hayot tajribasida minglab bunday matn va mazmunlarni eshitgan, ular xotirada umrbod saqlanadi. Shunday ekan, eshitilgan tovushlar birikmasini idrok etishda evristik jarayonlar ishga tushadi. Inson o'ziga yo'naltirilgan matnning har bir ishtirokchisini ayrim-ayrim idrok etmay, undagi asosiy g'oyalarni ajratib olib, ularni bir-biriga bog'laydi va yagona mazmun yaratadi. Shuni ham aytish kerakki, hamma vaqt bu jarayon bir xil osonlikda ko'chmay, ba'zida sintez boshqa bosqichlardagi chuqur tahlil yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu narsa so'zlovchi va tinglovchining jamiyatda tutgan o'rni, mutaxassislik sohasi, yoshi kabi bir qancha jihatlarga bog'liqdir. Gap shundaki, har qanday matnda qayta-qayta takrorlanib keladigan birliklar bo'ladi. Bunday birliklar nutqda qancha ko'p bo'lsa, uni tushunish shuncha oson va, aksincha, ularning soni qancha kam bo'lsa, bu matnni tushunish shuncha qiyin kechadi. Hayot tajribasi natijasida yig'ilgan va xotirada saqlanadigan axborotni yaxlit bir matn deb bilsak, ana shu matnda, tabiiyki, ba'zi tarkibiy qismlar bir necha yuz marta qaytarilgan bo'ladi. Yangidan eshitilgan matnda ana shular qaytarilsa, idrok etishning semantik bosqichining o'zida biz yakuniy mazmunni chiqarib olishimiz mumkin, unda boshqa bosqichlarga murojaat qilishga to'g'ri kelmaydi. Lekin suhbatdosh aytgan matnda «...*Glaciers are receding. Oceans are rising. Alaska is thawing*» («USA Today») kabi gap uchrasa, unda tinglovchining meteorologiya va astronomiya kabi fanlardan xabari bo'lmasa, bu gapning mazmunini u har bir bosqich tahlilidan o'tkazishga majbur bo'ladi, unga evristik tadbirlar yordam

¹ Shuni ham yodda tutish kerakki, har qanday tejamlilikning chegarasi bor. Agar tejamlilik atrof-tevarakni. bizni o'rab turgan muhitni to'g'ri tushunishimizga g'ov bo'lsa, unda inson bunday tejamlilikdan voz kechadi, maqsadni amalga oshirish uchun har bir kishida yetarli sabr, kuch va qobiliyat bor.

bera olmaydi, tinglovchining algoritmgaga murojaat qilishiga to'g'ri keladi, chunki tinglovchi xotirasida bunday tajriba o'z aksini topmagan. Xulosa shuki, inson tomonidan matnni idrok qilish birligi doimo bir xil emas. Bu narsa suhbatdosh hayot tajribasining boyligi, cheklangan yoki cheklanmaganligi bilan bevosita bog'liqdir. Matn mazmunining yechilishida hal qiluvchi birlik sifatida bo'g'in, so'z, so'z birikmasi, gaplar, gap birikmalari ishlatilishi mumkin. Odatda, tinglovchi bu birliklarning eng kattasidan boshlaydi.

Shunday qilib, nutqni idrok qilish nutqning yaratilishiga o'xshagan mavhumlikdan aniqlikka qarab intiluvchi bosqichlar sistemasi bo'lmay, u har bir yangi matnning xususiyatiga qarab o'zgarib turuvchi modelni tashkil etadi. Lekin uning dastlabki ikki pog'onasi aniq, o'zgarish esa keyingilarida ro'y berishi mumkin: *matn* → *semantik bosqich* → *mazmun yoki matn* → *semantik bosqich* → (*sintaktik bosqich* → *morfologik bosqich* → *fonologik va fonetik bosqichlar*) → *mazmun*.

Psixologik tilshunoslik bayon etilgan masalalardan tashqari bir qancha yirik muammolarni hal qilishda ham bevosita ishtirok etadi. Xususan tinglovchining nutq tovushlari, morflar, so'zlar, so'z birikmalari, gaplar kabi til birliklarini idrok qilishning psixolingvistik asoslarini har xil amaliy tadqiqotlar yordamida yoritib beradi. Psixologik tilshunoslik o'z oldida turgan masalalarni hal etishda tilshunoslik, fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot kabi fanlar erishgan yutuqlarga tayanib ish olib boradi. Mazkur fanning bu yerda bayon etilgan tasnifi o'ta ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan.¹

¹ Qo'llanmaning bu bobini yozilayotganda quyidagi adabiyotlardan keng foydalanildi:

Выготский Л.С. Мышление и речь. –М.: 1934.

Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. –Л.: 1972.

Леонтьев А.А. Слово в речевой деятельности. –М.: 1965.

Касевич В.Б. О восприятии речи “Вопросы языкознания”. –М.: 1974.

W.O'Grady, Dobrovolsky M. , M.Aronoff “Contemporary Linguistics”. New York, 1997. 415-471- betlar.

Foley W.A. Trends in Linguistics. The Role of Theory in Language Description. Berlin, New York. 1993.

Р.К.Потапова, В.В.Потапов. Язык, речь, личность. Языки славянской культуры. –Москва: 2006.

Amaliy darslarda muhokama qilish hamda mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Psixologik tilshunoslik qanday masalalarni o'z ichiga oladi?
2. Til to'g'risidagi tilshunoslar modeli bilan psixolog-olimlar modeli orasida farq bormi?
3. Algoritm va evristika atamaları to'g'risida gapirib bering va ularning psixolingvistik tadqiqotlardagi o'rnini tushuntiring.
4. Psixolingvistikadagi uchta bir-biri bilan uzviy bog'langan jarayonlar modellari to'g'risida gapirib bering. Imkoni boricha, hayot tajribangizdan misollar keltirib, o'z fikringizni asoslang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Abduazizov A.A.** Hozirgi zamon ingliz tili nazariy fonetikasi. – Toshkent: 1986.
2. **Azizov O.A.** Tilshunoslikka kirish. – T.: 1963.
3. **Ахманова О.С.** Словарь лингвистических терминов. – М.: 1969.
4. **Т.В. Агутина.** Порождение речи. Издательство Московского университета. – Москва: 1989.
5. **Birlashgan Millatlar Tashkiloti.** Asosiy omillar. BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi. – Toshkent: 2001.
6. **Бенвенист Эмиль.** Общая лингвистика. – М.: 1974.
7. **Boltayev M.** Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlosi. – Samarqand: 2000 y.
8. **Брук С.И.** Население мира. Этнодемографический справочник. – М.: 1986.
9. **Буранов Дж.Б.** Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: 1983.
10. **Во'товов J.B.** Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: 1973.
11. **Бўронов Дж.Б., Юсупов У.К., Ирискулов М.Т., Садыков А.С.** Грамматические структуры английского, узбекского и русского языков. – Ташкент: 1986.
12. **Выготский Л.С.** Мышление и речь. – М.: 1934.
13. **Головин Б.Н.** Введение в языкознание. – М.: 1977.
14. **Ҳоқубов J.A.** Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2005.
15. **Зиндер Л.Р.** Введение в языкознание. – М.: 1987.
16. **Каримов Sh.K.** Tilshunoslikka kirish kursidan praktikum. – T.: 1987.
17. **Кацнельсон С.Д.** Типология языка и речевое мышление. – Л.: 1972.
18. **Касевич В.Б.** О восприятии речи «Вопросы языкознания». 1974.
19. **Кодухов В.Н.** Введение в языкознание. – М.: 1987.
20. **Колабина С.И.** Практикум по курсу «Введение в языкознание» – М.: 1977.
21. **Косовский Б.И., Павленко Н.А.** Общее языкознание. – М.: 1987.
22. **Леонтьев А.А.** Слово о речевой деятельности. – М.: 1965.
23. **Маслов Ю.С.** Введение в языкознание. – Москва: 1975.
24. **Mahmudov N.** Til va jamiyat. – Toshkent: 1998.
25. **Мечковская Н.Б.** Общее языкознание. Структурная и социальная типология языков. – Москва: «Наука», 2001.

26. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. –Toshkent: 1978.
27. Никольский Л.Б. Синхронная социолингвистика. –Москва: 1976.
28. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent: «O'zbekiston», 2002.
29. Общее языкознание. Ответственный редактор Б.А. Серебренников. –Москва: 1972.
30. Omonturdiyev A. O'zbek nutqining evfemik asoslari. –Toshkent: 2000.
31. Omonturdiyev A. O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati. –Toshkent: «Fan», 06.
32. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Ответственный редактор. Б.А. Серебренников. –Москва: 1973.
33. Петрухин В.Н. Введение в языкознание. Руководство к работе над курсом. –Москва: 1984.
34. Потапова Р.К., Потапов В.В. Язык, речь, личность. –Москва: 2006.
35. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. –Ташкент: «Фан», 2005.
36. Реформатский А.А. Введение в языковедение. –Москва: 1967.
37. Роджер Т. Бедл. Социолингвистика. –Москва: 1989.
38. Рождественский Ю.В. Введение в общую филологию. –М.: 1979.
39. Рождественский Ю.В. Лекции по общему языкознанию. –Москва: 1990.
40. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: «Sangzor» nashriyoti, 2006.
41. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Т.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat nashriyoti, 2008.
42. Серебренников Б.А. О материалистическом подходе к явлениям языка. –Москва: «Наука», 1983.
43. Синтаксис текста. Под ред. Золова. –М.: 1979.
44. Sodiqov A.S., Abduazizov A.A., Iriskulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: 81.
45. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. –М.: 1975.
46. Фердинанд де Соссюр. Заметки по общей лингвистике. –Москва: 1990.
47. Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция моделирования гендерной языковой личности. –Москва-Кемерово: 2003.
48. Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание. –Ташкент: 1990.
49. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. –Москва: 78.
50. Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. –Ташкент: 1986.
51. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. –Ташкент, «Фан», 2007.
52. Qo'chqortoyev I., Qo'chqortoyeva R. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: 1976.
53. Qo'chqortoyeva R. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: 1976.
54. Akmajian A., Demers R., Former A., Harnish R. An Introduction to Language and Communication. The MIT Press-Cambridge. 1990.

55. **Crystal D.** English as a Global Language. Cambridge University Press. 2003.
56. **Duranti A.** Linguistic Anthropology. Cambridge University Press. 2001.
57. **Lockwood D.** Introduction to Stratificational Linguistics. New York. 2002.
58. **Foley W.A.** Trends in Linguistics. The Role of Theory in Language Description. Berlin, New York. 1993.
59. **O'Grady W., Dobrovolsky M., Aronoff M.,** Contemporary Linguistics. New York. 1997.
60. **Sharada Prasad.** «What if our languages don't survive?» The Asian Age. New Delhi. January 19, 2005.
61. **Schmidt R.** Language Policy and Identity Policies in the United States. Temple University Press. Philadelphia. 2000.
62. **Weisler S.E. and Milekic S.** Theory of Language. The MIT Press. Cambridge. 1999.
63. **Widdowson H.G.** Linguistics. Oxford University Press. 2004.

MUNDARIJA

IRISH	3
BOB. TILSHUNOSLIK FANINING O'RGANILISH SOHASI	
VA MAVZUSI	5
il – ijtimoiy hodisa	7
I BOB. TILNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI	10
ilning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy farazlar	11
illarning shakllanishi va rivojlanishi	13
II BOB. TIL VA NUTQ YARUSLARI	19
ONOLOGIYA VA FONETIKA	19
lutqning fonetik jihatdan bo'linishi	19
o'g'in	22
lutq tovushlari	25
on va fonema	26
lutq organlari va artikulyatsiya bazasi	29
lutq tovushlarining tasnifi	30
UPRASEGMENT ELEMENTLAR	34
lutq tovushlarining o'zgarishi	36
ovushlarning moslashuvi	37
ovush va harf	39
III BOB. MORFOLOGIYA	42
lutqni eng kichik ma'no anglatuvchi birliklarga ajratish	42
FORF VA MORFEMA	43
forflarning turlari	44
O'Z MODDIY TARKIBINING O'ZGARISHI	46
oddalashuv	47
layta tuzilish	48
furakkablashuv	50
BOB. GRAMMATIK MA'NO	52
ilning grammatik tarkibi (strukturasi)	54
ffiksatsiya	55
hang	55
akror (reduplikatsiya)	58
shki fleksiya	59
suppletivizm	60
ordamchi so'zlar	61
o'z tartibi	63
INTETIK VA ANALITIK VOSITALAR. SINTETIK VA ANALITIK	
TILLAR	64
I BOB. GRAMMATIK KATEGORIYA TUSHUNCHASI	68
grammatik kategoriya turlari	69
SOSIY GRAMMATIK KATEGORIYALAR	72

Grammatik jins kategoriyasi	72
Grammatik son kategoriyasi	75
Kelishik kategoriyasi	78
Grammatik zamon kategoriyasi	80
VII BOB. SO‘Z TURKUMLARI	86
Strukturalizm va so‘z turkumlari muammosi	89
Tillarda so‘z turkumlari	92
VIII BOB. LEKSIKOLOGIYA	96
So‘z – leksikologiyaning o‘rganish mavzusi va tilning asosiy birligi	97
So‘z va tushuncha	103
Leksik ma‘no va uning turlari	104
Leksik ma‘noning kengayishi va torayishi	108
SO‘ZLARNING MA‘NO MUNOSABATLARIGA KO‘RA TURLARI	109
·Sinonimlar	109
Omonimlar	110
Antonimlar	112
Tabu va evfemizm	114
TILLARNING LUG‘AT TARKIBI	117
So‘z yasash	119
Leksikografiya	121
Frazeologiya	124
IX BOB. SINTAKSIS	129
Gap sintaksisi	130
Gap	130
GAPNING TURLARI	133
Gaplarning tuzilish jihatidan turlari	133
Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari	135
Gapning hamma bo‘lamlari mavjudligi nuqtai nazaridan turlari	137
GAP BO‘LAKLARI	138
SO‘Z BIRIKMALARI	141
Sintaktik munosabat turlari	141
Sintaktik munosabat vositalari	144
Gapning aktual bo‘linishi	145
X BOB. KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK	149
MATN TILSHUNOSLIGI	150
Matnning ta‘rifi va birligi masalalari	150
Matni tashkil etuvchi birliklar	153
Matnning tarkibi	154
Matndagi sintaktik bog‘lanish vositalari	156
Matn turlari	159
XI BOB. SOTSIOLINGVISTIKA (IJTIMOIY TILSHUNOSLIK)	163
Sotsiologik til tipologiyasi	170
KOGNITIV TILSHUNOSLIK	175

I BOB. TILLARNING TIPOLOGIK TASNIFI	178
yosiy tipologiya	180
metik tipologiya	184
Hind-ovrupo tillari oilasi	185
Turkiy tillar oilasi	186
Fin-ugor tillari oilasi	188
Som-xom tillari	189
Kavkaz tillari oilasi	189
Xitoy-tibet tillari oilasi	189
orfologik tipologiya	190
II BOB. LINGVISTIK TAHLIL METODLARI	200
top bo'laklari metodi	200
saxriy-qiyosiy metod	202
substitutsiya metodi	204
distributiv metod	204
vosita ishtirok etuvchilarga ajratish metodi	206
ansformatsion metod	207
statistik metod	209
a'no komponentlarini tahlil qilish metodi (definitson tahlil)	210
V BOB. FIKR ALMASHUV EHTIYOJINING TILLAR	
TARAQQIYOTIGA TA'SIRI	215
dqlqaro sun'iy tillar	217
/ BOB. YOZUV. YOZUVNING PAYDO BO'LISHI	220
dctografik yozuv	221
deografik (logografik, iyeroglifik) yozuv	221
dnografik yozuv	224
RAFIKA	226
RFOGRAFIYA	227
YOZUVNING MAXSUS TURLARI	230
/I BOB. TILNING SISTEMALIK XUSUSIYATI	235
/II BOB. TIL VA TAFAKKUR	241
/III BOB. PSIXOLOGIK TILSHUNOSLIK	246
lni o'zlashtirish	248
ltniqning yaratilishi	249
ltniqning idrok qilinishi	254
YOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:	258

Ilmiy-uslubiy nashr

M.T. IRISQULOV

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

Darslik

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Texnik muharrir

Vera DEMCHENKO

Musahhih

Ilhom QOSIMOV

Kompyuterda sahifalovchi

Feruza BOTIROVA

Bosishga 08.07.2009 y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1\16.

Bosma tobog'i 16,5. Shartli bosma tobog'i 15,34.

Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 151.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi 278-36-89; Marketing bo'limi 128-78-43

faks 273-00-14; e-mail: yangiasr@inbox.ru